

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VAO'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI**

**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT
INSTITUTI
PEDIATRIYA KAFEDRASI**

**DAVOLASH VA KASBIY TA'LIM FAKULTETI 3 KURS
TALABALARI UCHUN "BOLALAR KASALLIKLARI "
FANIDAN O'QUV USLUBIY MAJMUA 2019-2020 O'QUV
YILI UCHUN**

BUXORO-2018

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI**

**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT
TIBBIYOT INSTITUTI**

PEDIATRIYA KAFEDRASI

O'quv bo'limi tomonidan
ro'yxatga olindi
№ _____ «_____»

2019 y.

“TASDIQLAYMAN”
O'quv ishlari bo`yicha prorektor
t.f.n., dots.

G.J.Jarilkasinova
“_____” _____ 2019 y

**DAVOLASH VA KASBIY TA'LIM FAKULTETI 3 KURS
TALABALARI UCHUN “BOLALAR KASALLIKLARI”
FANIDAN 2019-2020 O'QUV YILI UCHUN O'QUV
USLUBIY MAJMUA**

Ta'lism shifri - 510000 «Sog'liqni saqlash»
Ta'lism yo'naliishi: 5510100 – Davolash ishi
5111000 – Kasbiy ta'lism (5510100 – Davolash ishi)

BUXORO-2019

Tuzuvchi:

Jo‘raeva F.R.- Pediatriya kafedrasи assistenti

Retsenzentlar:

1. Badriddinova M.N.- Ichki kasalliklar, endokrinologiya kafedrasи mudiri, t.f.n
2. Bobojonova Z.H.-Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasи mudiri t.f.n

Kafedra mudiri:t.f.d., dotsent : Navruzova SH.I._____

FMUK rahbari : t.f.d. Obloqulov A.R. _____

Fanning o`quv dasturi Oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi o`quv -metodik birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashining 2018_ yil "_7_ 12"dagi "_1000"-son majlis bayoni bilan ma`qullangan.

Fanning o`quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasida ishlab chiqildi.

Fanning o`quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy-uslubiy kengashida tavsiya qilingan (2019_ yil " __27 mart _____ " 8 "- sonli bayonna) _____

Ushbu ishchi dastur namunaviy o`quv dasturi va o`quv reja asosida davolash ishi yo`nalish bo`yicha tuzilgan va Buxoro davlat tibbiyot instituti markaziy uslubiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Bayonna № _9____ «__26__»____ 04_____ 2019 y.

O`QUV –USLUBIY MAJMUA MUNDARIJASI

	KIRISH	Bet
1		
2	MA'R U Z A №1. Bolalarda pnevmoniya	
3	MA'R U Z A №2. Bronxial astma	
4	MA'R U Z A №3. Bolalarda norevmatik karditlar	
5	MA'R U Z A №4. Bolalarda o'tkir revmatik isitma.	
6	AMALIY MASHG'ULOT №1. Bolalarda o'tkir pnevmoniya Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, qiyosiy tashhisi, davosi va profilaktikasi.	
7	AMALIY MASHG'ULOT №2. Atipik pnevmoniylar. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, qiyosiy tashhisi, davosi va profilaktikasi.	
8	AMALIY MASHG'ULOT №3. Bolalarda bronxial astma. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, qiyosiy tashhisi, davosi va profilaktikasi.	
9	AMALIY MASHG'ULOT №4. Atopik dermatit. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, qiyosiy tashxisi, davolash va profilaktikasi	
10	AMALIY MASHG'ULOT №5. Bolalarda norevmatik karditlar. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, qiyosiy tashxisi, davolash va profilaktikasi.	
11	AMALIY MASHG'ULOT №6. Bolalarda o'tkir revmatik isitma. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, qiyosiy tashxisi, davolash va profilaktikasi	
12	Fan dasturi	
13	Ma`ru`zalar ishchi dasturi	
14	Amaliy mashg`ulotlar ishchi dasturi	

15	Mustaqil ishlar kalendar-tematik rejasi	
16	Amaliy ko'nikmalar	
17	Mavzuga oid test savollari	
18	Foydalaniqan adabiyotlar	

Kirish

Ushbu o'quv - uslubiy majmua umumiyligi amaliyot shifokorini pediatriya fani bo'yicha bolalarda keng tarqalgan kasalliklarning oldini olish, erta tashxislash, samarali davolash, shoshilinch xolatlarda birlamchi tez tibbiy yordam ko'rsatish, zarur bo'lgan xollarda tibbiy muassasalarga yo'llanma berish, turli gurux bemor bolalarga sog'lomlashtirish tadbirdi, dispanserizatsiya va reabilitatsiya o'tkazishni o'rgatish maqsadida tuzilgan. Umumiy amaliyot shifokori bolalar kasalliklarini tashxislash va oldini olish, uy sharoitida, qishloq va shaxar vrachlik punktlari (QVP va SHVP), oilaviy poliklinikalar, klinik tashxislash markazlari, markaziy tuman shifoxonalari, tez yordam punktlarida birlamchi va tez tibbiy yordam ko'rsatish, zarur bo'lgan xollarda tegishli tibbiy muassasalarga qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish va davolash uchun tayyorlanadi.

Pediatriya fanini o'qitishdan kelib chiqadigan asosiy vazifalar bolalarni ratsional ovqatlantirish,

shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish, boshqariladigan yuqumli kasalliklarga qarshi vaksinatsiya o'tkazish, bolalar orasida keng tarqalgan kasalliklarning oldini olish, tashxislash va qiyosiy tashxisot o'tkazish, davolash, zarur bo'lgan hollarda tegishli tibbiy muassasalarga qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish va davolashga yuborish, birlamchi tez tibbiy yordam ko'rsatish va ixtisoslashgan tez tibbiy yordam markazlariga yuborish, reabilitatsiya va dispanserizatsiya ishlarini olib borishdan iborat.

Ushbu o'quv - uslubiy majmua Davlat ta'lif standarti va umumiy amaliyot shifokorini tayyerlash dasturi asosida tuzilgan, tibbiyat oliy o'quv yurtlarining davolash, tibbiy pedagogika, stomatologiya va tibbiy profilaktika fakultetlarining talabalariga bolalar kasalliklaridan ta'lif berish uchun mo'ljallangan. Majmua bolalar kasalliklarining asosiy bo'limlarini o'z ichiga oladi.

Fanning o`quv dasturi Toshkent tibbiyat akademiyasida ishlab chiqildi.

Fanning o`quv dasturi Toshkent tibbiyat akademiyasida Ilmiy-uslubiy kengashida tavsiya qilingan (2019_ yil " _27 _03 _____ " 8 "- sonli bayonнома)

Ma'ruza №1

Ma'ruza mashgulotlarining ta'lim texnologiyasi.

Mavzu	Erta yoshdagи bolalarda pnevmoniya kasalligi
--------------	---

Talim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqtি-2soat	Talabalar soni : 20-60 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish – axborotli maruza
Maruza rejasи	<ol style="list-style-type: none">1. O'tkir zotiljam to'g'risida tushuncha.2. Zotiljamning zamonaviy tasnifi.3. Zotiljamning klinik diagnostikasi.4. O'tkir zotiljamni davolashning zamonaviy uslublari.5. Zotiljamni davolashning effektivligi kriteriyilarи6. O'tkir zotiljam asoratlarini dvaolash.

<p>O'quv mashgulotning maqsadi : Talabalarga erta yoshdagি bolalarda zotiljam kasalligi to'g'risida tushuncha berish. Turli yoshdagи bolalarda nafas olish tizimining o'zgarishlarini baholash. Tekshirish usullari haqida tasavvurga ega bo'lish. Zotiljam kasalligini tashxislab vadavolashni o'rgatish.</p>	
<p>Pedagogik vazifalar:</p>	<p>O'quv faoliyati natijalari:</p>
<p>Talabalariga nafas olish a'zolarini tekshirish usullarini o'rgatish. Erta yoshdagи bolalrda nafas olish tizimining o'zgarishlarini baholay olishni o'rgatish. Bolalarda pnevmaniya kasalligini aniqlay olishni o'rgatish. Zotiljam kasalligini etiologiyasi, patogenezi, klinikasi va davolashini o'rgatish.</p>	<p>Talabalariga erta yoshdagи bolalarda nafas olish tizimining o'zgarishlarini baholay bilishi, nafas olish a'zolarini tekshirish usullarini o'rganishi kerak. Erta yoshdagи bolalarda zotiljam kasalligini aniqlay olishi kerak. Zotiljam kasalligini etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tashxisini va davolashini bilishi</p>

	kerak.
Talim berish usullari	Kurgazmali maruza, suhbat
Talim berish shakllari	Ommaviy jamoaviy
Talim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor
Talim berish sharoiti	UTV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat : savol-javoblar

**M'aruza mashg'ulotining
texnologik xaritasi.**

Ish	Faoliyat mazmuni
-----	------------------

bosqichlari va vaqtĭ	Talim beruvchi	Talim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	<p>1.Mavzu bo'yicha O'quv mazmunini tayyorlash.</p> <p>2.Kirish m'aruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.</p> <p>3.Talabalar O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish .</p> <p>4. O'quv fanini o'rghanishda foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish .</p>	
1.Mavzuga kirish (15 daqiqa)	<p>1. Ma'ruza mashguloti mavzusi, uning maqsadi va vazifalarini tanishtiradi.</p> <p>2.Talabalar O'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2- ilova).</p> <p>3.Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadi da savollar beradi (3-ilova).</p>	Tinglaydilar
2- bosqich Asosiy	<ul style="list-style-type: none"> • 1.Power Point dasturi yordamida slaydlarni 	Tinglaydilar, Yozadilar,

bosqich (55 daqiqa)	<p>namoyish kilish va izoxlash btlan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jixatlarini tushuntirib beradi.</p> <ul style="list-style-type: none"> • 2 Erta yoshdagи bolalarda zotiljam kasalligini slaydlar yordamida tushuntiradi. • 3. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustaxkamlash maqsadi da quyidagi savollarni beradilar: • Erta yoshdagи bolalarda zotiljam kasalligi haqida tushuncha bering.? • Zotiljamni chakiruvchi sabablarni ayting. • Pnevmanianing bolalarda kechish xususiyatlari kanday? • Pnevmaniya kasalligini klassifikatsiyasida 	javob beradilar
------------------------	--	----------------------------

	<p>nimalar yoritilgan?</p> <ul style="list-style-type: none"> • Pnevmaniyyakasalligini etiopatogenetik davolash kanday? • Pnevmaniyaning profilaktikasini olib borishda nimalarga e'tibor berish kerak? 	
3.Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>2. Mustaqili ishlash uchun o'tkir respirator virusli infektsiyalar, pnevmopatiyalar-5 s mavzusini takdim etadi va internet asosida mazkur O'quv materialni o'qib kelish vazifasini beradi.</p>	Savollar beradilar, vazifani yozib oladilar.

M A ' R U Z A matni.

MAVZU: ERTA YOSHDAGI BOLALARDA PNEVMONIYA KASALLIGI.

Zotiljam ,pnevmoniya (grekcha pnevmon - O'pka ; sin. O'pka yalliglanishi)-O'pka ning respirator kismlarining yalliglanishi bo'lib,o'zi aloxida eki biron bir kasallikning asorati bulib kelishi mumkin.O'tkir zotiljam- O'pka parenximasining o'tkir infektsion yalliglanishi bulib nafasning buzilishi va fizikal uzgarishlar bilan tashxislanib, rengtgenogrammada infiltrativ eki uchokli uzgarishlar bilan kuzatiladi.80-yillargacha o'tkir zotiljam bilan har 1000 ta boladan 100-300 ta bola kasallanishi aniklangan. Zamonaviy diagnostika va davolash kriteriyalariga asoslanib xozirda har 1000 ta boladan 4,4 dan 17,0 tasi kasallanishi aniklangan.

TUGMA ZOTILJAM ETIOLOGIYaSI

ANTENATAL infitsirlanish:	INTRANATAL infitsirlanish:
-toxoplazma gondii, rubella,cytomegalovirus -herpes simplex virus,	-streptokokki gruppo` V -C.trachomatis, E.Coli, -Klebsiella spp,

-treponema pallium, -listeria monocitogenes/	-U.urealitica, -M.Hominis
---	------------------------------

Shifoxonadan tashkari zotiljam etiologiyasi

Yoshi	Viruslar	Bakteriyalar
2 xaftadan- 2 oygacha	Rinosintitsialno`y virus, adenovirus, virusы paragrippa	S.aureus,gramne- gativno`e enterobakterii, C.trachomatis
2 oydan- 1 yoshgach a	RS- virus,paragrippa, gripp A i V,adenovirus, rinovirus enterovirus,koron o-virus kizilcha, kizamik, suvchechak	S.pneumoniae,H. influenzae,M.pneumoniae ,C. pneumoniae, S.aureus, S.pyogenes
5-7 yosh	Rinosintitsial virus, paragrippa 3i 1 tipov,gripp A	S.pneumoniae, M. pneumoniae, H.influenzae, C.

	i V, adenovirus	pneumoniae
7 letdan katta	Gripp A i V, paragripp 3 i 1 tipov	M.pneumoniae S.pneumoniae C.pneumoniae

Shifoxona ichi zotiljam etiologiyasi

Bulimlar	Patogenlar
Reanimatsiya, ORIT,xirurgiya	Kukyiringli tayokcha, tillo va epidermali stafilokokki,ichak tayokchali, klebsiella, atsinetobakter, kandida
Onkogematologiya	Kukyiringli tayokcha, tillo va epidermali stafilokokki, enterobakteriya, aspergillyus
Terapiya	Tillo va epidermali stafilokokki, klebsiella
Erta va Kechki zotiljam	Ps.aeruginosaes,S.marsensens,Acinetobak_ter spp., S.aureus, Klebsiella, E.Coli, Candida

Immunkomplementar kasallarda zotiljam kasalligi

Kasallar	patogenlar
----------	------------

guruxi	
Chala to'g'ilgan bolalar	Pneumociysta carinae,Ure Aplazma urealitica
Neytropeniyali bemorlar	Gramnegativlar, enterobakteriyalar,zamburuklar.Kandida lar
Birlamchi xujayra immuntankislik ka uchragan bemorlar.	Pneumociysta carinae,zamburuklar, Kandidalar
Birlamchi gumoral immuntankislik ka uchragan bemorlar.	Pnevmonokokk,stafilokokk,enterobakteri yalar
OITS bilan kasallangan bemorlar	Pnev motsistlar,tsitomegalovirus,tuber ulyoz mikobakteriyalari ,Kandidalar

ZOTILJAMNING ZAMONAVIY TASNIFI.

Hozirgi davrda zotiljam quyidagi xolatlariga qarab tasniflanadi.

1. Morfologik formalariga asoslanib.

uchokli, krupozli, uchokli-birikkan, segmentar, interstitsial. Shuni ta'kidlash lozimki, uchokli-birikkan zotiljam ko'pincha ekssudativ plevrit eki O'pka destruktsiyasi bilan asoratlanadi. Segmentar zotiljamlar esa uzok davom etishga moyil, interstitsial zotiljamlar esa pnevmotsistli pnevmoniyalardan keyin kelib chikadi.

2. Kasallikning kechishiga qarab

o'tkir va chuzilgan. Agar UZ 16 dan 6 oygacha davom etsa chuzilgan deyiladi G` ko'pincha segmentar formalariG`.

3. Kasallikning paydo bo'lish joyiga qarab

shifoxonadagi zotiljam va shifoxonadan tashkarida paydo bo'lган eki uydagi zotiljam ajratiladi. Bunga perinatal zotiljamlar xam kiritilgan bulib, antibiotik tanlash uchun muxim axamiyatga ega. Shifoxonadan tashkarida zotiljamni chakiruvchilar:

pnevmonokoklar, stafilokokk, Hemofilus influensae, streptokokk, mikoplazma, Chl. pnevmonia, legionella, viruslar. Shifoxonadan tashkari perinatal zotiljamni Chl. trachom, pnevmotsistlar, ureaplasma, sitomegaloviruslar chakirishi mumkin. Shifoxona

ichidagi zotiljamlarni ko'p xollarda: stafilokokk, Hemof.influensae, E.coli, Brachomella, Pseudomonas, Serrata, proteylar, viruslar. Immunodefitsit xollarda - bakteriyalar, pnevmotsistlar,zamburuglar, mikobakteriyalar, sitomegaloviruslar chakiradi.

Shifoxonadagi infektsiyalar ko'pincha shifoxona ichidagi respirator-virusli infektsiyalar asosida rivojlanib, ko'pincha 1 eshgacha bo'lgan bolalar kasallanadi. Shifoxona ichidagi zotiljamlar ko'pincha 2 guruxdagi kuzgatuvchilar bilan chakiriladi. Birinchi - shifoxonadagi flora, ko'pincha antibiotiklarga rezistent bo'ladi .Masalan: klebsiellalar, proteylar, psevdomonazlar, kuk yiringli taekchalar.

Ikkinchisi kasalning -burun va ogiz Halqum autoflorasi.Shifoxonadagi flora bilan yo'q tirlishi ko'pincha ingalyatsion preparatlar ishlatganda va manipulyatsiyalarda G`kateterizatsiya, endoskopiyadaG`

4.ASORATLARIQ qarab asoratlangan va asoratlanmagan pnevmoniyalarga bulinadi. Asoratlanganga: toksikoz,kukpnevmoniyali plevrit, metapnevmonik plevrit, DVS-sindrom,infektsion-toksik shok, 2lamchi O'pka shishi,pnevmotoraks.

3.Klinik diagnostikasi.ORVI bilan difdiagnostikasi va klinik diagnostikasini aniklash kiyin chunki ORVIga xos patognomik belgilari aniklanmaydi.

Kuyida O'tkir zotiljamni taxmin kiluvchi bir kancha simtomlar berilgan:

1.TEMPERATURA . Tana har oratining febrilgacha kutarilishiG`36,5SG`. Kasallikning birinchi kunlari xuddi ORVI kabi kuzatiladi.Lekin 38 dan past har orat UZ da kam uchraydi. 3 sutkadan ko'p febrilitet UZ uchun xos .URVI da bu xolat 20 protsentda uchraydi.

2.Hansirash. Nafas chastotasi zotiljamda quyidagilar:

EShI	bir minutda nafas olishi.
To'g'ilgandan - 2 oylikgacha	60 dan ko'p
2-12 oylik	50 dan ko'p
1-5 yoshda	40 dan ko'p

Bu kursatkichlar obstruktiv bronxit va stidorni xisobga olmaganda tugri.Chunki mexanik tuskinliklar nafas olishni tezlashtirishga olib keladi.Hansirash erta eshli bolalarda UZning o'tkir uchogli va interstsial xolatlarida uchraydigan belgilaridir.

3. ko'krak kafasining kengayishi. BuUZning ogir formalarida uchraydi.

4.Obstuktiv bronxit Fakat shifoxona ichida zararlanganda sodir bo'ladi .

5.Xirillashlar.Bulinadi : xul ,quruq , ko'p lab.Ular UZning belgilari xisoblanmaydi.

6.Tsianoz.Fakatgina ogir pnevmoniyalarda uchraydi.Nafas etishmovchiligi bilan kechgandagina.

7. TOKSIKOZ.Bu jamlashtirilgan tushuncha bulib kasallik kechishi ogirligidan dalolat beradi.Belgilarni:Kuchli kuzgaluvchanlik,xushini yo'q otish, suyo'q lik ichishdan bosh tortish bolani tezda gospitilizatsiyaga olib keladi.

8. QON NING UZGARISHI.L-10.G`-6G` :
SOE10mmG` chdan katta.leykoformula chapga siljigan:tG` ya 5:2-10 neytrofillar: Bu kursatgichlar kasal bolalarning kasallikning boshlanishida bo'ladi .

3-gurux kasallarni ajratib loish lozim.

Birinchisi-Febril har orat bilan 3kundan oshik. ko'krak kafasining mag`lum joylarini kengayishi.Bu kasallarning 80 foizida rntgenologik uzgarishlar kuzatiladi.

Ikkinci-1-chi gurux belgilari bulmagan bolalar xisoblanadi. Bunda xakim lokal va fizikal belgilardan foydalanadi.

Uchinchi guruxga - bolalarda lokal simptom belgilari bulmaydi.

HOZIRGI ZAMON DAVOLASH USULLARI

Chakaloklar PNEVMONIYaSINI ANTIBAKTERIAL TERAPIYaSI

Pnevmoniya formasi	etiologiya	Tanlangan dorilar	Alternativ dorilar
Tugma pnevmoniya	Streptokokki gr V,S, D, ichak tayokchalari, klebsiella,sta filokokki,list erii,mikoplamza, ureaplazma, blednaya spiroxeta s virusami i gribami Kandida, anaerobы	Amoksatsillin Qaminoglikozid; AmpitsillinQa minoglikozid	tsefotaksimQa minoglikozid tseftazidimQa minoglikozid eritromitsin,azitromitsin, penitsillin,ekzartsillin metronidazol,linkomitsin
IVL bilan Assotsirlangan erta pnevmoni	Usha	usha	Usha

ya			
IVL Bilan assotsirla ngan kechki pnevmoni ya	Psevdomona do` ,serratsii, klebsiello` , stafilokokki, mikoplazma, xlamidiya	TseftazidimQA G; TsefapirozonQ AG; AzlotsillinQA G PiperatsillinQA G	Vankomitsin Karbopenemo` Eritromitsin, azitromitsin,mi dekamitsin,difl yo'q an,trimetaprim- sulfosalozol, Rifampitsin Tekoplamin

Shifoxona ichidagi pnevmoniyanı davolashda birinchi
ANTIBIOTIKning tanlanishi

Pnevmoniya boshlanguncha terapiya utkazilishi	Tavsiya etiladigan davo
davolanmagan	penitsillin,ampitsillin vG`m
Penitsillin	oksatsillin,linkomitsin,ts efalosporin ino` 1go pokoleni
Tsefalosporin 1go pokoleniya gentamitsin,dr aminoglikozid	Penitsillin,ureidopenitsil lin
Gentomitsin	aminoglikozo`do`.

	Sefalos porino` 3-4go pokoleniya, xinolino`
Kombinirlangan:zambururugga karshi	tsefalosporino` 3-4go pokoleniya,ureidopenitsillin va aminoglikozidlar
ureidopenitsillin,rifampitsin;a minoglikozidlar katta dozalarda	gentomitsin do 15mgG`kgG`sut yoki amikotsin 30-50mgG`kgG`sut

Выбор startovogo preparata pri lechenii vnebolnichnoy pnevmonii u detey v vozraste do 6 let

Vozrast, forma pnevmonii	etiologiya	Startovyyu preparat	Zamena pri neeffektivnosti
1-6 mes., tipichnaya	Koli inf, enterob.staf Pnevmonia	Vnutr:защищенный penitsillin v/v,v/mampi tsillin+oktsat sillin, защита penitsillin ili	v/v,v/m:sefuroksim, seftriakson, sefatoksim, dr aminoglikozid, linkomitsin, vankomitsin, karbopenemey

		sefazolin	
1-6 mes., atipichnaya	Klostr.mik oplazma,ur eapl	Vnutr – makrolid	Vnutr: ko-trimaksazol
6 mes-6 let,tipich. neoslojne	pnev mokok k	Vnutr:amoks atsillin, ospen, makrolid	Vnutr:zaq.penits sefalosporin 2-pokoleniya,v/v, v/m penitsillin, sefalosp.2-3 pokolen

Ma'lum sharoitlarda UZni davolash yaxshi natijalar bilan kechadi.

Asoratlangan UZ toki o'tkir belgilar tugaguncha davom etadi.SOEning oshishi va rentgenologik uzgarishlar uyga javob berishga tuskinlik kilmaydi.Agar bolada URK bo'lsa va bu kasalga antibakterial terapiya utkazilaetgan bo'lsa UZ tashxisi aniklanmasa bu terapiya tuxtililadi.

DAVOLASH EFFEKTIVLIGI KRITERIYLARI.

1.Tulik effekt :Tana har oratining 38 dan tushishi,24-28 sutka mobaynida asoratlanmagan vaktda va asoratlanganda 3-4 sutka mobaynida. Ishtaxasining yaxshilanishiva hansirashining kamayishi bunga kiradi.

2.Chala effekt:febril tana har orati saklangan 24-28 sutka mobaynida. Lekin klinikada yaxshilanish kuzatilmokda va rentgeniolgik uzgarishlar bulmaganda.

3.EFFEKTNING YO'Q LIGI: febrillik saklangan xolda bolaning umumiy axvoli emonlashadi va O'pka da patologik uzgarishlar saklanadi.

Effektning yo'q ligiva chala effekt qayta rengenologik tekshirishlar talab qiladi. Ekssudat mikdori ko'p ayganda- prevral punktsiya kilinadi.

Effekt bulmaganda antibiotikni uzgartirish kerak.

O'TKIR ZOTILJAMDA ANTIBAKTERIAL PREPARATLARNI TANLASH.

ERTA EShLI BOLALAR.

1Shifoxonadan tashki pnevmoniya.G`Vnebolnichnaya pnevmoniya.

1.Gudaklarga 6 oygacha uchogli va uchogli-kushilgan protsesslarda ampioks tavsiya etiladi. Agar effekt bermasa aminoglikozid bilan sefalosporin 1-3chi avlodи beriladi. M: gentamitsin kefzol bilan.

1.2 6oydan 4eshgacha penitsillin. Asoratlanmagan pnevmoniyada ampitsillin,baktrim beriladi .Asoratlanganda penitsillin muskul orasiga.

1.3 4eshdan katta bolalarda mikoplazmaliva xlamidiyli etiologiya ko'p uchraydi.Shuning uchun oral makrolidlari

G`oleondomitsin, eritromitsin, parenteral linkomitsin beriladi.

Ogil xollarda, chuziluvchan pnevmoniyalarda antibiotiklar bilan birga kortikosteroidlar beriladi.

Bir sutkada antibiotiklarni 2marta yuborish mumkin. Organizmda uning mikdori uzok saklanadi

ASORATLANGAN PNEVMONIYaNi DAVOLASH.

1. Suv balansining buzilishi. Bunda terining quruq ligi, Suvsizlanish, oligouriya xollari kuzatiladi. Shuning uchun oral gidratatsiya kullaniladi. M: Oralit, Regidron kiradi. Umumiy suyo'q lik 2-2,5l dan oshmasligi kerak.

Agar yutish refleksi bulmasa nazogastral zond bilan yuboriladi.

2. Nafas etishmovchiligi. Bu xolda kislorodo terapiya burun kateteri orqa li utkaziladi.

3. Yurak-tomir etishmovchiligi.

Kardiotoniklar yuboriladi. Korgliqon, strofantin, digoksin utkaziladi.

4.O'pka shishi. Bu xolda infuzion terapiya darxol tuxtiladi eki 15-20mlG`kg ga kamaytirilib kolloidlarning 3dan 1kismi G`reopoliglyo'q in yuboriladi.

5.DVS .mikrotsirkulyatsiyaning buzilishi, ogir xollarda, okarish kuzatiladi. Tavsiya etiladi: heparin, reropoliglyo'q in 15-20mlG`kg vG`i, 4%li soda, 20mg

ga yakin kortikosteroидлар, gordoks 5000EDG`kg,qon trikal 1000EDG`kg.

DAVOLASHNING BOSHKAL TURLARI.

1.Ovkatlanish va rejim.

Gudaklarda ko'krak bilan emizish davom ettiriladi.Agar ishtaxasi yaxshi bo'lsa vitaminlar tavsiya etilmaydi.Kasallikning kechishi uzok vakt davom etsa adekvat enteral ovkatlanriladi.Plazma va albumin yuboriladi.

Balgam chikaruvchi terapiya. Preparatlardan: termopsis, altey, solodkalar damlama xolda beriladi.

2.Gorchichnik va bankalar.Ular deyarli spesifik tasir kursatmaydi.

3.Fizioterapeutik muolajalar. ko'krak kafasiga antibiotikoterapiya effektini oshirmaydi va surilishiga xam tasir etmaydi.

4.Gistaminga karshi preparatlar. Pnevmoniyaning kechishiga tasir kilmaydi.

5.Kortikosteroид preparatlar.Fakat immunopatologik asoratlarda kullaniladi.

6.Nosteroid yalliglanishga karshi preparatlar.Xuddi shunday immunopatologik asoratlarda kullaniladi.

7.Pnevmoniya kuzgatuvchisi anik bo'lganda kullaniladi.

8.Gemotrasfuziya. O'tkir qon ketganda kullaniladi.

9.Bronxoskopik sanatsiya. O'tkir xollarda anaerob flora tushib kolmasligi maqsadi da kilinmaydi.

Oxirgi ma'lumotlar:

Bolalar urtasida kasalxona zotiljami hozirgi davrda muxim muamolardan biri xisoblanadi. Kasalxona zotiljami kasalxona xastaliklari ichida keng tarkalgan xisoblanib, bu kasalliklar ichida ulimga olib keluvchi sabablari bilan birinchi urinda turadi.

Kasalxona zotiljami zotiljam sifatida aniklanib, kasalxonaga tushgandan sung 41 soatdan va undan ortik soatdan sungbemor bola kasalxonaga tushganda kandaydir yo'q umli kasallik inkubatsion davri bulmaganda kayd kilinishi lozim bo'lgan kasalliklar katoriga kirmaydigan kasallikdir. UBN bilan qon ni nurlash natijasida aloxida nafas etishmasligi klinik belgilari yo'q olishi bemorlarda reanimatsiya bulimida etgan xolda uz samarasini berdi.

UBN bilan bemor qon ini nurlash natijalarini aniklash maqsadi da 12 bolada katamnestik xolat urganildi va ijobiy natijalar berdi. Bu esa kasalxona zotiljami bilan ogrigan bemor bolalarda uni kengrok kullash kerakligini kursatadi.

MA'RUZA № 2.

Ma'ruza mashg'ulotlarining ta'lim texnologiyasi.

Mavzu	BRONXIAL ASTMA
-------	-----------------------

Talim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqtি-2soat	Talabalar soni : 20-60 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish – axborotli maruza
Ma'ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none">1.Bronxial astma talkini.2.Astmani chakiruvchi xavfli omillar.3.Bronxial astma patogenezi.4.Klinik belgilari va diagnostikasi.5.Astmani davolash usullari
<p>O'quv mashgulotning maqsadi : Talabalarga bolalarda bronxial astmani kechish xususiyatlari to'g'risida tushuncha berish . Bolalardagi bronxial astma etiopatogenezini o'rgatish va astmani xuruj davrini klinik ko'rinishi va xurujsiz davrini kechishini aniqlay olish. bosqichli davolash tadbirlari. Kelajakdagи natijalarini o'rganish.</p>	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:

Talabalariga bolalarda nafas olish a'zolarini tekshirish usullarini o'rgatish. Turli yoshdagi bolalarda nafas olish tizimining o'zgarishlarini baholay olishni o'rgatish. Bolalarda bronxial astma kasalligini aniqlay olishni o'rgatish. Bronxial astma kasalligini etiologiyasi, patogenezi, klinikasi va davolashni o'rgatish.	Talabalar bolalarda nafas olish a'zolarini tekshirish usullarini, turli yoshdagi bolalarda nafas olish tizimining o'zgarishlarini baholay bilishi kerak. Bolalarda bronxial astma kasalligini aniqlay olishni, bronxial astma kasalligini etiologiyasi, patogenezi, klinikasi va davolashni bilishi kerak.
Talim berish usullari	Kurgazmali maruza, suhbat
Talim berish shakllari	Ommaviy jamoaviy
Talim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor
Talim berish sharoiti	UTV bilan ishlashga

	moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki navzorat :savol-javoblar

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi.

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Talim beruvchi	Talim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzu bo'yicha O'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish maruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Talabalar O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish . 4. O'quv fanini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini 	

	ishlab chiqish .	
1.Mavzuga kirish (15 daqiqa)	<p>1 Ma'ruza mashguloti mavzusi, uning maqsadi va vazifalarini tanishtiradi.</p> <p>2.Talabalar O'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2- ilova).</p> <p>3.Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadi da savollar beradi (3-ilova).</p>	Tinglaydilar
2.Asosiy bosqich (55 daqiqa)	<p>1.Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish kilish va izoxlash btlan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jixatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2 Bolalarda bronxial astma kasalligini slaydlar yordamida tushuntiradi.</p> <p>3. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustaxkamlash maqsadi</p>	Tinglaydilar, Yozadilar, javob beradilar

	<p>da quyidagi savollarni beradilar:</p> <p>Bronxial astma to'g'risida tushuncha</p> <p>Bronxial astma chakiruvchi sabablarni ayting</p> <p>Bronxial astma klinikasini aytib Bering.</p> <p>Bronxial astma davosini tushuntiring</p> <p>Bronxial astma xuruji davosini gapiring.</p> <p>Nafas olish a'zolarini tekshirish usullarini tushuntiring.</p>	
3.Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>1 Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>2. Mustaqili ishlash uchun Mustaqili ishi – 5 s mavzusini takdim etadi va internet asosida mazkur</p>	Savollar beradilar, vazifani yozib oladilar.

	O'quv materialni o'qib kelish vazifasini beradi.	
--	--	--

MAVZU: BRONXIAL ASTMA

Bronxial astma- bronxlar daraxtining surunkali yalli?lanishi bulib, bu jarayon T-limfotsitlar, eozinofillar va semiz xujayralar ishtirokida kechadi.

Dunyo bo'yicha har yili 100 mln.kishi xastalanadi;

Uy allergenlari:

Uy changi;

hayvonlar yungining changi;

Suvaraklar;

Mog'or zamburug'lari.

Tashqi allergenlar:

O'simliklar changi;

qo'ziqorinlar;

Aspirin va uning guruhidagi dorilar.

Shartsiz, astmani qo'zg'atuvchi omillar:

Respirator infektsiyalar;

Bolalik davri;

Allergenga boy taomlar;

havodagi polyutantlar:-ichki va tashqi;

Tamaki chekish:-aktiv va passiv.
Astma kechishini qo'zg'atuvchi omillar:
Allergenlar;
Respirator infektsiyalar;
Jismoniy zo'riqish va giperventilyatsiya;
Iqlim sharoitlari;
Oltingugurt oksidi;
Dorilar, taomlarga ishlatilgan bo'yoqlar va dorivorlar.

ASTMA PATOGENEZI:

Semiz hujayralar ko'plab bronxial daraxt, ichaklar shilliq qavati, so'lak bezla-rida bor. Ularning yuza qavatida biolo-gik faol moddalar chiqaruvchi donadorligi (granula) bor.

Semiz hujayralarning membranasi mustahkam emas, shu uchun parchalanib me'yordan ko'p BFM chiqariladi.

Me'yordan ko'p chiqarilgan BFM bronxlar giperreaktivligiga olib keladi;

Bu jarayonga eozinofillar jalb etiladi, ular katta protein va sitokin yordamida bronxlar shilliq qavatini emiradi;

Astmaning immun yul orqa li patogenezi:

- 1.epiteliy jarohatlanishi;
- 2.nerv oxirlari stimulyatsiyasi;
- 3.shilliq qavat shishi;
- 4.shilimshiq hosil bo'lishi;
- 5.bronxospazm.

Astma patogenezining noimmun yo'li:
Bronx daraxtini innervatsiyalovchi nervlar ma'lumotga
javoban neyrotransmitterlar chikaradi;
Neyrotransmitterlar semiz xujayralarni parchalaydi;
Okibatda BFM chikariladi.

Astmatiklarda statuslar.

- 1.Isteriyasimon xurujlar, xuruj yordamida uziga jalb etadi;
- 2.Psixosteniklar – kasallik yordamida xayotdagι muammolarni xal etadi;
- 3.Nevrosteniklar – uz kasalligiga mute bemorlar;
- 4.Shunt – boglovchi, bolalar uchun har akterli.Oilaviy muammolarni xal etish uchun yaxshi maksadga yunalgan.

Diagnostika:

BA simptomlari:

Spastik balgamsiz yo'tal ,ayniqsa tunda;

Nafas buzilish xolati;

ko'krak soxasida og'irlik xissi;

Savollar:

- 1.Bemorda nafas olish kiyinchiligi xurujlari bo'lganmi?
- 2.Bemorda tunda kattik azobli yo'tal bo'ladi mi?
- 3.Jismoniy zurikishdan keyin yo'tal yoki nafas buzilishi kuzatiladimi?
- 4.Allergen bilan alokadan sung nafas buzilishi va ogirlik xissi kuzatiladimi?

5.Bemorda shamollahash 10 kundan ortik yoki ko'krak kafasiga tushadimi?

6.Bemor astmaga karshi dori fositalari kabul qiladimi?

Provakatsion sinamalar tizimi:

Jismoniy zurikish sinamasi;

Sovuk xavo sinamasi;

Obzidanli sinama va boshkalar.

Normada barcha odamlarda ertalab soat 5dan 8 gacha bronxlar utkazuvchaligi bor.

Bronxial astma klassifikatsiyasi.

1 – engil, intermittirlovchi kechishi,

nafas kisish klassik xurujlari yo'q , yoki 2-3 xافتادا 1 мarta, tungi simptomatika oyida 1-2 мarta, jismoniy faollik buzilmagan, ijtimoiy adaptatsiyasi normal, xayot sifati saklangan (80% dan ko'p), tashki nafas funksiyasi sutkalik farki 20% dan kam.

2- engil kechishi:

Kunduzgi simptomatika xافتада 1-2 мarta;

Kechki simptomatika oyda 2 мarta;

tashki nafas funksiyasi sutkalik farki 20% dan kam.

3- o'rta og'ir kechishi:

xurujlar xافتада 1-2 мarta;

Kunduzgi faollik va kechki uykuning buzilishi;

Tungi simptomatika xافتада 2 martadan ortik;

tashki nafas funksiyasi sutkalik farki 20-30% ;

H-2 agonistlarga muxtojlik har kuni;

Xayot faolligi 60-80% ni tashkil etadi.

4-og'ir kechishi.

Simptomlar uzluksiz – retsidiylovchi kechadi;

Doimiy tungi simptomatika;

Xayot sifati 60% dan kam;

Tashki nafas funktsiyasi sutkalik farki 30% dan kam;

Xurujlar va remissiyalar almashinib turadi.

Asoratlari- Nafas etishmovchiligi – I,II,III darajalari.

Kiyosiy diagnostika:

Yurak astmasi;

Isterik astma;

Uremik astma bilan;

Nafas yullari yot jismlari bilan;

Yolgon krup bilan;

Kvinke shishi bilan;

Ichak gelmintlari bilan.

Davolash:

1.Yalliglanishga karshi preparatlar;

A)xromoglikat natriy guruxi (intal);

B)nedokormil natriy (tayled);

V)zaditen, ketotifen;

G)ditek;

D)kortikosteroidlar;

E)ingakort (flyunizolid);

2. Bronx kengaytiruvchi preparatlar- h2-agonistlar, metilksantinlar, antixolinergik preparatlar – iperatropium, atovent, berodual.

Davolashga bosqichma- bosqich yondoshish.

1– engil kechishida: kiska muddat ta'sir kursatuvchi agonistlar ingalyatsiyasi, xaftada 3 martadan ko'p emas. Jismoniy zurikishdan yoki allergenlar bilan muloqotdan oldin intal ingalyatsiyasi. Kasallikning kuchayishiga yul kuymaydi.

2– o'rta ogir darajada- intal yoki kortikosteroidlar bilan yalliglanishga karshi kurash, kortikoidlar dozasi 1 mgG`kg tana vazniga sutkalik mikdori;

Effekt bermaganda gormonlar dozasi oshiriladi; tungi simptomatikada 3- bosqichga utiladi.

3– o'rta ogir astma- KortikosteroidlarQ teofillin tG`o yoki ichish uchun; Antixolinergik preparatlar ingalyatsiyasi xam mumkin

4- bosqich, ogir astmada:

Kortikosteroidlar ingalyatsiyasi;

Uzok muddatli teofillin yoki peroral agonistlar;

Beta- 3-agonistlar kiska muddatli;

har kunlik yoki alternativ gormonlar ichish uchun.

Pastga kadam fakat 3 oydan sung.

Davolash davomi:

Bolalar uchun xromoglikat natriy 4-6 xaftha davomida tavsiya etiladi.

Yo'q origa kadam: intal yoki nedokromil,
kortikosteroidlar kushiladi;

Pastga kadam: dori vositalarini sekin-asta mikdorini
kamaytirib borish;

Faslga qarab dorini berishni tiklash.

Astma xurujida bajariladigan ishlar rejası:

Astmadan ulim va kasallanishning ko'p ayishiga
quyidagilar sabab bo'ladi :

Kasallik xurujini baholay olmaslik;

Xurujning birinchi belgilariga noadekvat ta'sir kursatish;
Xurujlarni noadekvat davolash.

Astmani nazorat kilishda terapeutik muolajalar
intensivligi darajasi:

Yashil soxa –barcha muolajalar kilingan, astma nazorat
ostida;

Sarik soxa – nogox xuruj yoki axvolning sekin-asta
ogirlashuvi, tez-tez sarik soxaga kaytish nazorat sustligi
va yashil soxaga utish uchun chora-tadbirlar zarurligini
bildiradi;

Kizil soxa – xavf belgisi, shoshilinch kushimcha tibbiy
muolajalar talab etiladi.

Uximdir

Ma’ruza №3

Ma’ruza mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi.

mavzu

Norevmatik karditlar

1.1. Talim berish texnologiyasining modeli

Mashg‘ulot vaqtini- 2soat	Talabalar soni : 20-60 gacha
Mashg‘ulot shakli	Kirish – axborotli maruza
Ma’ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none">1. Norevmatik kardit talkini.2. Norevmatik kardit chakiruvchi xavfli omillar.3. Norevmatik kardit patogenezi.4. Norevmatik kardit klinik belgilari va diagnostikasi.5. Norevmatik kardit davolash usullari.
O‘quv mashg‘ulotning maqsadi: Talabalarga bolalarda norevmatik kardit kechish xususiyatlari to‘g‘risida tushuncha berish . Bolalardagi norevmatik kardit etiopatogenezini o‘rgatish va klinik ko‘rinishi aniklay olish. Boskichli davolash tadbirlari. Kelajakdagi natijalarini	

o‘rganish.

Pedagogik vazifalar:	O‘quv faoliyati natijalari:
<p>Talabalarga bolalarda yurak-qon tomir tizimi a’zolarini tekshirish usullarini o‘rgatish. Turli yoshdagi bolalarda yurak-qon tomir tizimining o‘zgarishlarini baxolay olishni o‘rgatish.</p> <p>Norevmatik kardit aniklay olishni o‘rgatish.</p> <p>Norevmatik kardit etiologiyasi, patogenezi, klinikasi va davolashni o‘rgatish.</p>	<p>Talabalar bolalarda yurak-qon tomir tizimi a’zolarini tekshirish usullarini, turli yoshdagi bolalarda yurak-qon tomir tizimining o‘zgarishlarini baxolay bilishi kerak.</p> <p>Bolalarda norevmatik kardit kasalligini aniqlay olishni,</p> <p>Norevmatik kardit etiologiyasi, patogenezi, klinikasi va davolashni bilishi kerak.</p> <p>Norevmatik kardit bilan bemorlarni dispanser nazoratga</p>

	olishni o‘rganish
Talim berish usullari	Ko‘rgazmali ma’ruza, suxbat
Talim berish shakllari	Ommaviy jamoaviy
Talim berish vositalari	O‘quv kullanma, proektor
Talim berish sharoiti	UTV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baxolash	Og‘zaki nazorat: savol-javoblar

**BOLALARDA NOREVMATIK KARDIT
ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi.**

Ish	Faoliyat mazmuni
-----	------------------

bosqichlari va vaqtি	Ta'lim beruvchi	Talim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	<p>1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash.</p> <p>2. Kirish maruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.</p> <p>3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish.</p> <p>O'quv fanini o'rghanishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.</p>	
1.Mavzuga kirish (10 dakika)	<p>1.1 Ma'ruza mashg'uloti mavzusi, uning maqsadi va vazifalarini tanishtiradi.</p> <p>1.2.Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.</p>	Tinglaydilar
2-boskich Asosiy	2.1.Power Point dasturi yordamida slaydlarni	Tinglaydilar, YOZadilar,

boskich (65 dakika)	<p>namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo‘yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2.2 Bolalarda norevmatik kardit kasalligini slaydlar yordamida tushuntiradi.</p> <p>2.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollarni beradilar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Norevmatik kardit nima? • Norevmatik karditni chakiruvchi sabablarni ayting • Norevmatik kardit klinikasini aytib bering. • Norevmatik kardit davosini tushuntiring 	javob beradilar
-------------------------------	--	--------------------

3.YAkuniy boskich (5 dakika)	<p>3.1 Mavzu bo‘yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Mustakil ishlash uchun</p> <p style="text-align: center;"><i>7. Mustaqil ish .i – 5 s</i></p> <p>mavzusini takdim etadi va internet asosida mazkur ukuv materialni ukib kelish vazifasini beradi.</p>	Savollar beradilar, vazifani yozib oladilar.
--	---	--

NOREVMATIK KARDITLAR.

YUrak qavatlaridagi o‘zgarishlar umumiy so‘z bilan miokardit deb ifodalanadi, lekin oxirgi yillar bu termin kardit deb almashtirildi. Kardit bolalar orasida ko‘prok uchraydi, asosan og‘ir formalari. Hozirgi paytlarda norevmatik karditlarning klinikasi va diagnostikasiga qiziqish juda kuchaydi. Norevmatik karditlar revmatik karditlarga nisbatan ko‘prok uchray boshladi. Norevmatik karditlar kattalarga nisbatan bolalar o‘rtasida ko‘prok uchraydi, 5-20 % ni tashkil kiladi.

Etiologiyasi. Barcha infekzion kasalliklar chakiruvchisi qanaqa bo‘lishidan qat’iy nazar kardit asoratini chaqirishi mumkin. Bolalar o‘rtasida respiratorli virusli kasalliklar ham ko‘p uchraydi: (gripp, paragripp, adenovirus viruslari)

Koksaki virusi bilan adenovirus kasallikni surunkaliga o‘tishiga olib keladi. Miokardit boshqa virusli kasalliklardan keyin ham kelib chiqishi mumkin, masalan: suvchechak, qizamiq, virusli gepatit, epidemik tepki, sitomegaliyalardan so‘ng. Miokarditni rivojlanishiga keltirib chiqaruvchi omillarning ahamiyati katta, ya’ni organizmda viruslar uzoq vaqt davomida o‘zini ta’sirini ko‘rsata olmay turadi, lekin organizmni reaktivligining pasayishi bilan patologik xususiyatini ko‘rsata boshlaydi.

Organizmni chidamliligi quyidagi faktorlardan keyin pasayishi mumkin: gipoksiya, fizik zo‘riqishlarning oshib ketishi, bundan tashqari ba’zi bir dori moddalaridan keyin, masalan rezerpin iste’mol qilganidan so‘ng. Rezerpin yurak muskullarida Koksaki virusini toksik ta’sir ko‘rsatishini oshiradi.

Norevmatik miokarditni rivojlanishida bakterial faktorlarni roli juda katta hisoblanadi. Bularga streptokokk, stafilakokk, salmonellezlar kiradi.

Surunkali infeksiya o‘chog‘iga ham ma’lum o‘rin

beriladi, Kalyujnay R. A. (1975) fikriga ko‘ra o‘tkir va surunkali tonzillitdan keyin barcha miokarditlar ichida 3 yoshdan yuqori bo‘lgan bolalarda 35-47 % norevmatik kardit rivojlanan.,

Norevmatik kardit quyidagi kasallikklardan keyin ham kelib chikishi mumkin: pnevmoniya, sepsis, plevrit, stafilakkokli destruksiya, siydiq yo‘llari infeksiyasi, glomerulonefrit, gepatit, xoletsistit va boshqalardan keyin.

Allergik karditlar rivojlanadi: posvaksinal reaksiyadan so‘ng, bronxial astma, surunkali ekzema, respirator allergozlaridan keyin. Ba’zi bolalarda quyidagi dorilarni kabul kilganda: penitsillin, streptomitsin, tetratsiklin, sulfanilamid preparati, furadonin kabi dorilar qabul qilganidan so‘ng allergik kardit rivojlanishi mumkin. SHunday kilib norevmatik karditlar polietiologik kasallik hisoblanib, etiologiyada ko‘pincha viruslar asosiy o‘rinni egallaydi.

Patogenezi. Hozirgi vaqtida olimlar o‘z tekshirishlari natijasida norevmatik karditlarni immunopatologik holat deb tushunishmoqda.

Virus yurak muskul hujayrasiga kirib, ularni zararlaydi va chuqur metabolik va morfologik o‘zgarishlarga olib keladi.

Limfotsitlar bilan bog‘langan holda virus va

bakteriyalarni toksinlarga limfotsitlar bilan ustida yoki yuzasida antitela hosil bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida immun kompleksini hosil bo‘lishiga va ularni qonga o‘tib aylanib yurishiga olib keladi.

Antitelalar to‘qimadagi bazofillarni, leykotsitlarni, trombotsitlarni zararlaydi, hujayrada modda almashinuvini o‘zgartiradi, mukolitik va proteolitik fermentlarni aktivlantiradi.

Biologik aktiv modda gistamin, serotonin, bradikinin va prostoglandinga o‘xshagan aktiv moddalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yurakni o‘tkazuvchi sistemasiga ta’sir qiladi, yurakni qisqartiruvchi apparatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ko‘p miqdorda gistamin ishlab chiqarilishi qon tomir devorini o‘tkazuvchanligini oshiradi globulinlarni, allergenlarni antitelalarni to‘qima bo‘shilig‘iga o‘tishini va yurak muskullarini ishini va oziqlanishini buzilishiga olib keladi.

Gistaminsimon moddalarni ko‘prok hosil bo‘lishi kichik arteriya va kapillyarlarni kengayishiga va o‘tkazuvchanligini oshishiga, kichik arteriya va venachalarda staz hosil bo‘lishiga olib keladi.

Qon oqishining sekinlashishi natijasida, eritrotsitlarni plazmadan ajralishi mikrotromblarni hosil bo‘lishiga, yurak muskulida gipoksiya rivojlanishiga olib keladi.

Mikrotsirkulyasiyaning buzilishi hujayralararo to‘qimalarda shish paydo bo‘lishiga olib keladi.

Hujayrada yallig‘lanish infiltratsiyasi qonda gistaminning oshib ketishiga, yurak o‘tkazuvchanligini va ritmini buzilishiga olib keladi, og‘riq sindromi rivojlanishi olib keladi.

Norevmatik karditni kelib chiqishida bemorning yoshi irsiy omilini ahamiyati katta.

Kichik yoshdagи bolalarda miokardit og‘ir o‘tadi, surunkali kechishga moyil. Norevmatik karditni oilaviy kechishi immunitetning irsiy to‘liqsizligidan dalolat beradi. Bir oilani barcha a’zolarida bir xil immunologik reaktivlik bo‘lishi mumkin, bu esa timusni holatiga, uning kompleks reaksiyasiga bog‘liq.

Tasnifi:

N.A. Belokon o‘zining ko‘p yillik ilmiy tadqiqot tekshirishlari natijasiga asoslanib 1984 yilda NK ning tasnifini ishlab chiqdi va ushbu tasnif Kardiologlar anjumanida qabul qilindi.

Kasallikning paydo bo‘lish davri	Tug‘ma (antenatal) – erta va kechki Orttirilgan
---	--

Etiologik omil	Virusli, virusli-bakterial, bakterial, parazitar, zamburug‘li, iersienozli, allergik, idiopatik
SHakli (asosan jarayonning joylashishiga ko‘ra)	Kardit YUrak o‘tkazuvchi sistemasining shikastlanishi
Kechishi	O‘tkir – 3 oygacha O‘tkir osti – 18 oygacha Surunkali – 18 oydan ortiq (qaytalanuvchi, birlamchi surunkali): dimlanishli, gipertrofik, restriktiv variant
Karditning og‘irlik darajalari	Engil O‘rta og‘ir Og‘ir
YUrak etishmovchili-gining shakli va darajasi	CHap qorincha etishmovchiligiya I, IIA, IIB, III darajasi O‘ng qorincha etishmovchiligi I, IIA, IIB, III darajasi

	Total
Oqibati va asoratlari	Kardioskleroz, miokard gipertrofiyasi, ritm va o‘tkazuvchanlikning buzilishi, o‘pka gipertenziyasi, klapanning shikastlanishi, konstriktiv mioperikardit, tromboembolik sindrom

Har qanday kasallikning tasnifida ko‘rsatilgandek NK ning tasnifida uning kechishi aniq ko‘rsatilgan.

NK ning o‘tkir kechishi kasallikning avj olishi bilan boshlanishi, yurak-qon tomirlar etishmovchiligi va nisbatan o‘tkazilgan muolajalarning tezda effekt-foyda berishi bilan ifodalanadi.

NK cho‘ziluvchan kechishi ayrim holatda kasallikning tez boshlanishi, ammo sog‘ayishning 18 oygacha cho‘zilishi, boshqa holatda kasallik ancha yumshoq boshlanib va sekin-asta rivojlanish yoki birlamchi cho‘ziluvchan kechishi bilan o‘tadi.

NK ning surunkali kechishi o‘tkir yoki cho‘ziluvchan

karditda o‘tkazilgan davo muolajalarining foyda bermaganligidan, yurak mushaklarining refrakterligi kuchliligidan o‘tkir yoki cho‘ziluvchan karditning surunkali karditga o‘tishi yoki o‘tkir va cho‘ziluvchan karditlar belgilari bo‘lmay birlamchi surunkali karditning paydo bo‘lishi ham kuzatiladi.

Klinika. CHakaloklarni, kichik yoshdagи bolalarni va katta yoshdagи bolalarni miokarditni klinik kechishini uziga xos belgilarini kurib chikishimiz kerak.

Miokardit bola xomila paytida rivojlanishi mumkin (N. A. Belokon 1974, V. S. Muzikantova 1978 y) uni aniklashda akusher anamnezini ahamiyati katta . Homilador paytida onasini o‘tkir infektion kasallik bilan kasallanganligi (gripp, pnevmoniya va boshkalar).

Karditni klinik belgisi tug‘ilgan kunidan yoki sal kechrok paydo bo‘ladi. YUrak - qon tomir sistemasidagi o‘zgarishlar miokardni zararlanish darajasiga bog‘liq.

YUrak chegarasi perkussiyada va rentgenda kengaygan. Bolaning aktivligi pasaygan, bezovta bo‘lganda ko‘karish paydo bo‘ladi. Auskultatsiyada yurak tonlari susaygan, ba’zilarida yurak ritmi buzilgan. EKG da yurak qorinchalarining mushaklarini gipertrofiyasi, yurakni o‘tkazuvchanligi buzilgan. Bolalarning ko‘pida tug‘ilgandan hepatomegaliya.

Bu bolalar fizik rivojlanishdan orqada qolishadi, ko‘krak

qafasida yurak bukrisi hosil bo‘ladi.

CHaqaloqlarda orttirilgan miokardit ORVI, pnevmoniya yoki biron xil infeksiyadan keyin 1-2 haftadan so‘ng paydo bo‘ladi.

Kardit rivojlanishida bolaning organizmi oldindan sensibilizatsiya bo‘lgan bo‘lishi kerak, ya’ni kaytadan infektion kasalliklar bilan kasallangan, yoki allergik moyilligi/ekssudativ – kataral diatezi, giperergik reaksiyaga moyilligi/ bo‘lishi kerak. SHuning uchun ORVI o‘tkazgan bolalarda karditga o‘xshash belgi paydo bo‘lsa, emlashdan oldin EKG qilish kerak.

Bemor bola bezovta bo‘lib koladi, emishdan bosh tortadi, emayotgan paytda bezovtalik paydo bo‘ladi, quşish, terisini rangi okargan, oyok-ko‘l uchlari ko‘kargan, nafas olishi tezlashgan, hansirash qorni damlaydi, ba’zan talvasa, shish paydo bo‘lishi mumkin.

Bu bolalarda bronxit yoki pnevmoniya tez– tez bo‘lib, yoki birgalikda kechadi

YUrakni chegarasi kengaygan, yurak tonlari susaygan, ba’zi bolalarda nozik sistolik SHovkun eshitiladi, taxikardin /embriokardiya/, ekstrasistoliya bo‘lishi mumkin. Jigar kattalashishi mumkin. CHaqaloqlarda tezda o‘tkir yurak etishmovchilikni klinik belgilari rivojlanadi.

Rentgenologik tekshirganda yurak pulsatsiyasini sustligi, chegarasini kengayganligi, qon tomirlar

rasmining kuchayganligi kuzatiladi. SHunday qilib bolalarni chaqaloqlik davrida miokardni dekompenzatsiya va aralash variantlari ko‘prok uchrab turadi.

CHAqaloqlarda miokarditdan o‘lim yuqori, ya’ni 60% tashkil qilishi va ko‘pincha surunkali kechishiga moyillik bilan o‘z xususiyati bilan ajralib turadi. /A. I. Sukacheva 1978 y./.

O‘tkir kardit bilan ko‘pincha kichik yoshdagi bolalar kasallanadi. /1- yoshdan 3 yoshgacha/. O‘tkir karditning boshlang‘ich davri o‘zining har xil klinik ko‘rinishi bilan ajralib turadi.

Bolalar ORVI dan keyin holsiz, sust injiq bo‘lib qoladi. Tezda charchab qolishi, uykuchan, ishtahasi yo‘qoladi, terisining rangi oqarib qoladi.

Kasallikning asosiy belgisi birdan hansirash, ko‘karish, yo‘tal xurujini paydo bo‘lishi, bu kasallikni ancha davom etayotganidan dalolat beradi. YUrak uchining turtkisi susaygan. YUrak chegarasi kengaygan, ko‘pincha chapga.

YUrak tonlari kuchli, kam hollarda bo‘g‘iq. II ton o‘pka arteriyasida kuchaygan. O‘tkir osti kechishda yurak sohasida sistolik shovkin eshitiladi, mitral klapanini etishmovchiligi bo‘lishi mumkin. Hamma bemorlarda taxikardiya aniklanadi.

EKG da sinus taxikardiyasi va qorinchalarda

ekstrasistoliyasi aniqlanadi.

Rentgenda yurak o'lchamlarini kengayganligi aniqlanadi.

N. A. Belokon /1979/ o'zini tekshirishlari bilan shuni aniqladiki, virusli va bakterial miokarditlarda 30 %, endokard va perikard 15 % zararlanadi.

Miokardni klinik belgilariga perikard shovqini qo'shiladi, yurak tonlari susaygan, jigar ancha kattalashgan bo'ladi. Oyoklarda shish erta hosil bo'ladi, hansirash va o'pkada dimlanish belgilariga nisbatan yurak chegarasi kengaygan.

3 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarda miokardit belgilari har xil bo'ladi kasalliknin kechishi jarayoniga qarab, Dolgopolovoy A. V. /1978y/ning xulosasiga asosan bemorlarning anamnezidan quyidagilarni bilish mumkin, nasliy moyillikni, onasining avlodidin 16 %da infektion allergik miokardit o'tkazganligi, 5 % -allergik kasallik /dermatoallergiya, bronxial astmalarni, 9 % - revmatizm kasalligi bilan kasallanganlarni bilish mumkin. 50 % da anamnezida allergiyani ko'rinishi-ekssudativ -kataral diatez, o'tkir eshak emi, astmatik bronxitlar borligi aniklangan.

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda infektion – allergik miokarditni rivojlanishida virusli respirator, infeksiyani roli katta.

SHu infeksiyalardan keyin miokardit birdan /erta/ yoki

bir necha haftadan keyin /kechki/ Ertal belgilariga quyidagilar kiradi: hansirash, umumiy holsizlik, yurak sohasida og‘riq, qornida, mushaklarida og‘riq borligiga shikoyat qiladi, ishtahani yo‘qligi, yurak urishiga.

Katta yoshdagi bolalarning shikoyati - yurak sohasida og‘irlilik, sanchib og‘riq, yurak sohasida og‘riq tinch holatda paydo bo‘lishi, fizik zo‘riqishdan keyin kuchayishi va butun yurak sohasiga tarkalishi kuzatiladi. Bu og‘riq bir necha kundan bir necha hafta va bir necha oygacha davom etishi mumkin, bu kasallikni kechishiga bog‘liq. Qon tomirni kengaytiradigan dorilardan so‘ng kamayadi. Bemorning ahvoli yallig‘lanishga qarshi, desensibilizatsiya qiladigan preparatlardan keyin, yurak glyukozidlari, kaliy tuzlari, vitaminlarni bergandan keyin ancha yaxshilanadi.

Ba’zi bir bolalar hech qanaka shikoyat qilishmaydi. Klinik va instrumental tekshirishlardan keyin tashxis-miokardit deb qo‘yiladi.

Katta yoshdagi bolalarda uchraydigan miokarditning erta kuzatiladigan klinik belgisiga taxikardiya, ba’zan bradikardiya yoki nafas aritmiyasi kiradi.

Katta yoshdagи bolalarda yurakdagi o‘zgarishlar uncha o‘tkir boshlanmaydi. Ekstrakardial belgilarga kiradi: teri rangining okorganligi , holsizlik, ba’zi bolalarda shish paydo bo‘ladi.

Miokarditning asosiy belgilaridan biri yurak chegarasini

kengayishidir. YUrak chegarasi ko‘pincha chapga kengaygan, ba’zan chapga va o‘ngga, ba’zilarida yuqoriga ham kengaygan.

Rentgenografiya qilganda yurak konfiguriyasi o‘zgargan, konturlari silliqlashgan, amplitudasi pasaygan, pulsatsiyasi aritmik-60, 3% bemorlarda yurak chegarasi kengaygan.

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda norevmatik karditni asosiy diagnostik belgisi bu EKG dagi o‘zgarishlar.

Eng ko‘p erta paydo bo‘ladigan belgilaridan /92 %/, bu yurak avtomatizmini buzilishi, 60 % da qo‘zg‘alish funksiyasini, ya’ni har xil ekstrasistoliyalardir.

ERTA TUG‘MA KARDITNING TASHHISOT MEZONLARI

- *Anamnestik:* oilada yurak-tomir kasalliklarining mavjudligi: revmatizm, karditlar, yurak tug‘ma nuqsonlari va boshqalar; onasining homiladorlik davridagi kasalliklari, kichik vaznda tug‘ilish. Kasallikning birinchi belgilari hayotining birinchi yarmida namoyon bo‘ladi, postmiokarditik elastofibrozi bor bolalarda hayotining 6-18 oylarida
- **KLINIK:**

Ekstrakardial: tana vaznining kam qo‘silishi, jismoniy

rivojlanishdan ortda qolish, statik funksiyalarning rivojlanishdan ortda qolishi, rangparlik, holsizlik, ko‘p terlash, afoniya, sababsiz bezovtalik hurujlari.

Kardial: shilliq qavatlar, barmoq uchlarining sianozi, chap tomonlama yurak bukri, yurak uchi turtkisi sustlashgan yoki aniqlanmaydi, yurak chegarasining chapga kengayishi, yurak tonlarining bo‘g‘iqlashishi yoki bo‘g‘iqligi, shovqin ko‘pincha eshitilmaydi yoki mitral klapan etishmovchiligining shovqini, davoga rezistent bo‘lgan taxikardiya. Total yurak etishmovchiligi, ko‘proq chap qorincha: taxikardiya, hansirash, turli kalibrdag‘i nam va hushtaksimon quruq xirillashlar, jigarning kattalashuvi, oyoqlarda shish.

■ Paraklinik:

Laborator: ECHT, leykotsitlar, zardobdag‘i oqsil fraksiyalari, AST, ALT titrlari normal yoki bir oz o‘zgargan.

EKG: yurak elektrik o‘qi normal holatda, tishlarning yuqori voltaji, chap qorincha miokardining gipertrofiyasi, QRS kompleksining torayishi, ST intervalining pastga siljishi.

Rentgenografik: chap o‘pka pastki bo‘lagining atelektazi. YUrakning sharsimon yoki oval shakli, yurak bo‘shlig‘ining kattalashuvi va chap qorinchaning dilatatsiyasi.

KECHKI TUG‘MA KARDITNING TASHHISOT MEZONLARI

Klinik:

Ekstrakardial: normal tana vazni bilan tug‘ilish; kam hollarda homila ichi gipotrofiysi; emizganda tez charchash; hayotining 3-5 oyidan boshlab jismoniy rivojlanishda ortda qolish; nafas olish a’zolarining tez kasallanishi; ko‘p terlash; to‘satdan paydo bo‘luvchi bezovtalik hurujlari; hansirash; shovqinli nafas.

Kardial: hansirash; tug‘ilgandan paydo bo‘lgan taxiyoki bradikardiya; rangparlik; shilliq qavatlar va barmoqlar sianozi; yurak-tomir etishmovchiligi belgilari; qora taloqning kattalashuvi; shish sindromi; yura uchi turkisi pastga siljigan, kuchaygan; yurak tonlari baland; sistolik shovqin bo‘lishi mumkin; yurak ritmining buzilishi (xarakterli belgi).

PARAKLINIK:

EKG: chap qorincha elektrik potensiallarining ustunligi; ritm va o‘tkazuvchanlikning buzilishi; ST segmentning izoliniyadan pastga siljishi.

Rentgenologik: yurak normal yoki trapetsiyasimon shaklda; yurak soyasi kengaygan.

Laborator: periferik qonda o‘zgarishlar yo‘q; revmotestlar manfiy.

ORTTIRILGAN KARDITLARNING TASHHISOT MEZONLARI

Anamnestik: onaning homiladorlik vaqtida o‘tkazgan kasalliklari; ba’zi dorilarni ko‘p vaqt qabul qilish; kasallikning birinchi belgilari O‘RVI fonida yoki 1-2 haftadan so‘ng namoyon bo‘ladi; bola organizmining oldindan sensibilizatsiyalanganligi; konstitutsiya anomaliyalari; vaksinatsiya qoidalariga rioya qilmaslik.

Klinik:

Ekstrakardial: ishtahasizlik; tana vaznining kam qo‘shilishi; behollik; ko‘p terlash; tez charchash; injiqlik, qo‘zg‘aluvchanlik hurujlari; ba’zida hushdan ketish; talvasa, gemiparez, tunlari ingrash va bezovtalik; ko‘ngil aynash va qayd qilish.

Kardial: avval chap qorincha, so‘ng total yurak etishmovchiligi; og‘iz-burun uchburchagi sianozi, akrotsianoz; o‘tkazuvchanlik va ritmning buzilishi; yurak uchi turkisi aniqlanmaydi; yurak chegaralari kengaygan; I ton bo‘g‘iqlashgan; o‘pka arteriyasi ustida II ton aksenti; funksional xarakterdagi yoki mitral klapanning nisbiy etishmovchilishidagi sistolik shovqin.

PARAKLINIK:

Laborator: laborator tekshirish natijalari ahamiyatsiz.

EKG: yurak elektr o‘qining o‘ngga siljisi. QRS kompleksi tishlari voltajining pasayishi. O‘tkazuvchanlik va ritmning buzilishi. ST segmenti izoliniyadan pastga siljishi. T tish manfiy.

Rentgenologik: o‘pkada venoz dimlanish; yurak soyasining kengayishi; chap qorinchaning dilatatsiyasi.

Klinikasi

KECHISH XUSUSIYATLARI

CHaqaloqlarda:

- YAqqol bezovtalik, injiqlik;
- respirator distress-sindrom;
- letargiya, gipotoniya, talvasalar (MNS zararlanganda);
- Davriy ravishda terining oqarish belgilari;
- gipertermiya yoki gipotermiya;
- jigar fermentlarining ortishi, azotemiya va kreatininning ortishi;

Bir yoshgacha bo‘lgan bolalarda:

- Mushaklar gipotoniyasi, anoreksiya;
- taxipnoe;
- taxikardiya;
- shovqinli nafas;
- progressivlanuvchi atsidoz;
- MNSning zararlanishi.

Katta yoshdagি bolalarda

- xolsizlik, tez charchash,
jismoniyuklamalarni yomon ko‘tarish;
- Ko‘krak qafasida og‘riq;
- subfebrilitet;
- aritmiyalar;
- yo‘tal
- boshqa a’zolarning zararlanishi.

O‘TKIR OSTI KARDIT

- YURak etishmovchiligi belgilari O‘RVIdan keyin 4-6 oy o‘tib, asta-sekin ortadi. Unga o‘tkir karditning barcha ko‘rinishlari xos bo‘lib, lekin yurak bukri, tonlarning baland bo‘lishi, mitral klapan etishmovchiligidagi sistolik shovqin, o‘pka arteriyasi ustida II-tonning turg‘un aksenti, davo o‘tkazilishiga qaramay kuchli yurak etishmovchiligining saqlanishi xosdir.
- EKGda rigid ritm, yurak elektrik o‘qining chapga og‘ishi, AV va qorincha ichi o‘tkazuvchanligining buzilishi, chap qorincha va ikkala bo‘lmachaning zo‘riqishi, T-tishning musbatligi aniqlanadi
- Rentenologik o‘pka suratining o‘rtacha kuchayishi, yurak soyasi shaklining

(trapetsiyasimon) o‘zgarishi ko‘riladi.

SURUNKALI KARDITLAR

Ko‘pincha maktab yoshigacha va maktab yoshidagi bolalar orasida 3 xil variantda uchraydi:

- chap qorincha bo‘shlig‘ining kattalashishi va miokardning ozgina gipertrofiyasi, keskin kardiosklerozi, chap qorincha miokardi qisqaruvchanligining buzilishi bilan kechuvchi “**dimlanishli yoki dilatatsion**” variant
- keskin gipertrofiya tufayli chap qorincha bo‘shlig‘ining biroz kichiklashishi bilan kechuvchi “**gipertrofik**” variant
- miokard gipertrofiyasi yoki u siz chap qorincha bo‘shlig‘ining keskin kichrayishi bilan kechuvchi “**restriktiv**” variant

Surunkali kardit klinik manzarasiga davomli nisbatan alomsiz kechish xos bo‘lib, quyidagi ekstrakardial belgilar aniqlanadi:

- jismoniy rivojlanishdan ortda qolish, charchash, holsizlik
- ko‘ngil aynashi, qayd qilish, qorin og‘rig‘i
- qaytalanuvchi pnevmoniya, quruq yo‘tal
- teri qoplamlarining oqimtirligi tirishish,

bezovtalanish

- hushni yo‘qotish hurujlari
- gepatomegaliya.

Diagnoz qo‘yishda aritmiyani bo‘lishi katta ahamiyatga ega, chunki ba’zan miokardni zararlanishi asosiy belgilaridan biri bo‘lishi mumkin.

FKG da hamma bolalarda sistolik shovkinni yozishi, ko‘pincha yurak uchida yoki IY kovurga oraligida chap tush suyagini kirrasida.

Norevmatik kardit bilan kasallangan bemorlarni labarator tekshirish o‘tkazganda quyidagilarni aniklash mumkin.

Gemogrammada – anemiya, leykotsitoz, ba’zan leykopeniya kuchli bulmagan SOE, bular hammasi kasallikning o‘tkir davrining 2-3 xafasida kuzatiladi. Kondagi uzgarishlar miokarditga xos patogenetik o‘zgarishlarga kirmaydi, fakat klinik instrumental o‘zgarishlar bilan birgalikdagina diagnostikaga yordam berishi mumkin.

Bioximik tekshirish o‘tkazilganda DFA – ozgina ko‘paygan /202 – 216 ed./ sialova kislota /0,228-0,243 ed./ seromukoid albuminlar kamayadi, alfa 2 va gamma globulinlar ko‘payadi, asparagin va alanin transaminaza ishqoriy fosfatazalar oshadi.

Qon zardobida immunoglobulinlarni tekshirganda norevmatik kardit bilan kasallangan bemorlarda kasallikning o'tkir davrida immunoglobulin A ni miqdori kamaygan, M va J ni mikdori oshgan bo'ladi. Protsess pasaygandan so'ng immunoglobulin M va J ni konsentratsiyasi pasayadi.

Ba'zan bolalarda miokardit belgilari tibbiy ko'rikda, sport maktabiga olishda tekshirish natijasida aniqlanadi. YUrak chegarasini kattalashishi, yurak tonlarini o'zgarganligi, sistolik shovqin aniklanadi, lekin bemorning shikoyati bo'lmaydi.

Surunkali kechadigan miokarditni klinik ko'rinishi tez charchab qolishi, holsizlik, sustlik, ko'p terlaydi, hansirash, yurak sohasida og'riq, yurak urishi tezlashgan, ba'zan yopishqoq yo'tal, ayniqsa bemor yotgan paytida yo'tali boshlanadi.

YUrak tonlari susaygan, taxikardiya. O'pkasida nafas qattiq, quruq va ho'l har xil kalibrli xirillashlar eshitiladi.

Rentgenogrammada yurak soyasini kengayganligi, chap bo'lagi hisobidan, kardiomegaliya.

EKG da ritmni buzilganligini aniqlanadi. Surunkali miokarditda aritmiya doimiy belgilardan biri hisoblanadi.

Surunkali kardit bo'lishi mumkin: chap qorincha bo'shlig'ining kengayishi bilan va chap qorincha

bo‘shlig‘ini kengayishi yoki normada bo‘lishi bilan. Surunkali kardit chap qorincha bo‘shlig‘ini kengayishi bilan-shikoyati ishtahani yo‘qligi, massasiga kamayishi. Tipik belgilari taxipnoe, yurak chukkisining susayganligi, yurak bukirisi, ba’zan yurak chegarasini kengayishi, sistolik shovkin, mitral klapanini etishmovchiligi, yurak ritmini uzgarganligi, jigarni kattalashishi. EKG da T tishchasini siljigani, 5-6 chetlanishda T tishchasini yo‘qligi. Ba’zan tashxis operatsiya paytida qo‘yiladi.

Miokarditni ba’zan Ebshteyn anomaliyasining sianoz bo‘lmagan shakliga o‘xhatiladi.

Rentgenda kardiomegaliya, yurak sharsimon, auskultatsiyada – yurak tonlari bo‘g‘iq, yurakni ritmi va o‘tkazuvchanligi buzilgan. Qiyosiy tashxisda quyidagi belgilarga ahamiyat beriladi: ya’ni ORVI yoki boshka infeksiyalar bilan bog‘lik bo‘lmaganligi, o‘ng qorincha etishmovchiligi kuzatiladi, o‘pka gipertenziyasi kuzatilmaydi. Ebshteyn anomaliyasida EKG da o‘ng bo‘lmacha gipertrofiyasi, Giss tutamining o‘ng oyoqchasi to‘liq bo‘lmagan blokada kuzatiladi.

Eyzenmenger sindromi – bu tug‘ma yurak nuqsonlarga kiradi. Qorinchalararo to‘sinq nuqsoni, ochik arterial tug‘ma nuksonida kuzatiladi. Ko‘pincha surunkali kardit bilan bemorlar shu diagnoz bilan tushadi. Bu ikki kasallikni quyidagi belgilar bir biriga yaqinlashtiradi:

yuz teri qoplamlarini ko'karishi, barmok uchlarini ko'karishi, qattiq yurak tonlari, II- ton o'pka arteriyasida aksent, o'ng qorincha etishmovchiligi belgilari va gipertrofiya yurakning o'ng bo'lagida EKG da.

Surunkali karditga xos belgilar-kasallik belgisi 4-6 yoshdan keyin paydo bo'lishi, rentgenogrammada yurakdagi o'zgarish to'satdan aniqlanadi /tug'ma nuqsonda esa tug'ilgan kunidan/, o'ng qorincha etishmovchiligi II-III darajasi kuzatiladi.

Eyzenmenger sindromiga sistolik shovqin xos emas, uch tabakali klapan etishmovchiligi.

Kardiopatiya yoki miokardit kasalligida ko'pincha koarktatsiya aorta va fibroelastoz kasalligi degan tashxis bilan tushadi. Umumiy belgilari –kardiomegaliya, o'ng qorincha etishmovchiligi, yurak tonlarini bo'g'iqligi, shovqinni yo'qligi. Lekin oyoqlarida pulsni judayam sustligi, qo'llariga nisbatan, qo'llarida A/B oshganligi, oyoqlarida pasaygani, qisqa dag'al sistolik shovqin kurak ostida chapdan, shularga asoslanib to'g'ri diagnoz qo'yish mumkin.

Bolalarda norevmatik kardit bilan qon aylanishni buzilishi darajasiga va kasallikni kechish protsessiga qarab xar xil bo'ladi.

Qon aylanishni etishmovchiliginini aniqlash uchun Belokon taklif qilgan tasnif /1979/ ishlataladi.

Norevmatik karditda kon aylanishini etishmovchiligi belgisi.

Darajasi	Etishmovchilik darajasi	
	CHap qorincha	O'ng qorincha
I	YUrank etishmovchiligi belgilari orom paytida bo'lmaydi va ortiqcha harakatdan keyin taxikardiya yoki hansirash tarzida paydo bo'ladi; jigarning o'lchamlari me'yor chegarasida qoladi	
II A	Me'yorga nisbatan YUQS daqiqasiga 15-30% va nafas olish soni 30-50% ga ko'paygan	Jigar qovurg'a yoyi ostidan 2-3 sm chiqqan

II B	Me'yorga nisbatan YUQS daqiqasiga 30-50% va nafas olish soni 50-70% ko'paygan; akrotsianoz, nam yo'tal, o'pkada mayda pufakchali nam xirillash bo'lishi mumkin	Jigar qovurg'a yoyi ostidan 3-5 sm chiqan; kerkish; bo'yin tomirlarining bo'rtishi
III	Me'yorga nisbatan YUQS daqiqasiga 50-60% va nafas olish soni 70-100% va undan ortiq ko'paygan; o'pka shishi belgilari	Gepatomegaliya, shish sindromi (yuz va oyoqlarning shishi, gidrotoraks. gidroperikard, assit)

Differensial diagnostikasi.

Norevmatik kardit uchun xarakterli:

- Virusli infeksiya bilan doimiy-xronologik kontaktda bo'lish.
- Kasallik latent davrining qisqaligi (5-7 kun) yoki bo'lmasligi.
- Kasallikning sekin-asta rivojlanishi.
- Artralgiya va artritning bo'lmasligi.

- Kardial shikoyatlarning faolligi va xilmassisligi.
- Miokarditning klinik va EKG belgilarining mos kelishi.
- Valvulit (klapan zararl anishi) yo‘qligi.
- Perikarditning juda kam kuzatilishi.
- Kasallik debyutida astenizatsiya belgilarining bo‘lishi va termoregulyasiyaning buzilishi.
- Klinik belgilar bilan labarator tahlillarning mos kelmasligi
- YAllig‘lanishga qarshi davo muolajalardan ijobiy dinamikaning sekin bo‘lishi.

Kichik yoshli bolalarda NK ni TYUNlari, ya’ni atrioventrikulyar kommunikatsiyalarning to‘liq bo‘lмаган турлари, Ebshteyn anomaliyasi va magistral tomirlar transpozitsiyasi operativ davolangandan keyingi holati bilan qiyoslash ancha murakkab jarayondir.

Atrioventrikulyar kommunikatsiya uchun xarakterli:

- Tembri va lokalizatsiyasi har xil bo‘lgan sistolik shovqinning bo‘lishi.
- O‘ng qorincha va o‘ng bo‘lmachaning giperstrofiyasi.
- EKG da Giss tutami o‘ng oyoqchasining noto‘liq blokada bo‘lishi.
- Rentgenoskopiyada o‘pka rasmining

qalinlashishi va chap qorincha pulsatsiyasining kuchayishi kuzatiladi.

Ebshteyn anomaliyasi uchun xarakterli

- Kasallik paydo bo‘lishi bilan o‘tkazilgan O‘RVI ning aloqador emasligi.
- O‘pka gipertenziyasi kuzatilmagan holda o‘ng qorincha etishmovchiligi belgilarining ustunligi.
- O‘ng bo‘lmachaning kattalashuvi
- EKG da chap qorinchaning giperstrofiyasi va uning gipoksiyasi bo‘lmasligi kuzatiladi.

Magistral tomirlar transpozitsiyasini korreksiyasidan keyingi holati uchun xarakterli:

- EKG da YUEO‘ ning chapga og‘ishi
- Q tishchaning chap ko‘krak uzatgichlarida bo‘lmasligi, ayni paytda o‘ng ko‘krak uzatgichlarida borligi ko‘riladi.

Katta yoshdagи bolalarda surunkali NK ni revmokardit bilan difdiagnostika qilish zarur bo‘ladi.

Revmokardit uchun xarakterli:

- Kasallikning A-streptokokkli infeksiya bilan doimiy-xronologik bog‘liqligi.
- Kasallik latent davrining 2-4 hafta bo‘lishi.
- Kasalning yosh bo‘lishi
- Kasallikning o‘tkir yoki o‘tkir osti boshlanishi.
- Kasallik debyutida artralgiya va artritning

bo‘lishi.

- Kardial shikoyatlarning "passiv" ligi.
- Valvulit yoki perikarditning miokardit bilan qo‘shilib kelishi.
- Kardit belgilarini tez avj olishi.
- Kasallikning faol davrida klinik belgilarning labarator o‘zgarishlar bilan mos kelishi kuzatiladi.

Davosi. Ikki etapda olib boriladi:

1/ shifoxonada – kasallikni o‘tkir davrida yoki kuzgalgan davrida.

2/ poliklenika yoki sanatoriyada – davolashni davom ettirish.

Bemor o‘tkir kardit bilan shifoxonaga tushgandan, davolash uchun quyidagilarni uziga asos kilib olish kerak.

1.Etiologik davolash.

2. Bemorni immunologik reaktivligiga ta’sir kilish.

3. YUrak kon tomir etishmovchiliginini oldini olish.

Kasallikni o‘tkir davrida birinchi navbatda tushak rejimini 2-4 xaftaga joriy kilish.

Parxezi tulik, etarli darajada oksil va vitaminlar, etarli mikdorda kaliy tuzlari parxezda bo‘lishi kerak. Kaliy tuzlari ko‘prok kora mayizda, turshakda, anjirda bo‘ladi, ayniksa bemor gormon olayotganda berish kerak.

Sutkalik suvning msikdori, chikariladigan siyidik mikdori bilan aniklanadi /200-300 ml ga kam/, urtacha suvning sutkalik mikdori 400-600 ml bo‘lishi kerak.

Antibakterial terapiya 2-3 xافتада davomida beriladi, chunki kasallikni sababi virus-bakterial infeksiya bo‘lishi mumkin va kichik yoshdagi bolalarda asoratni oldini olish uchun beriladi.

Virusli karditlarni interval bilan davolash kerak, ayniksa ORVI va gerpetik infeksiyada juda effekt beradi. Karditga yalliglanishga Karshi va immunodepressiv xususiyatga ega gormonlarini berish ahamiyatga ega.

Bemorlarga miokarditni ogir shaklida va kon aylanishini buzilishida kichik kon aylanish doirasida dimlanish belgilari bulsa KISLOROD terapiyasini berish ahamiyatga ega.

Virusli karditda kasallikni boshida interferon berish kerak 2 tomchidan burun yiliga xar 2 soatda /do 3 ml/ sutkasida. Grippga karshi gamma globulin 1-2 dozada /0,2-0,3 ml/ kg 3 kun davomida

Bakterial karditlarda-pensillin, ampitsillin, oksatsilin bolaning yoshiga karab 10-14 kun davomida.

Surunkali karditda infekzion – allergik bulsa bitssillin 2-3 oy va undan ko‘prok vaktda kilish kerak.

YAlliglanishga Karshi preparatlar kinfekzion-allergik kelib chikishigaberiladi.

Nesteroid preparatlar beriladi: aspirin 0,2 g yoshiga

karab, voltaren 3 mg/ kg massasiga, brufen 8-10 mg/kg massasiga sutkasiga, indometatsin 3 mg/kg sutkasiga. Prepart ichiga kuniga 3-4 marta beriladi.

O'tkir miokarditni davolash kursi 4-6 xafta, o'tkir osti va surunkali retsidiyli miokarditda 6-8 xafta va undan ham ko'prok, sekinlik bilan dozasi mikdorini kamaytirilib boriladi, tutib turuvchi dozachaga.

Allergik miokarditda streoid gormonlarini berish tavsiya kilinadi. Streoid gormonlaridan-prednizolon 1-1,5 mg/kg massasiga. Davolash kursi xar bir bemorga individual xisoblanib ko'pincha 4-6 xafta davomida beriladi. Miokarditni ogir shaklida kon aylanishning buzilishi 2-3 darajasida streoid garmoni berish tavsiya etiladi 1-2 mg/kg massasiga. Kursi 3-4 xafta davomida beriladi.

Giperkoagulyasiya belgilari bulsa – DVS da heparin beriladi 100-150 ed /kg massasiga.

Trombotsitlarni adgeziya va agregatsiyasini kamaytiradigan preparat ko'rantil 3-5mg/kg kuniga yoei koantinol nikotinat vena ichiga yuboriladi.

Surunkali miokarditni kuzgalish davrida-steroid va nesteroid preparatlari beriladi, shu bilan birgalikda o'tkir davri pasayishi bilan xinolin katorida kirgan preparatlar-delagil, plakvenil 5-10 mg/kg kuniga 1-2 marta 3-6 oy davomida va kerak bo'lganda undan ham ko'prok.

Kasallikni o'tkir davri pasaygandan keyin stimullovchi

va tonusini oshiruvchi preparatlar beriladi: apilak shamda /svechkada/, kukrak yoshidagi bolalarga 0,005 g 3 marta 7 kun davomida katta yoshdagi bolalarga 0,01 g til ostiga 3 marta kuniga, eleuterokokk nastoyi 5-15 tomchi 3 marta kuniga.

Statsionarda davolash 4-5 xafadan bir necha oygacha.

Statsionarda davolab chikkandan keyin 8-12 oydan so'ng, sanator – kurortda davolash kerak.

Bunda gidrosulfat vannalari, dengiz suvi vannalari, dengiz suvi bilan ingalyasiya kilishlar kiradi.

Hamma bemorlar miokardit bilan dispanser kuzatuvda bo'lishi kerak. Ularni 3 oy davomida xar oyda teushirib, kuzatib boriladi, keyin 3oyda bir marta, 6 oyda, EKG da yozilib boriladi.

Kardioskleroz belgilari bulmasa dispanser uchytidan 5 yildan keyin olinadi.

Profilaktika. Miokarditni profilaktikasida asosiy urinni egallaydi: kichik yoshidan organizmni chiniktirish, ratsional oziklantirish, fizkultura va sport bilan shugullanish.

Oqibati – yaxshi tugashi mumkin / tulik sogayish, miokardioskleroz uchokli va tarkalgan, zararlanish gipertrofiyasi/ okibati yomon bo'lishi mumkin / yomon kechuvchi miokardit, kardioskleroz yurak bushligini

dilyatatsiyasi bilan, konstriktiv perikardit/.

Miokardit engil kechsa okibati yaxshi bo‘ladi va tulik sogayishi bilan yoki kardiosklerozni koldik kurinishi kuzatiladi. Miokarditda skleroz rivojlanishiga karamasdan bolalar shikoyat kilmaydi, yurak chegarasi normada yoki salgina kengaygan. EKG da ozgina uzgarish bo‘ladi.

Okibati yomon bo‘lishi mumkin agar, o‘pka gipertenziyasi va uzok vakt davomida chap qorincha etishmovchiligi bulsa.

Ma'ruza № 4.

BOLALARDA REVMATIK ISITMA KASALLIGI.

**Ma'ruza mashgulotlarining ta'lif
texnologiyasi.**

Mavzu	Bolalarda revmatik isitma kasalligi.
--------------	---

Talim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqtiga ko'rsatish	Talabalar soni : 20-60 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish – axborotli maruza
Maruza rejasi	<p>1.Revmatizmning zamonaviy talkini va etiopatogenezi.</p> <p>2.Bolalarda revmatizmning klinik xususiyatlari.</p> <p>3.Diagnostika kriteriylari va differentsial diagnostikasi.</p> <p>4.Davolash usullari, profilaktikasi va dispanser nazorat.</p>
O'quv mashgulotning maqsadi : Talabalarga bolalarda revmatik isitma kasalligini kechish xususiyatlari, diagnostik mezonlari, labarator- instrumental- grafik tekshiruvlari to'g'risida tushuncha berish. Qon aylanish etishmovchilik darajalarini aniklash. Klinikasi, bosqichli davolash rejasi va oldini olish tadbirlari to'g'risida tushuncha berish. Tekshirish usullari. Xastalik belgilari haqida tasavvurga ega bo'lish.	
Pedagogik vazifalar:	O'quv

	faoliyati natijalari:
<p>Talabalariga bolalarda bod kasalligi to'g'risida tushuncha berish. Qon aylanish etishmovchiligi darajasini aniqlay olishni o'rgatish. Xastalik belgilari haqida tasavvurga ega bo'lish, turli yoshdagi bolalarda yurak- qon tomir tizimining o'zgarishlarini baholay olishni o'rgatish. Bolalarda bod kasalligini aniqlay olish va revmatizm kasalligini etiologiyasi, patogenezi, klinikasi va davolashni o'rgatish.</p>	<p>Talabalari bolalarda bod kasalligi to'g'risida gi tushunchaga ega bo'lishi kerak. Qon aylanish etishmovchiligi darajasini aniqlay bila olishi kerak. Xastalik belgilari haqida tasavvurga ega bo'lish va turli yoshdagi bolalarda yurak- qon tomir tizimining o'zgarishlarini baholay bilishi kerak. Bolalarda bod kasalligini aniqlay olish va revmatizm kasalligini etiologiyasi, patogenezi,</p>

	klinikasi, klassifikatsiyasini, davolash va profilaktikasini bilishi kerak.
Talim berish usullari	Ko'rgazmali maruza, suhbat
Talim berish shakllari	Ommaviy jamoaviy
Talim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor
Talim berish sharoiti	UTV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nvzorat :savol-javoblar

Maruza mashg'ulotining texnologik xaritasi.

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
Tayyorgarlik bosqichi	<p>1.Mavzu bo'yicha O'quv mazmunini tayyorlash.</p> <p>2.Kirish maruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.</p> <p>3.Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish .</p> <p>4. O'quv fanini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish .</p>	
1.Mavzuga kirish (15 daqiqa)	<p>1 Ma'ruza mashguloti mavzusi, uning maqsadi va vazifalarini tanishtiradi.</p> <p>2.Talabalar o'quv</p>	Tinglaydilar

	<p>faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2- ilova).</p> <p>3.Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadi da savollar beradi (3-ilova).</p>	
2.Asosiy bosqich (55 daqiqa)	<ul style="list-style-type: none"> • 1.Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish kilish va izoxlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jixatlarini tushuntirib beradi. • 2. Bolalarda revmatizm kasalligini slaydlar yordamida tushuntiradi. • 3. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustaxkamlash maqsadi da quyidagi savollarni beradilar: 	Tinglaydilar, Yozadilar, javob beradilar

- | | | |
|--|---|--|
| | <ul style="list-style-type: none">• Revmatizm nima degani?• Revmatizmning etiologiyasi kanday?• Revmatizmning rivojlanishiga streptakoklarning axamiyati va surunkali infektsiya uchoklarining axamiyati kanday?• Revmatizmning bolalarda kechish xususiyatlari kanday?• Revmatizm kasalligini klassifikatsiyasida nimalar yoritilgan?• Revmatizm kasalligini etiopatogenetik davolash kanday?• Revmatizmning profilaktikasini olib | |
|--|---|--|

	<p style="text-align: center;">borishda nimalarga e'tibor berish kerak?</p> <p style="text-align: center;">•</p>	
3.Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>1 Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>2. Mustaqili ishlash uchun Sistemali kizil yugurdak, sistemali sklerodermiya-6 s mavzusini takdim etadi va internet asosida mazkur O'quv materialni o'qib kelish vazifasini beradi.</p>	Savollar beradilar, vazifani yozib oladilar.

MAVZU: BOLALARDA REVMATIK ISITMA KASALLIGI..

MA'RUDA MATNI : Revmatizm biriktiruvchi to'qimaning yalliglanish har akteridagi tizimli

kasallik bulib, yurak-qon tomir tizimining jaroxtanishi bilan kechadi.

Etiologiyasi B-gemolitik streptokokkning A guruxi bilan boglik. Revmatizm asosan (80%) bolalik davrida (7-15) eshda uchraydi, 30% xollarda oilaviy har akterda kechadi, 1% xolda mакtab eshidagi bolalarda uchrasa, 2 eshgacha bo'lgan bolalarda amaliyetda uchramaydi. Bolalarda orttirilgan yurak kasalliklarining asosiy sababchisi xam shu-revmatizm kasalligidir.

Yashash sharoitlarining yaxshilanib borishi, tizimli ixtisoslashtirilgan erdamning tashkil kilinishi va kompleks ravishda revmatizm profilaktikasini utkazish natijalarida, revmatizm bilan kasallanish har 1000 bolalar axolisiga 0,18%gacha kamaydi.

Bolalarda revmatizm muammolarini echish va bartaraf etishda bir kancha pediatrlar:

V.I.Molchanov,A.K.Kisel,
M.A.Skvortsov,V.P.Bisyarina, A.V.Dombrovskayalar
uz xissalarini kushganlar.

Epidemiologiyasi: Kasallikning boshlanishi utkazilgan streptokokkli infektsiyalar-surunkali tonzillitning avj olish davri, nazofaringit, sinusit, otitlar bilan boglik ekanligi aytib utilgan. Axoli zichligi yuqori bo'lgan joylarda,(sha har , mакtab uquvchilari orasida) infektsiyaning bir boladan ikkinchisiga utishi xam katta axamiyat kasb etadi. Streptokokk tabiatidagi

turli kasalliklar (skarlatina, glomerulonefrit, revmatizm, yuqori nafas yollarining katari) 10-20% xollarda maktab eshidagi bolalarda ko'p uchraydi. Infektsiya tarkatuvchilar bulib, ular asosan kasal kishilardir, ulardan atrof-muxitga utirib kolishi mumkin. Bu atrofdagi infektsiyaning yo'q umliligi 24-48 soat davomida saklanib koladi.

Infektsiya tarkatish davrida "A" guruxdagi streptokokkning virulent shtammlari tashuvchilar xam axamiyatga egadir. Tashki muxitda ular chidamli bulib, ma'lum bir sharoitda L-formaga (streptokokkning kobiksiz formasi) ga utadi. Infektsiya yo'q tirgan odamlarda kasallik simptsomsiz utishi (20-24%) eki ularda revmatizm kasalligining kelib chiqish i xam mumkin.

ETIOLOGIYaSI: Asosiy etiologik omil bulib, hozirgi vaktda V-gemolitik streptokokkning A guruxi xisoblanadi. Bu qon tseptsiyaning isboti bulib, (70%) aktiv revmatizm bilan kasallangan bemorlar qon i zardobida streptokokk antigenlari topiladi, streptokokk toksinlariga antistreptolizin-O (ASL-O), antistreptogialuronidaza (ASG), antistreptokinaza (ASP) va antidezoksiribonukleaza V ga antitelalar titri yuqori bo'ladi .

Anginani yaxshi davolamaslik va uzok muddat streptokokk tashuvchisi bo'lish kasallanish kelib chiqish i uchun sharoit bulib xizmat qiladi.

PATOGENEZ. Kasallikning kelib chiqish ida streptokokkli infektsiyaning massivligi va uzok vakt ta'siri, bundan tashkari makroorganizmning reaktiv xolatiga boglikdir. Kelib chiqish mexanizmida asosiy rolni immun reaktsiyasining tezlashgan va sekinlashgan turi va immun yalliglanishning shakllanishi muxim axamiyati bor. Streptokokkning ko'p gina antigenlari (kobikli va sitoplazma membranali) va fermentlari, organizmning to'qima antigenlari bilan bir kismi boglanadigan spetsifik antitelolar xosil bo'lishiga olib keladi. Ular tomonidan miokard sarkolemmasi va biriktiruvchi to'qima ning aloxida komponentlarining (fibroblastlar, glikoproteidlar, proteoglikanlar) antigen strukturasining buzilishi, antitelolar xosil bo'lishiga olib keladi. Qon da aylanib yurgan antitelolar va tarkibidagi antistreptolizin-O va S4 komponent komplementnisaklovchi immun komplekslar mikrotsirkulyator rusloni buzadi, yalliglanish mediatorlarining faollavshuviga olib keladi. Yalliglanish patogenezidai immunpatologik reaktsiyalar ishtirok etishini tasdiklaydigan xolatlar, bu-miokard to'qima sida depozitlarning ya'ni immun komplekslar antigen-antitelo komplementlarining topilishi va yana

kardit va xoreyaning kelib chiqish ida yuruvchi immun komplekslarrrning topilishidir.

Immunpatologik jaraenning kelib chiqish i albatta makroorganizmning reaktivligi va kisman streptokokkga karshi giperimmun javobning davomiyligi organizmdan streptokokkli eliminatsiyasi defektliligiga boglik.

Hozirgi vaktda revmatizning kelib chiqish i, genetik uzgaruvchanlik bilan boglanishiga misol kilib, ma'lum bir oilada revmatizm kasalligi uchrashining ko'pligi va bir tuxumdan rivojlangan egizaklar orasida uchrashi mumkinligini kursatish mumkin.

KLINIK MANZARASI: Kasallik asosan angina, skarlatina, nazofaringit bilan kasallangan kishilarda 2-4 xafka utgach, yuzaga chikadi. Biriktiruvchi to'qima ning diffuz shikastlanishi klinik manzaraning polimorfligini kursatadi. Kasallik tipik ko'rinishlaridan - kardit, poliartrit, xoreyadir. Kasallik o'tkir ,o'tkir osti eki latent kechishi mumkin, bunday xollarda tashxis kardit va yurak nuksoniga asoslanib kuyiladi. Kasallikning birinchi belgisi bolalarda: tana har oratining kutarilishi, xolsizlik,bu-gimlarda ogrik. Bunday bemorlarni tekshirib kurilganda, ularda kamqon lik va qon dagi bir kancha uzgarishlar: leykotsitoz, eritrotsitlar chukish tezligi (EChT) ning oshishi aniklanadi. Ba'zan revmatizm xoreyadan

boshlanadi. Revmatizmning faollik darajasiga va kechishiga kura simptomlar turlicha namoen bo'ladi .

Birlamchi revmokardit- bu yurakning xastalanishi bulib, u kasallikning kechish ogirligini ifodalaydi.Bolalarda erta ko'rinishlaridan biri xolsizlik va tana har oratining kutarilishi.Yurak soxasida ogrikka va noxush sezgiga shikoyat uncha bulmaydi.Miokard, endokard, perikard zararlanishiga qarab, ob'ektiv simptomlari namoen bo'ladi . Bolalarda revmatizmning yurak patologiyasi birdan bir va eng ko'p uchraydigani-miokardit (100%). Ob'ektiv kurganda taxikardiya eki bradikardiya, ayrimlarda yurak kiskarishi soni me'erligicha koladi. 85% bemorlarda yurak chegarasining chapga kengayishi klinik va rentgenologik kuzga tashlansa, barcha bemorlarda yurak chukkisida sistolik shovkin eshitiladi.

Miokarditda miokard interstitsiyasida diffuz uzgarishli ekssudativ yalliglanish kuzatiladi. Bemorning umumiyl axvoli ogir, terisi okargan, hansirash, sianoz, puls kam, qon bosimi pasaygan,yurak chegaralari kengaygan, yurak tonlari susaygan, yurak etishmovchiligi belgilari kelib chikadi.EKG da ritmning monotop buzilishi, bulmacha-korincha utkazuvchanligining keskinlashuvi, miokardda bioelektrik jaraenninguzgarishi (T-tishchaning pasayishi va uzgarishi, ST-segmentning pastga siljishi, elekrik sistolaning chuzilishi) anik-

lanadi.

FKGda 1 ton amplitudasining pasayishi, uning kengayishi va deformatsiyasi: patologik 3 va 4 tonlarning paydo bo'lishi, muskul har akterda sistolik shovkin kushiladi.

ENDOKARDIT-ko'pincha miokardit bilan birgalikda va 50-55% bolalarda uchraydi. Mitral klapan valvuliti shakllanib belgilari kasallikning birinchi kunlaridanok aniklanadi.

Asosiy klinik belgisi bu mitral klapan proektsiyasi zonasidagi "esuvchi har akterdagi" sistolik shovkindir.(5 nukta).Shovkin intensivligi vakt utishi bilan eki chap en bikiniga etganda, jismoniy zurikishda kuchayadi. Shovkin ko'pincha Qo'ltilq osti soxasida yaxshi eshitiladi. FKG da yurak chukkisida bo'lgan o'rta eki uncha katta bulmagan amplitudali o'rta eki yuqori chastotali pansistolik eki protosistolik shovkin eziladi.

Rentgenogrammada: yurak chap chegarasining kengayishi, yurak mitral qon figuratsiyasi aniklanadi.10% bemorlarda aortal klapan jaroxatlanadi, ko'krak kafasi tush suyagi chap kirrasi buylab diastolik bosim bilan boglik bo'lgan diastolik shovkin eshitiladi. Bunda FKGda yuqori chastotali protodiastolik shovkin eziladi.

Exokardiografiyada: mitral klapanning kengayishi, tabakalar uzgarishi natijasida exosignallar "paxmokligi", mitral va aortal regurgitatsiya belgilari, yurak chap kamerasi dilyatatsiyasi belgilari aniklanadi.

PERIKARDIT-endo-miokarditlar bilan birga uchrab, revmatik poliserozitning bir kismi deb karaladi. Klinik tashxis kuyish 1-1,5% xollarda, rentgenologik 40% xollarda, kompleks instrumental tekshirganda, exokardiografiya bilan birgalikda bu kursatkich foizi ancha yuqori bo'ladi .

Perikardit yalliglanish har akteriga kura quruq , fibrinoz va ekssudativ bo'ladi . Fibrinozli perikarditda o'grik sindromi bulib, ko'krak kafasi chap kirrasi buylab doimiy bulmagan perikardning ishkalanish shovkini eshitiladi (ipak shigirlashi, qorni ng girchillashiga uxshash).

Seriiali EKG da -R tishning utkirlashuvi, T-tishning QT interval bilan tipik, dinamik uzgarishi namoen bo'ladi . Exokardiogrammada esa perikard va epikardning kalinlashuvi va separatsiyasi kurinadi. Seroz-fibrinoz perikardit bemorlarning umumiy axvoliga ta'sir qiladi. Bemorning umumiy axvoli birdaniga emonlashadi, ranglari okaradi, ekssudat ko'p tuplanganda esa bemor yuzlari shishgan, buyin venalari shishib chikkan, hansirash paydo bo'ladi va tushakda majburiy xolatda (yarim utirgan) utiradi. Kuksi orqa

sida ogriklar yuzaga kelishi mumkin, gemodinamik buzilish belgilari tez kuchayadi. Bu belgililar bemori gorizontal xolatda bo'lganda kuchayadi. Puls tezlashgan bulib, kam tulikli, arterial bosim pasaygan bo'ladi , ayrim xollarda yurak soxasi burtib chikadi, yurak turkisi aniklanmaydi. Yurak chegaralari kengayadi, tonlar pasaygan.EKG da yurakning (miokardning) elektrik aktivligi pasayganligi aniklanadi. Rentgenog-rammada yurak chegarasining kengayganligi bilan birga, pulsatsiya kichik amplitudada va yurak qon turining tekislanganligi kuzatiladi. Rentgenda yurak soyasi shar eki trapetsiyasimon shaklda bo'ladi .

Exokardiogrammada esa epikard va perikardni bir - biridan ajratib turadigan exonegativ bushlik yuzaga kelganligi kuzatiladi. Bu bushlikning ulchami kancha ekanligini yurak xaltasi bushligiga yigilgan ekssudatning mikdoriga qarab bilish mumkin.

Shunday kilib, esh bolalarda birlamchi revmokardit, V streptokokkli infektsiyasini utkazgandan keyin yuzaga keladi, ko'p chilik bolalarda juda xam sust va kuchsiz rivojlangan klinik-funksional ko'rinishlar namoen bulib, bu yurakning 3 ta kavati xam zaralanishi bilan har akterlanadi.

QAYTALANUVChI REVMOOKARDIT .Patologik jaraen retsidivlanishiga imqon yaratadigan sharoitlar yuzaga kelib kasallikning takroriy xuruji boshlanadi, buning natijasida qaytalanuvchi revmokardit yuzaga keladi. Usmirlar va kattalarga nisbatan bu kasallik esh bolalarda kam uchraydi. qaytalanuvchi revmokardit kuchsiz rivojlangan ekssudativ yalliglanish komponenti bilan klapan zaralanishiga utadigan retsidivlanadigan miokardit ko'rinishida kechadi. Klinik kartinasida yurak tonlari ovozining uzgarganligi kuzatiladi, shuningdek yurak etishmovchiligi natijasida yuzaga keladigan yangi shovkinlar paydo bo'ladi , ritm buzilishlari kuzatiladi.

REVMATIK POLIARTRIT. Bunda asosan katta bugimlarda o'grik sindromi namoen bo'lishi bilan , bugim jaraenining asosida o'tkir eki o'tkir osti sinovit etadi.Sinovit noturgun, uchuvchan har akterda bulib, yalliglanish belgilari namoen bo'ladi . Hozirgi vaktda shish, giperemiya, bugim faoliyatining chegaralanishi bilan yuzaga chikadigan chin poliartrit kam uchraydi. Bugim sindromi poliartralgiya ko'rinishida namoen bo'ladi . Uning davomiyligi bir necha kundan 2-3 xaftagacha, retsidivlar bo'lishi mumkin.

XOREYa(kichik). Bu miyaning asosan striopallidar tizimining revmatik yalliglanishi bilan namoen bo'ladi .

11-13% revmatizm bilan kasallangan bolalarda uchraydi. Ayrim xollarda uzi karditdan aloxida kechadi. Kasallik asta-sekinlik bilan boshlanadi: uzini emon xis qiladi, uykusi buziladi, mакtabda ukishi pasayadi, bola ta'sirchan bo'ladi . 1-2 xافتадан keyin xoreyaning asosiy belgilari rivojlanadi:

1. Giperkinezlar-bunda har -xil mushak guruxlarida ixtiersiz ortikcha har akatlar ,emotsional xolatlarda, har -xil ta'sirlovchilar ostida kuchayadi, bemor uxlaganda bu har akatlar yo'q oladi.

2.Mushaklar gipotoniysi.

3. har akat koordinatsiyasi buzilishi.

4.Emotsional sferaning buzilishi.

Bolaning xulki uzgarib, xusnixati uzgaradi.Gayritabiyy ingrash, tirjayishlar kuzatiladi.Ayrim xollarda giperkinezlar soni ko'p bulib, bunda ixtiersiz har akatlar ko'pligi tufayli bolaning yurishiga, etishiga, ovkat eyishiga xalakit beradi, bola uzini boshkarib bilmaydi. Mushaklarning birdaniga gipotoniya bo'lishi giperkinezlarning cheklanishiga eki pasayishiga va paralitik ekt xoreyaning "yumshok" formasining rivojlanishiga olib keladi. Buni N.F.Filatov ezgan. Bunda pay va teri reflekslarining asimmetriyasi, bemorning engil darajada ozishi kuzatiladi. Gordon simptomining namoen bo'lishi,

ya'ni tizza refleksi kuzatilganda 4 boshli mushakning tonik kiskarishi har akterlidir. Giperkinezlar davri bir necha xtaftadan 2-4 oygacha davom etishi mumkin.

Hozirgi vaktda kichik xoreya atipik, chuziluvchan ogir retsidiy har akterida kechadi, asosan maktab eshidagi bolalarda klinik belgilari birdaniga emas asta-sekinlik bilan namoen bulib, astenizatsiya , vegetativ-tomir distoniyasi bilan kechadi.

Asab tizimining ogir revmatik zararlanishida o'tkir va surunkali meningoentsefalit, araxnoidit, ruxiy buzilishlar, polinevritlar yuzaga keladi. Esh bolalarda, shuningdek revmatizmning yurakdan tashkari boshka ko'rinishlarida: anulyar toshmalar, revmatik zotiljam, nefrit, gepatit, poliserozit kiradi.

Poliserozitning birdan-bir belgisi abdominal sindrom bulib, bunda korinda ogrik, korin parda zararlanishi belgilari bilan har akterlanadi.

TASNIFI. Revmatizm kechishi 2 ta bosqichda boradi: faol va remissiya davri. Faollikning 3 ta darajasi tafovut kilinadi: 1-minimal, 2- o'rta ogir, 3-maksimal, bularning har birida klinik simptomlar, laborator belgilari aniklanadi.

3-darajali faollikda ekssudativ yalliglanish komponentlari ustun turadi. Temperatura yuqori bulib, revmokardit manzarasi yakkol kurinadi. Poliserozitda

bugim sindromi kuzatiladi. Karditning belgilari rentgen , elektro va fonokardiografiyasida yakkol ifodalanadi.

Laborator kursatkichlar: qon da neytrofil leykotsitoz 10×10^9 G'l gacha , EChT 44mmG'sdan yo'q ori, S-reakтив oksilning musbatligi, zardobda globulinlarning darajasi 25% gacha kutariladi

2-daraja faollikda klinik, rentgenologik, elektrofonokardiografik belgilar kam ifodalangan.

1-darajali faollikda ekssudativ yalliglanish komponentlari bulmaydi, klinik va instrumental belgilar past bo'ladi .

Remissiya davrida klinik belgilar va shikoyatlar bulmaydi.

Revmatizm kechishiga kura:

1.O'tkir kechishi-kasallik 2,3 daraja faolligida klinik belgilar yo'q olishi 2-3oy davomida, yaxshi davolanganlikdan dalolat beradi.

2.O'tkir osti kechishi-belgilar sekin usuvchi va vakt-vaqt bilan kuzgalib turadi. 3-6 oygacha davom etadi.

3.Chuziluvchan kechishi- kasallik belgilari rivojlanishi 2 darajali faollikda, 6 oygacha rivojlanadi. Antirevmatik terapiya kam foyda beradi.

4.Uzluksiz- qaytalanuvchi kechishi.

5.Yashirin surunkali kechishi.

TASHXIS. Tashxis asosiy kriteriylari A.A.Kisel va keyinchalik Djonson va Nesterov ta'riflaganicha belgilanadi: 1.kardit, 2.poliserozit, 3.xoreya, 4.revmatik tuguncha, anulyar toshma, 5.revmatik anamnez, 6.antirevmatik terapiya effektivligi.

Kushimcha diagnostik kriteriylarga kiradi: har orat kutarilishi, artralgiya, leykotsitoz, EChT oshishi, S-reakтив oksilning paydo bo'lishi, streptokokk infektsiyasining bo'lishi.

Revmatizmning 3 ta asosiy belgilari: "kardit, poliartrit: xoreya" asosida tashxis tasdiklanadi.

DIFFERENTsIAL DIAGNOSTIKA. Kasallikning chuziluvchan faollikda kechishi, surunkali tonzillogen va sil intoksikatsiyasi bilan takkoslanadi. Norevmatik kardit, infektsion endokardit, tizimli kizil buricha, biriktiruvchi to'qima ning boshka tarkok kasalliklari, infektsion-allergik va revmatoidli artrit, tireotoksikoz bilan differential diagnostika kilinadi.

DAVOLASH.

Revmatizmni davolash 3 ta etapda olib boriladi. Aktiv revmatizm davrida statsionarda, remissiya payti poliklinika sharoitida va sanator-kurort davolash olib boriladi.

Statsionarda davolash: Revmatizmning 1-3 aktivlik darajalarida kattik tushak xolatida, shifoxona rejimiga rioya kilingan xolda olib boriladi. Revmokardit 1-3

darajasida 1-2 xafka davomida kattik tushak tavsiya kilinadi. Bu paytda nafas gimnastikasi,tushakda etgan xolda har xil har akatlar kilish mumkin, xonada yurish, esh bolalar tuvakda xonada fiziologik chikarishlarni olib borishi lozim. Kasallik kechishining 1-1,5 oylaridan boshlab yarim kattik tushak xolati tavsiya kilinadi.Bu paytda bolalar yurishi, oshxonaga,taxoratxonaga borishi,davolash gimnastikasi bilan almashtirish, oksilga boy maxsulotlar berish, kaliy saklovchi moddalar beriladi, suv va tuz chegaralanadi.

Medikamentoz davolashga streptokokkli infektsiyaga karshi preparatlar, yalliglanishga karshi dori vositalari va immunodepressiv preparatlar tavsiya kilinadi.Penitsillin preparatlari va uning analoglari eshiga qarab 12-15 kun davomida beriladi. Penitsillin bilan birga yalliglanishga karshi preparatlar : aspirin,pirazolon katoridagi dori vositalari beriladi. Aspirin 1 eshli bolaga 0,2g sutkasiga, amidopirin 0,15 g beriladi. Kasallikning ogir aktivligida yalliglanishga karshi kortikosteroid preparatlar beriladi.Prednizolon 0,75-1 mgG`kg tana vazniga qarab beriladi. Asosan birlamchi revmokarditda va yalliglanishning ekssudativ jaraenida kullaniladi. Bemorning axvoli yaxshilanib borishiga qarab prednizo-lonnning maksimal sutkasiga qarab berilib, asta-sekinlik bilan kamaytirib boriladi. Gormonoterapiyaning

davolash kursi 30-40 kunni tashkil etadi. Revmatizmning davolanishi dinamikada qon azmoyishlarining dinamikasiga qarab eritrotsitlar chukish tezligi, revmosinamalarning yaxshilanishiga qarab olib boriladi. Sungg paytlarda yalliglanishga karshi preparatlardan voltaren, indometatsin, ipobrufen kullash keng tarkaldi, kasallik kechishi chuzilib ketgan paytda plakvenil, delagil, xinolin katordagи dorilar 5-10 mlG`kg beriladi.

Kasallarni reabilitatsiya kilish va oxirigacha davolash sanator-kurort sharoitida 2-3 oy davomida utkaziladi.

Revmatizmni davolashning 3 etapi poliklinika sharoitida olib boriladi. Revmatolog kasallik aktivlashmasligi uchun ikkilamchi profilaktika olib boradi. Buning uchun yil davomida yiringli uchoklarni sanatsiya kilish, kuz va baxor oylarida bitsillinterapiya , bir oyda bitsillin-5 1 marta, har kuz va baxorda 3-4 xaftha mobaynida aspirin bilan davolash maksadga muvofik. Revmatolog tomonidan qon azmoyishlari, EKG, revmosinamalar dinamikada tekshirib boriladi.

PROGNOZ.

Rematizmdan oxirgi yillarda ulim 11-12% dan 0,4-0,1 foizga tushgan. Birlamchi revmokardit 10-15 foiz bolalarda mitral klapan etishmovchiligiga olib kelsa, 40 foiz bolalarda qaytalanuchi revmokarditlar shu patologiyaga olib keladi.

Amaliy mashg'ulot № 1.

Amaliy mashg'ulot o'qitish texnologiyasi

Mavzu	<i>Bolalarda o'tkir pnevmoniya. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi.</i>
--------------	--

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqtı – 4 soat	Talabalar soni 8 -12 tagacha
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan seminar
Mavzu rejası	<ol style="list-style-type: none"> 1. Bolalarda pnevmoniya to'g'risida tushuncha 2. Pnevmoniya etiologiya va patogenezi 3. Pnevmoniya klinikasi va tasnifi. 4. Pnevmoniyaning patogenetik davosi va profilaktikasi 5. Nafas olish a'zolarini tekshirish usullari. 6. Turli yoshdagи bolalarda nafas olish tizimining o'zgarishlari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarda bolalar pnevmoniyasi to'g'risida tushuncha berish. Pnevmoniyaning etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tasnifi, patogenetik davosi va profilaktikasini o'rgatish. Tekshirish usullarini va klinik tashxislashni o'rgatish. Turli yoshdagи bolalarda nafas olish tizimining o'zgarishlarini baholash.	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari</i>

<ul style="list-style-type: none"> - Talabalarga bolalarda nafas olish a'zolarining anatomo – fiziologik xususiyatlari to'g'risida tushuncha berish. - nafas olish a'zolarini tekshirish usullarini o'rgatish - Xastalik belgilari haqida tasavvurga ega kilish. - Turli yoshdagi bolalarda nafas olish tizimining o'zgarishlarini baholay olishni o'rgatish. - Bolalarda pnevmoniya kasalligini aniqlay olishni tushuntirish - Pnevmoniya kasalligini etiologiyasi, patogenezini, klinikasi va davolashni o'rgatish 	<ul style="list-style-type: none"> - Talabalar bolalarda nafas olish a'zolarining anatomo – fiziologik xususiyatlari to'g'risida tushunchaga ega bo`lishi kerak. - nafas olish a'zolarini tekshirish usullarini o'rganish va aytib berish - Xastalik belgilari haqida tasavvurga ega bo`lish. - Turli yoshdagи bolalarda nafas olish tizimining o'zgarishlarini baholay olishni o'rganish. - Bolalarda pnevmoniya kasalligini aniqlay olish
--	--

	- Pnevmoniya kasalligini etiologiyasi, patogenezini, klinikasi va davolashni o'rganish
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor so'rov, savol – javob
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, kichik guruxlarda ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, multimedia, video, kompyuter, proektor, plakat,

	flip karta, markerlar, doska, bo'r, «simulyas ion xona jixozlari» va h.k.
Ta'lim berish sharoiti	UTV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol – javob, mustaqili ish, ma'ruza, amaliy va klinik mashg'ulot daftari

Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichla ri va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
Tayyorgar lik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash va kutilayotgan natijalarini shakllantiradi 2. Amaliy mashg'ulotining	

	<p>taqdimot slaydlarini tayyorlaydi</p> <p>3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish .</p> <p>4. O'quv kursini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish .</p> <p>5. Mavzuga oid yo'riqnomalarni tuzadi.</p> <p>6. O'quv topshiriqlarni tayyorlaydi</p>	
1.Mavzug a kirish (15 daqiqa)	<p>1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p> <p>2. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.</p> <p>3. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadi da savollar beradi</p>	<p>Tinglaydilar, savollarga javob beradilar.</p> <p>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar</p>
2. Asosiy bosqich. (145	<p>1. Mavzuga oid tayanch so'z va iboralarni izoxlab beradi.</p> <p>2. Talabalarni 2-4 tagacha kichik</p>	<p>Tinglaydilar, asosiy jixatlarini</p>

daqiqa)	<p>guruxga bo'ladi va guruxlarda xamkorlik asosida ishslash usuli qoidalari bilan tanishtiradi. har bir gurux mavzu rejasi asosda taqdimot tayyorlashini aytadi.</p> <p>3. O'quv kursi mavzulari asosida taylorlangan varakalarni tarkatadi.</p> <p>4. Guruxlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. taqdimot materiallari mazmunan va mantikan tulik yoritilishini kuzatadi.</p> <p>5. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Guruxlarda sardorlar taqdimotini tashkillashtiradi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa , gurux sardorini to'xtatadi, savollar beradi, muxokamasini jamoaga havola etadi.</p> <p>6. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni ragbatlantiradi va umumiylar baxolaydi.</p>	<p>yozib oladilar Kichik guruxlarga bo'linadilar.</p> <p>Topshiriklar bo'yicha ishlaydilar Faol qatnashadilar, taqdimot uchun materiallar tayyorlaydilar. Guruxdan sardor tanlashadi, uning taqdimotida xamkorlik qiladilar. Savollarga javob beradilar. tinglaydilar</p>
---------	--	---

	<p>7 Mavzuga oid bemorlarni ko'rsatadi.</p> <p>8. Bemor kuratsiyasini taxlil qiladi.</p> <p>9. Kasallik tarixini tekshiradi</p>	<p>Mavzuga oid bemorlarni ko'radilar.</p> <p>Bemor kuratsiyasini taxlil kilishda ishtirok etadilar</p>
3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)	<p>1. Mavzu bo'yicha talabalar bergen savollarga javob beradi.</p> <p>2. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi.</p> <p>3. Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini taxlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi</p> <p>Mashg'ulot mavzusiga oid mustaqil ish;</p> <p>o'zlashtirish ishi « Atipik pnevmoniylar» – 5 s</p> <p>Referat, Krossvord, Internet ma'lumotlaridan tayyorlashni topshiradi</p>	<p>Savollar beradilar.</p> <p>tinglaydilar</p> <p>Uyga vazifani va mustaqil ish mavzusini yozib oladilar</p>

BOLALARDA PNEVMONIYALAR

Pnevmoniya (zotiljam) – o‘pka to‘qimasining o‘tkir yallig‘lanishidir.

O‘tkir pnevmoniyalar bolalarda ko‘p uchraydigan kasalliklar katoriga kiradi. O‘tkir pnevmoniya bilan kasallanish xar 1000 ta boladan 10-30 tasiga to‘g‘ri keladi. Bolalarda o‘tkir pnevmoniya bilan kasallanishning yuqoriligi ularning anatomo-fiziologik xususiyatlari hamda immun sistemasi xususiyatlariga bog‘liq.

Bolalarda o‘tkir pnevmoniya ko‘p rivojlanishiga moyillik tug‘diruvchi faktorlar kuyidagilardir:

1. YUqori nafas yo‘llari anatomik o‘lchamlari va struktur tuzilish xususiyatlari. Erta yoshdagи bolalarda traxeya va bronxlar kalta va keng, shuning uchun infektion agentlarning o‘pkaga o‘tishi oson. Mayda bronx va bronxiolalar esa tor, ularning devorida mo‘sak va biriktiruvchi to‘qima kam, shu sababli ular tez bekilib koladi va cho‘kadi. Bu esa infektion agentlarning bronx daraxtidan evakuatsiyasini qiyinlashtiradi va infeksiyaning bronxogen yo‘l bilan tarqalishiga sharoit tug‘iladi.

2. Erta yoshdagи bolalarda bronxial daraxt shoxlanishining uziga xos tuzilishi sababli, ya’ni bronx va bronxiolalarning differensiatsiya darajasi past

bo‘lganligi uchun bronxial daraxt drenajlanishini kiyinlashtiradi.

3. O‘pkaning gistologik tuzilish xususiyatlari, ya’ni o‘pka to‘qimasida elastik tolalar va surfaktant etishmovchiligi natijasida emfizema va atelektazlar tez rivojlanadi.

4. Mukotsiliar klirens etilmaganligi, ya’ni bronxial daraxtni koplab turgan shillikning yot jismlarni chikarib tashlash xususiyati yaxshi rivojlanmaganligi.

O‘tkir pnevmoniya.

O‘tkir pnevmoniya – o‘pka to‘qimasining o‘tkir yallig‘lanishli kasalligi bo‘lib, o‘pka to‘qimasining infiltrativ uzgarishlari va nafas etishmovchiligi bilan xarakterlanadi.

ETIOLOGIYA

O‘tkir pnevmoniya rivojlanishi sababi infektion agentlar hisoblanadi. Kasallik mobaynida ajratib olingan mikroorganizmlar etiologik omil hisoblanadi. Oxirgi izlanishlar shuni kursatadiki, bolalarda o‘tkir pnevmoniya qo‘zg‘atuvchilari ko‘pincha pnevmokokklar (60-70%), gemofil tayokcha (40-50%), enterobakteriyalar (10%) va stafilokokklar (10%) hisoblanadi.

O'tkir pnevmoniya etiologiyasi ko‘p jixatdan bola yoshiga, kelib chiqish vaqtiga va bog‘liq.

TUG‘MA PNEVMONIYA ETIOLOGIYASI

ANTENATAL infitsirlanish:	INTRANATAL infitsirlanish:
-toxoplazma gondii, rubella, cytomegalovirus -herpes simplex virus, -treponema pallium, -listeria monocitogenes/	-streptokokklar V gurux -C.trachomatis, E.Coli, -Klebsiella spp, -U.urealitica, -M.Hominis

SHifoxonadan tashkari pnevmoniyalar etiologiyasi

YOsh i	Viruslar	Bakteriyalar
---------------	-----------------	---------------------

2 xafta- 2 oy	Rinosintitsial virus, adenovirus, paragripp virusi	S.aureus, gramnegativ enterobakteriya, C.trachomatis
2 oy- 1 yosh	RS-virus, paragripp, gripp A, V, adenovirus, rinoavirus enterovirus, kizamik va kizilcha koronovirusi, suv chechak virusi	S.pneumoniae, H.influenzae, M.pneumoniae, C. pneumoniae, S.aureus, S.pyogenes
5-7 yosh	Rinosintitsial virus, paragripp 3i 1 tur, gripp A va V, adenovirus	S.pneumoniae, M. pneumoniae, H.influenzae, C. pneumoniae
7 yoshdan katta	Gripp A va V, paragripp 3 i 1 turi	M.pneumoniae S.pneumoniae C.pneumoniae

GOSPITAL PNEVMONIYA ETIOLOGIYASI

Bo‘limlar profilı	Patogenlar

Reanimatsiya, ORIT, xirurgiya	Yiringli ko'k tayoqcha, tillarang va epidermal stafilokokk, ichak tayoqchasi, klebsiella, atsinetobakter, kandida
Onkogematolo giya	Yiringli ko'k tayokcha, tillarang va epidermal stafilokokk, ichak tayoqchasi, enterobakteriyalar, aspergillyus
Terapevtik bo'limlar	tillarang va epidermal stafilokokk, klebsiella
Ventilyator_as sotsiyalangan pnevmoniya: erta- kechki-	YOshning etiologik strukturasiga mos Ps.aeroginosaes,S.marsensens,Acinetobacter spp., S.aureus, Klebsiella, E.Coli, Candida

Immunokomprement bemorlarda pnevmoniya etiologiyasi

Bemorlar guruhi	Patogenlar
CHala tug'ilgan bolalar	Pneumocysta carinae, Ureaplasma urealitica
neytropeniiali bemorlar	Gramnegativ enterobakteriyalar, Kandida
Birlamchi hujayra immuntanqisligi bor	Pneumocysta carinae, Kandida

bemorlar	
Birlamchi gumoral immuntanqisligi bor bemorlar	Pnevmonokkk, stafilokokk, enterobakteriyalar
OITS bo‘lgan bemorlar	Pnev motsista, sitomegalovirus, sil mikobakteriyasi, Kandida

PATOGENEZ

Infektion agentlar ko‘pincha nafas yo‘llari orkali bronxogen (aerogen) yo‘l bilan tarkaladi. Gematogen yo‘l bilan katta qon aylanish doirasi qon tomirlari orqali kelishi mumkin. O‘pkaning bu xilda zararlanishi septik holatlarda va homila ichi pnevmoniyasida kuzatiladi.

O‘tkir pnevmonianing patogenezi fazalari

I – faza: Mikroorganizmlarning kirishi va yuqori nafas yo‘llari shishli-yallig‘lanishli obstruksiyasi.

II – faza: Nospetsifik yallig‘lanish jarayonlari.

III – faza: Erkin radikalli oksidlanish jarayonlari aktivlashuvi.

IV – faza: Nafas regulyasiyasining patofiziologik mexanizmlari buzilishi.

V – faza: Nafas etishmovchiligi va o‘pkalarning nafas funksiyasi buzilishi.

VI – faza: Organ va sistemalarda metabolik va funksional buzilishlar.

Nafas etishmovchiligi – organizmning shunday holati bo‘lib, bunda o‘pkalar arterial qonda normal gaz tarkibini ta’minlay olmaydi. Nafas etishmovchiligining 3 darajasi farqlanadi.

Daraja	Klinik xarakteristika	Tashki nafas ko‘rsatkichlari	Qonning gaz tarkibi, KAX
I	Hansirash jismoniy zurikishda, peroral sianoz bezovtalanganda kuchayadi. P:N = 2,5:1, taxikardiya, AB normada	MNX oshgan, O‘TS va NX pasaygan	O ₂ ga to‘yinganlik 90%
II	Bola tinch turganda ham hansirash bor, doimiy, peroral sianoz, akrotsianoz. AB oshgan.	MNX oshgan, O‘TS kamaygan 25-30% ga	O ₂ ga to‘yinganlik 70-85%.

	Taxikardiya, P:N = 2-1,5:1		Nafas yoki metabolik atsidoz
III	Hansirash aks etgan (nafas normadan 150% ga ko‘p). Tarqalgan sianoz. AB pasaygan. P:N o‘zgaruvchan.	MNX pasaygan, O‘TS va NX kamaygan 50% gacha	O ₂ ga to‘yinganlik 70% dan kam. Dekompenсirlangan aralash atsidoz

O‘TKIR PNEVMONIYA TASNIFI

Morfologik shakli	Infitsirlanish sharoiti	Kechishi	Asorati	
			o‘pkada	O‘pkadan tashqari
o‘choqli segmentli o‘choqlar ni qo‘shilishi	shifoxonadan tashqari shifoxonachi perinatal infitsirlanis	o‘tkir cho‘zilgan	plevrit destruksiya pnevmotor aks piopnevmostoraks	infektion-toksik shok DVS-sindromi yurak-tomir etishmovch

krupozli interstitsia l	h immunodefisi tsit holatlardagi			iligi respirator disstres
-------------------------------	---	--	--	---------------------------------

KLINIKA VA DIAGNOSTIKA.

YUqorida ko'rsatilgandek, o'tkir pnevmoniya klinik kechishiga ko'ra o'choqli, segmentar, krupoz pnevmoniya va interstitsial pnevmoniya sifatida kechishi mumkin. O'tkir pnevmoniyaning kechish shaklini aniklash birinchi urinda kasallik okibatini bilish va uni davolashda kuriladigan chora-tadbirlar va tanlov preparatlarini aniklashda muxim ahamiyatga ega.

O'choqli pnevmoniya.

Kasallikning eng ko'p kuzatiladigan shakli bo'lib, 1-3 yoshdagi bolalarda kuzatiladi. YAllig'lanish o'choqlari bir necha segmentni yoki bir bo'lakni egallaydi. Rentgenogrammada o'choqli soyalar beradi.

Kelib chikish sababi ko'pincha virus-bakterial. Bunda qo'zg'atuvchi bronxogen yo'l bilan kirib, yallig'lanish bosqichli boradi: traxeobronxit – bronxit – o'choqli bronxopnevmoniya.

O‘choqli bronxopnevmoniyada bolaning tana xarorati 38°S gacha ko‘tarilib, 3-5 kun va undan ko‘p saklanadi, yo‘tal oldin quruq bo‘lib keyin nam; nafas olishi tez va qiyinlashgan.

Bola ko‘zdan kechirilganda:

- Kataral belgilar: tumov, shillik pardalar giperemiyalashgan.
- Intoksikatsiya simptomlari: teri koplamalari okarishi, holsizlik, darmonsizlik, ishtaxa yo‘qolishi, uykuning buzilishi va b.
- Nafas etishmovchiligi belgilari: aralash tipda hansirash, peroral yoki tarkalgan sianoz, burun qanotlari kerilishi, qovurg‘alar oralig‘i va o‘mrov suyagi usti chuqurchalari tortilishi.

Palpatsiyada ovoz dirillashi kuchayadi, yallig‘lanish jarayoni tarkalganlik darajasiga bog‘liq ravishda.

Perkussiyada zararlangan soha ustida o‘ziga xos to‘mtoqlashgan timpanit aniqlanadi.

Auskultatsiyada dag‘al nafas fonida boshida quruq, keyin mayda va o‘rta pufakli ho‘l xirillashlar aniklanadi. SHuningdek zararlanish ustida krepitatsiya eshitiladi. Bronxofoniya kuchayadi.

Rentgenologik tekshiruvda o‘pka surati kuchayishi, o‘pka ildizi kengayganligi, o‘pka maydoni

yorugligi oshganligi (emfizema xisobiga), o'choqli soyalar (infiltratsiya xisobiga) aniklanadi. O'choqli soyalar noto'g'ri shaklda, ulchami 0,5-0,7 dan 1,5-2,5 sm gacha.

Qonda yallig'lanish jarayoni belgilari aniklanadi. Leykotsitoz, leykotsitar formularini neytrofillar hisobiga chapga siljishi, ECHT 2-30 mm/s gacha oshishi.

O'choqli bronxopnevmoniya o'z vaqtida to'g'ri davolanganda kechishi yaxshi oqibatli. 2-3 xtaftada bola tuzaladi.

Segmentar pnevmoniya

O'pkaning bir yoki bir nechta segmenti zararlanishi bo'lib, kasallik avj olganda rentgenogrammada infiltrativ soya segment (yoki segmentlar) anik anatomik chegaralariga mos keladi.

Klinik nuqtai nazardan segmentar bronxopnevmoniya alohida tasnifga ajratish muxim, chunki u cho'ziluvchan kechishga moyil bo'lib, ko'pincha chegaralangan pnevmoskleroz va surunkali pnevmoniya rivojlanishi bilan yakunlanadi.

Segmentar bronxopnevmoniya bilan matabgacha va matab yoshidagi bolalar kasallanadi.

Ob'ektiv tekshiruvda yuqori nafas yo'llari kataral uzgarishlari, yo'tal, nafas etishmovchiligi belgilari, intoksikatsiya simptomlari (bosh ogrigi, uyku buzilishi,

ishtaxa pasayishi, teri koplamalari okarishi, kuz ostida «soyalar» bo‘lishi) topiladi. Tana xarorati 38⁰S gacha ko‘tariladi.

Palpatsiyada aniq segmentar pnevmoniya xos belgilar kuzatilmaydi.

Perkussiyada zararlangan segment ustida perkutor tovush tumtoklashuvi aniklanadi. To‘mtoqlashish anik chegarali bo‘ladi.

Auskultatsiyada zararlangan segment ustida susaygan nafas, boshka joylarda dag‘al nafas fonida quruq va mayda, o‘rta pufakli ho‘l xirillashlar eshitiladi. SHuni aytib o‘tish kerakki, auskultativ o‘zgarishlar qisqa muddatli bo‘lib, 3-5 kundan so‘ng yo‘qoladi va bu kasallik diagnostikasini kiyinlashtiradi.

Rentgenologik tekshiruvda o‘pka maydonida anik chizikli chegarali, zararlangan segment proeksiyasidagi soyalar aniklanadi.

Ratsional terapiya fonida infiltratlar 3-6 kunda suriladi, segmentar bronxopnevmonianing o‘rtacha kechishi 12 kunni tashkil etadi

Stafilokokkli pnevmoniya

Klinik jixatdan turli xil kechishi va og‘ir asoratlarga olib kelishi bilan xarakterlanadi.

Kasallik o‘tkir boshlanib, stafilokokkli pnevmoniya xos bo‘lgan klinik belgilar tez yuzaga

chikadi, toksikoz belgilari (holsizlik, uykuchanlik, anoreksiya, kusish, dispeptik buzilishlar) va og‘ir nafas etishmovchiligi bilan xarakterlanadi. Hansirash aralash tipda, 1 min da 60-80 tagacha nafas bo‘lib, nafas aktida yordamchi mo‘saklar ishtiroki, teri koplamalari okarishi, peroral yoki umumiy sianoz kuzatiladi.

Ob’ektiv tekshiruv ma’lumotlari o‘pkaning massiv zararlanishi, o‘pka destruksiyasidan darak beradi. Kasallik boskichiga bog‘liq holda perkussiyada o‘pka tovushi tumtoklashuvi, timpanit yoki kuticha tovushi aniklanadi. Auskultatsiyada nafas susaygan, ayrim paytlar amforik. Ko‘p mikdorda ho‘l xirillashlar eshitiladi, bu pnevmoniya bilan ko‘pincha birga keladigan yiringli bronxit natijasida. Ko‘pincha krepitatsiya aniqlanadi.

Stafilokkokli pnevmoniya bilan og‘rigan barcha bemorlar qon tahlilida anemiya, yuqori leykotsitoz (1 l da $12\cdot10^9$ dan ko‘p), neytrofilez, ECHT oshishi kuzatiladi.

Stafilokkokli pnevmoniya uchun patognomik belgi – o‘pkada havoli bo‘shliqlar – bullalar (pnevmutsele) bo‘lishi bo‘lib, ko‘pincha o‘ng o‘pkada bo‘ladi va diametri 1-5 sm gacha etishi mumkin.

Bullalar infeksiyalanganda yoki infiltratsiya o‘chog‘i yiringlaganda o‘pka abssessi rivojlanadi. Bunda rentgenologik tekshiruvda aniq chegarali, suyuqlik sathi

saqllovchi bo'shliqlar topiladi. Suyuqlik sathi bemor holatini o'zgartirganda o'zgaradi.

O'pkadagi yiringli o'choq plevra bushligiga yorilganda piopnevmotoraks rivojlanib, bolaning axvoli juda og'irlashadi. Bola juda bezovta, teri koplamalari va shillik pardalar sianozi oshib boradi. Nafas va yurak etishmovchiligi rivojlanadi. Perkussiyada timpanit, kuks oraligi sog tomonga siljiydi. Auskultatsiyada susaygan nafas eshitiladi, mayda pufakchali ho'l xirillashlar, plevra ishkalanish shovkini bo'lishi mumkin.

Rentgenologik jixatdan piopnevmotoraksda o'pka pastki soxasida gomogen soyalanish bo'lib, ustida suyuqlik sathi va havo bo'ladi. Zararlangan tomondagi o'pka kollabirlangan va ko'ks oralig'iga qisilgan, ko'ks oralig'i sog' tomonga siljigan.

Taranglashgan (klapanli) pnevmotoraksda zararlangan tomonda yoruglanish, o'pka surati yo'q, o'pka to'liq cho'kkан va ko'ks oralig'iga qisilgan, ko'ks oralig'i karama-karshi tomonga «mediastenal churra» xosil kilib siljigan. Bemorning har qanday holatida suyuqlik sathini aniqlab bo'lmaydi.

Krupoz pnevmoniya

Krupoz zotiljam- ko'prok maktab yoshidagi bolalarda uchrashi va ma'lum davriy ravishda kechishi uning patogenezi allergiya va organizm immuno-

biologik xususiyatlariga bog‘liq ekanligidan dalolat beradi. Ba’zi olimlarning fikricha mayda yoshdagι bolalarda pnevmokokklarga nisbatan sensibilizatsiya (o‘ta sezuvchanlik)ning yo‘qligi tufayli, ularda krupoz zotiljam deyarli uchramaydi. Krupoz zotiljamda morfologik jixatdan o‘pkaning bir bulagi yoki bir necha bulagi yalliglanadi. Bu kasallik odatda tusatdan keskin boshlanadi, bolaning isitmasi juda tez kutarilib, varaja to‘tishi mumkin, uning umumiy axvoli keskin uzgaradi, bosh ogrigi kuzatiladi. Bemor kasallikning dastlabki kunlarida axyon-axyon yo‘taladi, balg‘am ajratilmaydi.

Krupoz zotiljam anik davriy kechishiga ega bo‘lib, uning to‘rtta davri farklanadi:

1 davr - dastlab yallig‘lanish boshlangan joyda qon tomirlarida qon aylanishi kuchayadi va bu holat 1-2 kun davom etadi (qon dimlanish davri). Bu davrda yallig‘lanish soxasida nafas olish shovkini susayib eshitiladi va doimiy bulmagan krepitatsiya paydo bo‘lishi mumkin

2 davrida - qizil qon tanachalarining diapedez yo‘li bilan to‘qimalarga, alveolalarga o‘tishi natijasida o‘pka to‘qimasi kattiklashadi va shuning uchun perkutor tovushning susayganligi, eshitib kurilganda esa shu joyda nafas olishning kuchayishi (bronxial nafas) eshitiladi.

Kasallikning bu davri ham 2-3 kun davom etadi. Bemorning axvoli yana ham og‘irlashib, burun

qanotlarining kerilishi, lablarda uchuqlarning paydo bo‘lishi, yonoklarining qizarishi kabi belgilar kuzatiladi. O‘pkada xirillashlar aniklanmaydi.

3 davrda - 4-7 kun mobaynida nafas olish yaxshilanib boradi, bronxofoniya (bemorning elkasiga kaftlarni kuyib turganda nafas olish jarayoni sezilishi) yanada kuchayadi. Bemorning tana xarorati keskin tushib, yo‘tal ko‘payadi. O‘pkani eshitib kurilganda, bir tutam sochni barmoklar orasiga olib ishqalanganda kelib chiqadigan tovushni eslatuvchi ko‘p miqdordagi nafas xirillashlarni eshitish mumkin.

4- tuzalish davrida nam yo‘tal kuchayib, balg‘am ajralib chiqa boshlaydi, bemorning tana harorati mo‘tadillashib, chiroyi ochila boradi. Auskultatsiya yordamida ko‘plab har xil xajmdagi nam xirillashlarni eshitish mumkin. Odatda bemor 1-2 hafta davomida darddan forig‘ bo‘ladi. Krupoz zotiljamning davriy hollarda kechishi keyingi vaktlarda antibiotiklarni keng ko‘lamda qo‘llash tufayli tobora kam uchraydigan hol bo‘lib kolmokda. Hozirgi davrda ko‘prok uning abortiv yoki atipik turlari uchrab, bunda o‘pkaning butun bir bo‘lagi emas balki bir nechta segmenti zararlanganligi aniqlanmoqda. Keyingi yillarda kasalliklarni tashxisi yaxshilanib, o‘z vaktida antibiotiklarning qo‘llanilishi bolalarda plevrit, o‘pka absessi, perikardit, miokardit,

meningit, osteomielit kabi asoratlarning oldini olish imkoniyatini bermokda.

Interstitsial pnevmoniya.

Asosan viruslar, pnevmotsistlar, mikoplazma va zamburug‘lar tomonidan chaqirilib, ko‘pincha chaqaloq bolalarda, ular chala tug‘ilgan bo‘lsa, yoki gipotrofiya, anemiya bilan kasallangan nimjon bolalarda rivojlanadi. Interstitsial zotiljamda bemorning umumiyligi axvoli juda tez og‘irlashadi, burun kirralari kerilib, nafas olishi shovqinli bo‘ladi, lab atrofi va yuzda kukarish kuzatiladi. Xurujsimon chuziluvchan, og‘ir yo‘tal kelib chikadi. SHunisi uziga xoski, bu holda bemorning axvoli og‘ir bo‘lishiga karamasdan o‘pkada perkutor va auskultativ uzgarishlar kamrok topiladi: nafas olish biroz susaygan, onda-sonda nam va dag‘al quruq xirillashlar eshitiladi. CHunki asosiy jarayon o‘pkaning oralik kushuvchi to‘qimasida boradi va bu hol rentgenologik tekshirish usuli bilan ham aniklanishi mumkin. Interstitsial zotiljam etiologik omiliga bog‘liq holda 1-2 xtaftadan, (xususan pnevmotsistali zotiljam) to 1-2 oygacha davom etadi.

DIFFERENTIAL DIAGNOSTIKA

Pnevmoniyalarni ko‘pincha bronxit, bronxiolitdan farklash kiyinchilik tugdiradi. O‘tkir bronxiolit mayda bronx va bronxiolalarning yallig‘lanishi bo‘lib, klinik jixatdan nafas etishmovchiligi bilan xarakterlandi.

O‘tkir pnevmoniyadan farkli holda o‘tkir bronxiolit klinikasiga quyidagilar xarakterli:

1. Tana xarorati 38°S gacha ko‘tariladi va ko‘pincha normal yoki subfebril.
2. Nafas etishmovchiligi belgilari yuqori nafas yo‘llari obstruksiyasi fonida, Hansirash ekspirator xarakterda.
3. Palpatsiyada uzgarishlar yo‘q.
4. Perkussiyada o‘pka tovushi kutichasimon, zararlanish ustida turgun bulmagan tumtoklashuv.
5. Auskultatsiyada nafas chikarish uzaygan, mayda va o‘rta pufakchali jarangsiz ho‘l xirillashlar.
6. Rentgenologik tekshiruvda o‘pka surati kuchaygan, obturatsion emfizema xisobiga.

O‘pka *tuberkulezi (sil)*-dan differensiatsiya kilishda anamnez (sil bilan og‘rigan bemor bilan qontaktda bo‘lish, silga qarshi emlashlar, biologik probalar xarakteri, temperatura), kliniko-rentgenologik tekshiruvlar, biologik sinamalarga ahamiyat beriladi. SHubxali holatlarda Mantu sinamasi, Pirke reaksiyasi,

Kox probasi kuyiladi. Tuberkulez ko‘pincha o‘pkaning yuqorigi bulagini, SZ esa o‘rtta va pastki bo‘laklarini zararlaydi. Tuberkulezning infiltrativ formalari uchun rentgenogrammada aniq konturli yumaloq yoki oval infiltratlar kalsifikatsiyalangan o‘choqlar, qalinlashgan bo‘laklararo plevra bo‘lishi xos.

DAVOLASH

Kasallikni barvakt aniklab o‘z vaqtida davolay boshlash zotiljamning kechishida katta ahamiyat kasb etadi. Davolash ishlari uy va shifoxona sharoitida olib borilishi mumkin. Kasallikning og‘irroq kechish ehtimolini hisobga olgan holda chakaloklar, ayniksa chala tug‘ilgan, tug‘ilish jarayonida asoratlar olgan bolalar, uy-joy sharoiti qonikarsiz, hamda ota-onalarning sanitariya-tibbiy saviyalari etarli emas, deb topilgan bemorlarni davolash uchun shifoxonalarga joylashtirish shart. Umuman 1 yoshgacha bo‘lgan barcha bolalar zotiljami shifoxonalarda davolanishi maqsadga muvofiq. Boshqa hollarda zotiljamni pediatr va tibbiyot hamshirasi kuzatuvchi ostida uy sharoitida davolash ma’kul, chunki bu bolaning boshqa xildagi yuqumli omillarni qayta yuqtirishdan saqlaydi. Mana shu sababli ham bemorlarni alohida bokslarga joylashtirish ayni muddao. SHifoxonada xonalar bemorlar bilan bir vaktda

to‘lg‘azilishi, hamda zotiljamning etiologiyasi aksariyat virusli ekanligi xisobga olib bir biridan yuqmasligi uchun kuniga 2-3 maxal bolalarning burniga interferon tomizib turishi lozim. Zotiljamni davolash ishi bemor organizmining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va ayni paytda kasallikning kechishi, uning asoratlarini nazarda tutgan holda ko‘p qirrali bo‘lmog‘i lozim. Bemor bolaning parvarishi ham zotiljamni davolashda muhim ahamiyatga egadir. Issiq iqlim sharoitida, ayniksa, yoz paytida suyuqlik miqdori 10-20% ga oshirilishi lozim.

Zotiljamning kechishida asosiy ko‘rsatgich bo‘lgan nafas faoliyati etishmovchiligin I darajasini davolash uchun aksariyat hollarda xonaning havosini kuniga 4-5 marta - xonada havo xarorati 18-20"S gacha pasayguncha shamollatish etarli bo‘ladi.

Nafas olish faoliyatining buzilishi II-III darajalarida esa havo tarkibidagi kislород mikdori 30-60 % bo‘lguncha boyitilib, bemorga beriladi. Namlangan (suv, spirt orqali o‘tkazilgan) kislородни Bobrov apparati orqali hidlatish keng qo‘llaniladi. Kislородни bolaga kislород chodirchasida yoki boshka kislородни o‘lchab o‘tkazuvchi asbob yordamida berish shubhasiz yaxshi natija beradi. Bundan tashqari, bolaning to‘sakka yotish vaziyatini vakt-vakti bilan almashtirib, lozim bo‘lsa, nafas yo‘llarini so‘rg‘ich yordamida shilimshiq moddalardan tozalab turish ham muhimdir.

Nafas etishmovchiliginini davolashda bolaning umumiyligi axvoli tomonidan monelik bo‘lmasa (isitma, zotiljamning og‘ir asoratlari bo‘lmasa), toza havoda sayr kilishning ahamiyati kattadir. Sayr qilishni havo harorati $10-15^{\circ}\text{S}$ bo‘lgandan boshlab, keyinchalik har $2-3^{\circ}\text{S}$ past bo‘lgan sharoitda va undan pastiga ham moslashtirib borish zarur, YOshi 3-12 oylik bemorlarni havo xarorati -5°S dan, 1-3 yosh bolalarni esa -10°S dan past bo‘lgan hollarda sayr kildirish mumkin.

Zotiljamning yuqumli omillarga bog‘liq ekanligini xisobga olib, kasallik aniqlangan zahotiyoyq antibiotiklar tayinlanadi. Qaysi antibiotikni qo‘llash ayni muddao ekanligini bilish, uchun etiologik omilni va uning antibiotiklarga sezuvchanligini aniqlash lozim. Bu esa 2-3 kun vakt talab etadi. SHuning uchun ham davolash aksariyat keng ko‘lamda tasir ko‘rsatuvchi antibiotiklardan boshlanadi. Ammo ba’zan kasallik manzarasi va epidemiologik vaziyatdan kelib chikib, taxminan etiologik omilni mo‘ljal qilish va antibiotiklar bilan davolash koidalaridan biri - bola organizmida ushbu doriga o‘ta sezuvchanlik yo‘qligiga ishonch hosil qilingach, antibiotiklar tayinlanadi. Ayrim antibiotiklar o‘zining xususiyatlari tufayli extiyotkorlik talab etadi: Masalan, streptomitsin, kanamitsin, gentamitsin, monomitsin eshituv a’zolari va buyrakka zarar etkazadi, shuning uchun ular erta yoshdagagi bolalarni davolash

uchun ishlatilmasligi lozim, shuningdek, ilikdan qon ishlab chikarishni pasaytiruvchi levomitsitinni chakaloklarni davolash uchun ishlatish nomakbuldir. Hozirgi paytda bolalarni davolash ishida zararlash darajasi yuqori bo‘lganligi tufayli tetratsiklinlar amalda o‘z ahamiyatini to‘liq yo‘qotdi.

Davolashdan natija yaxshi bo‘lishi uchun antibiotiklarni eng kamida 5-7 kun, ammo ko‘pi bilan 10-14 kundan oshirmsadan qo‘llash kerak. Agar kasallik og‘ir kechayotgan bo‘lsa, dorilarni mo‘sak orasiga yoki vena qon tomiriga yuborish, kasallikning engil shakllarida esa ichishga buyurilish lozim. Kasallik og‘ir, asoratlari kechayotgan hollarda ikkita antibiotik omuxta holda ishlatilishi maksadga muvofiqdir. Antibiotiklar omuxta holda qo‘llanilganda ularning o‘zaro ta’siri hisobga olinishi kerak. SHunday qilinmasa, omuxta ishlatilgan antibiotiklar o‘zlarining nomakbul ta’sirini kuchaytirib, bemorga yordam o‘rniga zarar etkazishi mumkin.

Antibiotiklar zotiljamni chaqirgan yuqumli omilga ta’sir kilish bilan bir katorda, organizmdagi odatdagisi mikroorganizmlar muvozanatini buzib, zamburuglar (kandidoz) rivojlanmasligi uchun, ayni paytda nistatin (50-100 ming birlik kuniga 3-4 marta) yoki levorin (80-100 ming TB) tayinlansa ma’kul bo‘ladi.

Zotiljam engil va o‘rta og‘irlilikda kechayotgan bo‘lsa, 1-1,5 yoshdan oshgan bolalarni sulfanilamid dorilar bilan davolash joizdir. Eng yaxshisi 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarga kuniga vaznining xar bir kg ga 0,2 gr dan, kattarok yoshdagilarga esa kuniga 2-3 gr dan sulfadimezin yoki sulfadeazalin 4-5 martaga bo‘lib, 8 soatlik tungi tanaffus bilan 5-6 kunga tayinlashdir. Sulfanilamidlar bilan davolanganda, bolaga ko‘prok suyuklik ichirish lozim. Bu dorilarning antibiotiklar bilan omuxta holda ishlatish mumkin. Sulfanilamidlarning uzok vakt ta’sir kiluvchi turlari (sulfadimetoksin va sulfamonometoksin) kuniga atiga bir marta: 1 kuni 0,025 gr/kg, keyinchalik esa 0,0125 gr/kg mikdorda tayinlanadi. Bu dorilar, ayniksa, antibiotiklarga bo‘lgan o‘ta sezuvchan bemorlarni davolash uchun juda qo‘l keladi.

Zotiljamni davolash jarayonida nafas olish faoliyatidan tashqari boshqa a’zolarning faoliyatiga ham jiddiy e’tibor talab kiladi. Kasallik og‘ir, asoratlari kechgan hollarda bolaning tana harorati yuqori bo‘lsa, uni echintirib, badanini $35 - 36^{\circ}$ li iliq suv bilan ishqalamasdan artish, bo‘yin va son soxasidagi yirik qon tomirlarining ustiga yupqa buyumga o‘ralgan muz quyish foydalidir. Bunday paytda paratsetamol 10 – 15 mg/kg tana vazniga rektal yoki ichishga beriladi.

Bolalarda talvasa bo‘lganda diazepam yoki paraldegid dori vositasini rektal yuborish lozim. Ampuladan dori vositani tuberkulin shpritsiga (1 ml) bola vazniga va yoshiga qarab olish kerak. Ignani shpritsdan chiqarib, shpritsni bolaning to‘g‘ri ichagiga 4 – 5 sm chuqurlikda kiritib eritmani yuborish kerak. Dumbalarni birlashtirib bir necha daqiqa ushlab turish kerak.

Agar bemorda astmatik sindrom belgilari kuzatilsa, dimedrol, suprastin, eufillin tayinlanishi lozim. Aksariyat holda antigistamin preparatlar va eufillin bilan birga ishlatiladi:

HOZIRGI ZAMON DAVOLASH USULLARI

CHAQALOQLAR PNEVMONIYASINI ANTIBAKTERIAL TERAPIYASI

Pnevmoniy a formasi	Etiologiya	Tanlangan preparati	Alternati v
Tug‘ma pnevmoniya	Streptokokki gr V, S, D, ichak tayoqchasi, klebsiella, stafilocokklar,	Amoksatsillin+a minoglikozid; Ampitsillin+ami noglikozid	sefotaksi m+amino glikozid seftazidim +aminogli

	listeriyalar, mikoplazma, ureaplazma, oq spiroxeta, viruslar, Kandida zamburug‘lari, anaeroblar		kozid eritromitsi n, azitromitsi n, penitsillin, ekzarsillin metronida zol, linkomitsi n
IVL bilan Assotsirlang an erta pnevmoniya	O‘sha	O‘sha	O‘sha
IVL Bilan assotsirlang an kechki pnevmoniya	Psevdomonadы, serratsii, klebsiellyы, stafilokokk, mikoplazma, xlamidiya	Seftazidim+AG; Sefapirozon+A G; Azlotsillin+AG Piperatsillin+A G	Vankomit sin Karbopen емы Eritromits in, azitromitsi n, midekamit sin,

			diflyukan, trimetapri m- sulfosaloz ol, Rifampitsi n, Tekoplam in
--	--	--	---

SHifoxona ichidagi pnevmoniyani davolashda birinchi ANTIBIOTIKning tanlanishi

Pnevmoniya boshlanguncha terapiya o‘tkazilishi	Tavsiya etiladigan davo
Davolanmagan	penitsillin, ampitsillin m/o
Penitsillin	oksatsillin, linkomitsin, sefalosporin 1 - avlodi
Sefalosporin 1- avlodi gentamitsin va aminoglikozid	Penitsillin, ureidopenitsillin
Gentamitsin	Aminoglikozyldar, Sefalosporinlar 3-4 avlodi, xinolinlar
Kombinirlangan:zamburug‘ga qarshi	Sefalosporinlar 3-4 avlodi, ureidopenitsillin va

	aminoglikozidlar
ureidopenitsillin, rifampitsin; aminoglikozidlar katta dozalarda	gentomitsin 15mg/kg/sut yoki amikatsin 30- 50mg/kg/sut

6 yoshgacha bolalarda shifoxonadan tashqari pnevmoniyada start preparatni tanlash

Bola yoshi, pnevmoniy a formasi	Etiologiya	Start preparat	Samara bermaganda almashtirish
1-6 oy, tipik pnevmoniya da	Koli inf, enterob.staf Pnevmonok k	Ichishga: penitsillin v/i, m/o, ampsillin+ oksatsillin, penitsillin yoki sefazolin	v/i, m/o: sefuroksim, seftriakson, sefatoksim, boshqa aminoglikozid ,
1-6 oy, atipik	Klostridiya, mikoplazm	Ichishga – makrolid	Ichishga: ko- trimaksazol

	a, ureaplazma		
6 oy-6 yosh, tipik asoratlanma gan	Pnevmonok k	Ichishga:amoksa tsillin, ospen, makrolid	Ichishga: penitsillin guruhi, sefalosporin 2-avlod, m/o, v/i,

Profilaktikasi:

Oldini olish tadbirlari. Zotiljamning oldini olish kuyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi: bola organizmining yuqumli omillarga chidamligi ko‘p jixatdan to‘g‘ri ovkatlantirishga bog‘liq ekanligini xisobga olib, go‘dak bolalarни ona suti bilai taminlash raxitning oldini olish va bolada raxit rivojlangan bo‘lsa, uni to‘g‘ri davolash bolaning toza havodan etarli baxramand bo‘lishini ta’minalash, uni jismoniy tarbiya, suvli muolajalar, havo vannalarini kullash bilan davolashni davom ettirish tavsiya kiladi maxalliy oromgoxlarning ustunligi shundaki ularga yuborilgan bemorlar uchun moslashuv davri talab kilinmaydi.

Okibati:

Kasallikning okibati uning kanday og‘irlikda kechishiga, vaktida va to‘g‘ri davolanishga, asaratlarning bor-yo‘qligiga hamda o‘pka va bronxlarning irsiy va tugma nuksonlarning mavjudligiga ko‘p jixatdan bog‘liqdir.

YO‘TAL YOKI NAfas QIYINLIGINI BAHOLANG VA TASNIFLANG

JSST tomonidan tavsiya etilgan “Bolalar kasalliklarini integrirlashgan usulda olib borish” strategiyasiga asosan yo‘tal yoki nafas qiyinchiligini baholashda pnevmoniya quyidagicha tavsirlangan.

Respirator kasalliklar nafas yo‘llarining har qanday qismida, masalan, burun, halqum, hiqildoq, traxeya, bronx-o‘pka yo‘llari yoki o‘pkada bo‘lishi mumkin.

Yo‘talayotgan yoki qiynalib nafas olayotgan bolada pnevmoniya yoki boshqa og‘ir respirator infeksiya bo‘lishi mumkin. Pnevmoniya, ya’ni zotiljam - o‘pka infeksiyasidir. Bu kasallikka viruslar ham, bakteriyalar ham sabab bo‘lishi mumkin. Rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda pnevmoniyaga ko‘pincha bakteriyalar sabab bo‘ladi. Bularning eng ko‘p tarqalgani *Streptosoccus rpeitotae* va *Netorfilus influensie* dir. Bakterial pnevmoniya bilan og‘rigan bolalar gipoksiya

(kislород etishmasligi) yoki sepsis (umumiy infeksiya) dan nobud bo‘lishi mumkin.

Ko‘pgina bolalar unchalik jiddiy bo‘lмаган respirator kasalliklar vajidan ambulatoriyalarga kelishadi. Yo‘talayotgan yoki qiynalib nafas olayotgan bolalarning aksariyatida engilgina infeksiya bo‘ladi, xolos. Masalan, shamollab qolgan bola burnidan chiqib turadigan shilimshiq halqumining orqa devoriga tushib qolgani uchun yo‘talishi mumkin. YOki bolada bronxit deb ataladigan virus infeksiyasi bo‘lishi mumkin. Bunday bolalar og‘ir bemorlar bo‘lib hisoblanmaydi. Ular antibiotiklar bilan davolanishga muhtoj bo‘lmaydi. Oilalar bunday bolalarni uy sharoitlarida davolashlari mumkin.

Tibbiy xodimlar yo‘talayotgan yoki qiynalib nafas olayotgan bolalarning qaysilari antibiotiklar bilan davolanishga muhtoj ekanligini bilib, aniqlab olishlari kerak. Ular mana bunday ikkita klinik belgiga: nafas tezlashuvi va ko‘krak qafasining tortilishiga qarab pnevmoniyani deyarli hamma hollarida aniqlay oladilar.

Bolalarda pnevmoniya boshlanganida ularning o‘pkasi rigid (qiyinlik bilan harakatlanadigan) holga kelib qoladi. O‘pkaning ana shunday rigid holatiga va kislород etishmasligiga (gipoksiyaga) javoban organizm ko‘rsatadigan reaksiyalarning biri tez-tez nafas olish, nafas tezlashuvidir.

Pnevmoniya og‘ir tusga o‘tganida o‘pka rigidligi yanada kuchayadi. Ko‘krak qafasi tortilib turadigan bo‘lib qolishi mumkin. Ko‘krak qafasining ichga tortilib turishi - og‘ir pnevmoniya alomatidir.

YO‘TAL YOKI NAFAS QIYINLIGINI BAHOLANG Yo‘tal yoki nafas qiyinligi bor bo‘lgan bolada:

- Yo‘tal yoki nafas qiyinligi qanchadan beri davom etib kelayotganiga
- Nafas tezlashuviga
- Ko‘krak qafasining tortilishiga
- Tinch holatdagi stridorga baho beriladi.

Quyida "Baholang" ustunchasidagi romka keltirilgan bo‘lib, unda bolada yo‘tal yoki nafas qiyinligi bor yo‘qligini baholashning hamma bosqichlari sanab o‘tilgan.

**SO‘NGRA ASOSIY SIMPTOMLAR
TO‘G‘RISIDA SURISHTIRIB KO‘RING:
Bolada yo‘tal yoki nafas qiyinligi bormi?**

Bor bo‘lsa ,	Ko‘zdan kechiring, eshitib ko‘ring, his eting	
--------------------	--	--

Qacho ndan buyon	Minutdagi nafas sonini sanang	Bola tinch bo‘lishi kerak
	Ko‘krak qafasining tortilishi bormi?	
	Ko‘ring va eshiting stridor bormi?	

BARCHA kasal bolalar xususida yo‘tal yoki nafas qiyinligi bor-yo‘qligini so‘rab ko‘ring.

SO‘RAB KO‘RING: **Bolada yo‘tal yoki nafas qiyinligi bormi?**

Nafasning har qanday odatdan tashqari tusga kirishi "nafas qiyinligi" deb ataladi. Onalar buni har xil tarzda tasvirlashadi, Ular bolam "tez-tez", "og‘ir nafas olayapti", "nafasi bo‘g‘ilib qolayapti" yoki "xirillab va hushtak bilan nafas olayapti" deb aytishlari mumkin.

Onasi "YO‘Q" deb javob bersa, Siz bolada yo‘tal yoki nafas qiyinligi bor, deb hisoblay-sizmi-yo‘qmi, tekshirib ko‘ring. Bolada yo‘tal yoki nafas qiyinligi bo‘lmasa, keyingi asosiy simptom - diareya to‘g‘risida

surishtirib ko'ring. Bolaning ahvolini yo'tal yoki nafas qiyinligiga aloqador boshqa belgilar bo'yicha baholamang.

Onasi "HA" deb javob bersa, unga keyingi savolni bering.

SO'RAB KO'RING: Qachondan beri?

Bolada 30 kundan ko'proq davom etib kelayotgan yo'tal yoki nafas qiyinligi cho'ziluvchan yo'tal deb hisoblaanadi. Bu - sil kasalligi, astma, ko'k yo'tal yoki boshqa bir dard alomati bo'lishi mumkin.

Nafas harakatlarining minutdagi sonini SANAB KO'RING.

Bolada nafas tezlashgan-tezlashmaganligini aniqlash uchun Siz nafas harakatlarining bir minutdagi sonini sanab ko'rishingiz kerak. Nafas harakatlari sonini sanash paytida bola tinch holatda bo'lishi lozim. Bola qo'rqib turgan, yig'layotgan yoki harxasha qilayotgan bo'lsa, nafas harakatlari sonini Siz to'g'ri sanay olmaysiz.

Bolaning minutiga necha marta nafas olishini sanab ko'rmoqchi bo'layotganingizni onasiga ayting. Undan bolani tinchlantirishni iltimos qiling. Agar bola uxbab yotgan bo'lsa, uni uyg'otmang.

Nafas harakatlarining minutdagi sonini sanab ko‘rish uchun:

1. Sekund strelkasi va raqamli siferblati bor soatdan yoki taymerdan foydalaning.
 - a. Boshqa bir tibbiy xodimdan soatning sekund strelkasiga qarab turing va 60 sekund o‘tishi bilan buni menga ayting, deb iltimos qiling. Siz bolaning ko‘kragiga qarab turib, nafas harakatlarining sonini sanab chiqasiz.
 - b. Agar Sizga yordam bera oladigan boshqa tibbiy xodimni topa olmasangiz, soatni sekund strelkasi ko‘rinib turadigan joyga qo‘ying. Sekund stryolkasiga qarab turib, bola nafas hara-katlarining minutdagi sonini ham bir yo‘la sanab chiqing.
2. Bolaning ko‘kragi yoki qornining istalgan joyiga qarab turib, nafas harakatlarini kuzating. Bolaning ko‘ylagini ko‘tarib turishni onasidan iltimos qiling. Bola yig‘lay boshlasa, sanoqni boshlashdan oldin bolani tinchitishni onasidan so‘rang.

Agar sanog‘ingizning to‘g‘riligiga ishonchingiz komil bo‘lmasa (masalan, bola hadeb qimir-layverib, ko‘kragini kuzatib borish qiyin bo‘lgan yoki unimadandir xafalanib, yig‘layvergan bo‘lsa), sanoqni takrorlang. I

Tezlashgan nafasning pastki chegarasi bolaning yoshiga bog‘liq. 2 oylikdan 12 oylikkacha yoshdagи bolalarda nafas harakatlarining soni 12 oylikdan 5 yashargacha bolalardagiga qaragan-da ko‘proq bo‘lady. Demak, tezlashgan nafasning pastki chegarasi 2 oylikdan 12 oylikkacha yoshdagи bolalarda 12 oylikdan 5 yashargacha bo‘lgan bolalardagiga qaraganda yuqoriroq bo‘lib chiqadi.

Agar bolaning yoshi:	Bolaning nafasi tezlashgan deb hisoblanadi, agar sanab ko‘rganiningizda u:
2 oylikdan 12 oylikkacha bo‘lsa	Minutiga 50 marta va bundan ko‘proq nafas olsa
12 oylikdan yashargacha bo‘lsa	5 Minutiga 40 marta va bundan ko‘proq nafas olsa

Eslatma: 12 oylik bolada sanab ko‘rilganida u minutiga 40 marta va bundan ko‘proq nafas olsa, nafasi tezlashgan deb hisoblanadi.

Keyingi ikki belgi - ko‘krak qafasining ichga tortilishi va stridorni tekshirishga kirishishdan oldin bolani ko‘zdan kechirib, uning qachon NAFAS OLIB, qachon NAFAS CHIQARISHINI aniqlang.

QARAB KO‘RING: ko‘krak qafasining tortilishi bormi?

Qarab ko‘ring, bola NAFAS OLGAN paytda ko‘krak qafasi tortiladimi-yo‘qmi. Ko‘krak qafasining pastki devorini (pastki qovurg‘alarni) kuzatib ko‘ring. Bola NAFAS OLGAN paytda ko‘krak qafasining pastki devori TORTILADIGAN bo‘lsa, demak, bolada ko‘krak qafasining tortilishi bor. Nafas olish uchun bola odatdagidan ko‘ra ko‘proq kuch beradigan mahallarda ko‘krak qafasi tortiladigan bo‘ladi. Odatdagicha nafas olishda ko‘krak qafasining butun devori (yuqori va pastki qismlari) va qorin bola NAFAS OLGAN paytda KENGAYADI. Ko‘krak qafasining tortilishi deb bola NAFAS OLGAN paytda ko‘krak qafasi pastki qismining TORTILISHINI aytildi.

Agar ko‘krak qafasining tortilishi borligiga ishonchingiz komil bo‘lmasa, yana qarab, takror marta ko‘zdan kechiring. Agar bolaning tanasi beli damida bukilibroq turgan bo‘lsa, ko‘krak qafasi pastki devorining harakatlarini payqash qiyinroq bo‘ladi. Onadan bolaning holatini o‘zgartirib, uni tizzada gorizontal holda yotadigan qilib tutishni iltimos qiling. Bola NAFAS OLGAN paytda ko‘krak qafasi pastki devorining TORTILISHI bu safar ham ko‘zingizga chalinmasa, demak, bolada ko‘krak qafasining tortilishi yo‘q.

Ko'krak qafasinyng tortilishi yaqqol ko'riniб turadigan va doim seziladigan bo'lishi kerak. Agar ko'krak qafasining tortilishi bola faqat yig'layotgan yoki ovqatlanayotgan mahaldagina Sizga payqaladigan bo'lsa, bu bolada ko'krak qafasining tortilishi yo'q.

Bola nafas olgan paytda qovurg'alar orasidagi yumshoq to'qimalarning o'zigina tortiladigan bo'lsa (buni qovurg'alar orasining tortilishi yoki qovurg'alararo "retraksiya" deyiladi), bolada ko'krak qafasining tortilishi yo'q. Mazkur o'rinda ko'krak qafasining tortilishi deganimiz, bu - ko'krak qafasi pastki devorining tortilishidir. YO boshqacha aytiladigan bo'lsa "qovurg'alar ostining tortilishi" yoki "qovurg'alararo retraksiyadir".

QARAB ESHITIB KO'RING stridor bormikin?

Stridor - nafas olingan paytda eshitiladigan qattiq tovushdir. Stridor hiqildok, traxeya yoki hiqildoq usti shishib qolgani tufayli paydo bo'ladi. Bunda o'pkaga havo o'tishiga shish to'sqinlik qiladi. Bolaning nafas yo'llarini bo'g'ib qo'yadigan shish hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin. Tinch turgan bolada stridor bo'lsa, bu - bola uchun havfli holatdir.

Stridor bor-yo'qligini qarab, eshitib ko'rish uchun bolani NAFAS OLISH paytida kuzating. Eshitib ko'ringchi, stridor yo'qmikin. Qulog'ingizni bolaning

og‘ziga tutib ko‘ring - stridor arang seziladigan bo‘lishi mumkin.

Bolaning burni bitib qolgan bo‘lsa, ba’zan nam xirillashlarni eshitishingiz mumkin. Burunni tozalab, yana eshitib ko‘ring. Engilgina kasallik bilan og‘rigan bolada stridor bola yig‘layotgan yoki harxasha qilayotgan mahaldagina eshitilishi mumkin. Stridor yo‘qmikin, deb bolani ko‘zdan kechirayotgan va eshitib ko‘rayotgan paytingizda uning tinch holatda ekanligiga ishonch hosil qiling.

YO‘TAL YOKI NAFAS QIYINLIGINI TASNIFLANG

TASNIF JADVALLARI: Kasallikning belgilari va tasniflari *BAHOLANG VA TASNIFLANG* sxemasining tasnif jadvallarida sanab o‘tilgan. Tasnif jadvallarining ko‘pchiligidagi uchta qator bor. Agar sxema rangli bo‘lsa, har qaysi qatori pushti, sariq va yashil rang bilan ajratilgan. Qatorlarning rangi bolada jiddiy kasalik boryo‘qligini tez aniqlab olishingiz uchun yordam beradi. Siz tegishli davoni ham tezgina tanlab olishingiz mumkin. Diareya va o‘tkir respirator kasalliklar bilan og‘rigan bolalarni davolab borish sxemalarida ham xuddi shunday ranglar sistemasidan foydalanilgan.

- *Pushti* qatordagi tasnif bolaga darhol e'tibor berish va uni kasalxonaga yuborishni talab etadi. Bu og'ir kasallik bo'ladi.
- *Sariq* qatordagi tasnif bolaning tegishli antibiotik preparatga yoki boshqa davoga muhtojligini bildiradi! Davo ichiriladigan dorilarni bolaga qanday berish kerakligini yoki mahalliy infeksiyalarga uy sharoitlarida qay tariqa davo qilish lozimligini onaga o'rgatishga qaratilgan. Tibbiy xodim uy sharoitlarida bolaga qanday parvarish qilish kerakligi va qachon yana kelish lozimligini aytib, onaga maslahat beradi.
- *YAshil* qatordagi tasnif bolaning maxsus davoga, masalan, antibiotiklar bilan davo qilishga muhtojmasligini bildiradi. Tibbiy xodim bolaga uy sharoitlarida parvarish qilish yuzasidan onasiga maslahatlar beradi. Masalan, kasal bolani ovqatlantirish yuzasidan yoki bolaning ichi ketib turgan bo'lsa, unga suyuqliklar berib turish xususida Siz onaga maslahatlar ko'rsatishingiz mumkin.

Topilgan belgi va simptomlar kombinatsiyasiga qarab kasal.bola pushti, sariq yoki yashil rangda tasniflanadi. SHunday qilib, bola har bir tasnif jadvalyda faqat bir marta tasniflanadi.

SO'NG ASOSIY SIMPTOMLAR HAQIDA SO'RANG:

Болада йўтал ёки нафас қийинлиги борми?

БЕЛГИЛАР	ТАСНИФЛАНГ	ДАВОСИ (Хаддатни оберада манзурлангане мозаккетдан арри беради бунда караштириш)
<p>БОР-ВІДСА, СРУАНТ</p> <ul style="list-style-type: none"> Карондан ту- чи? Минутдаги нафас санин салми: Кўрак сифасини хизматлайди борми? Кўрак: шонгес- страдири борми? 	<p>Йўтал ёки нафас қийинлигини таснифланг</p> <p>Болада ТИНИ БЎЛШИН КЎРАК</p> <p>Боладиган очи: 2 олончада 12 сабринган кўчи 12 олончада 1 дастча очида</p> <p>Нафас тономоги: Минутдан 50 марта за узак кўчи Минутдан 80 марта за узак кўчи</p>	<p>«Бор-відс бер укупнун зарф бўлшини ёки «бўйрас» дифсаннинг тотиласи ёки «бўйн холатидаги стрит»</p> <p>ОГ'ИР ПНЕВМОНИЯ БОР ХУДА ОГ'ИР КАСАЛИК</p>
<p>«Теззикдан нафас»</p>	<p>ПНЕВМОНИЯ</p>	<p>ПЛЕХМОНИЧЕСКАЯ ТАБДИЛДА антабактериални препарати беринг Хафсию косаги билди томони и малактинг - яъни йўтудаги спекулаторига Юнисигъ зони зудлини бади айтаб - ишми харалитни турлутторат.</p> <p>«Кейин ташриф - 2 кундан сўнг»</p>
<p>«Пневмония ёки жуда ог'ир касаликниң бозига бўй»</p>	<p>ПНЕВМОНИЧЕСКАЯ БОР-ВІДСИ ЖУДА ЕМИ ШАМОЧУЛАШ</p>	<p>Оғиз 30 кундан кўчида. Тана пневмония узун оберади. Хафсию косаги билди. Мутак тепмандиган, температура мозаккет. Юнисигъ зони зудлини бади айтаб - ишми харалитни турлутторат.</p> <p>«Мубоди зони мозаккетимиз, маймун ташриф - 4 кундан сўнг»</p>

OG'IR PNEVMONIYA YOKI JUDA OG'IR KASALLIK

Bolada yo'tal yoki nafas qiyinligi va mana bu belgilardan birortasi - har qanday umumiy xavf belgisi, ko'krak qafasining tortilishi yoxud tinch holatida stridor bo'lsa, unga OG'IR PNEVMONIYA YOKI JUDA OG'IR KASALLIK deb tasnif bering.

Ko'krak qafasi tortilishi bo'lgan bolada odatda og'ir pnevmoniya yoki pastki kafas yo'llarining

bronxiolit, ko‘k yo‘tal singari boshqa bir jiddiy infeksiyasi bo‘ladi.

Ko‘krak qafasining tortilishi hodisasi o‘pka rigid (yaxshi harakatlanmaydigan) bo‘lib qolgan paytdaboshlanadi. Bunda bola nafas olish uchun odatdagidan ko‘rako‘proq kuch beradi.

Ko‘krak qafasi tortilishi bo‘lgan bolada pnevmoniyadan nobud bo‘lish ehtimoli tez-tez nafas olayotgan, ammo ko‘krak qafasining tbrtilishi hodisasi Y5⁷q boladagiga qaraganda ko‘proq bo‘ladi. Bola charchab, rigid holdagi o‘pkasini kengaytirish uchun haddan tashqari zo‘r beradigan bo‘lsa, nafas sekinlashib qoladi. SHunday qilyb, ko‘krak qafasi tortilib turgan bolada nafas tezlashmagan bo‘lishi ham mumkin. Ko‘krak qafasining tortilib turishi boladagi og‘ir pnevmoniyashng‘ birdan-bir belgisi bo‘lishi mumkin.

Davosi

Pnevmonianing ko‘pchilik hollariga bakteriyalar sabab bo‘ladi. Bunday hollar antibakterial preparatlar bilan davo qilishni talab etadi. Viruslar hampnevmoniyagasabab bo‘lishi mumkin. Biroq, bolada bakterial pnevmoniya bormi yoki virusli pnevmoniya bormi, buni aniq bilib olish usuli yo‘q. Bolada pnevmoniya belgilari bo‘lsa, unga to‘g‘ri keladigan antibakterial preparat bering.

Dardi OG‘IR PNEVMONIYA YOKI JUDA OG‘IR KASALLIK deb tasniflangan bola qattiq og‘igan, og‘ir bemor bo‘lib hisoblayaadi. U, masalan, kislorod berib yoki antibiotiklarni in’eksiya qilib davolash uchun zudlik bilan kasalxonaga borishga muhtoj bo‘ladi. Bola ambulatoriyangizdan chiqib ketishidan oldin unga to‘g‘ri keladigan antibakterial preparatning birinchi dozaskni bering. Bu og‘ir pnevmonianing yanada zo‘rayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun yordam beradi. SHuningdek sepsis yoki meningit singari boshqa jiddiy bakterial infeksiyalarga davo qilish uchun hamxizmat qiladi.

PNEVMONIYA

Yo‘talayotgan yoki qiynalib nafas olayotgan, shuningdek nafasi tezlashgap, ammo umumiy xavf belgilari yo‘q, ko‘krak qafasining tortilish hodisasi yo‘k va tinch holatida stridor ham yo‘q bolaning kasalligi PNEVMONIYA deb tasniflanadi.

Davosi

PNEVMONIYAgan to‘g‘ri keladigan aktibakterial preparat bilan davo qiling. Bu dorini qanday qilib berib turish kerakligini onaga tushuntiring. Keyingi kuzatuv uchun yana qachon kelish kerakligini va qaysi paytda tibbiy xodimga yaka darhol murojaat qilish zarurligini unga aytib qo‘ying. Bolaga uyda to‘g‘ri parvarish qilish yuzasidan onaga maslahat bering. Bolaning tomog‘ini

Xavfsiz vosita bilan qanday qilib yumshatish kerakligini onasiga o'rgating. Qaysi mahalda tibbiy muassasaga yana darhol murojaat qilish va keyingi safar qachon kelish zarurligini tushuntiring.

PNEVMONIYA YO'Q, YO'TAL YOKI SHAMOLLASH

Yo'talayotgan yoki qiynalib nafas olayotgan, umumiy xavf belgilari yo'q, ko'krak qafasining tortilish hodisasi yo'q va tinch holatida stridor yo'q, nafas tezlashuvi ham yo'q bolaning kasalligi PNEVMONIYA YO'Q, YO'TAL YOKI SHAMOLLASH deb tasniflanadi.

Davosi

PNEVMONIYA YO'Q, YO'TAL YOKI SHAMOLLASH deb tasniflangan bola antibakterial preparatga muhtoj bo'lmaydi. Bunday preparat boladagi simptomlarni qaytarmaydi va shamollahning pnevmoniyaga aylanib ketyshiga to'sqinlik qilolmaydi. Biroq ona o'z bolasining saloodatligqdan havotirlanayotgani uchun uni ambulatoriyaga olib kelgan bo'ladi. Bolaga uy sharoitlarida to'g'ri parvarish qilib borish yuzasidan onasiga maslahat bering. Xavfsiz shositalar bilan bolaning tomog'ini yumshatish va yo'talini engillashtirish yo'llarini unga o'rgating. Agar bola faqat emizib boqilayotgan bo'lsa, tomoqni yumshatishning eng yaxshi vositasi ko'krak sutidir. Bola

emizilmaydigan yoki qo'shimcha ovqat olib turadigan bo'lsa, qaynatilgan iliq suv, mineral suv, iliq sut berishni tavsiya eting. Bolaning nafasi tezlashadigan yoki qiyinlashadigan bo'lsa, darrov yana kelish kerakligini onaga maslahat bering.

SHamollab qolgan bola odatda bir-ikki haftadan keyin tuzalib ketadi. Lekin surunkasiga yo'talib yurgan (yo'tali 30 kundan ortiq davometib kelayotgan) boladasil kasalligi, astma, ko'k yo'tal yoki boshqamuammo bo'lishi mumkin. Sil jiddiy kasallik bo'lib, davo qilinmasa, o'limga olib kelishi mumkin. Sil bo'lishi mumkin deb gumon qilingan bola 30 kundan ortiqroq muddatda yo'talib yurgani vajidan dardini aniqlash va milliy qo'llanmalarga muvofiq silga qarshi davolanishi uchun poliklinikaga yuborilishi kerak. Surunkasiga yo'talib yurgan bolani yanatekshirib ko'rish uchun ftiziopediatrga yuboring.

BOLANING HARORATI BALAND (38,5°S-DAN YUQORI), TOMOG'I YOKI QULOG'IDA OG'RIQ BO'LSA, PARATSETAMOL BERING.

Paratsetamol haroratni tushirib, og'riqni kamaytiradi.

Harorati baland (38,5°S dan yuqori) yoki og'riq bo'lsa, paratsetamol bering.

Har 6 soatda harorat pasayguncha yoki og'riq to'xtaguncha, paratsetamolni berib turing.

PARATSETAMOL		
YOSHI YOKI VAZNI	SIROP (5ml-da 125 mg)	TABLETKA (500 mg)
2 oylikdan 3 yoshgacha (4 —<14 kg)	5,0 ml (1 ch.q.)	1\4
3 yoshdan 5 yoshgacha (14-<19kg)	10,0 ml (2 ch.q.)	1\2

Mabodo, bolaning harorati baland bo‘lsa, tibbiy muassasada bir doza paratsetamol bering.

Mabodo, bolaning qulog‘i yoki tomoq‘ida og‘riq bo‘lsa, onasiga bir kunga etarli, ya’ni 4 doza, paratsetamol bering. Quloq yoki tomoqdagi og‘riq to‘xtaguncha, har 6 soatda qanday qilib bir dozadan dori berib turish kerakligini unga tushuntiring.

Xavfsiz Vositalar Bilan Tomoqni YUmshatib, Yo‘talni Engillashtiring.

- Tavsiya etilayotgan xavfsiz vositalar:
 - faqat emadigan bolalar uchun ko‘krak suti.
 - qaynatilgan iliq suv, mineral suv, iliq sut.
- Xavfli vositalardan ehtiyyot bo‘ling:
 - bug‘li ingalyasiyalar.
 - og‘izga brilliant yashili surtishdan ehtiyyot bo‘ling

Dispanser nazorati

N	Davolovchi-sog‘lomlashtiruvchi	Rejalashtirilgan muolajalar
.	1 Uchastka pediatri ko‘rigi	Birinchi oyda 2 marta, 1 kvartalda oyiga 2 marta keyin kvartalda 2 marta
.	2 Pulmonolog ko‘rigi	Birinchi oyda 1 marta, kvartalda 1 marta
.	3 LOR, stomotolog ko‘rigi	yiliga 2 marta
.	4 Ko‘krak kafasi rentgenogrammasi	Ko‘rsatmaga ko‘ra
.	5 Umumiy qon, siyidik taxlili	yiliga 2 marta
.	6 Ratsional ovkatlanishi: vitaminlar, soklar, mevalar, sabzavotlar	Doimiy
.	7 Fizoterapiya (UFO, UVCH, elektroforez)	Ko‘rsatmaga ko‘ra

8 .	Desensibilizatsiyal ovchi terapiya	yiliga 2 marta
--------	---------------------------------------	----------------

***Bolalarga statsionar yordam ko‘rstash
Pnevmoniya***


Odatda Pnevmoniya virus yoki bakteriyalar sababli rivojlanadi. Ko‘pchilik jiddiy hollar bakterial infeksiya bilan bog‘liq. Biroq, qoidaga ko‘ra, klinik belgilar yoki ko‘krak qafasini rentgenologik tekshiruviga asoslanib, ko‘zg‘atuvchining turini aniqlash mushkul. Klinik kechishga ko‘ra, Pnevmoniya o‘ta og‘ir, og‘ir yoki engil pnevmoniyalarga bo‘linadi. Barcha hollarda antibiotiklar bilan davolash zarur bo‘ladi. Og‘ir va o‘ta og‘ir pnevmoniya statsionar sharoitida amalga oshirilidigan kislorod ko‘llash kabi ko‘shimcha davolash usullarini talab etadi.

Pnevmoniya og‘irlik darajalarini tasnifi

Belgi yoki alomat	Tasnif	Davolash
■ Markaziy sianoz	O‘ta og‘ir	SHifoxonaga

Og‘ir nafas etishmovchiligi (masalan, tasdiqlovchi harakatlar	pnevmoniya	yothizish Tavsiya etilgan antibiotik tayinlang Kislorod bering Nafas olish yo‘llarining ochihligini kuzatib
■ Nafas olganda ko‘krak hafasining pastki hismini tortipishi	Og‘ir pnevmoniya	SHifoxonaga yothizish Tavsiya etilgan antibiotik tayinlang Nafas olish yo‘llarining ochihligini kuzatib boring Zarur hollarda xdroratni tushirish choralarini ko‘ring
■ Tezlashgan nafas olish 2 oylik bolada 1 dahihada 60 va undan ortih nafas; 2-p OYLIK bolada 1 dakrkada 50 va	Pnevmoniya	SHifoxonaga yothizish 5 kun davomida kerakli antibiotik tayinlang Xavfsiz vosita bilan tomohni yumshatib yo‘talni

<p>undan ortih nafas; 1-5 yoshlik bolada 1 dahlkada 40 va undan ortih nafas; ■ Auskultatsiyada nam xirillash anih bilinadi</p>		<p>engillashtiring</p>
<p>Pnevmonianing hech handay belgilari sezilmaydi</p>	<p>Pnevmoniya yo‘q, yo‘tal yoki shamollash</p>	<p>Uyda parvarishlash. Uyda davolash, zarur hollarda antibiotiklar tayinlash. Xavfsiz vositalar bilan tomohni engillashtirish. Onasiga, handay holda yana vrachga murojaat hilishni tushuntirish. Agar axrol yaxshilanmasa 5 kundan so‘ng hayta ko‘rik. Agar yo‘tal</p>



		30 kundan ortih cho‘zilsa surunkali yo‘talni davolash yumshatish va yo‘talni yo‘riqlarga rioya qilish
--	--	--

Diagnoz

Yo‘tal yoki qiyin nafas olish + quyidagi alomatlarning hech bo‘lmaganda bittasi:

- umumiy sianoz;
- ema olmaslik, suv icha olmaslik yoki har qanday ovqat yoki suyuqlikdan keyin qdyt qilish;

talvasalar, xushi
sustlashganlik
yoki xushsizlik;
■ nafas
etishmovchiligi.



Nafas chiqarish Nafas olish
Burun

kataklarining kengayishi: nafas olishda ular tashqariga tortiladi.

Bundan tashqari pnevmoniya yoki og‘ir pnevmoniyaning ba’zi yoki barcha boshkd belgilari mavjud bo‘lishi mumkin, masalan:

- tez nafas olish: yoshi <2 oy: >60/daqiqada
yoshi 2-11 oy: >50/daqiqada
yoshi 1-5 yosh: >40/daqiqada
- burun kataklarining kengayishi;
- ingrab nafas olish (kichik yoshdagi bolaparda);
- ko‘krak qafasini pastki qismining tortilishi (nafas

olganda paydo bo‘ladi; agar bola nafas olganda faqat qovurg‘alar orasi sohalari yoki o‘mrov usti sohalari ichga tortilsa, bu hol, ko‘krak qafasi pastki qismining tortilishi deb hisoblanmaydi);

- ko‘krak qafasi auskultatsiyasida pnevmoniya belgilari mavjud:
- sust nafas;
- bronxial nafas;
- namli xirillash; plevra ekssudati ustida tovush rezonansining kuchayishi - bo‘lakli zichlashish ustida esa susayishi;
- plevrانing ishqalanish shovqini.

> Agar imkoniyat bo‘lsa og‘ir yoki o‘ta og‘ir Pnevmoniya deb guman qilinayotgan barcha bolalarda arterial qonning kislород bilan to‘yinish darajasini pulsoksimetriya o‘tkazib tekshirib ko‘ring.

> Agar imkoniyat bo‘lsa, (plevra bo‘shlig‘idagi suyukdik, plevra epiemasi, pnevmotoraks, pnevmatotsele, interstitsiap Pnevmoniya va perikard suyuqpigi) anikdash maqsadida ko‘krak kafasining rentgenologik tekshiruvini o‘tkazing.

Davolash Bolani shifoxonaga yotqizing Antibiotiklar bilan davolash

> 5 kun davomida ampitsillin (50 mg/kg m/i xar 6 soatda) va gentamitsin (7,5 mg/kg m/i kuniga 1 marta)

bering; agar bola antibiotik davodan yaxshilana borsa, peroral amoksitsillin (25 mg/kg kuniga 2 maxal) + 5 kun davomida m/i kuniga 1 marta gentamitsin tayinlab, davolashni uyda yoki shifoxonada tugallang.

> Boshqa usul: seftriakson (80 mg/kg m/o yoki v/i 1 marta) tayinlang.

> Agar, 48 soat ichida bolaning holati yaxshilanmasa, stafilokokkli Pnevmoniyada tavsiya etilganidek, gentamitsin (7,5 mg/kg m/o kuniga 1 marta) yoki kloksatsillin (50 mg/kg m/i yoki v/i hdr 6 soatda) bilan davolashga o‘ting. Bolaning holati yaxshilangach, kloksatsillin yoki dikpoksatsillinni 3 xaftvlik kurs tugaguncha, kuniga 4 marta og‘iz orhali berishda davom eting.

Kislород терапијаси

> О‘та ог‘ир Пневмонија билан ог‘риган барча болаларга кислород терапијаси тавсија етилади.

> Пулсоксиметрия hilish imkonи bo‘lsa, undan kislород терапијаси учин мактомотлар олиш махсадидаги фойдаланинг (arterial honning кислород билан то‘йиниш даражаси 9096 дан кам).

> Burun айриси (vilka), burun yoki burun-xalkum катетеридан фойдаланинг.

> Kichik yoshdagи chahalohpar учин бурун айриси(vilka)дан фойдалangan ма’kul. YUz yoki bosh nafas berish nihoblarini ko‘llash тавсија етимайди.

Doimo kislorod berish imkoni bo‘lishi zarur. Kislorod berishning turli usulpari va ulardan foydalanish tasvirlarini hiyoslash.

> Gipoksiya belgilari yo‘holmaguncha (ko‘krak hafasining pastki hismini tortilishi yoki nafas olish tezligi > 70 /dahihada) kislorod berishni davom ettiring. Hamshiralalar har 3 soatda kateter yoki vilkaga shillih tihilib holmaganligini, ularning to‘g‘ri o‘rnatilganligini va barcha ho‘shilmalarning mahkam turganligini tekshirib turadipar.

Kislorodning ikki asosiy manbai mavjud - kislorod balonlari va konsentra-torlari. Uskunalar ayrim elementlarining bir-biriga mos kelishini tekshirilishi, ularga to‘g‘ri xizmat ko‘rsatilishi va xodimlar ulardan foydalanishga o‘rgatilgan bo‘lishi muhimdir.

Qo‘lllovchi parvarish

- > Agar bolada tana harorati ancha yuhori bo‘lsa ($> 39^{\circ}\text{S}$), bu umumiyl holatni yomonlashtiradi, unga paratsetamol bering.
- > Astmoid nafasda tez ta’sir hiluvchi bronxolitik dori vositasi bering
- > Agar bolaning o‘zi tuflay olmasa aspiratsiya orqali barcha suyuq ajralmaparni ohista olib tashlang.
- > Bola xar kuni o‘ziga kerakli suyuqpik mikdorini opayotganligiga ishonch hrsil qiling, biroq

gipergidratatsiyani oldini oling.

> Emizish va og‘iz orqali suyuqpik berishni rag‘batlantiring.

- Agar bola icha olmasa nazogasgral kateter orqali kam kam mikdorda suyuqpik bering. Agar bolaningo‘zi icha (ema) olsa nazogastral kateter qo‘llamang, chunki bunda aspiratsion Pnevmoniya xavfi ortadi. Agar bir vaqgning o‘zida ham kislorod, ham nazogastrap kateter orqapi suyuqlik berilayotgan bo‘lsa, unda har ikkala zondni xam burunning bitta katagidan kiriting.

> Iloji boricha tezroq bolani oddiy ovqatlanishga o‘tkazing (ovqat eyishni boshlashi bilan).

Kuzatish

Hamshira bola holatining kasallik tarixida, hech bo‘lmaganda har 3 soatda, vrach esa kuniga 2 marta belgilab turishi kerak. 2 kun ichida asoratlar bo‘lmasa, yaxshilanish belgilari paydo bo‘lishi kerak(tezlashmagan nafas olish, ko‘krak qafasi pastki qismi ichga tortilishining kamayishi, tana haroratining tushishi va ovqatlanish va suv ichishning yaxshilanishi).

Asoratlar Agar bolaning ahvoli 2 kundan so‘ng yaxshilanmasa yoki yomonlasha boshlasa uni asoratlarga yoki boshqa patologiyaga gumon qilib

tekshiring. Ko'krak qafasining rentgenologik tekshirruvini o'gkazing. Eng ko'p uchraydigan tipik asoratlar quyida berilgan.


Sgafilokokkli pnevmoniya. Davolashga qaramasdan ahvolning keskin yomonlashishi, rentgenologik tasdiqlangan pnevmatotsele yoki pnevmatoraks, balg'amda ko'plab gram musbat kokklarning mavjudligi, balg'am ekilganida yoki plevral bo'shliq punktatlarida 5. Aigeizning yaqqol o'sishi stafilakkli pnevmoniya gumon qilinishiga sabab bo'ladi. Qo'shimcha belgi - terida ko'plab yiringli yarachalarning mavjudligi.

Kloksatsillin (har 6 soatda 50 mg/kg m/i yoki v/i) va gentamitsin(kuniga 1 marta 7,5 mg/kg m/i yoki v/i) berishni davom ettiring. Bolaning ahvoli yaxshilangach 3 haftalik kurs tugaguncha kuniga 4 marta kloksatsillin berishda davom eting. Bolaga kloksatsiplinn o'mnida boshqa antibiotiklar, masalan, oksatsiplin, flyukloksatsiplin yoki dikpoksatsiplin ko'llash mumkinligiga e'tibor bering.


Plevra empiemasi. Uzoq davom etadigan isitma, plevra bo'shlig'ida suyuqpik mavjudligining fizikal va rentgenologik belgilarida gumon qilish zarur.

Sil. Isitma 2 haftadan orgiq vaqg mobaynida Pnevmoniya alomatlari bilan birga davom etsa, bolani



sil kasalligini inkor etish uchun tekshirish zarur. Agar isitmaning ko‘tarilishini boshqa sabablar bilan izohpass imkoni bo‘lmasa oldindan, sip diagnozini ko‘yib, milliy tavsiyalar va davolashning keyingi ta’sirini baholash bilan silga qarshi davolash kursini boshlash kerak.



Соғлои күкрак қафасининг рентгенографияси



**Массив қорайиши билан
күрінадыған ўңг тараф пастки
қиси пневмияция сида күкрап
қағасынинг рентгенографиасы.**



O‘ziga xos alomatlar: pnevmatotsele (o‘ng tarafagi kismda) va havo/suyuqlik mavjud absseess (chap tarafagi kismda).

Diagnostika

Yo‘tal yoki qiyin nafas olish + kuyidagi belgilarning hech bo‘lmasa bittasi: sh
ko‘krak hafasi pastki qismining ichga tortilishi; **sh** burun qanotlarining kengayishi; **sh**
inqillab nafas olish (kichik yoshdagi gudakparda).

o‘ta og‘ir pnevmoniyaning kuyidagi belgilari yo‘qligiga ishonch hosil qiling:

- umumiy sianoz;
 - ema olmaslik yoki icha olmaslik;
 - har qanday ovqatdan keyin qayt qilish;
 - talvasalar, xushi sustlashganlik yoki hushsizlik;
 - o‘tkir nafas etishmovchiligi.

Bulardan tashqari pnevmoniyaning boshqa bir necha yoki barcha belgilari bo‘lishi mumkin:

tezlashgan nafas: yoshi <2 oylik: >60/daqiqada
yoshi 2-11 oylik: >60/daqiqada
yoshi 1-5 yosh: >40/daqiqada

ko‘krak qafasi auskultatsiyasida Pnevmoniya belgilari:

- sust nafas;
 - bronxial nafas;
 - namli xirillash;
 - ppevra ekssudati ustida tovush rezonansining kuchayishi - bo‘lakpi zichlashish ustida esa susayishi;

- plevranning ishqalanish shovqini.

Kamdan kam hollarda oddiy rentgenogrammalar og‘ir Pnevmoniya holatlarida parvarishlash to‘g‘risida ma’lumot beradi, shuning uchun rentgenologik tekshirish o‘tkazish tavsiya etilmaydi.

Davolash

> Bolani shifoxonaga yotk/lzing.

Antibiotik terapiyasi

> 5 kun davomida ampitsillin (50 mg/kg m/i har 6 soatda) va gentamitsin (7,5 mg/kg m/i kuniga 1 marta) bering; agar bola antibiotik davodan yaxshilana borsa, peroral amoksitsillin (25 mg/kg kuniga 2 maxdl) + 5 kun davomida m/i kuniga 1 marta gentamitsin tayinlab, davolashni uyda yoki shifoxonada tugallang.

> Boshqa usul: seftriakson (80 mg/kg m/o yoki v/i 1 marta) tayinlang.

> Bolaning axdoli yaxshilanganda amoksitsillinga o‘ting (og‘iz orhali kuniga 2 marta 25 mg/kg). Kursning umumiy davomiyligi 5 kun.

> Agar 48 soat ichida bolaning ahvoli yaxshilanmasa yoki yomonlashsa, asoratlar mavjudligiga gumon qilib, lozim bo‘lgan davolashni boshlang (yuqorida berilgan o‘ga og‘ir Pnevmoniyada va kuyida berilgan OIV infeksiyasiga gumon qilingandagi harakatlar). Agar yaqqol asoratlar bo‘pmasa, seftriaksonga o‘ting (80 mg/kg m/o yoki v/i kuniga 1 marta) va bolaning ahvoli yaxshilanmaguncha davom ettiring. Keyin og‘iz orqali amoksatsillinga o‘ting (25 mg/kg kuniga 2 marta). Kislorod terapiyasi

> Nafas tezligi > 70/dak; yoki nafas olganda ko‘krak qafasini pastki qismi ichga tortilayotgan xdr bir bolaga kislorod bering.

Qo‘llovchi parvarish

YUqorida berilgan o‘ta og‘ir Pnevmoniya holatlaridagi harakatlarga qarang

Kueatish

Xdmshira bolaning axdolini kamida 3 soatda bir marta, vrach esa kuniga kamida 2 marta tekshirib turishi kerak. Nafas olish tezligi va tana haroratini belgilang, bolaning xush darajasi va suv icha olish yoki ema olish qobiliyatini tekshiring. 2 kun ichida asoratlar paydo bo‘lmasa, yaxshilanish belgilari ko‘rinadi (uncha tez bo‘lмаган nafas olish, ko‘krak qafasini pastki qismini ichga kamroq tortilishi, tana haroratini pasayishi va suv ichish va ovhatlanish qobiliyatining yaxshilanishi).

OIV-musbat bolalar (yoki OIV bilan eararlanganiga gumon kilingan)

> 10 kun davomida, o‘ta og‘ir pnevmoniyada kabi, ampitsillin + gentamitsin tayinlang

> Agar bolaning axvoli 48 soat mobaynida yaxshilanmasa, bor bo‘lsa, seftriak- songa (80 mg/kg v/i 30 daqiqa davomida, 1 kunda 1 marta) o‘ting. Agar bo‘lmasa, o‘ga og‘ir pnevmoniyada kabi gentamitsin + kloksatsillin bering.

> 2-11 oylik bolaga shuningdek, kotrimoksozolning baland dozasini (8 mg/kg trimetroprim va 40 mg/kg sulfametoksazol, v/i xar 8 soatda yoki og‘iz orqali

kuniga 3 marta) 3 xafta davomida bering. 1-5 yoshli bolani ushbu sxemaga ko‘ra faqat PSPning kpinik belgilari bor bo‘lgan xolda davolang. Keyingi davolash uchun, shu jumladan PSPning oldini olish bo‘yicha 7 bobga qarang.

3.2.3. Pnevmoniya (og‘ir bo‘lmagan)

Diagnostika

- > Ko‘rik vaqtida bolada yo‘tap, nafas qiyinchiligi yoki tezlashgan nafas aniq- lanadi:
 - yoshi 2-11 oylik: > 50/daqiqa
 - yoshi 1-5 yosh: > 40/daqiqa
- > Bolada og‘ir yoki o‘ta og‘ir Pnevmoniyaning yuqoridagi boblarda sanab o‘tilgan alomatlari yo‘qligiga ishonch hosil qiling.
- > Bundan tashqari Pnevmoniyaning boshqa alomatlari aniqlanishi mumkin (auskultatsiya vaqqida): namli xirillashlar, sust yoki bronxial nafas.

Davolash

- > Bolani ambulatoriya tartibida davolang.
- > OIV infeksiyasi bo‘lmasa amoksatsillin (kuniga 2 marta 25 mg/kg) bering. OIV-yuqqan bolalarga 5 kun davomida davolanish tavsiya etiladi.

Keyingi kuzatuv

Onasiga bolani emizishni tavsiya eting.

- Agar nafas olish yaxshilansa (nafas qisilishi kamaydi), tana harorati pasaysa va bola yaxshiroq ovqatlanishni boshlasa, 3 kunlik antibiotik davosini to‘xgating.
- Agar nafas tezligining ahroli, tana harorati va ovqatlanish yaxshilanmasa ikkinchi qator antibiotikpariga o‘ting. Diagnostika

Og‘ir va juda og‘ir Pnevmoniya bilan og‘rigan bolada plevra epiemasining rivojlanishi yoki plevra bo‘shlig‘ida suyukdik hosil bo‘lishi mumkin. ya Tekshirish davomida ko‘krak hafasi perkussiya qilinganida to‘mtoq tovush keladi, sust nafas olish yoki shikastlangan sohada uning eshitilmasligi. ya Boitlang‘ich davrda, ekssudativ jarayonning to‘liq rivojlanishigacha plevraning ishhalanish tovushlari eshitiladi.

Ko‘krak qafasining rentgenologik tekshiruvi vaqqida plevral bo‘shliqning bir yoki ikki tomonidan suyuqlik ko‘rinadi.

Empiema mavjud bo‘lsa, antibiotiklar bilan davolashga qaramasdan saqpanadi, plevra suyuqligi esa xira yoki yaqqol yiringli xarakterga ega bo‘ladi.

Davolash

Drenajlash

- > Plevra suyuqligining hajmi katta bo‘lsa, uni olib tashlash kerak. Agar ikki tomonlama suyuqlik mavjud bo‘lsa uni har ikki tomondan olib tashlang. Agar suyuqpik yana yig‘ilsa drenaj qilishni 2-3 marta qaytarish zarur bo‘lishi mumkin. Plevral bo‘shliqni drenajlash borasidagi tavsiyalarni keltirilgan ilovadan ko‘ring.

Keyingi davolash drenaj orqali olingan suyuqpikning xarakteriga bog‘liq bo‘ladi. Imkon bo‘lsa, plevral suyuqlikni oqsil va glyukoea borligiga tahpil qilish va undagi qrnnning shaklli elementlari, surtmalarni Goamm bo‘yicha bo‘yash, bakteriyalar aniklash maqsadidagi ekishlar, shu jumladan sil mikrobakteriyalari xam Antibiotiklar bilan davolash

> Bolaning axroli yaxshilanguncha seftriakson (80 mg/kg xisobidan m/ yoki v/i kuniga 1 marta) bering. Keyin og‘iz orqapi amoksatsillin 25 mg/kg xisobidan berishda davom eting.

> Agar 31arbu1osossiz aigeiz infeksiyasi borligi aniqlansa, kloksatsillin (har 6 soatda 50 mg/kg m/i yoki v/i) yoki gentamitsin (kuniga 1 marta 7,5 mg/kg m/i yoki v/i) bering. Bolaning ahroli yaxshilansa og‘iz orqali kuniga 4 marta kpoksatsillin berishda davom eting. Davo kursining umumiy muddati 3 haftani tashkil etishi kerak.

YAxshilanishning yo‘qligi

Agar drenajlash va antibiotiklar bilan davolashga qaramasdan, tananing yuqori harorati va kasallikning boshqa belgilari saqlanib qolaversa, ahvolni sil kasalligi ehtimolini inkor qilish maqsadida baholang.

> Silga qarshi sinama davolash zarur bo‘lishi mumkin.

> O‘tkir respirator kasallik

Bu keng tarqalgan o‘zi o‘tib ketadigan virusli infeksiyalar bo‘lib, bu xollarda faqat ko‘llovchi parvarish tapab qilinadi. Antibiotiklar berish kerak emas. Ba’zi bolalarda, ayniqsa chaqaloqparda astmoid nafas olish yoki stridor paydo bo‘lishi mumkin. Ko‘p xrollarda kasallik 2 hafta ichida o‘gib ketadi. 30 kun yoki undan ortiq davom etayotgan yo‘tal sil, astma, ko‘kyo‘tal oqibati yoki OIV-infeksiyasi bipan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Diagnostika

Tipik belgilari:

- yo‘tal; tumov;
- og‘izdan nafas olish; isitma.

Quyidagi belgilari bo‘lmaydi:

- tezlashgan nafas
- ko‘krak kafasini pasgki qismining ichga tortilishi;
- tinch holatdagi stridor;
- umumiy xavf belgilari.

Kichik yoshdagи bolalarda astmoid nafas olish kuzatilishi mumkin.

Davolash

- > Bolani ambulatoriyada davolang.
- > Xavfsiz vositalar, masalan ilih shirin ichimlik bilan tomoqni yumshating va yo‘talni engillashtiring.
- > YUkrri isitmada ($> 39^{\circ}\text{S}$), agar u bolaning o‘zini **his** hilishini yomonlashtirsa paratsetamol bering.

- > Ovhatlantirishdan avval bolaning burnini suvda namlangan toza matoni uchli hilib o‘rab, ajralmalardan tozalang.
- > Quyidagilardan hech birini bermang:
 - antibiotiklar (ular samarasiz va pnevmoniyaning rivojlanishini to‘h- tatmaydi);
 - tarkibida atropin, kodein va ularning birikmalari yoki alkogol bo‘lgan moddalarni bermang (ular zarar hilishi mumkin);
 - tumovga harshi tomchilar.

Keyingi kuzatuv

Onaga kuyidagicha maslahat bering:

- bolani ko‘krakdan emizish;
- tezlashgan yoki hiyinlashgan nafas paydo bo‘lishini kuzatish, agar ular paydo bo‘lsa yana vrachga murojaat hilish;
- bola ema olmasa, suv icha olmasa yoki axdoli yomonlashsa yana shifoxonaga borish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. S.SH.SHamsiev, N.P. SHabalov «Ostrye pnevmonii u detey rannego vozrasta» Tashkent 1986 god 126-131str.
2. Pediatriya. Bolezni organov dыхaniya i serdechno-sosudistoy sistemy. Kniga 4. Pod redaksiey R.E.Bermana, V.K.Vogana. Moskva «Meditina» 1986 g.
3. Bolalarga statsionar yordam ko‘rsatish. YUNISEF. Toshkent 2013 y
4. Sekrety pediatrii Palli. R Moskva 2001g
5. Tatochenko V.K. «Ostraya pnevmaniya u detey» CHebensar 1994g
6. Tatochenka V. K. «Pediatru na kajdyu den» Moskva 2003g.
7. Tabolen V.A. «Rebyonok i lekarstva» Moskva 2004g (El uchebnik)
8. Rukovodstvo dlya uchastkovogo pediatra S.J.SHamsieva, N.P.SHabalov, A.V.Erman Tashkent «Meditina» 1990 g.
9. N.P. SHabalov «Detskiy bolezni» Sankt Peterburg 2006g
10. V.G. Maydannik «Pediatriya» Xarkov 2004god 96-98str.
10. www.referat.uz
11. www.med.uz

BOLALARDA PNEVMONIYA

Pnevmoniya - deb (yunoncha pnevmo) upka tukimasining yalliglanishiga aytiladi.

Pnevmaniya - upkaning terminal respirator kismlarining zararlanishi va alveolalarda ekssudat yigilish bilan kechadigan utkir infeksion - yalliglanish xolatidir.

Klinika amaliyotida pnevmoniyani tashkilashda "Oltin standart" dan foydalanish lozim. Pnevmoniya tashxisining "Oltin standarti".

Pnevmoniya - bu upkada nafakat nafas yetishlovchiligi sindromi, fizikal simptomlar borligiga karab, balki rentgenogrammadagi uchokli va segmentlar infiltrativ uzgarishlar borligi bilan xarakterlanadigan utkir infeksion - yalliglanish kasalligidir.

Pnevmoniya bola organizmida modda va xavo almashinuvining keskin buzilishi bilan kechadigan ogir kasallikdir. Bu kasallik ayniksa erta yoshdagi bolalarda uchraydi, xamda aksariyat xollarda xar xil asoratlar bilan kechadi. Bolalarda kuzatiladigan pnevmoniya kechishi va okibatlari jixatdan bolalikning xar xil davrlarida fark kiladi. Bu jixatdan eng avvalo chakaloklarda va gudak bolalar pnevmoniyalarini va katta yoshdagi bolalarda kuzatiladigan pnevmoniyalar va pnevmopatiyalarni fark kilish joizdir.

Infeksiya tushish sharoitiga karab pnevmoniya shifoxonadan tashkari ("uy ichi") va kasalxona ichi (gospital, nozokomial) turlariga bulinadi.

Chakaloklarda esa - xomila ichi (tugma va postnatal) (orttirilgan) pnevmoniyalarga bulinadi.

Postnatal pnevmoniyalar esa kasalxona ichi va kasalxonadan tashkari pnevmoniyalarga bulinadi.

Kasalxonadan tashkari pnevmoniyalar deganda bola odatdagisi uy sharoitida bulganda yuzaga keladigan pnevmoniyalar tushiniladi.

Kasalxona ichi pnevmoniyalar - bu bola statsionarga tushgandan keyin 48 soatdan keyin yoki kasalxonadan chikarilgandan keyin 48 soat va undan kuprok (7 kungacha) vakt davomida yuzaga keladigan pnevmoniyalardir.

Xomila ichi pnevmoniyalariga bola tugilgandan keyin 72 soat davomida yuzaga kelgan pnevmoniyalar kiradi.

Klinik - rentgenogramma belgilari xarakteriga karab pnevmoniyalar; uchokli - kushilgan; bulakli (krupoz), segmentar va iterstitsial.

Uz vaktida tugri davolanganda asoratlanmagan pnevmoniyalar 2 - 4 xuftada utib ketadi, asoratli pnevmoniyalar esa 1 - 2 oy davom etadi. Agar davolash samarasi 1,5 - 6 oy ichida kuzatilmasa pnevmonianing chuzilgan formasi

(segmentli shakli) deb tashxis kuyiladi.

Pnevmoniyalarning klassifikatsiyasi

Infeksiya tushish sharoitiga karab:

- Shifoxonadan tashkari ("uy ichi", "ambulator") pnevmoniya. Eng kup uchraydigan chakuruvchilari: pnevmokokk, gemofil tayokchasi, mikoplazma, moraksella.
- Kasalxona ("gospital") pnevmoniyasi. Eng kup uchraydigan chakiruvchilar: stafilokokk, ichak tayokchasi, kuk yiring tayokchalar, protey, klebsiyella, seratsiya va boshkalar.
- Xomila ichi pnevmoniyalar.

Morfologik uzgarishlarga karab:

- Bronxopnevmoniya;
 - uchokli
 - segmentli
 - uchokli - kushiluvchan
- Krupoz (bulakli)
- Interstitsial

Kasallikning kechishiga karab:

- Asoratlanmagan
 - Asoratlangan.
-
- Upkada asoratlar (plevit, destruksiya, abscess, pnevmotoraks, piopnevmotoraks).
 - Upkadan tashkari asoratlar (infeksion - toksik shok, DVS sindromi, konaylanish yetishmovchilik sindromi, respirator - distress sindromi).

Etiologiyasi.

Pnevmoniya rivojlanish asosan (gripp, respirator - sintetsial, adenoviruslar va boshqa), strepto - stafilokokklar, "shartli" patogen tayokchalar sabab bulmokda. Pnevmoniya bilan ogrigan bolalarda kasallikning sababi viruslar va bakterialardir, xozirgi paytda eng kup tarkalgan omillar viruslar bulib, ular pnevmoniyani mustakil ravishda keltirib chikarishi yoki ularning ta'siri ostida tukimalarda karshilik kursatish kobiliyatining maxalliy buzilishi okibatida ikkilamchi tarzda mikrobl yalliglanishni keltirib chikadi. Pnevmoniya kasalligi - organizmning yukumli omillarga kurashishi kobiliyatini (immunitet)ning tugma yetishmasligi bilan tugilgan yoki ikkilamchi ravishda shu axvolga tushgan (raxit, gipotrofiya,

anemiya, konstitutsiyalar anomaliyasi natijasida) bolalarda osonlik bilan vujudga keladigan va nisbatan ogir kechadi.

Pnevmoniyaning erta yoshdagi bolalarda kuprok uchrashi va ularda nafas yetishmasligining nisbatan tezrok rivojlanishiga moyillik tugdiruvchi nafas olish a'zolarining uziga xos anatomik va fiziologik xususiyatlari mavjudligi bilan boglikdir. Bu xususiyatlarga erta yoshdagi bolalarda kovurgalarning nisbatan gorizontal joylashganligi yukori nafas yullarining torligi, ulardagi shillik pardaning kon tomirlarga boyligi, kuprok nafasi suyaklarning ortikcha egiluvchanligi, xikildok va troxeya togaylarining nisbatan yumshokligi kabilar kiradi.

Patogenezi.

Upka tukimasiga yukumli omillar kuyidagi uch yul orkali tushish mumkin:

1. Xavo bilan yukori nafas yullari orkali - aerogen (bronxogen) yul.
2. Konga tushgan yukumli omillarning upka tukimasiga utish - gematogen yul.
3. Limfa suyukligi orkali upka tukimasiga tushish - limfogen yul b/n.

Yukumli omillar upka tukimasiga tushgach, yalliglanish uchoklari paydo buladi, bu esa uz navbatida upka kushuvchi tukimasining burtishiga, alveolalarda suyuklik tuplanishga olib keladi. Bu xolatda alveolalarda O₂ ning surilishi kamayib, natijada uning kondagi mikdori kamayadi (gipoksiya). Shu bilan bir katorda kondagi karbonat angidrid gazi (SO₂) chikarish ozayib, konda uning mikdori me'yordan ancha kupayadi (giperkapniya). Bu esa nafas olish faoliyatining yetishmovchiligi degandir. Organizmda tuplangan SO₂ gazi nafas olish markaziga salbiy ta'sir kursatadi, xansirashga olib keladi.

Gipoksemiya upka tukimasiga infektion agent bulib, yalliglanish uchogi paydo bulishi natijasida yuzaga keladi. Yalliglanish uchogi alveolalar devoridagi epidermik kuchishi, interstsial tukimaning shishi va gaz perfuziyasining buzilishi bilan boradi. Bronxlar obstruksiyasi, mikroatelekazlarning paydo bulishi. Gipoksemiya nafas yetishmovchiliniga, respirator atsidoz, konda uglekislotaning kupayishi (giperkapniya) bilan kechadi. Giperkapniya nafas markazini kuzgatadi va kompesator reaksiyani - xansirashini chakiradi. Bundan tashkari, gipoksiya va intoksikatsiya tukima nafas fermentlarining funksional aktivligini susaytiradi va vitaminlar zaxiralarini kamaytiradi. Poligivitaminoz yuzaga keladi.

Gipoksiya konda va parsial bosilining pastki kritik daraja tushishi natijasida yuzaga keladi. Bunda bola organizmi xujayralari O₂ uzlashtirish xususiyatini yukotadi va anaerob modda almashinuvi tiklanadi. Tukimalarda sut kislotasi va boshka oksidlanmagan almashinuv

maxsulotlari tuplanadi, respirator atsidozga metabolitik atsidoz kushiladi. Konda, venoz konda xam xujayralar uzlashtirib olalmagan O₂ kupayadi, SO₂ esa kamayadi (gipokapniya). Gipoksiya tufayli gemodinamikaning buzilishi va mikrotsirkulyaning uzgarishi markaziy nerv sistemasi va jigar tukimalarida patologik uzgarishlarga sabab buladi modda almashinuvining barcha turlari buziladi, nafas yetishmovchiligi kuchayadi.

Dizerniya - patologik jarayonning eng xavfli boskichi xisoblanadi. Moddalar almashinuvining xujayra darajasidagi chukur buzilishlari bolaning reaktivligini uzgarishga olib keladi, xujayra va gumolar immuniteti sezilarni darajada pasayadi.

Shu fonda bola organizmidagi bakterial flora atkivlashadi, ikkilamchi infeksiya kushiladi, yiringli uchoklar paydo buladi keyin esa septikopiyemiya rivojlanadi.

Upka segmentlaridan tuzilgan bulib u asosan 3ta vazifani bajaradi:

1. Nafas olishda ishtirok etish.
2. Immuno-biologik vazifali
3. Drenaj vazifasi, ya'ni nafas yullarida tuplangan suyuklik yoki boshka yot narsalarni chikarish vazifasi. Pnevmoniyada shu vazifalarning barchasi buziladi.

Klinik xususiyatlari

Kasallikning klinik kurinish uning kay shaklida yuzaga kelganligi va uni keltirib chikargan omillarining xususiyatlariga boglik bulib, juda xilma - xildir.

Mayda kismlarida paydo buluvchi (uchokli) pnevmoniya, odatda tumov - aksirish, kuruk yutal, unchalik yukori bulmagan isitma, bolaning injiklanishi, burun bitishi bilan boshlanadi, asosan respirator viruslar bilan boglik buladi. Kasallikning 5-7 kunlarida bolaning rangi okarib yutal kuchayadi, isitmasi oshadi, xansirash paydo buladi.

Nafas olish kushimcha mushaklarning (ichkariga) ishtirokida boradi.

Kukrak kafasini tukilatib urib kurganda (perkussiya) agar pnevmoniya mayda uchokli bulsa, uzgarish sezilmasligi mumkin. Upkada boshlangich davrida kuruk va kichik-katta pufakli xul xirillashlar eshtilsa, bir xafadan sung uchokli simptom - krepitatsiya eshitiladi. Perkussiyada tovushning kiskarishi upkaning zararlangan joyi kancha katta bulsa, shuncha tez uchraydi, pritupleniye aniklaydi.

Yurak tonlari bugiklashgan, pulsi tezlashgan R-upkada zararlanmagan kismlarining kompensator kengayishi (emfizema xolati), uchokli infeksiya, konda leykotsitoz salgina neytrofilyoz, SOE - 20-40mm/ch, sogayish 2-3 xafta.

Segmentlar pnevmoniya

Yalliglanish jarayoni bitta yoki bir nechta segmentda joylashadi. Ichki organ va sistemalarda kuchli uzgarishlar buladi, toksikoz rivojlangan buladi.

Utkir boshlanadi, isitmasi 38-39oS, katta bolalarda bosh ogrishiga, boshi aylanishiga, ishtaxasi bulmaydi, ba'zan bolalarda korin soxasida ogrik, kusish, ichi ketishi mumkin.

Ba'zi vaktlarda birinchi urinda markaziy nerv sistema tomonidan buladi: talvasa, xushini yukotish.

Pnevmoniya kechishi mumkin:

- neyrotoksikoz belgilari bilan,
- kardiovaskulyar sindrom bilan,
- oshkozon - ichak sistemasini uzgarishi.

Ensefalitik sindrom paydo bulishi bakteriya, toksik va toksik moddalarning markaziy va vegetativ nerv sistemasiga ta'sir kilib neyrotoksikoz xolatida kechadi.

Neyrotoksikoz uch fazasi aniklanadi:

1. Gipertermiya
2. Gipoksicheskaya ensefalopatiya
3. Terminal

I faza. Gipertermik fazasida - isitma baland, bezovta, miodi-namikani buzilishi belgilari: oyok - kollarining muzlashi, taxikardiya, akrotsianoz, xansirash, oligoureya.

II faza. Gipoksicheskaya ensefalopatiya - katta likildokni burtishi, nistagm, talvasa klonik - tonik shaklda, kuchli taxikardiya.

III faza. Chukur koma - paralitik kollaps - taxikardiya, bradikardiya bilan almashinadi, xansirash bradiknoz buladi, keyin cheyn-stoks nafas olishga utadi.

Kardiovaskulyator sindrom - bemor sianoz, ba'zan tarkalgan xolda, teri koplamlari marmarga uxshagan, bu kon tomirlarda dimlanish buladi.

Taxikardiya 200 bir minutda, yurak tonlari bugik, A/D pasaygan. Upkada - upka ovozi kiskargan, yalliglangan jarayonida nafas olish susaygan, upkada kuruk, xul va krepitatsiya xirillashlar aniklanadi.

Rentgenogrammada - gemogen soyalar bir nechta segmentda bulib, 2-6 xaftagacha saklanadi. Pnevmoniyaning uchokli va segmentar shakllarini asorat berishi premorbid xolati bor bolalarda (raxit, ekssudativ diatez, timomegaliya, chala tugilish) kuzatiladi.

Interstitsial zotiljam. Asosan viruslar, pnevmotsistlar, mikoplazma va zamburuglar tomonidan chakirilib, kupincha chakalok bolalarda, ular chala tugilgan bulsa, yoki gipotrofiya anemiya bilan kasallangan nimjon bolalarda rivojlanadi. Interstitsiya pnevmoniada bemorning umumiyl axvoli juda tez

ogirlashadi, burun kerilib, nafas olishi shovkinli buladi, lab atrofi va yuzida kukanish kuzatiladi.

Xurujsimon chuziluvchan, ogir yutal kuzatiladi. Upkada perkutor va auskultatsiyada: nafas olish biroz susaygan, onda - sonda nam va dagal kuruk xirillashlar eshitiladi. Sagayishi 1-2 xuftadan to 1-2 oygacha davom etadi.

Gipotrofiya, raxit va anemiya bilan kasallangan erta yoshdagi bolalarda pnevmoniyaning kechishi bir kator uziga xos xususiyatlariga ega. Ularda tana xarorati kam uzgarishi, yutalning juda kam bulishi. Auskultatsiyada upka nafas shovkini biroz susayib, kukrak kafasining pastki kismi, xamda umurtka atrofida paydo pufakli nam xirillashlar eshitiladi. Bunday xollarda sust klinik manzara bilan kechadi, xattoki uning asoratlari kelib chikadi: me'da - ichak, yurak va buyrakning faoliyati susayib, bemorni axvoli tez ogirlashadi, uning tanasida shish paydo buladi.

Utkir pnevmoniyaning diagnostikasi jadvali

Pnevmoniyaga xos belgilar Pnevmoniyaga xos bulmagan belgilar

38oS dan yukori isitma 38oS dan yukori isitma

Isitma 3 kundan kup sianoz 3 kundan kam

Ovozli nafas

Taxikardiya

Obstruksiya sindromi yukligida xansirash Obstruksiya sindrom

Yutal Yutalning yukligi

Maxalliy belgilari:

Maxalliy kuruk bulmagan xirillishlar Tarkok kuruk va kuruk bulmagan xirillashlar

Kattik yoki kuchsizlangan bronxial nafas

Perkutor tovushning kiskarishi Konning normal manzarasi

Neytrophil leykotsitoz 10x10⁹ g/l dan yukori

SOE - 20 mm/soatdan yukori

Differensial diagnoz va diagnozi

Utkir pnevmoniyaning tashxisi: bolani ovkatlantirish, kechirgan kasalliklari va kechishi, klinik manzarasi: URVI bilan kasallangan, tana xarorashini kutarilishi, yutal, xansirash, (bronxitlar) belgilari kuzatiladi. Kurikda bolani nafas yetishmovchiliga xolatiga e'tibor berish kerak. Upkada perkussiya va auskultatsiya yordamida eshitish. Kukrak kafasini rentgenogramma kilish, kon analizi va balgam olib tekshirish.

Differensial diagnozi: URVI, bronxitlar va bronxolitlar, nafas yullarida utkazuvchanlik utishida (yot moddalar, aspiratsiya, laringospazm, bronxospazm) plevrit, tuberkulyoz va boshka belgilar bilan solishtirish mumkin.

Davolash. Kasallikni barvakt aniklab uz vaktida davolash, pnevmoniyaning katta axamiyatga ega. Davolash ishlari uy sharoitiga va shifoxona sharoyitiga olib boriladi. Kasallikni aniklanganda antibiotiklar tayinlanadi. Kaysi antibiotikni kullash ayni muddao ekanligini bilish uchun, uning antibiotiklarni sezuvchanligini aniklash lozim.

Ayrim antibiotiklar uzining xususiyatlari tufayli extiyotkorlik talab etadi, streptomitsin, kanamitsin, monomitsin eshituv a'zolar va buyrakka zarar yetkazadi.

Antibiotiklar pnevmoniya chakirgan yukumli omilar ta'sir kilish bilan bir katorda, organizmda odatdagи mikroorganizmlar muvozanatini buzib, zamburuglar (kandidoz) rivojlanmasligi uchun ayni paytdo nistotin (50-100 ming birlik kuniga 3-4 marta) yoki levorin (80-100 ming) tayinlanadi.

Oziklanish ratsioni bola axvoliga karab individual tayinlanadi, bunda asosan suyklik ichish tartibiga aloxida e'tibor berish kerak, uning tarkibi kuyidagicha:

1 litr suvgaga 3,5g natriy xlorid, 1,5 g kaliy xlorid, 2,5g natriy bikorbanat va 20g glukoza.

Suyuklining bir kunlik umumiyligi mikdori 700-1000 ml dan kam bulmasligi kerak.

Kasallik ogir, asoratli kelgan xallarda bolaning tana xarorati yukori bulsa, uni yalangoch kilib kuyishi, badanini 40% li spirt eritmasi bilan ishkalamasdan artish, buyin va son soxasidagi yirik kon tomirlarining ustiga yupka buyumga uralgan muz kuyish foydadir. Bunday paytda amidopirinning 4% eritmasi 0,1 ml/kg, 50% li analgin eritmasidan bolaning xar bir yoshiga 0,1 ml yoki aminazinning 2,5% li eritmasidan (1-2 mg/kg) mushak orasiga yuboriladi.

Pnevmoniyada antibiotiklar bilan davolashda penitsillin, amoksil - KMP- 2 yoshgacha - 20 mg/kg tana massasiga, 2 yoshdan - 5 yoshgacha - 125 mg x 3 marta sutkada 10 yoshdan kattalarga (40 kg ortik) 250-500 mg x 3 marta sutkada.

Makropen - ovkatdan yarim soat oldin ichish uchun.

5 kg (2 oylik) - 3,75 ml x 2 marta

10 kg (1-2 yosh) - 7,5 ml x 2 marta

15 kg (4 yosh) - 10 ml x 2 marta

20 kg (6 yosh) - 15 ml x 2 marta

30 kg (10 yosh) - 22,5 ml x 2 marta

Zotiljamning ogir shakllarida davolashni sefalosporinlar guruxidagi antibiotiklar va gentamitsin (3-4 mg/kg) boshlash kerak.

Seftriokson v/v, v/o 250/500/1000 mg

50-70 mg/kg x 2 marta

Sefazalin 250/500/1000 mg

25-50 mg/kg 0,25g - 0,5g - 1,0g

Pnevmoniyaning ogir shaklladi, ya'ni segmentar pnevmoniyada megasef antibiotikdan foydalanish mumkin.

Megasef. tabletka 250-500 mg № 10

Kichik bolalarda 20-40 mg/kg/sutkada x 2 marta kattalar va 12 yoshdan katta bolalarga 250-500 mg x 2 marta sutkada.

Inyeksiysi: v/v, /v/ 0,75-1,5g x 3 marta sutkada xar 8 soatda

3 yoshgacha bulgan bolalarga 50-100 mg/kg 6-8 soat yangi tugilgan chakalaklarda 30-100 mg/kg kuniga 3 marta.

Tayyorlanishi 250 mg - 1 ml inyeksiya suvi

 750 mg - 3 ml inyeksiya suvi

Infuzion terapiya kuyidagilar kursatma: neyrotoksikoz, yiringli intoksikatsiya. eksikoz - suyuklik mikdori 30-40 ml/kg dan oshmaslik kerak reopoliglukin 10ml/kg sut dozada:

Plazma yoki albumin 5-10 ml/kg sutkasida

10% glukoza eritmasi 1:2 nisbatda xammasi bulib 50-80 ml/kg sutkasida mikdorda.

Yurak yetishmovchiligi bulganda tomir ichiga kuyidagi yurak glikozidlari yuboriladi (0,1 ml 0,05% eritma) yoshiga karab strofantin yuboriladi, ogir xollarda glikokortikoid gormonlar kullaniladi - prednizolon 3-5 mg/kg dan v/i sutkada 1-3 kun davomida.

Bemorda balgam kuchiruvchi va yutalga karish tabletka va siroplar berish kerak.

Linkas sirop

bolalarda - 1 choy koshik 3-4 marta kuniga kichik yoshdagи bolalarda - 0,5 choy koshik - 3-4 marta kuniga

kattalarga - 2 choy koshik 3-4 marta kuniga.

Pertussin -

kattalar - 1 osh koshik - 3 marta kuniga

bolalarga - 0,5 choy koshik - 3 marta kuniga

Ambrobenye -

sirop 0-2 yosh 2,5 ml x 2 marta

2 yosh - 2,5 ml x 2 marta

5-12 yoshgacha - 5 ml x 2 marta

Inyeksiya:

0-2 yosh - 1 ml x 2 marta

2 yoshdan - 1 ml x 3 marta

5-12 yoshgacha - 2ml x 2-3 marta

12 yoshdan - 2 ml - 2-3 marta

Dispanserlashtirish (nazoratga olish)

Pnevmoniya bilan kasallangan 3 yoshgacha xamma bolalarni dispanser nazoratida bulishi kerak.

Agar 1 yil davomida retsidiv (kaytalanish bulmasa) klinik va rentgenologik uzgarishlar bulmasa, xisobdan chikariladi.

Dispanserlashtirish effektivligini baxolashda premorbid asos, ya'ni raxit, gipotrofiya, konstitutsiya anomaliyalarini xisobga olish kerak. Utkir pnevmoniyaning oldini olish - pnevmoniya infeksion kasallik bulganligi tufayli yukishidan saklanish kerak. Raxit, gipotrofiya, anemiya, diatezlar va genetik kelib chikan immunodefitsit kasalliklarini davolash va profilaktika kilishi zarur.

Kasallikning oldini olishga pnevmoniyadan oldin kechadigan utkir va surunkali jarayonlarni yuk kilish xamda bolalar organizmini erta yoshdan xamma chinikish chora - tadbirlarini kullash bilan chidamligini oshirish kerak.

ATIPIK PNEVMONIYALAR

Atipik pnevmoniyalar- o'pka to'qimasining infekcion yallig'lanishi bo'lib, qo'zg'atuvchilari-legionella, xlamidiya, mikoplazma va viruslar hisoblanadi. Ambulator pnevmoniyalarning 7-20% ni tashkil etadi.

ETIOLOGIYASI

Miloplazmaning 120 turi mavjud bo'lib, Mollicutes sinfiga mansub. Insonda mikoplazmani 13turi, axoleplazmni 2 turi, ureaplazmani 1 turi aniqlangan. Inson kasallanishida 3 turi ishtiroy etadi:

- *Mycoplasma pneumoniae*
- *Mycoplasma hominis*
- *Ureaplasma urealyticum*.

EPIDEMIOLOGIYASI

Ushbu qo'zg'atuvchilar havo-tomchi yo'li orqali inficirlangan insondan aksirish yoki yo'tal orqali yuqadi. Inkubacion davri 3 haftagacha. Odatda faslga

ko'ra –kuz- qish mavsumida, ammo yil davomida ham kasallikning yuqishi saqlanadi.

Tabiiy va eksperimental zararlanishda ham 40-90% bemorlar inkubacion davrning 3-11 kunlarida kasallanadi. Qo'zg'atuvchiga sezgir bo'limgan bemorlar bir necha hafta davomida mikoplazmani atrofga ekadi va infeksiya manbai bo'ladi. Ularda klinik simptomlarsiz qonda antitanachalar titri oshadi. Pnevmoniya va bronxit asosan *M. Pneumonia* ga xos. Shuning uchun aksariyat maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar kasallanadi.

Bolalar va o'smirlar orasida atipik mikoplazmali pnevmoniya 10% dan 20% gacha, kata yoshdilar orasida 2-3% gacha uchraydi.

Oilalarda va uyushgan jamoat tashkilotlarida kasallanish juda ko'p. Shakllangan immunitet barqaror emas.

Atipik pnevmoniyaning virusli shakli ilgari o'tkazilgan gripp, paragripp, respirator sinticial virusli respirator infekciyalar oqibatida rivojlanadi.

PATOGENEZI

Legionella, xlamidiya, mikoplazmalar bakteriya va viruslar tabiatini olgan. Tasuvchi inson hujayralarida ko'payish imkonи bor, inson organizmidan tashqarida yashab bilmaydi. Shu xususiyati ularni viruslarning xususiyatiga o'xshash hujayra ichi parazitlariga mansub qiladi.

Mikoplazmalar zardob qo'shilgan muhitda aerob va anaerob sharoitda o'sadi. Inson hujayralari bilan bog'lanishni ta'minlaydigan maxsus organellalari hujayra ichida parazitlanishni ta'minlaydi. Filament shaklda yashab ular nafas yo'llarini epiteliysi hujayralarining membranasiga bardoshli oqsil sintezlaydi. Epitelial hujayra bilan muloqotdan keyin *M. pneumoniae* shonasimon epiteliy hujayralarini shikastlaydigan vodorod perekisi va superoksidi chiqaradi.

Ammo patogenezida infekcion agentning bevosita ta'siri bilan bog'liq bo'limgan mexanizm ham mavjud, bu mikoplazma antigenlari kirishiga javoban patoimmunologik jarayon. Glikolipid antigenga qarshi tanachalar eritriticlar va bosh miya hujayralari bilan qarama qarshi jarayonda autoantitela kabi ta'sir etishi mumkin.

KLINIK BELGILARI

Mikoplazmali infeksiya quyidagi klinik shakllarda namoyon bo'ladi: rinit, faringit, traxeut, bronxit, pnevmoniya.

Odatda mikoplazmali infeksiya simptomsizkechadi va serokonversiya topilganda aniqlanadi. Nafas yo'llari jarohatlanganda bemorning shikoyatlari ob'ektiv kam ma'lumotlarga mos kelmaydi. Kasallikning boshlanishi asta sekin, bosh og'rig'i, behollik, juda yuqori bo'limgan isitma.

Nafas a'zolari simptomlari

Quruq yo'taldan qattiq iztirobli tiniq balg'amli nam yo'talgacha. Yo'tal eng ko'p va doimiy belgi. Hansirash- juda kam uchraydi, sust rivojlaangan bo'ladi. Isitma

mikoplazmali infekciyaga xos, ammo juda yuqori bo'lmaydi. Isitma va qon tahlil hamda o'pkani rentgen surati aro bog'liqlik bo'lmaydi.

6-59% holatda faringit simptomasi, 2-35% rinireya, 5%- qulqoqda og'riq (miringit), simptomsiz sinusit, quruq va mayda pufakchali ho'l xirillashlar biroz, perkutor tovush o'zgarmaydi.

Mikoplazmali infekciyaning o'pkadan tashqari belgilari

Gemoliz, sovuqlik agglutininlari titri oshishi bilan kechadi. Kataral pankreatit, meningit (kataral), meningoencefalit, neyropatiya, cerebral ataksiya kuzatiladi. Terining makulo- papulyoz toshmalari (Stivens- Djonson sindromi bilan bog'liqlik bor), miokardit, glomerulonefrit, mialgiyalar, artralgiyalar (haqiqiy artrit belgilari bo'lmaydi) bilan kechadi.

Odatda mikoplazmali pnevmoniya engil yoki o'rta og'ir kechadi. Prodromal davrda bemorlar yuqori nafas yo'llari qurishi, tomoqda qichish, quruq yo'tal paydo bo'lishi, bosh og'rig'I va behollikka shikoyat qilishadi. Bu hollarda subfebril isitma, xurujsimon ho'l yo'tal bemorlarda 2-3 hafta kuzatiladi. Taxminan chorak hollarda jarayon ikki tomonlama bo'ladi.

Og'ir hollarda kasallik yuqori isitma, og'ir zaharlanish, artralgiya, mialgiya, burundan qon oqishi, terida polimorf toshmalar, bo'yin limfa bezlarining kattalashuvi, siydikda oqsil yoki qon paydo bo'lishi, taloq kattalashuvi, miokardda distrofik o'zgarishlar kuzatiladi.

Ko'pincha mikoplazmali pnevmoniya sust kechadi. Ba'zan uning kechishi deformaciyalı bronxit, bronxiolit, bronxoektaz, pnevmoskleroz asosida bo'ladi.

DIAGNOSTIKASI

Atipik pnevmoniyanı asosiy tashxis usuli bu rentgenografiya. 2 tomonlama roentgen tekshiruvda past va o'rtacha intensivlikda nogomogen infiltraciya o'pka to'qimasida va bronxlar, qon tomirlar suratining diffuz to'rsimon keskin o'zgarishi kuzatiladi.

Aksariyat hollarda roentgen tekshiruvda o'pka surati kuchaygan, peribronzial va o'choqli infiltraciya, disksimon ateletik, o'pka ildizidagi limfa tugunlarning kattalashuvi, plevrit belgilari aniqlanadi.

Laborator tekshiruvlar: gemolitik anemiya sovuqlik agglutininlari titri oshishi bilan, retikulocitoz. Leykocitoz kuzatilmaydi. Trombocitoz anemiyaga javoban kuzatilishi mumkin.

Orqa miya suyuqligi: limfocitoz va oqsil miqdorining oshishi aniqlanadi.

Immunologik tekshiruvda: mikoplazma, xlamidiya, legionellaga qarshi IgM va Ig G antitanachalarni titri oshadi. Musbat natija: antitanachalar titri $\geq 1:32$ yoki dinakada 4 baravar oshishi. Antitanachalar paydo bo'lishi kasallikning 7-9 kunlarida, maksimal -3-4 haftasida kuzatiladi.

Polimeraz zanjirli reakciya mikoplazmaning specific DNK sini aniqlashga

asoslangan. Bu usulning sezgirligi 93%, specifikligi -98%.

Qo'shimcha tekshirish usullariga umumiyligini qon tahlili (leykocitoz infeksiyadan dalolat beradi), bronxoskopiya, balg'anni va qonni bakteriologik tekshiruvi kiradi.

Qo'zg'atuvchini aniqlash uchun balg'am, burun xalqum surtmasini bakteriologik ekmasi, immunoferment analiz (IFA), complement bog'lanishi reakciyasi (KBR), radioimmun analiz, radioimmunoferment (RIF), PCR tekshiruvlar qilinadi.

Davolash

Ko'pgina hollarda davo muolajalarini boshlagan vaqtida kasallikning qo'zg'atuvchisi aniqlanmagan vaziyatda atipik pnevmoniya nazmin qilinganda empiric tarzda makrolidlar, tetraciklin va ftorxinolinlar tavsiya etiladi.

Eritromicin 1 gr har 6 soatda samarali. Azitromicinning eritromicin va klaritromicindan afzallikkari bor. Ikkinci antibiotic sifatida atipik pnevmoniyalarda doksiciklin 100 mg sutkalik dozada qo'llaniladi.

Ftorxinolinlardan sparfloksacin 400 mg birinchi kunlarda, keyinchalik 200 mg sutkada navsiya etiladi. Ciprofloksacin ham berish mumkin.

Gemoliz va markaziy asab tizimi jarohatlanishida kortikosteroidlar va yallig'lanishga qarshi dori vositalari navsiya etiladi. Ushbu asoratlarda plazmoferez o'tkazish mumkin, ammo samarasi isbotlanmagan.

XLAMIDIYALI INFEKCIYA

Xlamidiyalar- hujaura ichi paraziti bo'lib, ko'pincha ko'zlar, nafas a'zolari va siydiq tanosil a'zolarini jarohatlaydi.

Xlamidiyalar boshqa prokariotlardan genomi hajmi (600 million Dalton) bilan farq qiladi va shu jihatdan faqat mikoplazmaga taqqoslanadi. Ularning hujayra devorida peptidoglikanlari yo'q. Ushbu mikroorganizmning o'sish jarayoni murakkab, 2 turli shaklda: elementar va retikulyar.

Retikulyar shaklda bakteriyalar hujayra ichida ko'payadi. Hujayra ichida retikulyar shakllarning bo'linishdan keyin hosil bo'ladigan oraliq shakllar hujayradan chiqib elementar shaklga aylanadi. Ushbu elementar shakllar esa yana inson hujayralariga kirib o'sish jarayoni davom etadi.

Inson hujayralaridan tashqarida xlamidiyalar elementar shaklda bo'ladi.

Xlamidiyalarining turlari:

C. trachomatis, traxoma, venerik limfagranulematoz va urogenital patologiya chaqiradi,

C. pneumoniae, nafas a'zolari kasalliklarini chaqiradi,

C. psittaci, psittakoz chaqiradi.

Yallig'lanish jarayonlari infekcion agentning ta'siriga va turli immunpatologik jarayonlarga bog'liq. Patogenetik vaziyatning nozik bir holati bu ateroskleroz va yurak ishemik kasalligiga bog'liqligidir.

C. pneumoniae –inson kasalliklaridagi eng ko'p uchraydigan xlamidiya turi, kattalar va bolalar orasida har 100 ming aholida 100 ta holatda uchraydi.

KLINIK BELGILARI

C. pneumoniae ko'pincha simptomsiz yoki kam simptomlar bilan kichadi. Ammo atipik pnevmonyaning og'ir darajadali ham kuzatiladi.

Nafas a'zolari symptomlari

Quruq yo'tal yoki tiniq balg'am bilan, turli darajadagi zaharlanish belgilari, ko'krak qafasida og'riq, biroz rivojlangan quruq yoki nam xirillashlar aniqlanadi.

Xlamidiyalı pnevmoniya o'tkir respirator virusli kasallikning rinit, faringit ko'rinishida boshlanadi. So'ngra tana haroratining juda yuqori ko'tarilishi, mushaklarda va bo'g'imlarda og'riq, hansirash, quruq yo'tal ba'zan oz miqdorda balg'am bilan kuzatiladi.

Ko'pgina bemorlarda bo'yin limfa tugunlarining kattalashuvi (limfadenopatiya) aniqlanadi.

Xlamidiyalı infekciyaning o'pkadan tashqari belgilari

Bemorlarda meningoencefalit, Guillain–Barre sindromi, reaktiv artrit, miokardit ko'rinishida ham kechadi. Tashxis epidemiologic, klinik va laborator usullarga asoslanib isbotlanadi.

DIAGNOSTIKASI

Ob'ektiv klinik belgilari va rentgenologik teksiruvda o'pka surati kuchaygan yoki local subsegmentar infiltraciya aniqlanadi.

Laborator tahlillarda qon analizida siljish kuzatilmaydi (normal qon tahlili).

Antitanachalarni aniqlash (KBR va mikroimmunofluorescenciya).

Antigenni aniqlash (Immunofluorescenciya va IFA).

PCR- polimeraz zanjirli reakciya.

Immunofluorescenciya va polimeraz zanjirli reakciya usullarining diagnostic sezgirligi 76%, specifikligi 99%.

DAVOLASH

Diagnostik imkoniyat borligiga qaramay empiric davo olib boriladi. Davo taktikasi alohida mikroorganizmga ta'sir etishga bog'liq emas, barcha atipik qo'zg'atuvchilarga yo'naltirilgan. Shuning uchun makrolidlar (eritromicin 4 g sutkada, azitromicin 500 mg sutkada va klaritromicin) tanlab olinadi. Zarurat bo'lganda doksiciklin 100mg sutkada, ftorxinolinlar mumkin, auniqsa legionellez infekciyaga taxmin qilinganda (sparfloksacin va boshq).

LEGIONELLYOZ INFEKCIYA

1976 yilda amerikalik legionerlar s'ezdi ishtirokchilarida kasallik aniqlangan. Atipik pnevmoniyanı qo'zg'atuvchisi grammanfiy aerob tayoqchasimon bakteriya-Legionella pneumophila. Infekciya asosan yoz oylarida rivojlanadi.

Legionellyoz pnevmoniya ("Legionerlar kasallugi") suv quvurlarida va idishlarida, fontan, sovutish suvli moslamalarida yashaydigan Legionella pneumonila bakteriyasi tufayli rivojlanadi. Bakteriyalari bilan zararlangan suvni ichish yoki parlanishidan nafas olishda, kondicionerlangan xonalarda, suv havzalarida, suv cirkulyaciyalanadigan injener texnik anjomlarning metallic, plastic, rezina yuzasida kolonizaciya bo'lishi orqali, hamda aerosol tarqalish bilan yuqadi. Inkubacion davr 2-10 kun.

Klinik jihatdan legionellez 2 xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: legionerlar kasalligi- pnevmoniya va pantiaks isitma (local simptomlari yo'q), bosh og'rig'i, isitma, behollik kuzatiladi va davolamasa ham o'tib ketadi.

Ambulator legionellez pnevmoniyanadan davolanmasa yoki samarasiz anibakterial terapiyada 16-30%, gospital pnevmoniyada 50% gacha o'lim kuzatiladi.

KLINIK BELGILARI

Legionerlar kasalligi pnevmoniyanı simptomlari va gastrointestinal simptomlar bilan uyg'unlikda kechadi.

Kasallik zaharlanish sindromi bilan boshlanadi, keyin local simptomlar qo'shiladi: yo'tal kam balg'am bilan (ba'zan qjn aralash, ba'zan qon tupurish), ko'krakda og'riq.

Ayrim simptomlarning legionellez pnevmoniyada uchrashi: yo'tal - 41-92%, isitma- 42-97%, harorat $> 38,8^{\circ}\text{C}$ – 88-90% ($>40^{\circ}\text{C}$ – 20-62%), hansirash – 25-62%, bosh og'rig'i – 40-48%, mialgiya va artralgija – 20-40%, diareya – 21-50%, ko'ngil aynishi / quisish – 8-49%, nevrologik simptomlar – 4-53%, ko'krakda og'riq - 13-35%.

Kasallikning og'ir darajasida epid anamnezga mos holda yuqori isitma legionellyezinfekciyadan dalolat beradi, oshqozon ichak tizimi simptomlarining qo'shilishi tashxisni tasdiqlaydi.

Legionellez pnevmoniya nafas tizimini turli qismlarini jarohatlaydi. Atipik pnevmoniyaning ushbu turi bo'lakli pnevmoniya ko'rinishida patologik jarayonga terminal bronxiolalar va alveolalar, massiv ekssudaciya va jarohatlangan tomondagi o'pka intersticial to'qimasining og'ir shishi bilan kechadi. Kasallikda yuqori harorat, kuchli qaltirash (titrash yoki et uvishi) va bosh og'rig'i kuzatiladi.

Bemorlar yo'talga shikoyat qiladi, avvaliga quruq, keyin shilimshiq chiqishi yoki shilliq-yiringli balg'am bilan. Kasallikning kechishi hansirash, mushaklarda va ko'krakda (plevral) og'riq, ko'ngil aynishi, quisish, diareya, taxikardiya va qorinda og'riq bilan og'irlashadi.

Atipik legionellez pnevmoniyaning eng og'ir asorati nafas etishmovchiligi va ikkilamchi buyrak etishmovchiligi bo'lib o'lim kuzatilishi mumkin.

Legionellyoz infekciyaning o'pkadan tashqari belgilar

Kam uchraydi, ammo endokardit, miokardit, perikardit, sinusit, paraproktit, pankreatit, peritonit, pielonefrit kabi korinishlar kuzatiladi, ayniqsa immuntanqis holati bor bemorlarda.

Legionerlar kasalligiga xos simptomlar: diareya, yoki oshqozon ichak tizimi xastaligi simptomlari, balg'amni Gram usulida bo'yashda neytrofilyoz va grammanfiy tayoqchalar aniqlanadi. Qon tahlilida giponatriyemiya. β -laktam va aminoglikozidlar bilan davolanish samarasiz.

DIAGNOSTIKASI

Rentgenigrafiyada birlashgan o'choqli soyalar, o'pka surati kuchaygan, ekssudativ plevrit simptomlari kasallikning 3-kunida aniqlanadi, klinik tuzalishdan ko'ra rentgenologik tuzalish 1 oydan keyin aniqlanadi.

Qon umumiyligi tahlilida leykocitoz chapga siljish bilan, EChT oshishi, nisbiy limfopeniya, trombocitopeniya aniqlanadi. Qon bioximik tahlilida giponatriyemiya, gipofosfatemiya kuzatiladi.

Siydikni klinik tahlilida gematuriya, proteinuriya aniqlanadi.

Balg'am va nafas yo'llari ajralmasini selektiv muhitda ekmasing sezgirligi 80% gacha.

Antigenni siydikda IFA usulda aniqlashning sezgirligi 70%, specifikligi 100% gacha.

Antigenni balg'ama da immunofluorescenciya usulida aniqlashning sezgirligi 50-70%. Qonda antitanachalarni aniqlash- kasallikning 2-nchi haftasida 4 baravar oshadi, yoki mo sholda 2 martaga, yoki M va G immunoglobulinlarning oshishi bilan bir vaqtida oshadi.

- Polimeraz zanjirli reakciya- nazariy ilg'or tekshiruv, ammo hozircha amaliy qo'llanilmagan.

DAVOLASH

Eng samarali natija makrolidlar, ftxinolinlar, tetraciclinlar va rifampicin qo'llaganda olingan. Zamonaviy makrolidlar -azitromicin, klaritromicin kabi antibiotiklarni ularning hujayra ichida yuqori koncentraciyasi, asosan o'pka to'qimasi, fagocitlar va alveolyar makrofaglarda to'planishi, oshqozon ichak tizimiga ta'siriga ko'ra zaharlanish pastligi va dokini qabul qilishi qulayligi (sutkada 1 yoki 2 marta) uchun tanlov vositasi hisoblanadi.

Legionellalarga qarshi yuqori faollik yangi xinolinlar (sparfloksacin va boshq.) da ham aniqlandi. Sparfloksacin- diftxinolon, monoftxinolonlar (ciproflokssacin va boshq.) ga ko'ra o'zining ximiyaviy tuzilishi bilan grammanfiy qo'zg'atuvchilarga qarshi yuqori faollikkiga ega bo'ldi

Sparfloksacin 400 mg *per os* davoning birinchi kunida, keyin 200 mg/sutkada tavsiya etiladi. Boshqa ftxinolinlardan farqli teofillinni farmakokinetikasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Shu jihatidan uni bronzial astma va surunkali obstruktiv bronxitga

chalingan, uzoq vaqt teofillin qabul qiladigan bemorlarga tavsiya etish mumkin. Tetraciklin, doksiciklin, trimetiprim/sulfametoksazol ham qo'llaniladi.

Zarurat bo'lganda makrolidlar monoterapiyasi rifampicin bilan kuchaytiriladi. Davoning davomiyligi 10-14 kun, azitromicin bilan davo-7-10 kun, va 21 kungacha immuntanqis holati bor bemorlarga qo'llaniladi.

Etiotrop davo asosiga simptomatik terapiya- isitmani tushiradigan, mukolitik va bronxolitiklar va og'ir hollarda glukokortikosteroидлар ham qo'llaniladi.

PROFILAKTIKASI

Profilaktika maqsadida epidemik noqulay regionlarga bormaslik, ushbu noqulay regionlardan keladigan bemorlar ustidan qattiq nazorat qo'llash, transportlarni dezinfekciya qilish, bemorlar bilan muloqotda bir martalik niqob qo'llash zarur.

BRONXIAL ASTMA

Tarif

Bolalardagi bronxial astma – bronxlarni surunkali allergik yallig‘lanishi bo‘lib, ularni giperreaktivligi asosida rivojlanadi va bronxokonstriksiya, shilliqlarni gipersekretsiyasi, bronxlar devorlarini shishini hisobiga tarqalgan bronxial obstruksiya natijasida bo‘g‘ilish yoki vaqt – Bilan qiyin nafas xurujlari kelib chiqishi bilan xarakterlanadi.

Bu tarif “Bolalarda bronxial astma” nomli milliy dasturda (Rossiya Federatsiyasi) 1997 yilda qabul qilingan.

Etiologiya. Bronxial astmani rivojlanishida ingalyasion allergenlarni roli katta, lekin 1 yoshgacha bo‘lgan davrda oziq – ovqat va dorilarning allergenlari ham asosiy o‘rinni egallashi mumkin.

a) asosan maishiy xizmat ko‘rsatishdagi (бытovoy allergen) allergenlar – dermatophagoides pteronissimus, D. Farinae, D microceras Eurogiyphus mainei kabi kleştlar. Ular yumshoq mebellar, gilamlarda 22 – 26 ° da ko‘payadi, kamroq haroratda, matraslarda (ko‘rpa to‘saklarda ko‘payadi)

b) epidermal allergenlar (mushuk, it, jun, par, hayvonlarni so‘lagi, suvaraklar chiqindilari, baliqlarning emi (dafniya) ham bronxial astmani keltirib chiqaruvchi sabablardandir. Nam xonalarda yil davomida zamburug‘larni sporalari (Aspergillus, Penicillium va Mukor) mavjud. Cladosporium va Allernaria sporalari mart oyidan boshlab to noyabr oyigacha chiqadi.

v) changdagi allergiyalar – bo‘lar daraxtlardagi (Olxa, qayin, iva, terak, dub va hokazo) zarrachalar gullah davrida mart – may oylarida havoga tarqaladi. YOz

oylarida pollinoz asosan donlarni changlarida (yoj, arpa, suli, bug'doy, roj va hokazo), avgust oylarida esa ko'katlardagi changlar (роын, крапива, лебеда ва хоказо) havoga ko'tariladi.

g) dori moddalar ham sensibilizatsiya qiladi: antibiotklar, ayniqsa penitsillin, sulfanilamidlar, vitamnlar davolash vaqtida yoki oziq – ovqatlar tarkibida qabul qilinganda yoki ularni ishlab chiqarishda tashqi muhitga chiqqanda. Aspirin va boshqa yallig'lanishning nosteroid prepatlar "aspirin" li astma keltirib chiqarishi mumkin. Buni asosida prostaglandinlarni sintezini buzilishi yotadi.

d) bazi bir pollyutantlar (xrom, nikel) ham allergik yoki gaptep vazifasini bajarishi mumkin.

Bronxial astmani keltirib chiqaruvchi omillar:

- Bakterial;
- Virusli infeksiyalar.

Misol uchun RS – virusi Ig Eni ishlab chiqarishni kuchaytiradi, natijada bronxlarni giperreaktivligi ortadi, u esa borki HBs Ag tashuvchilarda bronxial astma ko'p uchraydi.

Bronxial astmani rivojlanishidagi xavfli omillarga qo'shimcha faktorlar:

- ORVI;
- Metereologik holat;
- Tamaki tutuni;
- Jismoniy zo'riqish;
- Psixologik stress

KLINIK KO'RINISH VA DIAGNOSTIKASI

Bronxial astmani kriteriyalari (mezonlari):

- Bo'g'ilish xuruji
- Astmatik status
- Astmatik bronxit
- Spastik yo'talish xuruji
- Rentgenografiyada – o'pka shishgan, uning fonida bronx tomir rasmlari kuchaygan.

Xurujdan tashqari vaqtidagi diagnostikasi:

Bronxial astma diagnozi uchun hal qiluvchi omil anamnezidagi obstruktiv ko‘rinishlar hisoblanishiga qaramay, ota – onalar ko‘p hollarda etarli malumot bera olmaydilar, shuning uchun anamnez yig‘ganda quyidagilarga ahamiyat berish zarur:

- Tez – tez bronnid bilan kasallanishi (ayniqsa bolada va qarindoshlarida allergik holatlarni borligi);
- Tez – tez ORVI bilan kasallanish (tana harorati ko‘tarilmasdan);
- Bronxit va ORZ allergiyalar bilan bog‘liq;
- Yo‘tal xuruji, jismoniy harakatda hansirash, qo‘zg‘aluvchanlik gipervantitilyasiyalar (sovuqqa chiqqanda);
- “To‘xtamay” (uporniy) yo‘talish, ayniqsa tunda;
- respirator simptomlarni faslga bog‘liqligi (pollinoz?);
- Vaqti – vaqt bilan ko‘krakni ezishini (bositishi) sezish.

Pristupdan tashqari vaqtida o‘pkaga aloqador simptomlar bo‘lmasisligi mumkin, ammo perkussiya qilinganda bo‘sish quttini chertganda chiqadigan tovush singari (korobochnyy ottenok) belgi, nafasni suslashganligi, yuzakiligi, nafas olishni uzayganligi va xirrilashlar (chuqur nafas olgan va chiqarganda) kabi belgilar diagnozni osonlashtiradi. Agarda klinik belgilar mavjud bo‘lmasa tashqi nafas funksiyasini (FVD) ni tekshirish, aniqroq bo‘lishi uchun bronxodilyatatorlar bilan sinama qo‘yish zarur. Bronxokopiyadan boshqa kasalliklarga gumon qilinganda foydalaniadi.

Astma diagnozini ehtimolligini orttiruvchi belgilar quyidagilar:

- Pozitiv allergologik anamnez (nasliy allergiya belgilari, bazi dori va oziq – ovqatlani ko‘tara olmasligi (neperenosimost):

- teri sinamalarning musbat bo‘lganligi (o‘tgan davrda).

Meda – qizilo‘ngach reflyaksi (zarda bo‘lish, quisish – sryigivaniya) respirator simptomlari sababi bo‘lishi mumkin.

Astma xuruji (pristupi)

Astma xuruji 2 xil belgilar yig‘indisidan iborat:

1. Bronxlar obstruksiyasi (nafas chiqarishni cho‘zilganligi, xushtaksimon hirrilash, ortopnoe);
2. Nafas etishmovchiligi belgilari (tezlashgan nafas, bezovtalik, ko‘karish).

Astmatik status og‘ir kechadi, chunki unda faqatgina bronxospazm emas, balki bronxlar gipersekretsiyasi kuzatiladi. Sekret oqsilga boy bo‘ladi, mayda bronxlar yo‘llarini to‘sib qo‘yadi. Bunday holda nafas shovqinlari eshitilmay qoladi. “ Soqov o‘pka ” (nemoy lyogkiy) belgisini beradi. Bu hollarda nafas to‘xtab

qolishi xavfi bo‘ladi. Bronxial astmani xurujini og‘irlilik darajasini belgilash kriteriyasi 1 – jadvalda keltirilgan.

Jadval 1

Bronxial astma xurujini og‘irligini baholash mezoni ***(V.K. Tatochenko 2000;)***

Belgilari	Engil	O‘rtacha og‘irldikda	Og‘ir	Astma holati
Fizik (jismoniy) Faollik	Saqlangan	CHegaralangan	Ortopnoe	Yo‘q
Nutq	Saqlangan	Ayrim frazalar	Qiyinlashgan	Yo‘q
Xushi	Bazan qo‘zg‘aluvchan n	Qo‘zg‘aluvcha n	Qo‘zg‘aluvchan , qo‘rquv	Hushi joyida emas koma
Nafas tizimi	Tezlashgan	Ekspirator hansirash	» 40v 1	Taxi yoki bradipnoe
YOrdamchi muskullarni qatnashuvi	Aniq emas	Aniq (yaqqol)	Juda yaqqol	Paradoksal torakoabdomina l nafas
Hushtaksimo n nafas	Nafas olish oxirida	YAqqol	Juda yaqqol	Hech narsa eshitilmaydi “ Soqov o‘pka ”
RS tezligi	Ortgan	Ortgan	» 120 v1	Taxi yoki bradikardiya
OFV; ASV	» 80%	50-80 %	«50%	« 33 %
Ra O2 mm. rt. St	Normada (» 85)	» 60	« 60	
Ra SO2	« 45	« 45	» 45	

mm.rt.st.				
-----------	--	--	--	--

Jadal nafas chiqarish hajmi OFVI
(obyom forsirovannogo výdoxa za sekund (normada 81 %)
Jadal nafas chiqarish tezligi (PSV pikovaya skorost výdoxa
(71 % normada)

O‘z vaqtida davo boshlanganda bolaning javob reaksiyasini ijobiy bo‘lishi ham kerakli parametrlaridan biri hisoblanadi. Bu bronxial astmani og‘ir formalari astmatik status, steroidga bog‘liq astma rivojlantirishini kamaytiradi. Bu holatni kamaytirishda ingalyasion steroidlarni ahamiyati katta. Beklometazonni o‘rtacha dozasi (400 mkg/sut) 10-15 mg prednizolонни (enteral) o‘rnini bosadi. “ Ingalyasion steroidlar qo‘llashga bog‘liq astma ” degan terminni ishlatish maqsadiga muvofiq emas, chunki u preparatlarni qo‘llash bazis terapiyani zarur komponenti hisoblanadi.

Bronxial astmani klassifikatsiyasini 2 – chi jadvalda keltirilgan.

Jadval 2

Bronxial astmani klassifikatsiyasi (1997 y. Rossiya)

Turi	Boshqa turlari	Davri	Kechishi
Atopik	Astmatik bronxit	Avj olish	Engil
Noatopik	Tungi yo‘tal Jismoniy zo‘riqishdagi astma Psixogen astma	Remissiya	O‘rtacha og‘irlilikda Og‘ir

Rossiyada “Bolalarda bronxial astma ” nomli Milliy Dastur tuzilgan. SHu dasturda bronxial astma og‘irligini kriteriyalari ishlab chiqilgan (jadval 3).

Jadval 3

Bronxial astma xurujini baholash mezoni ***(V.K.Tatochenko 2000;)***

Simptomlari	Engil	O‘rtacha og‘irlilikda	Og‘ir
Xurujlar tizimi	Oyda 1 martadan	Oyda 3-4 marta	Haftada 1 marta

	kam		va undan ko‘p
Xuruj xarakteri	Engil	O‘rtacha og‘irlikda tashqi nafas funksiyasini buzilishi bilan	Og‘ir yoki astmatik status
Tungi xurujlar	Kam yoki yo‘q	Haftada 2-3 marta	Deyarli har kuni
Jismoniy faollik	Meyorda	Sustlashgan	Juda sustlashgan
Pnevmotaxometriya ko‘rsatkichlarini sutkali tebranishi	≥20%	20 - 30%	30% ≤
Remissiya xarakteri	Simptomlarsiz, FVD normada	To‘la bo‘lmagan remissiya (klinikasi va FVD bo‘yicha)	Nafas etishmovchiligi
Remissiya davri	3 va undan ko‘p oy	« 3 oy	1-2 oy
Jismoniy rivojlanish	Normada	Normada	Rivojlanishdan orqaga qolish
Xurujni to‘xtatish usullari	O‘z-o‘zidan yoki 1 doza bronxomatik tasirida	Bronxolitiklar ingalya-siyada, v/i, m/o, bazan ingalyasion steroidlar	Bronxolitiklar + steroidlar V/i, m/o

Bu kriteriyalar 1996 yil pulmonologiyalarning halqaro Konsensusida qabul qilingan tavsiyalardan farq qiladi. Konsensus tavsiyasiga ko‘ra astmani engil turi qatorida doimiy va intermitterlangan formasi ajratlgan. Bunday bo‘lishi foydali hisoblanadi, chunki oxirgi formasida

(astmatik bronxitda) doimiy ingalyasion bazis terapiya tavsiya etilmagan, lekin unga to‘g‘ri yondoshib qo‘srimcha kiritiladi (4 - jadval)

Jadval 4

Bolalarda bronxial astmani davolashga zinama – zina yo‘l

Og‘irligi	I - chi zina (engil)	II - chi zina (o‘rtacha og‘irlikda)	III - chi zina (og‘ir)
Xurujni oldini olishga qaratilgan bazis terapiya			
			Ingalyasiyali

YAllig‘lanishga qarshi terapiya	Kromoglikat natriy 4 maxal sutkada yoki nedokromil natriy 2 maxal sutkada	Kromoglikat natriy 4 maxal sutkada yoki nedokromil natriy 2 maxal sutkada. Kam yordam bergen xollarda (6-8 xaftha davo-mida) ingalyasiyalı steroidlarga almashtirish)	steroidlar (yuqori dozalari) simptom-larni to‘la nazorat qila olinmagan hollarda dozalarini ko‘pay-tirish yoki oral steroidlarni qo‘shish (qisqa kurs)
Steroidlarga qo‘- shimcha uzoq muddat tasir etuvchi bronxodilyatatorlar	Buyurilmaydi	Teofillinlar (uzoq mu-dat tasir etuvchi) yoki 2 ango nistlar (uzoq muddat tasir etuvchi)	Teofillinlar (uzoq muddat tasir etuvchi)
Simptomatik davo (simptomlarni tezroq yo‘qotish uchun)			
Bronxodilyatatorlar	Epizodik: (vaqtiga vaqt bilan) ingalyasion 2-agonist-lar (qisqa muddat tasir etuvchi) va (yoki) itrapropiya bromid yoki qisqa muddat ta’sir etuvchi teofillin 5 mg/kg	Ingalyasion 2 angonistlar (qisqa muddat tasir etuvchi) 4 maxal sutkada va yoki itrapropiya bromid yoki teofillin (qisqa muddat tasir etuvchi) 5 mg/kg 1 martali dozasi	

Klassifikatsiyada ajratilgan “ Boshqa turlari ” ga qisqa xarakteristika .

Astmatik bronxit – bu bronxial astmani intermitterlangan kechishi bo‘lib, ko‘pincha 4-5 yoshli bolalarda kuzatiladi. Ularda bronxit epizodlari ko‘ptakrorlanadi. Kuchli obstruksiya bilan kechadi, lekin xuruj kuzatilmaydi. (4 yoshgacha epizodlar ORVI fonida kechsa ROB – retsidivuruysi ostriy bronxit diagnozi qo‘yiladi). Astmatik bronxit diagnozini qo‘yish yana ham osonlashadi, agarda epizodlar noinfektion allergik tasirida kelib chiqsa qaytalanish orasida simptomlar kuzatilmaydi. Ayrim hollarda funksional probalar engil obstruksiya,

yashirin bronxospazm (bronxodilyatatorlar bilan sinama) va (yoki) bronxial giper reaktivlik kuzatilishi mumkin.

Tungi yo'tal (nochnoy kashel) – xurujsimon yo'tal kuzatiladi – u astmani ekvivalenti hisoblanadi; ko'p hollarda u haqiqiy bronxial astma xurujini boshlanishi bo'lib hisoblanadi, u keyin sekin – asta klassik xurujga aylanadi.

Jismoni zo'riqishdagi astma - bu astmani alohida bir turi bo'lib, bolalarda kam uchraydi. Ammo bu klassik astma xurujiga sabab omil bo'lishi mumkin.

Aspirindan kelib chiqadigan astma - “aspirinovaya astma” asosida allergik mexanizm yo'q, u siklooksigenazani inaktivatsiyasi va prostaglandindinlar sintezini buzilishini natijasida kelib chiqadi. Bu doriga va uning qatoridagi dorilar qo'llanganda anafilaktik reaksiya, burundan poliplar paydo bo'lishi kuzatiladi. SHuni hisobga olib dorilarni bolaga buyurish (tavsiya etish) ehtiyyotkorlikni talab qiladi.

Differensial diagnostika

Quyidagi holatlar (obstruksiya bilan kechuvchi) bilan differensirovka qilinadi:

1. Obstruktiv bronxit;
2. Surunkali bronxolit (obliteratsiya bilan kechuvchi);
3. Vilyams – Kempbell sindromi;
4. Surunkali pnevmoniya;
5. Mukovissidoz.

Surunkali hollarda allergik astma asosiy kasallikka qo'shiladi. Bu hollarda rentgen tekshiruv yordami beriladi.

PROGNOZ

YOshlik davrida boshlangan astma yaxshi kechadi (kech boshlanganga qaraganda). Astmatik bronxitda ham, bronxial astmani engil turida maktab yoshida 85 – 90 % remissiya kuzatiladi. Lekin bu bilan chegaralanib qolmaslik zarur, chunki yoshlardagi astma bilan katta yoshdagagi odamlardagi astmani o'zaro aloqasi borligi aniq. YOshlikdagi astma 60 % hollarda katta yoshida ham davom etishi mumkin.

Astmani og'ir o'rtacha og'irlilikdagi turlarida astma xurujini yoshi katta bo'lgan sari kamayishi juda kam kuzatiladi. Bronxial astmani og'ir turlarida o'lim 13 % ni tashkil qiladi. Steroidga bog'liq bo'lib qolgan hollarda esa o'lim 6 % gacha kuzatiladi.

DAVOLASH

Bronxial astmani davolash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Bazis terapiya. Bronx shilliq qavatlaridagi yallig‘lanishni yo‘qotishga va bronxlarni giperaktivligini kamaytirishga yo‘naltirilgan.

Jadval 5

Semiz hujayralar membronasini stabilizatorlari

Preparat	SHakli, dozasi
<i>Endotraxeal ingalyasiya</i>	
<i>Kromoglikat / kromoglitsiy kislotasi</i>	
Nalkrom	Kapsula 0,1 g. 2 yoshgacha: 20 40 mg/kg/sut. 2 14 yosh: 0,1 g x 4 maxal ovqatdan avval (ovqat-dan allergiya bo‘lganda)
Intal, Kromolin	Poroshok 10mg ingalyasiya uchun (spinxaler orqa-li) 1 kunda 4 doza
Intal, Bikromat	2 ml eritma (20 mg ampula) 4 ta ampula 1 kunda.
Intal, Taleum	Aerozol dozalangan 5 mg/doza 2 dozadan 4 maxal.
Intal plyusm	Aerozol 10 mg kromoglikat + 0,12 mg salbutamol 2 dozadan 4 maxal.
Ditek	Aerozol 1 mg kromoglikat + fenoterol 50 mkg 1-2 dozadan 3-4 maxal
Katotifen Zaditen	Aerozol 1 mg kromoglikat + fenoterol 50 mkg 1-2 dozadan 3-4 maxal
Nedokromil Tayled	Tabletka 1 mg; sirop 1 mg/50 ml 0,05 mg/kg/sut (1 – 2 tab.sut). Aerozol 2 mg/doza 2 dozadan 4 maxal
<i>Endopazal sprey / tomchi</i>	
<i>Kromoglikat / kromoglitsiy kislotasi</i>	
Kromogeksal	Flakon 5 ml, 20 mg/ml. Burunga 3 tomchidan 4 maxal

Kromoglin	Dozali aerozol 2,8 mg/doza. har bir burun katagiga 1 dozadan 4 maxal. allergiya tasir etgan davrda.
Lomuzol	Dozali aerozol 2,5 mg/doza 1 dozadan 4-6 maxal.
Ifiral	Flakon 5 ml, 20 mg/ml. Burunga 3 tomchidan 4 maxal
Intal	Kapsula 1 kapsulani 5 ml suvda eritib, 4 – 6 tomchidan 4 maxal burunga tomiziladi.

2. Xurujni (pristup) davolash. Bronxial astma Bilan kasallangan bolani davolashdan avval bolani o‘rab turgan allergenlardan ozod qilish zarur (profilaktikaga qaralsin)

SHu bilan bir qatorda ota – onalarga hozircha astmani to‘la davolash tadbirlari ishlab chiqmaganligini va o‘tkaziladigan davolash kasallikni engillashtirish, og‘ir turlariga o‘tmaslikni, asoratlarini oldini olishni aytish lozim.

BAZIS TERAPIYA

Bazis terapiya o‘tkazishdan maqsad bronxlarni shilliq qavtlaridagi yallig‘lanish jarayonini uzoq muddat davomida kamaytirishga erishish. Maqsadni amalga oshirishuchun semiz hujayralarni stabilizatorlari 3 – 6 oy mobaynida qo‘llaniladi. (jadval 5). Ushbu preparatlarda steroidlarga kamchiliklar kuzatilmaydi, shu uchun ularni qo‘llash yaxshi samara beradi.

Kichik yoshdagi bolalarda poroshok (kukun) sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq. 7 yoshdan kattalarga esa ingalyasiyani qo‘llash qulay. (Intal, Bikromat, Intal plyus, Ditek, Taleum, Tayled). Kichik yoshdagi bolalarda, terida allergiya belgilari bo‘lsa ketotifen ichishga buyuriladi. (3 oydan kam emas).

IZOX (Kommentariy) (4 jadvalga)

1. Ingalyasion yo‘l bilan yuborish afzalroq (dozalangan aerozol – speyser orqali), ingalyasiya uchun poroshok, nebulayzer.
2. Astmani engil turini kam xurujli va uzoq muddatli remissiyasida bazis terapiya uchun kromoglikat yoki nedokromil mavsumiy profilaktika maqsadida qo‘llaniladi.

3. Kromoglikat yoki nedokromil profilaktika maqsadida zo'riqishdan yoki allergin bilan kontaktda bo'lganda ham qo'llaniladi.
4. Uzoq muddatli b₂ – agonistlar yallig'lanishga qarshi preparatlar bilan (ular yaxshi samara bermaganda) birgalikda ishlatiladi.
5. steroidlar kursini (per os) tamomlagandan keyin ingalyasion steroidlarga o'tish lozim.
6. Astmani og'ir turida 6 oy mobaynida klinik – funksional o'zgarishlar kuzatilganda ingalyasion steroidlar sekin – asta kamaytiriladi yoki kromoglikatga almashtiriladi.

Bronxial astmani engil va o'rtacha og'irlikdagi turini remissiya davrida spetsifik immunoterapiya o'tkazish mumkin (mutaxassislar bilan kelishilgan holda).

Og'irroq turida ***ingalyasion steroidlar*** (jadval 6) qo'llani-ladi. Ular uzoq muddat beriladi. (6 oydan kam bo'lmasligi kerak). Ular to'la remissiya bo'lganda berilmay qo'iladi. Bazan yillar mobaynida bemor bu preparatlarni olishiga to'g'ri keladi. 6 jadvalda ingalyasion steroidlarni o'rtacha va yuqori dozalari, 7 jadvalda esa 0 – 5 yoshli bolalar uchun qo'llashni turli moslamalarda qo'llash uchun dozalari berilgan. Ingalyasion steroidlar xurujni yo'qotmaydi.

Jadval 6

Ingalyasiyali kortikosteriodlar (dozalangan aerozol)

Preparat	SHakli	Dozasi
<i>Endobronxial ingalyasiyalar:</i>		
Beklometazol (Aldetsin, Bekotid, Beklodjet 250)	50,100,250 mkg/doza	Erta yoshda (o'rtacha doza) 200-300 mkg/sut Katta yosh: 400-600 yuqori doza» 600 mkg/sut
Budesonid Pulmikart – turbuxaylar	Poroshok ingalyasiya uchun 100 va 200mkg/doza	O'rtacha 200 - 400 mkg/sut YUqori 400 » mkg/sut
Pulmikort nebuliyator uchun eritma	0,125; 0,25 va 0,5 mg/ml 2 ml dan	Ingalyasiyaga 2 ml 0,25 0,5 mg/sut o'rtacha » 0, 5 mg/sut yuqori

Flunizolid (ingakort)	250 mkg/doza	500 1000 mkg/sut » 1000 mkg/sut yuqori.
Flutikazon (fliksotid)	25,50,125 va 250 mkg/doza	100-200 erta yoshga 200- 400 katta yoshga yuqori dozasi » 400 mkg/sut

Endonazal ingalyasiyalar:

Beklometazon (Aldetsin)	50 mkg/doza	1-2 dozadan 2 mahal
Beklometazon (Bekonaze)	20 mkg/doza	2 dozadan 2 mahal
Triamsinolon (Nazokort)	55 mkg/doza	1 dozadan 2 mahal
Flunizolid (Sintaris)	25 mkg/doza	2 dozadan 2 mahal
Flutikazon (Fliksonaze)	50 mkg/doza	4-12 yosh 1 doza » 12 yosh 1 dozadan 1-2 mahal burunni har bir katagiga

Glyukokortikoidlar (jadval 8) muddatga buyuriladi ularni bronxial astmani refrakter xollarida ishlatiladi. Ko‘p hollarda steroidlarga bog‘liq holat vujudga keladi. Unday paytda ingalyasion steroidlarga almashtiriladi.

Jadval 7

Preparatni dozalari 0-5 yosh uchun *

YOshi	Tuzilma	Xuruj davri	Bazis davo

0 - 2 yosh	Dozali ingalyator + niqob yuziga **	Salbutamol 200mg har 6 s (3 s) 600 1000 mkg/sut . Ipratropiya bromid*** 125 250mkg har 6 soatda.	Beklomatazol 50-200 mkg xar 12s. Flutikazon 25-100mkg har12 s. (tax 250 mkg/sut) Budesonid 50-200mkg har12s (tax 60 mg har 6-8 soatda)
2 - 5 yosh	Dozalangan ingalyator + speyser	Salbutamol 200 mkg har 6s. (3s). 1000 mkg sutkada. Terbutalin 250 mkg xar 6s (3s) (1 1,5 mg/sut)	Kromoglikat 10 mg har 6-8 soatda. Beklometazon 50-200 mkg har 12s (tax 250 mkg/sut) Budesonid 50-200 mkg xar 12s (tax 600 mkg/sut).
	Nebulayzer	Salbutamol 2,5 – 5 kg har 6s (3s) Terbutali 5-10 mg har 6s (3s)	Budesonid 1000 mkg gacha har 12 soatda

*Izoh: * Kavs ichida minimal va maksimal sutkali dozalar berilgan. ***

BOSHQA PREPARATLAR

YUqorida keltirilgan preparatlar bilan birga teoffilinlar (jadval 9), ayniqsa tungi xurujni engishi uchun, shu bilan birga uzoq muddat tasir qiluvchi b_2 – agonistlar (jadval 10) ishlataladi. b_2 – agonistlar bronxlardagi yallig‘lanishga tasir qiladi degan malumotlar bor.

Agar astmani 1 ta alergeni chaqirgan bo‘lsa spetsifik immunoterapiya yordam beradi.

Bronxial astmani zinama – zina davolash 4 – jadvalda keltirilgan.

BRONXIAL ASTMA XURUJINI DAVOLASH

Jadval 9**Uzoq muddat tasir etuvchi teofillinlar**

Preparat	CHiqarilish shakli
Afonilum SP	250 va 375
Ventaks	100,200 va 300mg
Durofillin	125,250 mg
Retafil	200,300 mg
Slou bid	50,75,100,125,200,300 mg
Spofillin retard	100,250 mg
Teo	100,250,300
Teopek	300 mg
Teostat	100, 300mg
Eafilong	250,375 mg
Teotard	100,200,300,350,500 mg
Uni – dur	400,600 mg

Jadval 10**Uzoq muddat tasir ko‘rsatuvchi b₂ agonistlar (10 coatgacha)**

Preparat	SHakli, ko‘rsatma, dozasi
Salbutamol Gemisuksinat (saltos)	Tablitsa 7,23 mg 7-75 yosh 6 mg x 2 maxal 1 kunda
Klenbuterol (kontraspazmin, spiropent)	Tablitsa 0,02 mg, sirop 0,01 va 0,005 mg, 5 mlda profiaktika uchun
Salmeterol Salmeter, Serevent	Dozalangan aerozol ingalyasiya uchun 25 mkg/doza poroshok ingalyasiya uchun 50 mkg/doza.Dozalangan aerozol uchun 25 mkg/doza profilaktika uchun

Formetorol Foradil Oksik - Turbuxayler	25 mkg/ x 2max Poroshok ingalyasiya uchun 4,5 va 9 mkg/doza 60 doza profilaktika uchun 1-2 dozadan 2 maxal 8 soatda.
---	---

Jadval 11

Qisqa muddat tasir etuvchi simpatomimetiklar


Preparat	SHakli, ko‘rsatma, dozasi
Adrenalin (b,v)	0,1 eritma v/i, m/o, t/o 0,3 - 0,5 ml. SHokda
Noradrenalin (b,v)	0,2 eritma v/i tomchilab, 0,5 -1,0 ml shokda
Mezaton (b,v)	1% eritma v/i, tomchilab 0,1- 0,3 ml shokda
Izoprenalin (v, v2) (izadrin)	Tabletka 5 mg tabletka til ostiga astma xurujiga yoki profilaktika maqsadida
Orsiprenalin (v, v2) (Alupent, Astmopent)	0,5 mg/kg eritma 0,3-1,0 ml m/o astma xurujida. Dozalangan aerozol 0,75 mg/doza (400 doza) 1-2 dozadan 3-4 maxal
Salbutamol (v2) (Ventolin, Volmaks)	- Tabletka 2 va 4 mg; retard 4 va 8 mg; sirop 2 mg 5 mlda 3-8 mg/sut asima xurujida yoki profilaktika maqsadida - 0,125 % eritma ingalyasiya uchun nebuluator orqali 2,5 ml 3-4 maxalkunda astma xurujida yoki profilaktika maqsadida - Dozalangan aerozol 0,1 mg/doza. 1-2 dozadan 3-4 maxal xurujida yoki 1 doza jismoniy yuklamadan oldin - Ingalyasiya uchun poroshok 0,2 va 0.4 mg/doza. Doza 2 marta ko‘p yuboriladi.
Ventodisk	
Terbutalin (v2) (Brikanil)	- Tabletka 2,5 va 5 mg; 3-7 yosh 0,65 0,125 mg 2-3 doza - Eritma 0,5% in’eksiya m/o 0,1-03 ml xurujda - Eritma 1,0% ingalyasiya uchun nebuluator oryali 0,5 – 1,0ml fiz. Eritmada 3-4 maxal astma xurujida - Dozalangan aerozol 0,25 mg/doza 1-2 doza aerozol 3-4 maxal, xurujda yoki profilaktika maqsadida - Poroshok ingalyasiya uchun 0,5 mg/doza 5 yosh 1 doza 2-4 maxal xurujda yoki prfilaktika

Fenoterol (v2) Berotek 100 va Berotek	- Dozalangan aerozol 10 yoki 200 mkg/doza » 6 yosh 200 mkg, kayta 1 doza 51 dan keyin profilaktika 100 mkg 2-3 marta kunda - 1 mg/ml fenoterol: 6 yosh 500 mkg/kg 10 tomchi = 0,5 ml), 6-14 yosh - 1ml (20 tomchi) 3-4 maxal kunda
Berodual Berodual ingalyasiya uchun eritma	Dozalangan erozol fenoterol 50 mkg/doza + itratropiya bromid 20 mkg/doza, 1-2 doza 2-3 maxal Fenoterol 500 mkg/kg 1 marta uchun (5-10 tomchi = 0,25 1,0 mg). 6-14 yosh 0,0 mg 3-4 maxal kunda
Ditek	Fenoterolni dozalangan aerozoli 50 mkg/doza + di-natriy xromoglikat 1 mg (200 doza) 1-2 dozadan 3-4 maxal

Astma xurujini sxemasi 1 rasmda keltirilgan.

Rasm – 1

Bronxial astma xurujida bolani statsionarda davolash algoritmi



Og‘irlik darajasini qayta baholash.



YAxshiland:

Kortikosteroidlarni davom ettirish bir necha kun, so‘ngra asta – sekin kamaytirish va ingalyasion kortikosteroidlarga o‘tish hamda uzoq muddat tasir etuvchi teofillinlar qo‘shish.

Izoh: SaO stepen oksigenatsii (oksigenatsiya darajasi)

PSV pikovaya vyxoda (nafas chiqarish cho ‘qqiga chiqish tezligi).

Og‘ir xurujda va astmatik statusda b₂ – agonistlarni (jadval 11 va 7) ingalyasiya shaklida (yaxshisi speyser orqali) ishlatish maqsadga muvofiq. Speyser orqali 1 soat ichida xar 20 daqiqada 1 – 2 doza yuboriladi. Engil xurujlarda ichishga buyuriladi. Kam samara berganda ipratropiya bromid, steroid gormonlar (ichishga yoki m/o) qo‘shiladi. U preparatlar bronxlarni b – retseptorlarni sezgirchanligini orttiradi.

b₂ agonistlarni qo‘llab engil xuruj to‘xtatilgandan keyin eufillindan 4-5 ml/kg dozadan sutkada 3-4 maxal foydalilanadi. SHuni qayd etish lozimki bu preparat nojo‘ya tasir ko‘rsatadi, davolash mobaynida buni etiborga olish lozim.

1. O₂ niqob orqali yoki kanyula orqali yuboriladi;
2. Gidratatsiya o'tkaziladi, yani 5% li glyukoza, fiz.eritma teng qismlarda 10-20 mg/kg 3-5 soat mobaynida qo'yiladi. SHuni fonida b₂ – agonistlar qilinadi. Agar samara bermasa (1 soat mobaynida) 0,3 – 0,5 ml 0,1 % adrenalin teri ostiga yoki vena ichiga yuboriladi yoki eufillin 5 mg/kg birinchi 30 daqiqada, so'ngra 1 mg/kg/s tomchilab yoki 4-6 soatda bo'lib-bo'lib yuboriladi. SHunga parallelm/o yoki vena ichiga yuqori dozalarda prednizolon 8-10mg/sut yoki deksametazon 0,8-1,0 mg/kg/sut har 4-6 soatda jo'natiladi. Bu astmatik statusni oldini oladi. Ftorlangan steroidlar (deksametazon) va giidrokortizon prednizolonga qaraganda samaraliroq. SHu dozalarga samara bermasa enteral yo'l bilan buyuriladi (1 yoshgacha 2 mg/kg/sut, 1-5 yosh 20mg/sut, 5 yosh va undan kattasi 30-60 mg/sut).


Avval astmatik status bo'yicha davolangan bolalarga xuruj boshidayoq steroidlar buyuriladi yoki agonistlarni 1 dozasidan samara olinmasa steroidlar beriladi. 1-2 kundan keyin steroidlar uchiriladi, qisqa muddatli muolaja buyrak usti bezi faoliyatiga tasir ko'rsatmaydi.

Tungi xurujlarni nazorat qilish uchun uzoq muddatli teofillinlarni qo'llash qulay (tabl. 5.4). xuruj vaqtida, ayniqsa og'ir hollarda sedativ moddalar va mukolitiklar tavsiya etilmaydi. (ular obstruksiyani kuchaytiradi). Agar bakterial o'choq bo'lsa antibiotiklar buyuriladi.

Xurujdan keyingi davrda b₂ – agonistlar yoki eufillin davom ettiriladi (muntazam remissiya bo'lguncha).

Rasm 2

Og'ir astmatik xurujni davolash



Яхшиланди:
O₂ маска орқали
Преднизолон 1-2 мг/кг (макс 40 мг)
b₂ ангионистлар небулайзер орқали

Яхшиланмади:
15-301 дан кейин
O₂ ва стероидларни давом эттириш;
b₂ ангионистларни тез-тез юбориш (ҳар 301 Ипратропия бромид небулайзер орқали ҳар 6 соатла тузалгунчал



Davoga javobni baholash



Eufillin v/i 1 mg/kg/sut 24 soat mobaynida konsentratsiyani bir xil ushlab turish.

ITB (intensiv terapiya bo‘limiga) o‘tkazish agarda:

- RaO₂ kamysa, RaSO₂ ortsa,
- Hushi buzilsa,
- Respirator xarakatlar sustlashsa.

Manba: Britaniya Torakal jamiyati tavsiyasi. (1999 yil)

DAVOLASHNING ALTERNATIV USULLARI

Bronzial astmani davolash uchun bazan noeffektiv samarasiz preparatlari (noshpa, papaverin, bronxolitin, dorivor giyohlar) qo‘llaniladi, bular haqiqiy samara beruvchi preparatlarni qo‘llashda xalaqit beradi. Fitoterapiya changlarga allergiya bo‘lsa zarar bo‘lishi mumkin.

RESPIRATOR TERAPIYA

Respirator terapiya - nafas mashqlari, nafasni nazorat qilishni bilish, boshqaruvchi gipoventilyasiya, relaksatsion trenirovka va x.o. bular reabilitatsiya, davrida o‘tkaziladi.

Davolovchi jismoniy tarbiya (LFK) - nafas mashqlariga asoslangan, uning asosiy aspekti – bemorlarni jismoniy jihatdan chiniqishini oshirish.

Vibromassaj: - xuruj oxirida (ko‘p balg‘am bo‘lganda) ishlatiladi.

Spleoterapiya: - bemorni allergenden ajratishga asoslangan.

Fizioterapiya: - elektr toki bilan davolash samara bermaydi.

Akupunktura: - engil astma xurujini to‘xtatadi, lekin uni butunlay davolay olmaydi.

Psixoterapiya: - alternativ usuli deb bo‘lmaydi, chunki u hamma bemor uchun zarur.

DAVONI NAZORAT QILISH

Davolashni nazorat qilish obektiv belgilari namoyonligi darajasi bo‘yicha olib boriladi (dispnoe, yordamchi muskullarni qatnashishi, nafas shovqinlarni rivojlanganligi, pnevmotaxometriya, SaO₂ qon tarkibidagi gazlar). Astmani kechishi va bazis terapiyani kuzatishda ota-onalar tutishlari foyda beradi, unda xar kuni astmasimptomlari belgilab boriladi (xushtaksimon nafas chiqarish, xirillashlar, tungi xurujlar, astma xuruji va x.o), 5 yoshdan katta bolalarda pnevmotaxometriya belgilari, dorilarni qo‘llash va x.o. kundalikni olib borish o‘z-o‘zini nazorat qilishga, muammolarni mustaqil hal qilishga ko‘mak beradi.

Doimiy malaka kuzatuv-muvafaqiyatlida volashning garovidir.

Ota-onalar yozuvini, obektiv malumotlarni, tahlili effektiv bazis terapiyani baholaydiva kerakli tuzatishlar kiritishga yordam beradi.

PROFILAKTIKA

Birlamchi profilaktika: - asosan sog‘lom turmush tarzi elementlarini o‘z ichiga oladi.Bu normal homiladorlikni taminlash va zararli omillarni bartaraf etish (allergenlar, chekish, kasbiy zararlar, dorilar, allergiya beruvchi oziq moddalar),ona suti bilan boqish, bola atrofidan allergenlar obligatlarini yo‘qotish (hayvon junlari, chang to‘plovchi matolar va x.o.),havo tozaligi (kimyoviy ifloliklarni, passiv chekishni yo‘qotish), chiniqtirish.

Ikkilamchi profilaktika: - xurujini oldini olish va uni og‘irlashuviga yo‘l qo‘ymaslik.

Ikkilamchi profilaktikani asosi ota-onalar va o‘smir bemorlar uchun astma-maktabi bo‘yicha o‘qitish. Xurujni keltirib chiqaruvchi oziq – ovqatlar, dori moddalar ratsiondan butunlay chiqariladi. Kleşlarga qarshi kurash astmaga uchragan barcha bemorlar uchun zarur:

- xonani tez-tez shamollatib turish
- xonaning issiqlik darajasi 18⁰ S dan ortmasligi
- chang to‘plovchi gilam, porter, rasmlarni olib tashlash
- yumshoq mebellar sonini kamaytirish, ularga g‘iloflar kiydirish.
- kitoblarni yopiladigan polka va shkaflarda saqlash

- par yostiqlarni suniy yoki paxtali yostiqlarga almashtirish
- sun'iy materiallardan qilingan materiallardan foydalanish
- bolalar matraslarini polietilen plenka bilan qoplash, yostiqqa 2 ta g'ilof kiydirish
- ko'rpa – to'shaklarni quyoshda yoki sovuqda shamollatish
- xonadagi qo'shimcha namlikni kamaytirish (tuvakdagi gullar, akvarium va x.o.).
- xonani chang yutgich bilan tozalash
- yumshoq o'yinchoqlarni vaqt – vaqt bilan yuvish va sovitgichni muzxonasiqa qo'yish (unda kleş shuningdek uyda hayvonlar boqishni to'xtatish lozim. Akvarium bo'lsa quruqemni, (rachki-dafnii)) saqlamaslik kerak. Jun matolar ham allergiya chaqirishi mumkin, yaxshisi ipdan qilingan matodan foydalanish kerak.

CHang keltirib chiqaruvchi astmani profilaktikasi uchun nedokromil, kromoglikat ishlataladi. Og'ir xurujlar bo'lsa daraxtlarni gullarni gullah vaqtida vaqtincha tog'li rayonlarda (1500 – 200 m balandlikka) ko'chib borish lozim.

NOSPETSIFIK OMILLARGA QARSHI KURASH

YUqorida keltirilgandek bronxial astmani keltirib chiqaruvchi xavfli omillardan beri virusli infeksiyalar hisoblanadi. Jumladan o'tkir respiratorinfeksiyalarni salmog'i yuqori. O'tkir respirator infeksiyalarni profilaktikasi uchun bakterial lizatlarni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. SHu maqsadda bakterial lizatlardan (IRS – 19) foydalanish o'rinli bo'ladi.

Bakterial lizatlar quyida keltirilgan xossalarga ega:

1. Infeksiya kiritish yo'llariga tasir etadi.
2. Tasir doirasi keng.
3. YUqori nafas yo'llari shilliq qavatlarini spetsifik va nospetsifik javob reaksiyasiga tasir ko'rsatadi.

SHunday preparatlardan IRS – 19 (Solvey farma, Germaniya) nafas yo'llarining o'tkir va surunkali kasalliklarini davolash va profilaktikasi uchun ishlataladi.

IRS – 19 – *Diplococcus pneumoniae*, *Steptococcus*, *Staphylococcus aureus*, *Gafkya tetragena*, *Neisseria*, *Klebsiella*, *Pneumoniae*, *Haemophilus influenzae*, *moraxella cafarrhalis* hammasi 19 bakteriya lizatlarini tutuvchi preparat hisoblanadi.

IRS – 19 burun orqali ingalyasiya yo'li bilan organizmga yuboriladi. YUqori nafas yo'llari shilliq qavatlarini immun davoliga kompleks davo ko'rsatadi. SHu tufayli u ham davo ham profilaktika maqsadida ishlataladi. Davoni samarasi mahalliy himoyani nospetsifik faktorlari orqali preparat qo'llangandan keyin 1 soat ichida namoyon bo'ladi.

SHilliq qavatlardagi plazmatik hujayralar sonini ko'payishi va spetsifik Ig A ishlab chiqarilishi 2-4 chi sutkadan boshlanadi va 3-4 oy mobaynida saqlanadi (bu profilaktika maqsadida qo'llashni samaraligini ko'rsatadi).

IRS – 19 bolalarga 3 oyligidan boshlash tavsiya etiladi. O'tkir respirator infeksiyani davolash va profilaktika qilish maxsus instruksiya berilgan.

Bronxial astmani va uni xurujini kamaytirish maqsadida hamda O'RI ni profilaktika qilish uchun IRS – 19 kunda 2 maxal 1 dozadan burunga tomiziladi 2-4 xafta davomida (IRS – 19 flakonda chiqariladi 60 dozadan).

SHuningdek, bolani mustaqillikga o'rgatish zarur, o'zida o'ziga ishonch tuyg'usi ni shakllanishiga yordam beri shva xurujga qarshi o'zi kurashishga o'rgatish lozim. Bunga jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish va bolalar orasida bo'lishi natijasida erishish mumkin.

Jismoniy zo'riqishdagi astmani oldini olishda b₂ - agonistlar yoki eufillinni qo'llash lozim. Jismoniy zo'riqishdan 5-10 daqiqa avval b₂ - agonistlar yoki 5-20 lidaqiba avval eufellin qabu qilishi tavsiya etiladi.

Profilaktik emlash – barcha vaksinalar mumkin, lekin emlash bronxial astmani to'la, turgun remissiya davrida o'tkaziladi. Emlash muddati xurujdan keyingi davrida o'tkaziladi. Emlash muddati xurujdan keyingi davrda har bir bola uchun alohida belgilanadi. Orasidagi muddat 2-3 haftadan ortmasligi kerak. Bazis terapiya (steroidlar) emlashga monelik qilmaydi (muntazam ravishda har kuni 20 mg dan olayotgan bolalar bundan mustasno).

Spetsifik immunoterapiya olayotgan bolalarga emlash 2-4 haftadan (allergen in'eksiya qilingandan) keyin o'tkaziladi.

Bolalarda BRONXIAL ASTMA BRONCHIAL ASTHMA AT CHILDREN

Astma to'g'risida nimalar bilamiz?

AIRE natijalari– Asthma Insight Reality in Europe

- Har 2 ta boladan birtasi maktabni qoldiradi
- Har to'rtta katta kishidan birtasi ishni qoldiradi
- Har 2 bemordan birtasi sport bilan shug'ullana olmaydi
- Har 3 ta bemordan birtasi tungi uyqu buzilishi va kunduzgi ish faoliyatining buzilishi va hayot sifatining buzilishidan aziyat chekadi
 - Bir yilda 10 milliondan ortiq kun darsni qoldiradi
 - 7,3 million bola to'shakka mixlangan

Bronxial astma

AFSUSKI...

Astma – butun dunyoda eng ko'p tarqalgan surunkali kasalliklardan biri bo'lib qolmoqda va u bilan kasallanish yildan – yilga oshib bormoqda, ayniqsa bolalar orasida

Baxtimizga...

Astmani davolash va nazorat qilish mumkin.

Deyarli barcha patsientlar:

- kunduzgi va tungi simptomlardan xalos bo'lishi
- og'ir xurujlardan xalos bo'lishi

- minimal yoki hatto deyarli simptomlarni yo‘qotuvchi preparatlardan foydalanmasligi mumkin
- aktiv hayot bilan yashashi
- normal va /yoki deyarli normal o‘pkaning funksiyasiga ega bo‘lishlari mumkin

GINA nima degani?

GINA –bu juda ham muhim hujjat bo‘lib, unda bronxial astmani diagnostikasi, keyingi davolash va oldini olishda tibbiyat, farmakologiya va molekulyar biologiyaning oxirgi natijalari asosida erishilgan yutuqlariga tayangan holda olib borish chora – tadbirlarini ko‘rib chiqiladi.

GINA

GINA – Global Initiative for Asthma.

astma bo‘yicha Birinchi konsensus 1992 yilda ishlab chiqilgan.

GINA – Butun jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti va AQSHning Milliy Salomatlik Instituti hamkorligi

GINA faqat dalillarga asoslangan tibbiyat yo‘nalishida ish olib boradi
Tarixiy ma’lumot

BA bo‘yicha birinchi nashriyotlar (gaydlaynlar) 1980-yillarning o‘rtalarida qayd etiladi

BA ni o‘rganish, davolash va oldini olish borasida ko‘pgina mamlakatlarda muhim ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan: Bronxial astmani o‘rgatish va oldini olish Milliy programmasi (NAEPP),

Astmani davolashning Britaniya qo‘llanmasi,

Bolalarda astmani Xalqaro konsensusi (ICON),

Bronxial astmani davolash va oldini olish Global initsiativasi (GINA)

YAngicha ta’rifi

Bronxial astma – bu geterogen kasallik bo‘lib, nafas yo‘llarining surunkali yallig‘lanishi va klinik jihatdan quyidagi respirator simptomlardan tashkil topgan: hushtaksimon nafas, hansirash, ko‘krak qafasida qisilish yoki yo‘tal, davomiyligi va intensivligi har xil bo‘lgan, nafas yo‘llarining qaytar obstruksiyasi bilan xarakterlanadi.

YAllig‘lanish bronxlar giperreaktivligiga sabab bo‘lib , uzoq progressiyalanib kechadi.

Astmani chaqiruvchi xavfli omillar:

Uy allergenlari:

Uy changi;

Hayvonlar yungining changi;

Suvaraklar;

Mog‘or zamburug‘lari.

Tashqi allergenlar:

O‘simliklar changi;

Qo‘ziqorinlar;
Aspirin va uning guruhidagi dorilar.
SHartsiz, astmani qo‘zg‘atuvchi
Respirator infeksiyalar; omillar:
Bolalik davri;
Allergenga boy taomlar;
Havodagi polyutantlar:-ichki va tashqi;
Tamaki chekish:-aktiv va passiv.
Astma kechishini qo‘zg‘atuvchi
Allergenlar; omillar:
Respirator infeksiyalar;
Jismoniy zo‘riqish va giperventilyasiya;
Iqlim sharoitlari;
Oltingugurt oksidi;
Dorilar, taomlarga ishlatilgan bo‘yoqlar va dorivorlar.

ASTMA PATOGENEZI

Semiz hujayralar ko‘plab bronxial daraxt, ichaklar shilliq qavati, so‘lak bezlarida bor. Ularning yuza qavatida biologik faol moddalar chiqaruvchi donadorligi (granula) bor. Semiz hujayralarning membranasi mustahkam emas, shu uchun parchalaniib me’yordan ko‘p BFM chiqariladi.

Me’yordan ko‘p chiqarilgan BFM bronxlar giperreaktivligi ga olib keladi; Bu jarayonga eozinofillar jalb etiladi, ular katta protein va sitokin yordamida bronxlar shilliq qavatini emiradi; Giperreaktivlik-bu turli ta’sirlarga o‘ta yuqori sezgirlik.

Astmaning immun yul orkali patogenezi:

- 1.epiteliy jarohatlanishi;
- 2.nerv oxirlari stimulyasiyasi;
- 3.shilliq qavat shishi;
- 4.shilimshiq hosil bo‘lishi;
- 5.bronxospazm.

Astma patogenezining noimmun yo‘li:

Bronx daraxtini innervatsiyalovchi nervlar ma’lumotga javoban neyrotransmitterlar chikaradi;

Neyrotransmitterlar semiz xujayralarni parchalaydi;

Okibatda BFM chikariladi.

Astmatiklarda statuslar.

- 1.Isteriyasimon xurujlar, xuruj yordamida uziga jalb etadi;
- 2.Psixosteniklar – kasallik yordamida xayotdagи muammolarni xal etadi;
- 3.Nevrosteniklar – uz kasalligiga mute bemorlar;
- 4.SHunt – boglovchi, bolalar uchun xarakterli.Oilaviy muammolarni xal etish uchun yaxshi maksadga yunalgan.

Astmada kasallikning boshlangich bosqichlaridagi asosiy simptomlari yaqqol bo‘lmasligi mumkin

Hushtaksimon nafas bir qancha kasalliklarning simptomlaridan hisoblanadi, biroq ko‘pincha va asosan astmaning ko‘rinishidir.

Bola hayotining birinchi yillari ORVI davridagi hushtaksimon nafasning epizodlari BRONXIAL ASTMA deb talqin qilish zarur deyiladi

5 yoshgacha bolalarda BA Patternlari (namuna, shablonы)

Birinchi guruh bolalar - bu gurux bolalarda yo‘tal, nafas qiyinligi va vizing NYI da 10 kundan kam davom etib, bir yilda 2 – 3 marta takrorlanadi va epizodlar orasida simptomlar kuzatilmaydi

Ikkinchi gurux patsientlarda simptomlar davomiyligi NYI da 10 kundan ortiq davom etadi, epizodlar yilida 3 martadan ortiq yoki og‘ir xurujlar va / yoki tungi xurujlar bilan kam yo‘tal, vizing yoki nafas qiyinligi

Uchinchi pattern – xuddi yuqoridagi hollar va irsiy anamnezda atopiya bo‘yicha yoki bolada u yoki bu ko‘rinishdagi allergik patologiya.

Bolalarda BA diagnostikasi

GINA-2014 yil tavsiyalariga ko‘ra asosan xarakterli simptomlardan tashkil topgan (hushtaksimon xirillashlar, yo‘tal, nafas qiyinchiligi, tungi uyqu buzilishi va / yoki jismoniy faoliyatining cheklanishi, oilaviy irsiy asoratlanish bilan birga va klinik tekshiruvlar natijasiga asoslanib qo‘yiladi

Bronxial astma

Bronxial astmani og‘irlik darajasiga ko‘ra tasniflanadi, chunki uni davolashni tanlash va olib borish taktikasi shunga bog‘liq

Kasallikning shifri X- XALQARO KASALLIKLAR KLASSIFIKATSIYASIGA ko‘ra

J45 Astma.

J45.0 – Astma allergik komponent ustunligi bilan

J45.1 - Noallergik astma

J45.8 – Aralash astma

J45.9 – Aniqlanmagan (Neutochnennaya) astma

J46 - Astmatik status

BA KLASSIFIKATSIYASI

2.1. Formasiga ko‘ra:

atopik

infekcion-allergik

aralash

2.2. Kechishiga ko‘ra:

intermittirlovchi (epizodicheskaya)

persistirlovchi (doimiy)

2.3. Og‘irlik bosqichlari (davolash boshlanishidan oldin baholanadi):

- 1 BOSQICH – intermittirlovchi BA
- 2 BOSQICH – engil persistirlovchi BA
- 3 BOSQICH – o‘rta og‘ir darajali persistirlovchi
- 4 BOSQICH – og‘ir darajali persistirlovchi BA

2.4. Kasallik davriga ko‘ra:

qo‘zg‘alish
remissiya

2.5. Kasallik asoratlari:

- o‘pka yurak (legochnoe serdse)
- o‘pkaning surunkali emfizemasi
- pnevmoskleroz;
- segmentar yoki polisegmentar atelektaz
- emfizema
- pnevmotoraks
- astmatik status
- nevrologik asoratlar

Qiyosiy diagnostika:

YUrak astmasi;

Isterik astma;

Uremik astma bilan;

Nafas yo‘llari yot jismlari bilan;

Soxta bo‘g‘ma bilan;

Kvinke shishi bilan;

Ichak gelmintlari bilan.

Quyidagi BA ga xarakterli belgilarga fizikal tekshiruv paytida ahamiyat berish lozim:

Ko‘krak qafasi giperekspansiyasi.

Nafas chiqarish uzayishi yoki auskultatsiyada hushtaksimon xirillashlarning eshitilishi.

Quruq yo‘tal

Rinit

Periorbital sianoz – allergik soyalar deb ataladi (ko‘z qovoqlari ostida venoz qon dimlanishi hisobidan, nazal obstruksiya fonida).

Burun qansharida ko‘ndalang burma paydo bo‘lishi

Atopik dermatit.

Astmada kasallikning boshlangich bosqichlaridagi asosiy simptomlari yaqqol bo‘lmasligi mumkin

Hushtaksimon nafas bir qancha kasalliklarning simptomlaridan hisoblanadi, biroq ko‘pincha va asosan astmaning ko‘rinishidir.

Bola hayotining birinchi yillari ORVI davridagi hushtaksimon nafasning epizodlari

BRONXIAL ASTMA deb talqin qilish zarur deyiladi

BA ning erta simptomlari

5 yoshgacha bolalarda BA ning erta simptomlari hushtaksimon xirillashlar va nafas qiyinchiligining birdaniga yoki sekin – asta kuchayib borishi, ayniqsa uxlamaganda, uyquchanlik yoki lanjlik, jismoniy faolligining pasayishi bola xarakteri o‘zgarishi, ovqatlanishning buzilishi, «axvolini engillashtiruvchi» preparatlar qabul qilganda ham kam o‘zgarishi, ko‘pincha virusli infeksiyaning simptomlari BA qo‘zg‘alishini niqoblanishi mumkin

Bronxial ostmaning kliniko-patogenetik variantlari leykotrienlarning yuqori metabolizmi bilan

- Atopik (allergik, ekzogen, IgE-ga bog‘langan)
- Aspirinli BA
- Zo‘riqishdan keyingi bronxokonstriksiya sindromi (AFU)
- BA va surunkali allergik rinitning birga kelishi
- Sovuq ta’sirida bronxlarning yaqqol giperreaktivligi
- CHekuvchilar astmasi
- Tana vazni yuqori bo‘lganlardagi bronxial astma

Jismoniy zo‘riqish natijasida kelib chiqqan bronxospazm

- 90% BA bilan kasallangan, biroq yallig‘lanishga qarshi davo olmaydigan va 40% allergik rinit bo‘lgan bemorlarda
- BA ustidan adekvat nazorat yo‘qligi natijasida
- BA ustidan adekvat nazorat bor bo‘lib, jismoniy zo‘riqishdan bronxospazm BA ning asosiy belgisi
- Asosiy davo:
 - tez ta’sir qiluvchi ingalyasion β_2 -agonistlar
 - alternativa – antileykotrien preparatlar

BA ning yo‘tal varianti

- Balg‘amda ko‘p miqdorda sistenil leykotrienlar aniqlanadi
- Davosi: Antileykotrien preparatlar – alternativa IGKS
- Leykotrien retseptorlar antagonistlari yallig‘lanishga qarshi ta’sirga ega bo‘lib, BA ning bu variantida yo‘talga qarshi va balg‘amda eozinofillar miqdorini kamaytiradi.

Davolashdan maqsad - bronxial astma ustidan nazoratga erishish

(GINA: Global Initiative for Asthma, 2011)

BA ustidan nazoratga erishish va uni saqlab turish

Xurujlar profilaktikasi

Tashqi nafas faoliyatini normagacha tushurish va shu xolatda saqlashga erishish

Har kunlik jismoniy va kundalik faollikka erishish

Dori vositalarining nojo‘ya ta’sirini minimal darajaga etkazish

BA dan o‘lim oldini olish

BA Medikamentoz terapiyasi

BA ni nazorat qiluvchi preparatlар (saqlab turuvchi terapiya)

Tez yordam preparatlари (simptomlarni engillashtiruvchi)

qisqa ta'sirli β_2 -agonistlar

5 yoshgacha bo'lgan bolalarda 1 bosqichni davolash

BA simptomlari kam uchraydi va xurujlar qaytalanishi xavfi kam bo'lganda ishlatiladi – qisqa muddatli β_2 -agonistlar

2 bosqich davoda IGKS kichik dozalarda (beklometazon dipropionat (HFA) - 100 mkg/s, budesonid pMDI + speyser - 200 mkg/s, budesonid (nebulayzer uchun suspenziya) - 500 mkg/s, flyutikazona propionat (HFA) - 100 mkg/s, siklesonid - 160 mkg/s), BA tez – tez xuruj qiladigan bolalarda yoki kam belgili bo'lib, xuruj qaytalanishi xavfi yuqori bo'lgan bolalarda alternativ sifatida antileykotrienlar (ALTR).

3 bosqichda BA davolashda kichik dozadagi IGKS bilan nazorat qilib bo'lmasa IGKS larni 2 baravar katta dozadagi yoki (alternativa - IGKS + ALTR).

4 bosqich og'ir darajali BA xurujida 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga IGKS 2 baravar yuqori sutkalik doza ALTR bilan birga

Kichik yoshdagi bolalarni bazis terapiyasida IGKS larning kichik dozasi va qisqa ta'sirli bronxolitiklar tavsiya etiladi.

Bolada BA tashxisi tasdiqlanishi uchun 2 – 3 oylik IGKS qo'llaniladi va uni bekor qilinganda BA simptomlari qaytalanadi

0-3 yoshgacha bolalarni bazis davolashda nafas aerozol ingalyatorlardan foydalanish maqsadga muvofiq, bunda ingalyator bilan birga speyser, niqob va nebulayzerli ingalyator bo'lishi davoning samarasini oshiradi. 4 – yoshdan katta bolalarda ham ingalyasiya nebulayzer yoki labiga qistiriladigan bo'lishi ham mumkin.

Bronxial astma bilan 5 yoshgacha bolalarni statsionarga gospitalizatsiya qilish uchun ko'rsatmalarga (GINA-2014 tavsiyasiga ko'ra) quyidagilar kiradi:

Noregulyar nafas epizodlari va /yoki nafas to'xtashi, gapirish va yutishning buzilishi, tarqalgan sianoz, qovurg'alararo oraliqning ichkariga botishi, xona havosidan nafas olganda saturatsiya 92% dan kam bo'lsa, auskultatsiyada nafas o'tishining birdan susayishi, qisqa muddatli β – 2 agonistlarga nisbatan javob reaksiyasi past bo'lsa yoki 6 doza salbutamol ingalyasiyasidan (2 dozadan har 20 minut oralig'ida 3 marta) keyin ham ahvoli yaxshilanmasa, bolani uy sharoitida davolash imkonini bo'lmasa

A D A B I Y O T L A R:

1. Prakticheskaya pulmonologiya detskogo vozrasta.

Pod red. V.K.Tatochenko Moskva 2000 g. Spravochnik.

2. Natsionalnaya programma "Bronxialnaya astma u detey"

Strategiya lecheniya i profilaktiki M. 1997

3. Rekomendatsii Britanskogo Torakolnogo ob'jestva. RMJ 1999 №5

4. Bolezni detey starshego vozrasta 1997 g. F.F.Baranov.
 5. Detskie bolezni N.P.SHabolov 2000 g.
 6. Pediatru na kajdyu den – 2003.
- Spravochnik po lekarstvennoy terapii. V.K.Tatochenko 2003. Moskva
7. Immunomoduliruyushchaya terapiya v pediatrii metod, rekomendatsiya. F.S.SHamsiev, A..S. Diveeva. Tashkent 2003.
 8. Globalnaya initsiativa po bronzialnoy astme-2014 Diagnostika i stupenchataya terapiya. CHto novogo? [G.A. Novik, E. G. Xaleva](#)

Amaliy mashg'ulot № 3

Amaliy mashg'ulot o'qitish texnologiyasi

Mavzu	<i>Bolalarda bronxial astma. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi.</i>
--------------	--

2.1 Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqtiga – 4 soat	Talabalar soni 8 -12 ta gacha
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustaxkamlash yuzasidan seminar
Mavzu rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Bolalarda bronxial astmani (BA) kechish xususiyatlari. 2. BA etiologiyasi va shakllari. 3. BA patogenezi. 4. Bronxial astmani xuruj davrini klinik ko'rinishi va xurujsiz davrini kechishi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi :</i> Talabalarga bolalarda bronxial astmani kechish xususiyatlari to'g'risida tushuncha berish. Etiologiyasi va patogenezini o'rgatish. Bronxial astmani xuruj davrini klinik ko'rinishi va xurujsiz davrini kechishini baolay olish o'rgatish.	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O'quv faoliyatini natijalari</i>

<ul style="list-style-type: none"> - Talabalarga bolalarda bronxial astma kasalligi to'g'risida tushuncha berish - bronxial astma kasalligini etiologiyasi, patogenezini o'rgatish - klinik tasnifini o'rgatish - klinikasi, ogirlik darajalarini aniklashni o'rgatish - Bronxial astmani xuruj davrini klinik ko'rinishi va xurujsiz davrini kechishini aniqlay olishni o'rgatish. 	<ul style="list-style-type: none"> - Talabalar bolalarda bronxial astma kasalligi to'g'risida tushuncha beraolishi kerak - bronxial astma kasalligini etiologiyasi, patogenezini to'g'risida tushunchaga ega bolishi kerak. - klinik tasnifga tushuncha beraolishi kerak. - klinikasi, ogirlik darajalarini aniklayolisi kerak. - Bronxial astmani xuruj davrini klinik ko'rinishi va xurujsiz davrini kechishini aniqlay olishni kerak.
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor so'rov, savol – javob
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, kichik guruxlarda ishslash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, multimedia, video, kompyuter, proektor, plakat, flip karta, markerlar, doska, bo'r, «simulyasjion xona jixozlari» va h.k.
Ta'lim berish sharoiti	UTV bilan ishslashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol – javob, mustaqili ish, ma'ruza, amaliy mashg'ulot daftari

2.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
Tayyorgarlik bosqichi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash va kutilayotgan natijalarini shakllantiradi 2. Amaliy mashg'ulotining taqdimot slaydlarini tayyorlaydi 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish . 4. O'quv kursini o'rganishda foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish . 5. Mavzuga oid yo'riqnomalarni tuzadi. 6. O'quv topshiriqlarni tayyorlaydi 	
1.Mavzuga kirish (15 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 2. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. 	Tinglaydilar, savollarga javob beradilar.

	3. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadi da savollar beradi	Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2. Asosiy bosqich. (145 daqiqa)	<p>1. Mavzuga oid tayanch so'z va iboralarni izoxlab beradi.</p> <p>2. Talabalarni 2-4 tagacha kichik guruxga bo'ladi va guruxlarda xamkorlik asosida ishslash usuli qoidalari bilan tanishtiradi. har bir gurux mavzu rejasi asosda taqdimot tayyorlashini aytadi.</p> <p>3. O'quv kursi mavzulari asosida taylorlangan varakalarni tarkatadi.</p> <p>4. Guruxlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. taqdimot materiallari mazmunan va mantikan tulik yoritilishini kuzatadi.</p> <p>5. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Guruxlarda sardorlar taqdimotini tashkillashtiradi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa , gurux sardorini to'xtatadi, savollar beradi, muxokamasini jamoaga havola etadi.</p> <p>6. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarни ragbatlantiradi va umumiylaydi.</p> <p>7 Mavzuga oid bemorlarni ko'rsatadi.</p> <p>8. Bemor kuratsiyasini taxlil qiladi.</p> <p>9. Kasallik tarixini tekshiradi</p>	<p>Tinglaydilar, asosiy jixatlarini yozib oladilar Kichik guruxlarga bo'linadilar.</p> <p>Topshiriklar bo'yicha ishlaydilar</p> <p>Faol qatnashadilar, taqdimot uchun materiallar tayyorlaydilar.</p> <p>Guruxdan sardor tanlashadi, uning taqdimotida xamkorlik qiladilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>tinglaydilar</p> <p>Mavzuga oid bemorlarni ko'radilar.</p> <p>Bemor kuratsiyasini taxlil kilishda ishtirok etadilar</p>
3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)	<p>1. Mavzu bo'yicha talabalar bergen savollarga javob beradi.</p> <p>2. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi.</p> <p>3.Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini taxlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi</p>	<p>Savollar beradilar.</p> <p>tinglaydilar</p> <p>Uyga vazifani va mustaqil ish mavzusini yozib oladilar</p>

Bolalarda bronxial astma

O'pkaning surunkali nospetsifik kasalliklari ichida o'sib borayotgan va nogironlikka sabab bo'layotgan kasalliklardan biri bu- bronxial astma (BA) xisoblanadi. Bronxial astma kasalligining asoratlari va o'lim bilan tugashining ko'plab uchrashi bu kasallikning ham tibbiy ham ijtimoiy jihatdan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolishiga sabab bo'lmoqda. Bronxial astmaning er yuzida rivojlangan mamlakatlarda 3-7%, Markaziy Osiyo davlatlarida esa 1,4% ni (har 1000 axoliga nisbatan), Toshkentda esa har 1000 axoliga nisbatan 2,9% ni tashkil etishi olimlar tomonidan o'rganilgan. Infeksion- allergik turi 85% ni, atopik turi esa 15% ni, ayollar urtasida 59,3% ni erkaklarda esa 40,7% ni tashkil etishi ham aniqlangan. (A.M.Ubaydullaev tadkiqotlaridan).

SHuning uchun xam kasallikni erta aniklab, asoratlarining oldini olish, to'g'ri davolash katta ahamiyatga ega. Bu hozirda pulmonologiyaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bronxial astma (BA) – bu surunkali, klinikasida bo'g'ilish xuruji bilan xarakterlanadigan kasallik bo'lib, asosan bronxlar reaktivligining o'zgarishi va astmatik status rivojlanishi bilan jiddiy oqibatli patologiya hisoblanadi.

Bronxial astma (BA) – bu nafas yullarining surunkali yalliglanish kasalligi bulib, semiz xujayralar, eozinofillar, limfotsitlar, allergiya va yalliglanish mediatorlari ishtirokida, moyilligi bulgan kishilarda bronxlarning girerreaktivligi va variabel obstruksiyasi bilan kechadi va bunda bo'g'ilish xuruji, xirillashlar, yutal va nafas olishi kiyinlashishi bilan kuzatiladi.

Kasallikning asosida silliq bronxial muskullarning spazmi va buning okibatida mayda bronxlarning kuchli torayishi kelib chiqishi yotadi. Bronxlar reaktivligining o'zgarishiga spetsifik va nospetsifik ta'sirlar sababchi bo'lib, bular asosan, organizmga tashqaridan takror kirgan yot oqsillardir.

Bronxial astma **etiologyasida** quyidagilar ahamiyatga ega:

- 1.Noinfektion allergenlar (chang, dori-darmonlar, hashoratlar va hayvonlar allergenlari).
- 2.Infektion allergenlar (viruslar, bakteriyalar, zamburuglar, va b.)
- 3.Mexanik va kimyoviy irritantlar (metall, yog'och, g'o'za changlari, mum, kislota, ishqorlar bug'lari).
- 4.Fizik va meterologik omillar (haroratning, namlikning o'zgarishi, atmosfera bosimining, erving magnit maydonining tebranishlari va boshkalar.)
- 5.Asabiy-ruxiy qo'zgalishlar, stress ta'sirlar.

Bu omillarning barchasi adashgan nervni kitiqlab, unda spazmatik ta'sir paydo qilib, astma xurujini keltirib chikaradi.

Patomorfologiyasi: Hozirgi zamon qarashlariga binoan bronxial obstruksiyani 4 ta komponent chakiradi: bronxlar sillik mushaklari spazmi, bronxlar shilliq qavati

shishi, bronxlarning, ayniqsa terminal qismning, shilliq “qopqoqchalar” bilanbekilishi, bronx devorida sklerotik uzgarishlarning mavjudligi.


Астманинг сабаблари:

- Аллергенлар (дори дармонлар, овқат маҳсулотлари, уй буюмлари)
- Касб – хунарга алоқа бор кишилар
 - Аспирин ва бошқа ностероид яллигланишга қарши препаратлар
 - Физик зўриқиши .
 - Стресс.
 - Климакс ва х.к.



Асосий патогенетик жараёнлар

Атопия ва бошқалар IgE нинг гиперпродукцияси аллергенларга қарши антителаларнинг пайдо бўлиши



Bronxial astma (BA)ning patogenezi:

Kasallik faqat etiologik omil o‘zining “ta’sir qiluvchi nuqtasini” topgandagina rivojlanishi mumkin. “Ta’sir nuqtasi” – organizmning tug‘ma yoki orttirilgan biologik organlar va sistemalar nuqsonlari:

- alveolyar makrofaglar va neytrofillarning fagotsitar faolligining buzilishi va natijada bronxlarda infektion agentlar faolligining oshishi;
- IgA ning sintezini kamayishi va natijada bronxlarda infektion agentlarning faolligining oshishi;
- T-suppressor limfotsitlar faolligining sustligi;
- Uzining tukimalariga immunologik tolerantlikning buzilishi va autoallergik reaksiyalarning buzilishi;
- Semiz xujayralar, makrofaglar, lizosoma neytrofillari membranasini nostabilligi proteolitik fermentlarning va biologik faol moddalarning haddan tashqari ko‘p ishlab chiqarilishiga olib keladi.

SHunday qilib BA da bronxlardagi yallig‘lanish jarayonining rivoji har xil hujayralarning (eozinofillar, T-limfotsitlar, semiz hujayralar) bir biriga ta’siri va natijada biologik faol moddalar ishlab chikarilishi natijasida paydo bo‘ladi. YAllig‘lanish bronxlarning gipersezuvchanligiga va giperreaktivligiga olib keladi.

Bronxlar o‘tkazuvchanligining buzilishi bronxlar reaktivligining o‘zgarishi olib keladi. Bular quyidagilar ta’sirida yuzaga keladi, ya’ni, birlamchi- tug‘ma, orttirilgan, kimyoviy, fizik, mexanik va infektion omillar ta’siri.

Ikkilamchi - asab endokrin tizimining o‘zgarishi, auto- va infektion antigenlar ta’siri. Bronxlar reaktivligining ikkilamchi o‘zgarishi immun, endokrin, asab tizimlarining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladi.

Immunologik mexanizmlar

Bronzial astmali bemorlarning asosiy qismida bronxlar reaktivligining o‘zgarishiga immun tizimdagi o‘zgarishlar, ya’ni gumoral va xujayraviy immunitetlarning Gell va Kumbs tasnifi bo‘yicha I, III va IV tipli sezuvchanlikning yuqori bo‘lishi sabab buladi. Immun reaksiyalar nafas yo‘llarining shilliq qavatida hosil bo‘ladi. Uning o‘zgarishi ham bronxlar gipersezuvchanligi va giperreaktivligiga olib keladi. Allergik mexanizmlar tez va sekin rivojlanuvchi reaksiyalar bilan bogliq. Tez rivojlanuvchi reaksiya (reagin turi) shok organning allergen bilan o‘zaro ta’sirida paydo bo‘ladi, bu esa semiz hujayralar va eozinofillarning, bronxlar shilliq qavatida va uning ichida T-limfotsitlar miqdorining oshishiga olib keladi. Bu hujayralar biologik aktiv moddalar ishlab chiqaradi va BA patogenezida immunoximik bosqichni (**patoximik bosqich**) rivojlantiradi: gistamin, serotonin, bradikinin, neytrofil lar xemotaksis omili, leykotrienlar, interleykinlar va b. mikrotomirlar o‘tkazuvchanligini oshiradi, bu esa ularning massiv ekssudatsiyasiga olib keladi. Bronxlar shishi va ularning ichiga epiteliyning ajralib tushishi rivojlanadi, bu esa shilliqli “kopkokchalarining” shakllanishiga olib keladi; bundan tashkari biologik faol moddalar bronxospazm rivojlanishiga olib keladi (**patofiziologik boskich**).

Sekin rivojlanuvchi allergik reaksiya (immunokompleks turi) sirkulyasiya kiluvchi IgG, IgA, IgM turdag'i antitelolar va komplement orkali rivojlanadi. Immun komplekslarning semiz hujayralar, eozinofillar va T-limfotsitlar bilan bog'lanishi natijasida yallig'lanish mediatorlari ajralib chikadi va bronxlar obstruksiyasiga olib keladi.

Noimmunologik mexanizmlar

Bronxlar reaktivligining o'zgarishiga tugma va orttirilgan biologik nuqsonlar sabab buladi. Noimmunologik mexanizmlar effektor hujayralar birlamchi yoki ikkilamchi ta'sir ko'rsatishi natijasida bronxlar silliq mushaklari, qon tomirlari, bronxial bezlar retseptorlari ta'sirlanishi yuzaga keladi..

BA ning shakllanishida organizmdagi **gormonal disbalans** xam katta rol o'ynaydi: bu glyukokortikosteroid etishmovchilik, giperestrogenemiya, gipoprogesteronemiya, gipotireoz. GKS – buyrak usti bezi gormonlaridan biri bulib, juda ko'p biologik faol moddalarning blokatoridir, antitelolar hosil bhlishini kamaytiradi, betta-2-retseptorlar sezuvchanligini oshirishi hisobiga bronxodilatatorlik ta'siri bor. Bu gormonlarning (kortizolning) etishmovchiligi bronxoobstruksiyaning sababi bulishi mumkin. Ko'p ayollarda menstruatsiya paytida BA kechishi og'irlashishi kuzatiladi. Progesteron betta-2-adrenoretseptorlarni stimulyasiya qiladi va bronxodilatatsiya chaqiradi, atsetilxolin, prostoglandin-F2-alfa miqdorini oshiradi va bronxospazmni chaqiradi.

BA rivojida vegetativ nerv sistemasi ham katta rol o'ynaydi, bu esa **adrenergik disbalansa** yaqqol ko'rindi – alfa-adrenoretseptorlar betta-adreneretseptorlardan ustunlik kiladi, bu esa bronxospazmga olib keladi.

BA patogenezida “**aspirin**” **astmasi** alohida joy olgan. Bu turdag'i BA atsetilsalitsil kislotasini va nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlarni ko'tara olmaslik natijasida paydo bo'lган. Bularning asosida araxidon kislotasining metabolizmi buzilishi yotadi, bu esa leykotrienlar va prostoglandin-F2-alfa ishlab chiqarishini kupaytiradi va bronxospazmga olib keladi.

Tasnifi:

Bronxial astma tasnifida ikkita yo'nalish bor, ya'ni bittasi etiologik, ikkinchisi esa kasallikning og'irlik darajasi va bronxial obstruksiyaning qay darajadaligiga asoslangan.

Bronxial astma tasnifi (G. B. Fedoseev 1988 yil.)

I.Bronxial astma rivojlanishi etaplari.

Amaliy sog'lom kishilarda tug'ma yoki orttirilgan biologik nuqsonlar va o'zgarishlarning mavjudligi, ya'ni:

a) mahalliy va umumiy immunitetning o'zgarishi.

- b) «tez javob qaytarish» reaksiyasi (semiz xujayralar, makrofaglar, eozinofillar, trombotsitlar) mavjudligi.
- v) mukotsiliar klirens o‘zgarishi.
- g) endokrin tizim o‘zgarishi
- d) o‘pka tomirlari endoteliysining metabolik disfunksiyasi.
- j) araxidon kislota metabolizmining buzilishi.
- z) shaxsning nerv-psixik holati xususiyati.
- i) bronxlar va LOR organlari reaktivligining o‘zgarishi.

Biologik nuqsonlar klinik jixatdan BA rivojlanishiga turtki bo‘lishi mumkin.

2.Astma oldi (predastma) holati. Bu nozologik kasallik bo‘lmay, balki, BA ning klinik paydo bo‘lish xavfi hisoblanadi. Klinik diagnozda bu holat qo‘yiladi, ya’ni ko‘rsatiladi. Predastma holati nafas yo‘llarining vazomotor buzilishlarini, bronxospazm belgilari bilan, allergiyaning boshqa ko‘rinishlari («eshak emi», «Kvinke shishi», qonda eozinofiliya, balg‘amda ham, migren, neyrodermit) hisoblanadi.

3.Klinik shakllangan BA – bu birinchi bor astma va astmatik status xurujlaridan keyingi holat.

II. BA ning shakllari: (klinik tashxisda ko‘rsatilmaydi).

- 1.Immunologik shakli.
- 2.Noimmunologik shakli.

III. BA ning klinik – patogenetik shakllari:

- 1.Atopik – allergenni ko‘rsatish kerak.
- 2.Infeksiyaga karam – infektion agent va infektion jarayonning borishini ko‘rsatish kerak.
- 3.Autoimmun.
- 4.Gormonal – endokrin, o‘zgargan organni va disgormonal o‘zgarishlarni ko‘rsatish lozim.
- 5.Nerv-psixik shakli.
- 6.Ifodalangan adrenergik disbalans.
- 7.Bronxlar reaktivligining birlamchi o‘zgarganligi, immun, asab-endokrin tizimlar ishtirokisiz shakllanib, tugma bo‘lishi mumkin, kimyoviy, fizik, mexanik va infektion agentlar ta’sirida rivojlanadi.
- 8. Xolinergik variant
- 9. Aspirinli astma
- 10. Dizovarial shakli

IV.Og‘irligiga ko‘ra:

- 1.Engil darajali – yiliga xurujlar soni 2-3 marta takrorlanib, dorilarni qabul qilish tufayli o‘tib ketadi, remissiya davrida bronxospazm yo‘q.
- 2.O‘rtacha og‘irlilikda – xurujlar soni yiliga 3-4 marta bo‘lib, og‘irroq kechadi, xuruj dorilarni in’eksiyalar orqali qabul qilganda o‘tadi, xurujlararo davrlarda astmatik xolat birmuncha ifodalangan bo‘ladi. Remissiya davrida jismoniy zo‘riqishdan so‘ng

yoki bajarish mobaynida bronxlar spazmining engil klinik belgilari kuzatilishi mumkin.

3.Og‘ir darajali – xurujlar soni yiliga 5 va undan ko‘p bo‘lib, og‘ir kechadi, bartaraf kilish kiyinroq bo‘lib, astmatik status bilan asoratlanadi. Xurujlararo davrda esa bronxlarning spazmi ifodalangan bo‘ladi.

V.Kechishiga ko‘ra:

- 1.Qo‘zg‘alish davri.
- 2.Qo‘zg‘alishning pasayishi.
- 3.Remissiya.

VI.Asoratlanishiga ko‘ra:

- 1.O‘pkaga talluqli: o‘pka emfizemasi, nafas etishmovchiligi, atelektaz pnevmotoraks va boshqalar.
- 2.O‘pkadan tashqari – miokard distrofiyasi, o‘pka – yuragi, yurak etishmovchiligi va boshqalar.

Hozirgi vaktda BA ning xalqaro tasnifi asosida kasallikning og‘irligi nazarda tutiladi, chunki xuddi shu ko‘rsatkich bemorlarni davolash taktikasini aniqlab beradi.

Bronxial astmaning og‘irlilik darajasi bo‘yicha tasnifi.

(Xalqaro Konsensus 1995 yil)

Og‘irlilik darajasi	Davolashdan oldingi klinik belgilari
Engil	Belgilar haftada bir marta yoki ko‘proq, lekin bir kunda 1 martadan kamroq, kasallikning qo‘zg‘alishi faollikni va uyquni buzishi mumkin. Astmaning tungi belgilari ko‘pincha bir oyda 2 marta kuzatiladi. NCHMH-nafas chiqarishning maksimal hajmi (yoki NCHHF-nafas chiqarish foizi) normadan 80% ko‘proq. NCHMH tebranishi 20 – 30% atrofida bo‘ladi.
O‘rtacha og‘irlilikda	Belgilar kuniga mavjud. Kasallikning qo‘zg‘alishi faollikni va uyquni buzadi. Astmaning tungi belgilari haftada 1 martadan ortiq. Qisqa ta’ssir etuvchi betta 2 – agonistlar kunda qabul qilinadi. NCHMH (KNCHH1) normadan 60% dan 80% gacha. NCHMH tebranishi 30% dan baland.
Og‘ir Darajali	Astma belgilari doimiy, tez – tez qo‘zg‘alishlar, ko‘pincha tungi belgilar, fizik faollik cheklangan. NCHMH (KNCHH1) 60% dan kam NCHMH tebranishi 30% dan oshgan.

Klinikasi:

Bronxial astmaning klinikasida 3 ta davr farqlanadi:

1-bosqich .Astma “darakchilari”-xurujdan bir necha minut oldin paydo bo‘lib, yo‘tal yoki tomoq qirilishi, vazomotor rinit, burunning bitishi, hansirashning

kuchayishida, terining qichishishi, asabiyashish, poliuriya, bemor kayfiyatining buzilishi kabi o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Vrach bemorning shu o‘zgarishlarga e’tibor qilishi zarur, chunki bu bosqichda o‘z vaqtida qabul qilingan preparat xuruj regressiyasini chakiradi.

2-bosqich. Avj olish davri-ekspirator tipli bo‘g‘ilish xuruji, ya’ni,qisqa nafas olish, nafas chiqarishning 2-4 marta uzayishi,nafas chiqarishning qiyinligi, masofadan eshitiluvchi xirillashlar xos.Bemor majburiy holatni, ya’ni, ortopnoe holatida, o‘tirganda oyoqlariga tiranadi yoki oldinga egilib utiradi va tirsaklari bilan tizzalariga yopishadi yoki qo‘llari bilan stol chetiga, krovat chetiga tiranadi, og‘iz bilan havo “tutishga” harakat qiladi. Bemor gapira olmaydi, yuzida qo‘rqish alomati,. yuzi shishgan,sovuk ter bilan koplangan, diffuz sianoz. Nafas olishda burun qanolari shishadi. Ko‘krak qafasi maksimal nafas yutish holatida. Nafas olish aktida hamma yordamchi mushaklar qatnashadi, o‘mrov usti chuquri va qovurg‘alar sovuq ter bilan qoplangan, bo‘yin venalari bo‘rtgan, ko‘krak qafasi emfizematoz, perkussiyada timpanik tovush, auskultatsiyada dag‘al nafas asosida quruq, hushtaksimon xirillashlar, pulsi tezlashgan, yurakning nisbiy chegaralari o‘ngga kengaygan, yurak tonlari bo‘g‘iq, xuruj “shishasimon”,yopishqoq, kam ajraluvchi balg‘am ko‘chgach o‘tadi.

Balg‘am tahlilida eozinofillar, ayrim hollarda SHarko-Leyden kristallari, Kurshman spirallari aniqlanadi.

EKG: yurak elektr o‘qining o‘ngga siljishi, chuqur S1 tishchasi, baland R III va aVF da, S-T segmenti inversiyasi III va aVF da., baland o‘tkirlashgan R tishcha II va III standart tarmoqlarda va ko‘pincha manfiy R tishcha V1 da, Gis tutami o‘ng oyoqchasi to‘liq qamali.

Rentgenologik tekshiruvda o‘pkalar shaffoflashishi, diafragmaning past joylashishi va sust tebranishi. Qovurg‘alar gorizontal joylashgan va ular orasi kengaygan. O‘pka manzarasi kuchaygan.

Bo‘g‘ilish xuruji astmatik statusga o‘tib ketishi mumkin va koma yoki ulim bilan ham tugashi mumkin.

3-bosqich – xurujni orqaga kaytishi Regressiya davri-3-bosqich – xurujni orkaga kaytishi. Bemorda yo‘tal ko‘paygan, u balg‘am ko‘chishi bilan birga paydo bo‘ladi va bu bemorga ancha o‘zini engil his etishiga olib keladi. Patogeneziga bog‘liq holda xuruj regressiyasi bemorda har xil kechadi. U tez o‘tib davolashdan so‘ng yuqoridagi belgilarning bartaraf bo‘lishi bilan kechishi mumkin, boshqa organlarda o‘zgarishsiz, yoki aksincha, bemorni holdan toydirishi mumkin.

BA klinik manzarasida bu kasallikning **yo‘tal varianti** borligini ham esda tutish kerak. BA ning bu shaklida tipik bo‘g‘ilish xuruji klinikasi bo‘lmaydi, o‘pka auskultatsiyasida esa quruq xirillashlar yoki kam fizikal o‘zgarishlar topiladi. Birdan-bir xos belgi- bu bo‘g‘ilishli yo‘tal bo‘lib, u ko‘pincha kechasi bemorni bezovta kiladi. Yo‘tal xuruji paytida bemorda bosh aylanishi, terlash, yuz sianozi bo‘lishi

mumkin. Yo‘tal xuruji tashxisi uchun BA ning nafas chiqarish shiddatini monitoring qilish tavsiya etiladi va bunda kechkurun bronxodilatatorlarni profilaktik kabul kilish musbat natijani berishini inobatga olish kerak.

Bronxial astmaning diagnostikasi.

Laborator o‘zgarishlar. Qonning umumiyligi tahlil (UQT) – eoznofiliya, ECHTning biroz oshishi (infeksiyaga qaram turida). Umumiyligi balg‘am – eozinofillar ko‘pligi, SHarko-Leyden kristallari (romb va oktaedr shaklidagi- eozinofillar parchalanishi tufayli paydo bo‘luvchi krisstallar), Kurshman spirallari -shaffof shillikdan tashkil topgan mayda bronxlar shaklidagi spirallar), “Kreol tanachalari” – dumaloq, epitelial hujayralardan tashkil topgan birikmalar. Qonni bioximik tekshirish:– alfa2- va gamma-globulinlarning, sial kislotaning, seromukoidning, fibrinning, gaptoglobulinning va b. ning kupayishi. Immunologik tahlil – qonda immunoglobulinlarning, T-supressorlarning, IgE ning mikdorining oshishi. (atopik astmada)

Arterial qondagi gaz miqdorini baholash. Og‘ir bronxial obstruksiyada (TNCH1 – berilgan hajmdan 30-40%, PNT< 100 l/min) giperkapniya, o‘rta darajadagi bronxoobstruksiyada esa gipoksemiya va gipokapniya aniqlanadi. BA ning og‘ir kechishida ventilyasion-perfuzion o‘zgarishlar tufayli arterial gipoksemiya kuzatiladi.

O‘pkani rentgenologik tekshirish qandaydir xos o‘zgarishlarni topmaydi. BA xurujida o‘pka emfizemasi belgilari aniqlanadi: o‘pka shaffofligining oshishi, qovurg‘alarning gorizontal joylashishi, qovurg‘alar orasining kengayishi, diafragmani past joylashishi.

Elektrokardiografiya. BA xurujida o‘ng bo‘lmachaga kuchli zo‘riqish belgilari aniqlanadi: baland, o‘tkirlashgan R tishcha II, III, aVF, V1, V2 da aniqlanadi, yurakning ellektr o‘qi vertikal, ko‘krak tarmoqlarida chuqur S tishcha shaklida paydo bo‘ladi. Xurujning to‘xtashi bilan ko‘rsatilgan EKG o‘zgarishlar yo‘qoladi. O‘pka yuragi rivojlansa o‘ng qorincha gipertrofiyasi EKG-belgilari paydo buladi.

Bronxoskopiya kiyosiy tashxis axamiyatiga ega, masalan bronxo-pulmonal tizimidagi o‘smalar bilan.

Allergolik statusni baholash. BA ning remissiya fazasida o‘tkaziladi va bunda har xil allergenlar majmuasi qo‘llaniladi. Eng ko‘proq teri sinamalari (applikatsion, skarifikatsion, teriichra allergenlar bilan o‘tkaziluvchi sinamalar) qo‘llanilad

Tashqi nafas olish funksiyasini instrumental tekshirish.

Spirografiya – nafas olish vaqtida o‘pka hajmining grafik ravishda tasvirlanishi. BA ning spirografik belgilari:

o'pkaning tezlashtirilgan hayotiy hajmining (O'TXX) va TNCH1 ning sustlashishi. Bunda TNCH1 eng sezuvchan kursatkich bulib, bronxial obstruksiya darajasini kursatadi;

Tiffno indeksining pasayishi (TNCH1/O'TXX), asosan 75% dan kamrok
Pnevmataxografiya – ikkikoordinatali sistemada “oqim-hajm” tizimini aniklash – havo oqimining ekspirator tezligini O'TXX 25-75% li nuqtasida, ya'ni nafas chiqarishning o'rtasida aniqlash. Bu uslub erdamida pik xajm tezligini (PXT), UTXX ning 25%, 50%, 75% li nuktalarida maksimal xajm tezligini (MXT_{25} , MXT_{50} , MXT_{75}) va urtacha xajm tezligini (25-75%) aniklash mumkin.

Pikfloumetriya – havoning maksimal hajm tezligini to'la nafas olgandan so'ng tezlashtirilgan nafas chiqarishda (nafas chikarish tezligi)

o'lchash uslubi.Pikfloumetriya kuniga bir necha marta va bronxodilatatorlar qabulidan oldin va keyin o'tkaziladi. PNT ni albatta ertalab, keyin 10-12 soatdan so'ng o'tkazish kerak. Pikfloumetriya dastlab vrach kabulida kilinadi, keyin esa bemorning o'zi o'tkazishi mumkin.

BA da PNT quyidagicha o'zgaradi:

- qisqa ta'sir etuvchi betta –2 – stimulyatorning kabulidan 15-20 minutdan so'ng PNT ning 15% ga oshishi.
- bronxolitiklar qabul qiluvchi bemorlarda PNT 20% va undan ko'prokqa sutkada tebranadi, bronxolitiklar qabul qilmaydigan bemorlarda esa – 10% ga.
- PNT ning sutkalik tebranishi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{PNT ning sutkalik tebranishi \%} = \frac{\text{PNTmaksimal}-\text{PNTminimal}}{\text{PNT o'rtacha}} \times 100\%$$

- jismoniy zo'rikishdan yoki boshka triggerlar ta'siridan so'ng PNT ning 15% ga kamayishi.

Bronxial astmaning diagnostik mezonlari:

- 1.Nafas chiqarishning qiyinligi bilan kechuvchi bo'g'ilish xuruji va u o'pkada quruq hushtaksimon xirillashlar (hatto bu xirillashlar masofadan ham eshitiladi) kechadi.
- 2.Bronxial astmaning xurujiga ekvivalent ravishda tunda xurujsimon yo'tal, u bemorning uyqusini buzadi, nafas chiqarishning qiyinligi yoki ko'krak qafasida siqilish hissi, hansirash va hushtaksimon xirillashlarning yilning ma'lum paytida ma'lum bir antigenlar bilan to'qnashilganda yoki fizik zo'riqishdan so'ng bezovta qilishi;
- 3.Tashqi nafas funksiyasi ko'rsatkichlari (NCHH, Tiffno indeksi, nafas chiqarish hajmining maksimal nuqtasi va h,) natijalariga ko'ra nafas etishmovchiliginig obstruktiv tipini aniqlash;
4. Tashqi nafas funksiyasi ko'rsatkichlarining bronxodilatatorlar qabul qilgandan so'ng oshishi va nafas chiqarishning engillashuvi;
- 5.Havoda bronxial astmaning biologik markeri- azot oksidi (NO) ning ko'pligi.

Bronxial astmaning G.B. Fedoseev (1996) bo'yicha klinik-patogenetik variantlarining diagnostik mezonlari

1. Atopik shaklli BA ning diagnostik mezonlari:

1. Allergologik anamnez. Irsiy moyillik. Allergik konstitutsiya: bemorda allergik kasalliklarning "diatez, allergik renit, eshak emi, Kvinke shishi, changa, oziq-ovqatlarga nisbatan allergiya" yoshlikdan aniqlanishi. Kasbiy omillarga nisbatan allergiyaning mavjudligi.
2. Nisbatan yosh (30 yoshgacha 75-80% xolda)
3. Ma'lum allergen bilan o'zkazilgan teri sinamasi musbat.
4. Tezlashtiruvchi (nazal, kon'yuktival, ingalatsion) sinamalar musbat (ko'rsatmaga binoan).
5. Oziq-ovqatga nisbatan allergenni kundalik yuritish orqali aniqlash
6. Laborator mezonlar: qonda IgE, ning oshishi, qon va balg'amda eozinofillar oshishi, SHelli sinamasi (bazofilli sinama) musbat. Limfotsitlarning adrenalinga nisbatan glikogenoliz holatining oshishi.

2. Infektion qaram shaklli BA diagnostik mezonlari:

1. Bemorni klinik tekshirish: shikoyatlari, anamnez, ob'ektiv ma'lumotlar, bronxial astmaning respirator infeksiya, o'tkir bronxit, gripp, pnevmoniya, surunkali bronxit bilan bog'liqligi.
2. UQT: leykotsitoz, ECHT ning oshishi.
3. Qonni bioximik tekshirish: SRO ning paydo bo'lishi, sial kislota, α_2 , γ -globulinlar, seromukoid, gaptoglobinlarning oshishi.
4. Umumiyl balg'am taxlili: shilliq - yiringli, surtmada netrofilli leykotsitlarning topilishi.
5. O'pkaning 3 ta proeksiyasida rentgenogrammasi, ko'rsatmaga binoan bronxografiya, tomografiya, gaymor bo'shliqlari rentgenografiyasida infiltrat soyalar, o'choqli yoki diffuz pnevmoskleroz belgilari, gaymor bo'shliqlari qorong'ilashuvi topiladi.
6. Fibrobronkoskopiyyada bronxlarda yallig'lanish belgilari topiladi.
7. Bakteriyalarga nisbatan teri ichiga qo'yilgan sinamalar musbat.
8. Balg'amni mikologik tekshiruv. Candida simon zamburug'lar topiladi.
9. Virusologik tekshiruvlar: immunoflyuoressensiyada virusga nisbatan antigenlar topilishi.
10. Otorinolaringolog, stomatologlar ko'rige (yuqori nafas yo'llari, burun xalqum va og'iz bo'shlig'i infektion o'choqlarini topish maqsadida).

3. Autoimmun shaklli BA ning diagnostik mezonlari:

1. Kasallikning og‘ir, uzlusiz kechishi.
2. Autolimfotsitlar bilan teri ichiga o‘tkazilgan sinamaning musbatligi.
3. Qonda nordon fosfotazaning yuqoriligi.
4. Fitogemagglyutinin bilan o‘tkazilgan reaksiyaning musbatligi.
5. Qonda komplement miqdorining kamayishi va o‘pka to‘qimasiga nisbatan antitela va immun birikmalarining topilishi.
6. Glyukortikoid terakiyadan asoratlarning nog‘ironlikka olib kelishi mavjudligi.

Allergik (atopik) va infeksiyaga qaram BA ni qiyosiy taqqoslash.

Belgilar	Atopik BA	Infeksiyaga qaram BA
Oilada allergik kasalliklar mavjudligi	Tez-tez uchraydi	Kam (BA dan tashqari)
Anamnezida atopik anamnez	Tez-tez	Kam
Ma’lum bir allergen bilan xurujning bog‘liqligi	Xos	Xos emas
Astmaning boshlanishi bronxopulmonal tizim yoki burun-halqum infeksiyasi bilan bog‘liq	Xos emas	Xos
Burun patologiyasi	Allergik rinosinuit infeksiya belgilarisiz	Allergik rinosinuit, polipoz, infeksiya belgilari
Bronxo‘pkada infeksion jarayon	Xos emas	Asosan surunkali bronxit, pnevmoniya.
Xurujning xususiyati	O‘tkir boshlanib, tez rivojlanishi, xurujning davomiyligi kam, asosan engil xurujlar.	Sekin-asta boshlanib, xuruj ko‘p vaqt davom etadi, asosae, og‘ir persiistirlanuvchi kechish.
Qon va balg‘amda eozinofiliyaning mavjudligi	Kam ifodalangan (ezoinofilov soni qonda 10-12% dan oshiq emas)	Ko‘proq (ezoinofillar soni qonda 20% gacha).
Balg‘amda neytrofil leykotsitlarning topilishi	Kamroq	Ko‘proq.
Qonda IgE miqdori	Oshgan	Normada.

Infeksiyon allergenlar bilan terida sinamalar	Musbat	Manfiy
Fizik zo'riqishli test	Asosan manfiy	Asosan musbat.
Eliminatsion terapiyadan samaradorlik	Samarali	Eliminatsion terapiyani o'tkazishning iloji yo'q.
Asoratlar (enfizema, pnevmoskleroz, surunkali o'pka va yurak etishmovchiligi)ning rivojlanishi	Asoratlar kech rivojlanadi.	Asoratlar erta rivojlanadi.
β_2 adrenostimulyatorlar bilan davolash	Juda samarador	Kam samarali
Xolinolitiklar bilan davolash	Kam samarador	Samarali
Intal bilan davolash	Samarali	Samaradorlik juda kam
Antibakterial terapiya	Samarali emas	Bronxo –pulmonal yallig'lanishni davolash BAning kechishini yaxshilaydi.
Oqibati	Bir muncha xavfsizroq.	Ko'proq xavfliroq

4. Adrenergetik disbalansli BA ning diagnostik mezonlari:

1. Bemorni klinik kuzatish – adrenergik disbalansning shakllanishga olib keluvchi omillarni simpatomimetiklarni suiste'mol qilish, virusli infeksiya, gipoksemiya, atsidoz, stress tufayli endogenli giperkatexolaminemiya, astmatik status holatiga BA xurujining o'tishi
2. Simpatomimetiklarning parodoksal ta'siri – ularni qo'llaganda bronxospazmning kuchayishi.
3. Laborator diagnostika:
 - A) TNF i da selektiv β_2 adrenomimetiklar ingalyasiyasi qabul qilishgacha va qabul qilgandan so'ng ham O'QSK kamayishi
 - B) adrenalinga nisbatan giperglukemik javob reaksiyasining kamayishi
 - V) adrenalin yuborilgandan so'ng, eozinofillar sonining kamayishi.
 - G) limfotsitlar glikogenolizm.

5. BA ning nerv – psixik shaklining diagnostik mezonlari:

1. Premorbid davrida nerv-psixik buzilishlarni aniqlash, anamnezda ruhiy stress, bosh miya jarohatlari, oilada va ishda konflikt holatlarning mavjudligi, yatrogen ta'sirlar, diensefal buzilishlar mavjudligi.
2. Psixoterapevt ko'rigida isteroidsimon, nevraatenoidsimon, psikoistenoidsimon mexanizmlarning aniqlanishi.

6. Xolinergik shaklli BA ning diagnostik mezonlari:

1. Bronxlar o'tkazuvchanligining buzilishi yirik va o'rtaligi bronxlarda ro'y beradi.
2. Bronxoreya
3. Ingalyasion xolinolitiklardan samaradorlik yuqori.
4. Vagotoniyaning boshqa xil ko'rinishlari, ya'ni, yara kasalligi, bradikardiya, gipotensiya, teri rangparligi, kaft ko'p terlashi mavjudligi.
5. Laborator belgilar: atsetilxolining qonda yuqoriligi, xolinesterazaning qon zardobida kamayishi
6. Pulsametriyaza parasimpatik nerv-sistemasi tonusining ustunligi belgilari.

7. Glyukokortikoid etishmovchilik shaklli BA ning diagnostik mezonlari:

1. Bemorni klinik kuzatish orqali glyukokortikoid etishmovchilik belgilarini, ya'ni: glyukokortikoid qaramlik, terida pigmentatsiya, arterial gipotensiya, astmatik status holatiga prednizoloni to'xtatganda yoki dozasini kamaytirganda tushib qolishni aniqlash.
2. Qonda kortizol, 11 OKS ning, siydikda 17 OKS larning kamayishi.

8. Dizovarial shaklli BA ning diagnostik mezonlari:

1. Menstuatsiyadan oldin va menstruatsiya vaqtiga, homiladorlik, klimakterik davrlarda bemor holatining yomonlashuvi.
2. Qin surtmasini tekshirish: progesteron miqdorining kamayishi (anovulyasiya yoki 2-faza etishmovchiligi)
3. Bazal temperaturaning menstrual siklning 2-davrida pasayishi
4. Radioimmunologik tekshiruvlarda: qon plazmasida esterogenlarning oshishi 2-fazada topilishi.

9. "Aspirinli astma" ning diagnostik mezonlari:

1. Bo'g'ilish xurujining aspirin yoki boshqa NYAQP lar qabul qilish bilan saqlovchi moddalar shuningdek, o'zida salitsilatlar va sariq rang beruvchi tartrazin moddasini qabul qilish bilan bog'liqlik.
2. Bo'g'imli xurujining xususiyatlari: bo'g'ilish xuruji aspirin qabul qilgandan so'ng, bir soat o'tgach boshlanib, tumov, ko'z yoshi ajralish, giperemiya bilan kechadi. Xuruj paytida ko'ngil aynish, qayt qilish, gipersalivatsiya, epigastral sohada og'riq bo'lib, A/B pasayadi. Vaqt o'tish bilan bronxial astma o'ziga xoslikka ega bo'ladi: mavsumiylik yo'qoladi, astma beliglari, bemorni doimo bezovta qiladi, xurujlararo davrda ko'krak qafasida "bosib qolish hissi", bronxodilatatsion terapiya kam samarali, asta-sekinlik bilan BA avj ola boradi.
3. Astmatik triada quyidagilarni o'z ichga oladi:
 1. aspirinli astma avj olib borish

2. aspirin va boshqa NYAQP larni ko‘tara olmaslik
3. Rinosinusit va retsidiylanuvchi burun polipozi (rentgenda rinosinusopatiya aniqlanadi).
4. Qonda prostaglandinlarning turli guruhlarining indometatsin qabul qilgandan so‘ng oshishi ($R_g F_2$) oshadi, $P_g E_1$ kamayadi.
5. Atsitol kislotali tezlashtiruvchi sinama musbat, ya’ni, bemorga atsitol kislota quyidagi dozada beriladi:
 - 1-kun 10 mg
 - 2-kun 20 mg
 - 3-kun 40 mg
 - 4-kun 80 mg
 - 5-kun 160 mg
 - 6-kun 320 mg
 - 7-kun 640 mg

30, 60, 120 minutdan so‘ng, bemorni ob’ektiv ko‘rib, o‘pka auskultatsiya o‘tkazilib, NCHX aniqlanadi. Sinama quyidagi belgilar paydo bo‘lsa, musbat bo‘ladi: bo‘g‘ilish xurujini sezish, burundan nafas olishning qiyinligi, rinoreya, ko‘zdan yosh oqishi NCHX ning dastlabgisiga nisbatan 15% ga kamayishi.

Bronxlar reaktivligining birlamchi o‘zgarganligi diagnostik mezonlari:

1. Bemorni klinik kuzatish – bo‘g‘ilish xurujining fizik zo‘riqishidan so‘ng, sovuq yoki issiq havodan nafas olgandan keyin, ob-havoning o‘zgarishida o‘tkir xidlar va tamaki tutunidan nafas olgandan so‘ng yuzaga kelishi mumkin.
2. Spirografiya va pikfluometriya ko‘rsatkichlarining sovuq havodan nafas olgandan so‘ng va atsetilxolinli, obzidanli sinamalaridan so‘ng pasayishi. (Bronxlar reaktivligining o‘zgarishi)
3. Atsetilxolinli test sinamasining musbatligi (V.I.Pyiskiy va xammual., 1999). Tekshirishdan oldin atsetilxolining 0.001%; 0.01%; 0.1%; 0.5%; va 1% konsentratsiyali ertimalarini tayyorlanadi, TNF va Tiffno indeksi aniqlanadi. So‘ngra aerozolli ingalyator orqali atsetilxolining eng kuchli (0.001%) eritmasidan 3 daqiqa davomida nafas olinadi. (Agar 3 daqiqadan oldin yo‘tal paydo bo‘lsa, ingalyasiya to‘xtatiladi). 15 daqiqadan so‘ng bemor axvoli baholanadi, o‘pka auskultatsiyasi o‘tkazilib, KNFCHX₁ (kuchli nafas chiqarish xajm tezligi va Tiffno indeksi aniqlanadi). Agar klinik va instrumental tekshiruvlarda bronxlarning o‘tkazuvchanligi buzilishi aniqlanmasa, tekshirishni keyingi konsentratsiyali eritma bilan takrorlanadi.

Sinama Tiffno indeksi 20 va undan ortiq foizga pasaysa, musbat hioblanadi. Ba'zi hollarda bronxlarning giperreaktivligini aniqlash uchun ingalyas ion gistaminli sinama o'tkaziladi. Bunda gistaminning < 8 mg/ml konsentratsiyasi KNFCHX₁ ni < 20% ga olib kelsa, bronxlar giperreaktivligimayjud hisoblanadi.

Qiyosiy tashxis.

Obstruktiv bronxit. Bu patologiyali bemorlarda hansirash va nafas olish kiyinlashishi belgilari borligi xos va bu o'zgarishlar doimiy bhladi, ya'ni xurujsimon emas, lekin jismoni zo'rikishdan keyin kuchayadi. Balg'am ko'chishi bemorga engillashish hissini keltirmaydi (BA da esa balg'am kuchishida bemor o'zini engil his eta boslaydi). Remissiya davrida obstruktiv bronxitli bemorlarda obstruksiya orqaga qaytmaydi, buni tashqi nafas olish ko'rsatkichlarini aniqlash ham isbotlaydi. Bundan tashkari bunday bemorlarda qonda va balg'amda eozinofiliya topilmaydi.

Traxeya va bronxlar ekspiritor stenozi og'ir, xurujsimon, bitonal yo'tal va nafas chikarish kiyinlashishi bilan kechadi. BA dan farkli o'larok bu patologiyali bemorlarda tipik bo'g'ilish xurujlari yuk va kasallik klinikasida auskultativ belgilar yo'k, ya'ni quruq hushtaksimon xirillashlar o'pka ustida eshitilmaydi. YAkuniy diagnoz fibroskopiya kursatkichlari asosida kuyiladi.

YUrak astmasiga aralash turdag'i xansirash, notejis nafas, ko'piksimon pushti balg'am xos. O'pkaning pastki qismlarida jarangsiz, ho'l xirillashlar eshitiladi. YUrak astmasi klinik belgilari shu patologiyani chakirgan yurak-tomir sistemasi kasalliklari klinik belgilari balan kechadi.

BA ni boshqa o'tkir respirator kasalliklar, halqum, traxeya va bronxlarning xar xil tashqi narsalar, poliplar, o'smalar bilan obstruksiyasi, uremik astma bilan xam kiesiy tashxis utkazish zarur.

Bronxial astmani davolash

Bronxial astmani davolash etiologik omillarni xisobga olgan xolda quyidagilarni:

1.BA xuruji davrida davolash; astmatik status holatida jadal davolashni.

2.Qo'zgalish davrida davolashni o'z ichiga oladi.

3.Remissiya davrida davolashni o'z ichiga oladi.

BA ni davolash bemorni individual xususiyatlariga qarab olib borilishi lozim va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-eliminatsion muolajalar (allergen yoki potensial allergenlar, nospetsifik qo'zg'atuvchilar bilan kontaktni yo'qotish);

-medikamentoz terapiya (patogentik va sipmatotik);

-nomedikasentoz terapiya (naturoterapiya).

BA davolashda qo'llaniladigan asosiy medikamentoz preparatlar guruhiga quyidagilar kiradi:

YAllig'lanishga qarshi preparatlar:

Natriy kromoglikat (intal)

Natriya nedokromil (tayled)

Ditek

Glyukokortikoidlar (asosan maxalliy - ingalyasiya sifatida, hamda ichiga eki parenteral).

Bronxodilatatorlar:

1. Aderenergik retseptorlar stimulyatorlari:

- a) alfa- i betta 1,2 - aderenergik retseptorlar stimulyatorlari (adrenalin, noradrenalin)
- b) betta-2- va betta-1-adrenergik retseptorlar stimulyatorlari (izadrin, novodrin, euspiran)

v) selektiv betta2-adrenostimulyatorlari :

-kiska ta'sir etuvchi – salbutamol, terbutalin, salmefamol, ipradol

-uzok ta'sir etuvchi – salmeterol, formeterol

2. Antixolenergik preparatlar:

a) ipratropium bromid (atrovent)

b) berodual

v) troventol

Metilksantinlar:

a) eufillin

b) teofillin

Patogenetik terapiya kasallikning kechishi, og'irlik darajasi va klinik-patogenetik shakllarini hisobga olgan holda tavsiya etiladi va o'z ichiga glyukokortikoidlar, membranani barqaror etuvchilar, bronxolitiklarni qo'llashni oladi.

Membranani barqaror etuvchilarga natriy kromoglikat-intal, ketotifen va boshqalar kiradi va ular BA ning atopik shaklida va o'rta va og'ir kechishda qo'llaniladi.

Glyukokortikoidlar yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lib, ularga : beklometazona dipropionat (beklomet, bekotid, beklokort, aldetsin), ingakort, fliksotid (prolong ta'sirli ingalyasion GKS) kiradi. Ingalyasion GKS'larni bronxolitiklar bilan birgalikda qo'llash mumkin.. Bronxolitik preparatlarga qisqa ta'sirli beta 2 adrenomimetiki: fenoterol, albuterol (salbutamol), terbutalin, klinbuterol, geksamrenalin; uoq ta'sirli: salmeterol i forioterol; xolinolitiklardan: ipratropium bromid (atrovent) i oksitropium bromid kiradi.

Kombinatsiyalangan preparatlarga: berodual (duovent), ditek, intal-polyus, kombipek, bronxolitik preparatlarga teofillinnin hosilalari: eufillin (aminofilin), teopek, teobilong, retafil, teotart, teodur kiradi.

Antigistamin preparatlardan 2 avlod preparatlari: terfenadin, astemizol, akrivastin, loratadin, (klaritin), setirizin kirib, ularning sedativ ta'siri yo'q, terapevtik samarasi tezroq, ularni uzoq qo'llaganda ham o'rganib qolish yo'q.

Antibiotiklar BA.ni davolashda qo'llanilmaydi.Ular faqatgina Buning infeksiyaga qaram turida, bemorlarda o'tkir pnevmoniya, surunkali bronxit qo'zg'alganda, gormonga qaram turda esa yuqori nafas yo'llarining zamburug'li asoratlari yuzaga kelgandagina

qo‘llaniladi. Asosan amaliyotda ftxorxinolonlar, makrolidlar, linkomitsin, sefalosporinlar qo‘llaniladi.

Bronxial astmani pog‘onali davolash. .

1 pog‘ona – engil epizodik kechish.

Bu pog‘onada tashqi tezlashtiruvchi omillarni aniqlab, ularni bartaraf etish yaxshi samara berishi mumkin. Kam samaradolikda esa qisqa ta’sirli adrenomimetiklar yoki intalni fizik zo‘rifishdan yoki allergen bilan to‘qnashishdan oldin qo‘llash mumkin. Bu kechishida *uzok yalliglanishga karshi* davolash kullanilmaydi. Betta-2-stimulyatorlar va intalning jismoniy zo‘riqishdan oldin eki allergen bilan kontakt oldidan profilaktik ingalyasiyasi. Kiska ta’sir etuvchi ingalyasion bronchodilatorlarni jismoniy zo‘riqishdan eki allergen bilan kontakt olididan *profilaktik* qo‘llash obariladi. Kiska ta’sir etuvchi bronchodilatatorlar (ingalyasion) BA belgilarini nazorat kilish uchun xertasiga 1 marta qo‘llaniladi.

Selektiv betta-2-adrenostimulyatorlar bronxlar dilatatsiyani chakiradi, mukotsiliar klirensni yaxshilaydi, semiz xujayralar va bazofillar degranulyasiyasini tuxtadi, neytrofillardan lizosomal fermentlar chikishini kamaytiradi. Celektiv betta-2-stimulyatorlarga kuyidagilar kiradi: kiska ta’sir etuvchi – salbutamol (100 mkg x 4 marta kuniga), terbutalin (250 mkg x 3-4 marta kuniga), salmefamol (200-400 mkg x marta kunig, ipradol (200-400 mkg x 3-4 marta kuniga), uzok ta’sir etuvchi – salmeterol (po 50 mkg x 2 marta kuniga), formetorol (12-24 mkg x 2 marta kuniga), nisbatan selektiv ta’sirga ega preparatlar – fenoterol (berotek) (200 mkg x 3-4 mart marta kuniga), orsiprenolin sulfat (alupent, astmopent (0.75-1.50 mkg x 4 marta kuniga)).

Intal – nosteroid yalliglanishga karshi preparatlar guruxiga kiradi va asosiy ta’siri semiz xujayralar, eozinofillar, makrofaglar, trombotsitlar va boshka xujayralar membranasini stabillashtiradi. Ditek – kombinatsiyalashgan preparat bulib, dozali aerozol sifatida qo‘llaniladi, betta-2-adrenostimulyator - berotek va intal kombinatsiyasidan tashkil topgan. Profilaktik, hamda BA xurujlarini tuxtatish uchun qo‘llaniladi.

2 pog‘ona - engil persistik kechish.

Ushbu pog‘ona klinik belgilarning xuruj davrida mavjudligi va hamroh ravishda bemorda nafas yo‘llarning yallig‘lanishi borligini ifodalashishi tufayli bemorga ingalyassionnye yallig‘lanishga qarshi (intal, natriy nedokromil), uzoq muddatga tavsiya etiladi. Bo‘g‘ilish xurujini qisqa ta’sirli beta 2 adrenomimetiklarni sutkasiga 3-4 martadan ko‘p bo‘lmagan holda tavsiya etiladi.

BA da xar kungi profilaktik ravishda dorilar kubul kilish tavsiya etiladi.

Ingalyatorlarda profilaktik ravishda kuyidagilar qo‘llaniladi:

-intal, tayled (4 mg x 3-4 marta kuniga) eki uzaytirilgan teofillin (teodur, teolang va b.).

-ingalyasion glyukokortikosteroidlar (GKS). Ular kuchli yalliglanishga karshi ta'sirga ega. GKS ning ikki avlodi ajratiladi: 1-chi avlod – bekotid, beklomet, bekodisk i 2-chi avlod – budesonid, flunisolid (ingakort), fliksomid. BA ning bu boskichida xar kuni 200-500 mkg GKS nafas orkali yutish tavchiya etiladi, kerak bulsa 800 mkg GKS qo'llaniladi. Ingalyasion GKS kullanilganda ogiz kandidomikozi rivojlanishi xavfi mumkinligini e'tiborga olish zarur. Bu asorat profilaktikasi sifatida dozator-speyser qo'llaniladi, hamda preparat qabulidan so'ng ogizni chaykash tavsiya etiladi.

- GKS dozasini ko'tarish kerak bo'lganda alternativ ravishda, ayniqsa kechasigi BA xuruji belgilarini nazorati uchun uzaytirilgan kechasiga bronxodilatatorlar kushish tavsiya etiladi: o'zaytirilgan betta-2-aderostimulyatorlar va uzaytirilgan teofillin. BA xurujini tuxtashish uchun – ingalyasion – betta-2-agonistlar kuniga 3-4 martadan kuprok kullanilishi kerak emas

-ingalyasionnyix xolinolitiklar xam qo'llash mumkin –ipratropium bromida (atrovent) (40 mkg x 3-4 marta kuniga)

3 pog'ona - o'rtacha og'irlikda kechish.

Ushbu pog'ona klinik belgilarning xuruj davrida kam va ifodalangan holda o'zgarishi, tungi bo'g'ilish xurujlarining sonining oshib borishi. funksional o'zgarishlarning labilligi bilan ifodalanadi. Davolashda ingalyasion GKS, intal, nedokromil natriy kuniga individual dozalarda, bronxodilyatatorlardan prolang ta'sirli va xolinolitiklar (katta yoshli kishilarda) qo'llaniladi. Bo'g'ilish xurujini qisqa ta'sirli beta 2 adrenomimetiklarni sutkasiga 3-4 martadan ko'p bo'limgan holda tavsiya etiladi Xuruj cho'zilganda parenteralnogo vvedeniya bronxolitiklar samaradorlik kamroq bo'lganda esa , GKS lar doza va davolash ko'rsini individual ravishda belgilangan holda tavsiya etiladi

xavfi mumkinligini e'tiborga olish zarur. Bu asorat profilaktikasi sifatida dozator-speyser qo'llaniladi, hamda preparat qabulidan so'ng og'izni chayqash tavsiya etiladi. - GKS dozasini ko'tarish kerak bo'lganda alternativ ravishda, ayniqsa kechasigi BA xuruji belgilarini nazorati uchun uzaytirilgan kechasiga bronxodilatatorlar kushish tavsiya etiladi: uzaytirilgan betta-2-aderostimulyatorlar va uzaytirilgan teofillin.

BA xurujini to'xtashish uchun – ingalyasion – betta-2-agonistlar kuniga 3-4 martadan ko'proq qo'llanilishi kerak emas

-ingalyasionnyix xolinolitiklar xam qo'llash mumkin –ipratropium bromida (atrovent) (40 mkg x 3-4 marta kuniga)

4 pog'ona - og'ir kechish

Ushbu pog'ona klinik belgilarning uzlusizligi tufayli bemorlarning fizik faolligini cheklab, hatto, nog'ironlikka olib kelish bilan xarakterlanadi.

Bu pog'onada terapiyada asosan GKSlar qo'llaniladi: ingalyasion GKSlar yuqori dozada (1000 mkgacha va undan ko'p) minimal, individual tanlangan sistemli GKS lar bilan birgalikda taviya etiladi. GKS larning dozasini turli prolang ta'sirli

bronxolitik preparatlarni qo‘llash orqali kamaytiriladi. Qisqa bo‘g‘ilish xurujlari qisqa ta’sirli beta 2 adrenomimetiklarni sutkasiga 3-4 martadan ko‘p bo‘lmagan holda tavsiya etish orqali bartaraf etiladi.

Olib borilgan davolashning samaradorligi klinik belgilar, xurujlar soning kamayganligida, ob’ektiv tekshiruvlarning musbatligida, laborator va funksional tekshiruvlvrning natijalarning normallashuvida namoyon bo‘ladi.

Pog‘onali davolashda yuqoridagilarni hisobga olgan holda davolashda stabil ijobiy natijaga erishilganda, kasallikning kechishini nazorat qilish uchun kelgusida prepatlarni kamaytirish imkoniyati yuzaga kelishi **bir pog‘ona pastga tushish** imkoniyatini tug‘diradi.

Aksincha, kasallikni davolashda medikamentoz davolashni nazorat qilish imkoniyati qiyinlashganda, medikamentoz davoni kuchaytirish yuzaga keladigan bo‘lsa, u holda **bir pog‘ona yuqoriga** ko‘tariladi.

Bronxolitik terapiya BA ning xamma boskichida qo‘llaniladi kuyilagi preparatlarni uz ichiga oladi: metilksantinlar – eufillin (2.4% - 10.0 vena ichiga) eki teofillin i eufillin v tabletkada, asosan uzaytirilgan. 2) betta-2-adrenorestimulyatorlar va xolinolitiklar.

Kushimcha patogenetik va simptomatik terapiya:

- mukolitik preparatlar – ingalyasiya sifatida (atsetilsistein), tabletkada (mukaltin, lazolvan), termopsis, yodli preparatlar va b.
- antibakterial terapiya respirator sistema infeksiyasida.
- kalsiy antagonistlari (nifedipin, izoptin) BA va IBS birga kelganda.
- antigistamin prepartlari: dimedrol, tavegil, suprastin, klaritin, astemizol idr.
- leykotrien retseptorlari antagonistlari – zafirulakst.
- fizioterapevtik uslublar – ko‘krak qafasi massaji, LFK, iglorefleksoterapiya.
- immunokorrektorlar – ribomunil, timalin, timoptin, immunomodulin.
- ekstrakorporal uslubli terapiya – plazmoferez, gemosorbsiya
- psixotrop terapiya – seduksen, relanium.
- yutalga karshi preparatlar – tusupreks, bromgeksin, libeksin.

Quyida bronxial astmani “Astmani davolash muaamolarining xalqaro loyihasi” ishlab chiqilgan uzoq muddadli davolashning sxemasi keltirilgan.

**(Bronxial astmaning diagnostikasi va davolashning muammolariga
bag‘ishlangan xalqaro Konsensusda qilingan doklad bo‘yicha Amerika
allergologlari va immunologlari uyushmasining yig‘ilishida bayon etilgan, 1992
yil mart)**

**Bronxial
astmaning
pog‘onasi**

**Uzoq muddatli davolashni nazorat
qilish va xurujning oldini olish
uchun**

Xuruj paytida

4 pog'ona

Persistirlanuvchi
BA, og'ir
kechuvchi

3 pog'ona

Persistirlanuvchi
BA, o'rtacha
og'irlikda
kechuvchi

2pog'ona

Persistirlanuvchi
BA, engil darajali

Kuniga:

ingalyasion kortikosteroidlar
(bekotid/beklokort, fliksotid) 800-
1000 mkg/sut (1000 mkgdan oshiq
shifokor nazoratida)
shuningdek,
– b₂-agonistlar uzoq ta'sirga ega
(serevent/salmaterol) ingalyasion 50–
100 mkg sutkasiga 2 marta ayniqsa,
tungi belgilarda;
– va/yoki teofillinlar-SR (prolang
ta'sirli)
– va/yoki b₂-agonistlar per os
kortikosteroidlar individual dozada
uzoq vaqt per os

Kuniga:

Ingalyasion steroidlar 800-2000
mkg/sut (1000 mkg.dan oshiq
shifokor nazoratida)
shuningdek – prolang ta'sirli
bronxodilatatorlar (ayniqsa, tungi
belgilarda):
uzoq ta'sirli ingalyasion b₂-
agonistlar,
– yoki prolang ta'sirga ega
teofillinlar,
– yoki prolang ta'sirga ega b₂-
agonistlar per os

Kuniga yallig'lanishga qarshi
ingalyasion preparatlarni qabul qilish:
dastlab – ingalyasion steroidlar 200-
500 mkg/sut yoki kromoglikat natriy,
lozim bo'lganda prolang ta'sirga ega
b-agonist (serevent) yoki teofillin-SR;
bilan, sutkalik dozani kerak bo'lganda
oshirish mumkin.

- ingalyasion steroidlarni sutkasiga
800 mkg gacha oshirish mumkin
- yoki (ayniqsa, tungi belgilarda):
quyidagi praparatlarni birgalikda

Qisqa ta'sirli ingalyasion
b₂-agonistlar (ventolin)
og'irlik drajasiga ko'ra.
Lozim bo'lganda
ingalyasion
xolinolitiklarni qo'llash
mumkin.

Qisqa ta'sirli ingalyasion
b₂-agonistlar og'irlik
drajasiga ko'ra, ammo,
kuniga 3-4 martadan ko'p
emas.
Lozim bo'lganda
ingalyasion
xolinolitiklarni qo'llash
mumkin.

Qisqa ta'sirli ingalyasion
b₂-agonistlar og'irlik
drajasiga ko'ra, ammo,
kuniga 3-4 martadan ko'p
emas.

qo‘llash mumkin: kortikosteroidlar+
+prolang bronxodilatatorlar: - b₂-
agonistlar ingalyasion 25-50 mkg 2
marta sutkasiga yoki per os yoki
teofillin-Sr
-yoki tungi belgilarda 3-pog‘onaga
o‘tish va o‘zoq ta’sirli
bronxodilatatorlarni qo‘llash

1 pog‘ona

Intermittirlovchi
BA

Doimiy davolashni talab etmaydi.

Ingalyasion qisqa ta’sirli
b₂-agonistlar belgilari
mavjud bo‘lganda (lozim
bo‘lganda), ammo,
haftasiga 1 martadan
oshiq emas.

Ingalyasion qisqa ta’sirli
b₂-agonistlar yoki
nedokromil (kromoglikat
natriy) fizik zo‘riqish
yoki antigen bilan
to‘qnashishdan oldin.

ASTMATIK STATUS

Bu bronxial astmaning asosiy va og‘ir, xavfli asoratlaridan biri.

Astmatik status (AS) – bu o‘rta va mayda kalibrli bronxlarning diffuz shishi, ekspirator kollapsi tufayli bronxlardan qiyinlik bilan ajraluvchi balg‘amning to‘planishi tufayli uzoq davom etuvchi bronxoobstruktiv sindromdir.

Astmatik status (AS) — bu BA ning og‘ir chuzilib ketgan xuruji bulib, nafas yuli obsruksiyasi tufayli utkir progressiyalanuvchi nafas olish etishmovchiligi bilan kechadi, va dorilarga rezitentlik rivojlanishi bilan xarakterlanadi (**V. S. Щелкунов, 1996**).

Bu sindrom o‘tkir nafas etishmovchiligi bo‘lib, BA li bemorlarda nafas yo‘llarining obstruksiyasi tufayli yuzaga kelib, eufillin, selektiv beta-2 simpatomimetiklar terapiyasiga rezistentligi bilan xarakterlanadigan holatdir.

Etiologiyasi:

Quyidagilar AS ning kelib chiqishida rol o‘ynaydi.

- 1.Bronxlar va o‘pka tizimida bakterial, virusli yallig‘lanishli jarayonlar.
- 2.Muvaffaqiyatsiz boshlangan giposensibilizatsiya.
- 3.Haddan tashkari sedativ va uyqu keltiruvchi dorilarni qabul qilish.

- 4.Glyukokortikosteroidlarni uzoq vaqt qabul qilgach, olib tashlash («olib tashlash sindromi»).
- 5.Bronxlarning allergik va keyinchalik obstruksiyasiga sabab bo‘luvchi dorilarni (salitsilatlar, analgin, antibiotiklar, vaksina va zardoblar) kabul kilish.
- 6.Simpatomimetiklarni su’istemol kilish.

Astmatik status tasnifi: (G. B. Fedoseev, 1984 y., 1988 y., A. G. CHuchalin, 1985 y., T. A. Sorokina, 1987 y.)

I.Patogenetik variantlari:

- 1.Sekin rivojlanuvchi status.
- 2.Anafilaktik astmatik status.
- 3.Anafilaktoidli astmatik status.

II.Bosqichlari farqlanadi

Birinchisi — nisbiy kompensatsiya.

Ikkinchisi — dekompensatsiya yoki “soqov o‘pka” bosqichi.

Uchinchisi — gipoksik giperkapnik koma.

Patogenezi:

Patogenetik xususiyatiga kura astmatik statusning 3 ta varianti rivojlanishida quyidagilar rol o‘ynaydi bu variantlar bir-biridan o‘ziga xos klinik belgilari bilan farq qiladi :

Asta-sekin rivojlanuvchi AS asosida quyidagilar rol uynaydi, ya’ni:

- 1.Betta -2 adrenoretseptorlarning qamali.
- 2.Bronxlarning spazmini chakiruvchi alfa-adrenoretseptorlarning ustunligi.
- 3.Glyukokortikosteroidlarning ifodalangan etishmovchiligi, bu esa o‘z navbatida betta-2 adrenoretseptorlarning qamalini chuqurlashtiradi.
- 4.Bronxlarning yallig‘lanishli va allergik obstruksiyasi.
- 5.Yo‘tal refleksining bartaraf etilishi.
- 6.Bronxlarda xolinergik ta’sirlarning ustunligi.

Anafilaktik status (tezkor tipi). Asosida giperergik anafilaktik reaksiya hosil bulib, yallig‘lanishning allergik mediatorlari ajralib, bu esa o‘z navbatida allergen bilan to‘qnashilganda, yot oqsilga nisbatan sezuvchanlikning oshishi (anafilaksiya) yuzaga kelib, bronxlarning total spazmiga sabab bo‘ladi.

Anafilaktoidli astmatik status. Asosida nafas yo‘llarining mexanik, fizik, kimyoviy (sovuv havo, o‘tkir hidlar va b.) ta’sirlari tufayli retseptorlarning ta’sirlanishiga bronxlar reflektor spazm bilan javob beradi. Ikkinci turini xam tez rivojlanuvchi reaksiyalar turiga kiritish mumkin, lekin anafilaktik AS dan farkli ularok bu jaroaen immunologik mexanizmga ega emas.

YUkorida keltirilgan patogenetik mexanizmlardan tashkari AS ning xamma shakllariga xos umumiy mexanizmlar bor. Bronxial obstruksiya tufayli o‘pkaning yakuniy xajmi oshadi, rezerv nafas yutish va chikarish kamayadi, natijada utkir emfizema rivojlanadi, konning yurakga venoz kaytish mexanizmni buziladi, ung korincha xaydash xajmi sustlashadi. Ko‘krak qafasi va alveolyar bosim kutarilishi o‘pka gipertenziysi rivojlanishiga olib keladi. Konning venoz kaytishi, antidiuretik va aldosteronning kupayishi organizmda suyuklik ushlanib kolinishiga olib keladi. Bundan tashkari, baland ko‘krakichra bosim limfani ko‘krak limfatik tomir orkali venoz tarmokka kaytishini buzadi, bu esa gipoproteinemiya, onkotik bosimni konda kamayib ketishiga va interstsial suyuklik mikdorini oshishiga olib keladi.

Astmatik statusning rivojlanishida kuyidagi 3 ta bosqich mavjud:

1- bosqich ventilyasion buzilishlarsiz yoki kompensatsiya boskichi.

Klinikasi chuzilgan BA xurujiga uxshaydi. Bir kunda bir necha bor bartaraf etib bo‘lmaydigan bo‘g‘ilish xurujlari bulib, bemorlarning es-hushi joyida, yo‘tal quruq xurujsimon bo‘lib, balg‘am juda qiyinlik bilan ajraladi. Ko‘zga akrotsianoz, teri qatlamlarining namligi, taxipnoe 1 min. 40 tagacha, masofadan eshitiluvchi quruq, hushtaksimon xirillashlar, ortopnoe holati tashlanadi. Perkussiyada o‘pkada qutisimon tovush (emfizema tufayli), auskultatsiyada vezikulyar nafas o‘pkaning pastki bo‘laklarida o‘ta sustligi, quruq hushtaksimon xirillashlar eshitiladi.

YUrak kon tomirlar tizimida- taxikardiya, aritmiya, A/B ning normadaligi yoki oshganligi. Xazm kilish organlari tizimida – jigarning kattalashganligi, asab ruxiy sfera tizimida kuzgaluvchanlik, ba’zan alaxlash gallyusinatsiyalar aniqlanadi.

Laborator tahlillar natijasi: UQT – politsitemiya, bioximik tekshirishda – alfa 2, gamma globulinlar, fibrinogen, seromukoid, sial kislotalarining oshganligi, konning gazli tarkibida kam ifodalangan arterial gipoksiya, normokapniyalar, EKG da – o‘ng bo‘lmacha, o‘ng qorinchaning zo‘rikishi aniqlanadi.

2.-bosqich o‘sib boruvchi ventilyasion buzilishlar yoki dekompensatsiya («soqov o‘pka») bosqichi.

Bemorlar ahvoli o‘ta og‘ir bo‘lib, hansirash, o‘pkada nafas olish yuzaki, ortopnoe holati, bo‘yin venalari bo‘rtgan, teri qatlamlari kulrang, nam, ba’zida qo‘zgalishlarning befarklik bilan almashishi. Auskultatsiyada nafas shovkini eshitilmasligi («soqov o‘pka») faqat ba’zi joylarida kam miqdorda xirillashlarning eshitilishi, A/B- ning pastligi, yurak tonlarining bo‘g‘iqligi, «ot dupuri» ning paydo bo‘lishi aniqlanadi.

Laborator tahlillarda – ifodalangan arterial gipoksemita (RaO, 50-60 mm sim.ust.) va giperkapniya (RaSO, 50-70 . va undan oshiq mm sim.ust.).

Qonning nordan-ishqoriy tengligi — respirator atsidoz, EKG da o‘ng bo‘lmacha va o‘ng qorinchaning zo‘riqishi.

3-bosqich gipoksemik, giperkapnik koma.

Bemorlar hushsiz, hushdan ketish oldidan qaltiroqlar tutib, diffuz ter koplangan, nafas olish yuzaki, auskultatsiyada vezikulyar nafas o‘ta susaygan, puls ipsimon, A/B pasaygan, yurak tonlari bo‘g‘iq, «ot dupuri», ba’zida qorinchalar fibrillyasiyasi aniqlanadi.

Laborator tahlillar natijasi – ifodalangan og‘ir arterial gipoksemiya (RaO, 40-55 mm sim.ust.) va juda yaqqol giperkapniya (RaSO, 80-90 mm sim.ust.).

Qonning nordan-ishqoriy tengligi — metabolik atsidoz. EKG da – o‘ng bo‘lmacha va o‘ng qorincha zo‘riqishi.

Diagnostikasi:

Astmatik status diagnozini to‘g‘ri qo‘yishda quyidagilar muhim rol o‘ynaydi:

- 1.Anamnestik ma’lumotlar va bemorni organ-tizimlar buyicha tekshirish.
- 2.Umumiy qon tahlilida – politsitemiya, konning bioximik tekshiruvida alfa 2, gamma globulinlarning, fibrinogen, seromukoid, sial kislotasining oshishi.
- 3.EKG da o‘ng bo‘lmacha va o‘ng qorinchaning zo‘riqish belgilari.

P. N. YUrenev va b. lar buyicha AS ning uchta boskichi kuyidagilar bilan xarakterlanadi:

Bu boskichlarga kura bemorlarning xolati, teri rangi, arterial bosim kursatkichlari, fizikal uzgarishlar natijasi, o‘pka ekskursiyasining xarakatlari, yurak kiskarishlari soni, bemorning ruxiyatidagi uzgarishlar kay darajada o‘zgarishi xisobga olinib, buni kuyidagi jadvalda ifodalash mumkin , ya’ni :

Belgilar	I - boskich	II - boskich	III- boskich
Xolati	Og‘ir	O‘ta og‘ir	O‘ta og‘ir
Teri rangi	akrotsianoz	kulrang	
Taxipnoe	Ifodalangan	Ifodalangan	Tarqoq, diffuz sianoz
Quruq xirillashlar	Bor	Uta kamaygan	Oligoapnoe bilan
O‘pka ekskursiyasi	Aniqlanadi	Bazur	
Arterial bosim	Oshishi mumkin	Gipotensiya	Yo‘qolgan
YUrak qisqarishi	Taxikardiya	Taxikardiya yoki ipsimon	Aniqlanmaydi
Ruxiy sfera	Asteniya	Ifodalangan yoki noanik, es-xush	Gipotensiya, kollaps Ipsimon puls Es-hush yo‘qolgan

Davolash:

Astmatik statusda bemorlarni zudlik bilan pulmonologik, reanimatsion bo‘limlariga etkazish kerak. Davolashning samaradorligi davolashni qanchalik tez va to‘g‘ri boshlashda namoyon bo‘ladi. Davolashning boshidayoq adrenomimetiklarni olib tashlash kerak.

Terapiyada kuyidagilarni qo‘llash lozim:

- 1.Oksigenoterapiya
- 2.Infuzion terapiya
- 3.Glyukokortikosteroidterapiya
- 4.Balg‘amni suyultiruvchilar
- 5.Psixotrop vositalar
- 6.Degidratatsion terapiya
- 7.Kislota - ishqor muvozanatini tiklovchilar
- 8.Tromboembolik asoratlarning oldini olish
- 9.Antibiotikoterapiya ko‘rsatmaga kura (penitsillin mumkin emas)

Asta – sekin rivojlanuvchi astmatik statusni davolash:

- 1.Simpatomimetiklarni olib tashlash.

- 2.Glyukokortikosteroidterapiya vena ichiga tomchi shaklda, xar 3 soatda, prednizolonning sutkalik dozasi 300-400 mg. gacha, gidrokortizonning esa 1500 mg. gacha, shuningdek ularni per os xam tavsiya etiladi.
- 3.Bronxolitik sifatida eufillinni vena ichiga tomchi shaklda, sutkalik dozasi 1,5-2,0 gr.
- 4.Infuzion terapiya natriy xloring izotonik, glyukozaning 5% li, Ringer eritmasi sutkasiga 2,0-2,5 l gacha.
- 5.Kislota – ishqor muvozanatini tiklash maqsadida 4% li natriy gidrokortarbonat eritmasi 200 ml. gacha va undan ko‘p.
- 6.Balg‘amni suyultirish maksadida 3% li kaliy yodid eritmasi 30-60 ml. sutkasiga ichishga.
- 7.Oksigenoterapiya.
- 8.YUrak glikozidlari (kat’iy kursatmaga kura).
- 9.Markaziy venoz bosimi oshganda vena ichiga laziks 20-40 mg.
- 10.Qon chiqarish 200-300 ml.
- 11.Simpatomimetiklarning toksik ta’sirini bartaraf etish va A/B ni tushirish maksadida vena ichiga 0,25% li 1,0 ml. droperidol.
- 12.Bronxlarni kengaytirish maqsadida ftorotanli narkoz.
- 13.Qonning reologik xususiyatini yaxshilash va tromboembolik asoratlarning oldini olish maksadida reopolyuglyukin sutkasiga 400-800 ml.
- 14.Antibiotikoterapiya, ko‘rsatmaga ko‘ra
- 15.Davolash bronkoskopiysi, yuqoridagilar natijasiz bo‘lganda.

**Astmatik statusning anafilaktoid va anafilaktoidsimon variantlarini davolash:
(tezkor terapiya).**

- 1.Zudlik bilan vena ichiga adrenomimetik vositalardan 0,1% li adrenalin eritmasi 0,3-0,5 ml. Bu tadbir bronxospazmni bronxlarning shishini, vazodilyatatsiyasini barataraf etib A/B ni oshiradi.
- 2.Bronxlarni kengaytirish maqsadida m/o ga 1% li 1-2 ml. pirroksan.
- 3.Antigistamin preparatlardan 2-3 ml., tavegil 1,0 ml., suprastin m/o ga.
- 4.Intensiv glyukokortikosteroidterapiya.
- 5.Xolinolitiklarni tavsiya etish vena ichiga yoki m/o ga 0,1% li 0,5-1,0 ml. atropin eritmasi.
- 6.Vena ichiga 2,4% li 10,0 ml. eufillin yuborish.
- 7.Ingalyasion ftorotanli narkoz.
- 8.O‘pkani sun’iy ventilyasiya kilish.
- 9.O‘pkani bevosita massaj kilish.

Astmatik statusning bosqichlarini davolash:

I boskich. GKS: prednizolon po 60-90 mg xar 3-4 soatda vena ichiga tomchilab eki okimli, per os - 30-40 mg. Boshka metodikasi: vena ichiga tomchilab - GKS 250-300 mg xar 2 soatda. Sutkalik dozasini 2000 –3000 mg gacha kutarish tavsiya etiladi. Eufillin 10-15 ml- 2.4% eritmasi vena ichiga tomchilab. Infuzion terapiya – 5% glyukoza, reopoliglyugin, Ringer eritmasi va b. Kislorod ingalyasiyasi. Atsidoza korreksiyasi: 4%-100-200 ml soda. Balg‘am kuchishini engillashtirish: lasolvan vena ichiga eki mushak ichiga 2-3 marta 15 mg dan. Tromboembolik asoratni kamaytirish uchun - heparin 20000 x sut. Simpatomimetiklarni vena ichiga yuborish: izadrin, alupent, ipradol, terbutalin. Neyroleptiklar –droperidol.

II boskich. 1.Bronxlarni yuvish yuli bilan davolash bronxoskopiyasini qo‘llash. Xozirgi vaktda AS ning bu boskichida («sokov o‘pka» va ifodalangan nafas etishmovchilig) bronxlar utkazuvchanligining tiklanishiga bu davolash tugri chora xisoblanadi.2.Glyukokortikoidlarning yukori dozasini qo‘llash: Prednizolonning 60-90 mg. gacha dozasini xar 1,0-1,5 soatda yuborish. Agar 2-3 soat ichida bemorning axvoli yaxshilanmasa, prednizolonning dozasini 120-150 mg. gacha, bundan tashkari xar 4-6 soatda 125 mg. gidrokortizon yuboriladi. Bemorning axvoli davolashning boshidayok yaxshilansa, u xolda prednizolonning dozasi 60 mg. va keyinchalik esa xar 3 soat oralatib 30 mg. dan yuboriladi. Kislorod ingalyasiyasi. Infuzion terapiya. Eufillin vena ichiga. Endotraxeal intubatsiya. O‘pka sun’iy ventilyasiyasi. Atsidoz korreksiyasi.

III boskich. Sun’iy o‘pka ventilyasiyasi. Bronxoskopik sanatsiya (bronx sistemasini segmentlar bo‘yicha lavaji). Glyukokortikoid terapiya (120 mg dan har soatda). Atsidoz korreksiyasi

BRONXIAL ASTMA

Bronxial astma – surunkali infektion-allergik kasallik bo‘lib, nafas bug‘ilishi va xurujli yo‘tal bilan xarakterlanadi. Bronx silliq mushaklarining spazmi, shilliq gipersikretsiyasi va bronx devorining shishi fonida kechadi.

ETIOLOGIYASI

Bronxial astmaning allergik kasallik sifatida shakillanishi asosida antigen xususiyatiga ega bo‘lgan turli ekzogen, endogen modda va birikmalarga nisbatan organizmnning sensibilizatsiyasi yotadi.

I. Ekzoallerganlar

1. Noinfektion
 - Maishiy (uy va ko‘chadagi changlar)

- Epidermal (xayvonlarning qazg‘og‘i)
 - Dori vositalari (atsetilsalitsilat kislata,sulfanilamid)
 - Zaxarli ximik moddalar
2. Infeksion
- Bakterial
 - Virusli
 - Zamburug‘li

II. Endoallergenlar

1. Genetik fon
2. Atopiyा
3. Bronx giperreaktivligi

Kasallikning rivojlanishiga sabab bo‘luvchi omillar:

1. chekish
2. iqlimning o‘zgarib turishi
3. noto‘g‘ri ovqatlanish
4. vitaminlar va mineral moddalar etishmovchiligi

PATOGENEZI

Xozirgi zamon patofiziologiyasi va immunologiyasi erishgan yutuqlari nuqtai-nazaridan allergiyaga, antigen xususiyatlariga ega bo‘lgan moddlarga nisbatan yuqori sezgirlik xolati sifatida qaralmoqda.

Allergik kasallikning kelib chiqishida asosiy zveno bo‘lib organizmga allergenning kirganidan so‘ng yuzaga keladigan gumoral (allergik) yoki hujayra antitelolarning (sensibilashgan limfotsit) sintezi xisoblanadi.

Bronzial astmaning patogenezida 3 ta bosqich farqlanadi.

1. Immunologik
2. Patoximik
3. Patofiziologik

Immunologik bosqichda antitelolarning birlamchi tushishiga javoban maxsus antitelolar reagenlar xosil bo‘ladi (bu Ig E).

Sensibilizatsiyaning moxiyati ham ana shu reagenlar hosil bo‘lishi va to‘planishidadir. Organizmga allergen qayta tushishi natijasida bazofillar va semiz xujayralarga fiksatsiyalashgan antitelolarni antigen bilan birikishi yuzaga keladi.

Patoximik bosqichda antigen+antitelo immun kompleksi ta’siri natijasida semiz xujayralar membranasi shikastlanadi, hamda biologik aktiv moddalarni (gistamin, seratonin, bradikinin) hosil qiluvchi va ajratuvchi ferment sistemalar aktivligi oshib ketadi.

Patofiziologik bosqichda allergik reaksiyalar mediatorlari va to‘liq proteoliz bo‘lmagan mahsulotlar, shuningdek, antigen+antitelo immun kompleksining nishon xujayralariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’siri bronxlar muskulaturasining spazmi, shilliq qavatining shishishiga, quyuq va qiyin ajraladigan balg‘amning gipersekretsiyasiga

olib keladi. Bu esa o'pkaning ventilyasion funksiyasini buzadi va bug'ilish xuriji ko'rinishida klinika yuzaga chiqadi.

Bronxial astmaning u yoki bu turining yuzaga kelishi allergen bilan to'qnashganda yuzaga keladigan immun reaksiyaga bog'liq.

Allergen jarayonlarning asosida yotadigan immunologik faktorlarni xisobga olgan xolda P.G.Gell va R.R.Combs 1968 yil bolalarda astma patogenezining asosiy zvenosi hisoblanadigan xujayra shikastlanishlari xarakteriga qarab, allergik reaksiyalarni 4ta guruhga bo'ladi.

1. Anafilaksik yoki Atonik – bu allergenlarning ta'sirida yuzaga keladigan gumoral antitelo – reagenlar, ya'ni Ig E o'pka, teri, ingichka ichaklarda bazofillar va semiz hujayralarga fiksatsiyalanib oladi. Allergenlarning ikki malekula Ig E bilan birikishi antitelolarning allosterik modifikatsiyasi, membrana bilan bog'liq fermentlarning aktivlanishi yuzaga chiqib, ularning strukturaviy funksional xususiyatlarini o'zgartiradi va keyinchalik xujayralarning mediatorlarining ajralishiga olib keladi. Allergik reaksiyaning reagenga bog'liq bu turi bronxial astmaning noinfektion-allergik (atonik) turi asosini tashkil etadi. Bu formaning patogenezida reagenlar ishtirok etishining isboti bo'lib, qon zardobida Ig E ning yuqori titri hisoblanadi.

2. Sitotoksik yoki sitolitik – bu xujayra membranasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, allergen bilan antitelolarning o'zaro ta'sirlanishidan yuzaga keladi. Bu turdag'i allergik reaksiyalar Ig G, M, A sinfiga kiruvchi, immunoglobulinlar bilan birikkan allergik antitelolar va kompliment ishtirokida amalga oshadi. Sitoksin reaksiyalarda xujayraviy strukturalarning alteratsiyasini yuzaga kelishi, kompliment va lizosomalarning gidrolitik fermentlari ta'sirida yuzaga keladi.


3. Konglomeratlarning hosil bo'lish fazasi – bunda qon-tomir o'zanida antigen va antitelo, Ig G sinfiga mansub immunoglobulinlarning hosil bo'lgan immun komplekslar kichik kalibirli qon tomirlarning xujayra membranasiga o'tirib qoladi. Bu jarayon leykotsit va trombotsitlardan iborat bo'lgan, keyinchalik trombozlarga va xujayraviy shikastlanishlarga olib keluvchi konglomerantlar hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

Bronxial astmaning infektion-allergik formasida kasallik rivojlanishida sekin yuzaga chiqadigan yuqori sezgirlik muxim axamiyatga ega.


4. Spetsifik antigenlar bilan T-limfotsitlar to'qnash keladi, bular T-effektor limfotsitlar guruhiga kiradi. Ular o'z yuzalariga turli sinflarga mansub immunoglobulinlardan iborat retseptorlarga ega. Bu retseptorlar orqali limfotsitlar etiologik ahamiyatga ega bo'lgan allergenlar bilan o'zaro ta'sirlashadilar.

Antinatal va intranatal davrlarda o'tkazilgan gipoksiya bolalarda bronxial astmaning juda erta yuzaga chiqishi va og'irroq kechishiga olib keladi. Bolalarda bronxial astmaning infektion-allergik va aralash formalarida o'tkazilgan pnevmoniya va obstruktiv bronxit bilan tez-tez kasallanib turishi bronxial astmaning rivojlanishiga sabab bo'ladi.


Bronzial astmada yalliglanish jarayonining sxematik tasviri




BRONXIAL ASTMA PATOGENEZINING SXEMASI



Bronxial astmada bronxlarining torayish sabablari





TASNIFI

I. Forma

1. Ekzogen (atopik)
2. Endogen (infekzion)

II. Bosqichlari

1. Intermitsiv faza
2. Saqlab turadigan persistiv engil astma
3. Saqlab turadigan persistiv o‘rta og‘ir astma
4. Saqlab turadigan persistiv og‘ir astma

III. Qo‘zish fazalari

1. Qo‘zish
2. Pasayib boruvchi
3. Remissiya

IV. Asoratlari

1. O‘pka ateletkazi
2. Mediastinal va teri osti emfizemasi
3. O‘pkali yurak
4. O‘pka emfizemasi
5. Pnevmotoraks

KLINIKASI

Bronzial astmaning bolalarda kechishi 4 ta davrga bo‘linadi

1. Xuruj oldi davri
2. Xuruj davri
3. Xurujdan keyingi davr
4. Xurujlar oralig‘idagi davr

Xuruj oldi davri – bu davr bronzial astmada nafas yo‘llarida rivojlanayotgan allergik reaksiyalarning boshlang‘ich belgilarini aks ettiradi. Bola bezovta, injiq,

ishtaxasi pasaygan, tez charchaydi, uyqusi buzilgan, bularga qo'shimcha allergik rinit (burun bitishi, qichishi, aksa urishning ko'payishi, tomog'ning qichishi, kechalari quruq yo'tal) va dermatit bilan kuzatilishi mumkin. Xuruj oldi davrida bolalarni ob'ektiv tekshirganda tomog'inining qizarishi, murtaklarning shishganligi, burnidan shilimshiq modda ajralayotganligini, lablari quruqligini va ovozi bo'g'iqlashganini ko'rish mumkin. Xuruj oldi davrining davomiyligi bir necha daqiqadan ikki-uch soatgacha davom etadi.

Xuruj davri - bu davrda bola majburiy holatni egallaydi (yarim o'tirgan holatda, ko'zlar chaqchaygan. o'lim vahimasi holatida). Bu paytda masofadan eshitiladigan shovqinli xushtaksimon nafas bilan kuzatiladigan ekspirator hansirash qo'shilishi bilan namoyon bo'ladi. Ob'ektiv tekshirganda sianoz, akratsianoz, barmoqlar baraban tayoqchasini, tirnoqlar soat oynasini eslatadi, ko'krak qafasi ko'zdan kechirilganda bochkasimon, palpatsiyada ovoz dirillashi kuchaygan, o'pka perkussiyasida qutichasimon tovush, o'pkaning chegaralari kengaygan, (o'pka emfizemasi tufayli) nafas olish aktida xarakatning chegaralanganligini ko'rish mumkin. Auskultatsiyada susaygan nafas fonida ko'p sonli hushtaksimon quruq xirillashlar eshitiladi. Xuruj avjida taxikardiya, o'pka shishganligi tufayli yurakning nisbiy chegaralarini aniqlashning iloji bo'lmaydi. Xurujning oxirida bug'ilib qattiq yo'taladi va yopishqoq, shishasimon balg'am chiqadi. SHundan so'ng kasal engillashadi. Urinospastika – spazmdan so'ng peshobning chiqishi va kasal uxbol qoladi.

Katta bolalarda xuruj davri tipik kechadi, kichik yoshli bolalarda esa anatomofiziologik xususiyatini hisobga olib (bronxlar bo'shlig'inining torligi, limfatik va qon tomirlar to'rining ko'pligi) sababli bronxlar shilliq qavatining shishi va bronxlar bo'shlig'iga ko'p midorda suyuq sekretning ajralishi bilan kechadi. SHu sababli kichik yoshdagi bolalarda bronxial astmaning xuruji ekssudativ komponentning ustunligi bilan kechadi, bularda o'pkasida auskultatsiyada ko'p sonli nam xirillashlar eshitiladi va hansirashning aralash turi ustunlik qiladi. Tana xarorati 37-37,5 gradusgacha ko'tariladi.

Bemorlar nafas olishining qiyinlashishi va umumiy axvoliga qarab: engil, o'rta og'ir va og'ir darajalarga bo'linadi.

Bronxial astmaning **engil darjasasi** nafas olishning biroz qiyinlashuvi va umumiy axvolining o'zgarmaganligi bilan xarakterlanadi. Ob'etiv tekshirganda perkussiyada o'pka soxasida qutichasimon perkutor tovush, auskultatsiyada susaygan nafas fonida quruq xirillashlar eshitiladi.

Bronxial astmaning **o'rta og'ir darajasida** bolaning umumiy axvolining buzulishi bilan kechadigan yaqqol rivojlangan astmatik xuruj yuzaga kelishi xos bo'lib, bunda xuruj bolaning majburiy xolatni egallahga majburlaydi. Teri qoplamlari oqorgan, burun-lab uchburchagida sianoz aniqlanadi, perkussiyada o'pka soxasida qutichasimon perkutor tovush, auskultatsiyada susaygan nafas fonida quruq xirillashlar eshitiladi.

Bronxial astmaning **og‘ir xuruji** yaqqol yuzaga chiqqan astmatik xuruj fonida, nafas etishmovchilik belgilarining namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Burun qanotlari kerilgan, burun-lab uchburchagida sianoz, barmoqlar uchida akratsianoz va baraban tayoqchasiga o‘xhash. Bu paytda bola juda bezovta, o‘zini qo‘yarga joy topolmaydi, ko‘zlari chaqchigan, o‘lim vaximasida bo‘ladi. Masofadan ekspirator xansirashni eshitish mumkin. Ko‘krak qafasi ko‘zdan kechirganda bochkasimon ko‘krak qafasi, nafas aktida yordamchi mushaklarning qatnashishi, Ko‘zlari va yuzlari shishgan xolatda bemor yarim o‘tirgan xolatni egallaydi. Perkussiyada o‘pka soxasida qutichasimon perkutor tovush, auskultatsiyada dag‘al nafas fonida quruq va mayda pufakli nam xirillashlar eshitiladi. Nafas etishmovchiligi 3-darajasi.

Xurujdan keyingi davr – bunda ekspirator xansirash uncha kuchli bo‘lmasada, 2-4 kun davomida o‘pkalarda auskultatsiyada o‘rta pufakli tarqalgan quruq va nam xirillashlar eshitiladi. SHuningdek, yo‘tal, och rangli va shilliqli balg‘am ajraladi. O‘pkalarda xirillashlarning xuruj yo‘qolgandan so‘ng xam uzoq vaqt saqlanib qolishi, ikkilamchi bronx-o‘pka infeksiyasining qo‘shilishidan dalolat beradi.

Xuruj oralig‘idagi davr – bu davrda bronxospazmni aniqlovchi fizikal o‘zgarishlar kuzatilmaydi, lekin xali bronxial o‘tkazuvchanlik to‘lig‘icha tiklangan bo‘lmaydi.

R.G.Artamanov efidrin bilan o‘tkazgan sinamalarida shuni isbotladiki, bronxial astmaning kechishida erishilgan klinik remissiyada xam latent bronxospazm kuzatiladi. Bolalarda bronxial astmaning xurujlar oralig‘idagi davrida turli organ va sistemalarning funksional o‘zgarishlari alovida o‘rin tutadi. Bolaning jismoniy zo‘riqishlarga tolerantligi pastligicha qoladi.

Bolalarda bronxial astmaning og‘irlilik darajasini aniqlovchi kriteriyalar

Belgilar	Engil persistiv forma	O‘rta og‘ir persistiv forma	Og‘ir persistiv forma
Xurujning chas-totasi	1 oyda 1 marta yoki yo‘q	1 oyda 3-4 marta	1 xافتада 1 мarta yoki undan ko‘p
Jismoniy zo‘ri-qish	Normada	Pasaygan	Juda past
Pikfloumetriya bo‘yicha bronxlar-ning sutkalik labilligi	<20%	20—30%	>30%
Remissiyaning xarakteri	simptomlarsiz		Nafas etishmov-chilik belgilari saqlangan
Jismoniy rivojlanish	Norma	Norma	Rivojlanishdan orqada qolgan

Remissiya oralig‘i	3 oy va undan ko‘p	3 oy va undan kam	1-2 oy
Xurujni bartaraf qilish uchun	1 doza bronxolitik bilan	v/i,m/o bronxolitik va steroid ingalyator	v/i,m/o bronxolitik +glyukokortikosteroidlar

ASTMATIK STATUS

Kelib chiqishida bronx-o‘pka infeksiyalarini qo‘zishi, O’RVI qo‘silishi, glyukokortikoidlar etishmovchiligi, ko‘p miqdorda allergen bilan ta’sirlanish, o‘z vaqtida davolanmagan bronxospazmlar sabab bo‘ladi. SHuningdek astmatik status rivojlanishiga ko‘p miqdorda aerozollar ko‘rinishida simpatomimetik vositalarni qo‘llash olib keladi, chunki uzoq muddat qo‘llanilganda ular V2-adrenoritseptorlarni blokadalab qo‘yadi.

Astmatik status klinikasida 3ta bosqich tafovut qilinadi.

I-Bosqich: Nisbiy kompensatsiya bosqichi bo‘lib, klinik jixatdan bronxial astmaning cho‘zilgan xurujini namoyon qiladi. Bu bosqich bronxial o‘tkazuvchanligining buzulishi, simpatomimetik medikamentoz vositalariga rezistentligining oshishi bilan xarakterlanadi. Bu paytda tezlashgan, qiyinlashgan shovqinli nafas, emfizemaning ortib borishi, auskultativ dag‘al nafas va ko‘p sonli quruq, ayrim vaqtarda xo‘l xirillashlarni eshitish mumkin. Balg‘am ko‘chishining qiyinlashuvi, taxikardiya, arterial bosimning oshishi kuzatiladi. Bolada nafas etishmovchilik belgilari teri qoplamlarining oqarishi, lab-burun uchburchagida sianozlar aniqlanadi. Bola bezovta, injiq, uyqusi buzilgan. Umumiyligi degidratatsiya rivojlanadi. Periferik qonda gipoksemiya, giperkapniya va respirator allergozlar aniqlanadi.

II-Bosqich: Nafas etishmovchiligining ortib borishi bilan kechib, bronxlar bo‘shlig‘ining yopishqoq shilliq bilan total berkilib qolishi va bir vaqtning o‘zida bronxial daraxt shilliq qavatining yaqqol shishishi va bronxlar silliq mushaklarining spazmi kuzatiladi. Bu davrda o‘pkaning aloxida segmentlarida, keyinchalik butun o‘pka soxasida nafas shovqinlarining kamayishi va asta-sekin yuqolishi xarkterli. O‘pka «jimjitlik sindromi» rivojlanadi. Nafas olishning susayishi bilan bir vaqtida diffuz sianoz ortib boradi, kuchli taxikardiya, 1-bosqichda oshgan arterial bosim, 2-bosqichda tushadi. Gipoksiya va giperkapniya rivojlanib boradi. Moddalar almashinuvining chala oksidlangan maxsulotlari to‘planishi xisobiga metabolik atsidoz rivojlanadi.

III-Bosqich: Gipoksik koma, bu butun o‘pka bo‘ylab «jimjitlik» sindromi, adinamiya, xushning yo‘qolishi va talvasalar bilan kechuvchi chuqur nafas etishmovchiligidir. Bemorni ob’ektiv tekshirganda teri va shilliq qavatlarning diffuz sianozi, o‘pkalarda nafas shovqinining eshitilmasligi, arterial va mushaklar

gipotoniysi, yurak etishmovchiligi xam qo'shilib keladi. Klinik jixatdan sekin va tez rivojlanadigan gipoksik komalar tafovut qilinadi.

Sekin rivojlanadigan gipoksik koma ko'pincha og'ir astmatik statusni yakunlab, nafas yo'llarining quyuq, yopishqoq balg'am bilan total berkilib qolishi natijasida kelib chiqadi.

Tez rivojlanadigan gipoksik koma shiddatli kechadigan bronxospazm natijasida, anafilaktik reaksiya tipida kechadi. Bunda tez yuzaga keladigan nafas etishmovchiligi natijasida erta xushning yo'qolishi kuzatiladi. Gipoksik komaning bu varianti tez yuzaga chiqadigan allergik reaksiyaning bir ko'rinishi sifatida rivojlanadi.

Bolalarda astmatik statusning og'irlilik darajasini aniqlovchi mezonlar.

1. Bronxial astma xurujining 6 soatdan ortiq davom etishi.
2. Bronxlar drenaj funksiyasining buzulishi.
3. Qonda gipoksemiya kislorodning parsial bosimi 60-65 mm.simob ust. (8kPa) past, giperkapniya karbonat angidriti parsial bosimi 40-45 mm. simob ust. yuqori.
4. Simpatomimetik preparatlarga chidamliligi past.
5. Es-xushi koma xolatda.
6. Nutqi yo'q.
7. YOrdamchi mushaklarning nafas aktida ishtirok etishi: parodoksal va torakoabdominal fonidagi nafas.
8. Nafas chastotasi taxi yoki bradipnoe.
9. Puls chastotasi bradikardiya.
10. O'pkalar auskultatsiyasida «jimjitlik» sindromi
11. A/D pasayib ketishi.
12. Nevrologik simptomlar.

BRONXIAL ASTMANING DIAGNOSTIKASI

Anamnestik malumotlar

1. Bolada yoki avlodida allergik kasalliklarning borligi.
2. Respirator simptomlarning faslga bog'liqligi (baxor va kuz)
3. Branxit bilan tez-tez kasallanishi.
4. Jismony zo'riqqanda, stress paytida, sovuqqa chiqqanda xansirashning paydo bo'lishi va davomiyligi.
5. Xuruj xarakteri (kunda, xافتادا, oyda necha marta kuzatilishi)
6. Yo'tal xarakteri (asosan tunlari, xurujli yo'tal, undan so'ng engillikni xis etish)
7. Balg'am xarakteri (rangi, yopishqoqligi)
8. Qo'rquv xissi va majburiy xolat.
9. Xansirashning masofada eshitilishi.

Fizikal belgilari

1. Xuruj paytida ko'zları chaqchaygan va o'lim vaximasi.
2. Burun-lab uchburchagidagi sianoz va akratsianozlar.

3. Bochkasimon ko'krak qafasi.
4. Nafas aktida yordamchi mushaklarning ishtiroki.
5. Taxipnoe.
6. Taxikardiya.
7. Ekskretor xansirash.
8. Barmoqlari barban tayoqchalarini eslatadi
9. Perkussiyada qutichasimon tovush.
10. Auskultatsiyada susaygan nafas fonida quruq xirillashlar.

Instrumental tekshirish

1. Umumiy qon taxlilida eozinofiliya (N da 0.5-5%)
2. Balg'am rangi oq, yopishqoq, Kurshman spirallari, SHarko-Leydin kristallari

Immunologik o'zgarishlar

1. Umumiy va spetsifik Ig E miqdorining oshishi.
2. Th2 miqdorining oshishi.
3. Umumiy va sekretor Ig A ning defitsiti.

Bronx to'qimalarining atsetilxolinga sezgirligini aniqlovchi **atsetilxolin testi** o'tkaziladi. Bronxial astma bilan kasallangan bolalarda atsetilxolinga sezgirligi yuqori bo'lganligi sababli kam miqdordagi ingalyasiya (50 dan 6000 mkg gacha) bronxlar o'tuvchanligining buzilishiga olib keladi, aksincha sog'lom bolalarda buning uchun atsetilxolining katta konsentratsiyasi talab qilinadi.

Bolalarda bronxlar giperaktivligini aniqlashda eng sezgir test bu **gistaminli sinama**.

Efedrinning parenteral kiritilishi yoki bronxospazmalitiklar ingalyasiyasidan so'ng Tiffno indeksining 20% ga oshishi tekshirilgan bolalarda bronxlar silliq mushaklarining tonusi oshganligidan dalolat beradi.

Pediatriya amaliyotida kasallik patogenezi va etiologik faktorlarini aniqlovchi allergologik tekshirishlar keng qo'llaniladi. Bu tekshirishlar qatoriga turli xil allergenlar bilan kasallik remissiya davrida o'tkaziladigan **teri sinamalari** (skarifikatsiya va teri orasiga) kiradi.

Terida ma'lum bir allergenlar o'tkazilgan sinama joyida giperimiya va pufakning xosil bo'lishi 15-20 daqiqadan so'ng yuzaga kelsa, tez yuzaga keladigan yuqori sezgirlik deb baxolanadi. Test o'tkazilgan joyda 24-48 soatdan so'ng infiltrat xosil bo'lishi sekin yuzaga keladigan yuqori sezgirlik reaksiyasiga xosdir.

Skarifikatsion sinamalar nobakterial allergenlarning turli xil guruxlari bilan o'tkaziladi. Bir tekshirish vaqtida 15 tadan ziyod allergenlar ishlatiladi. Teri sinamalarining spetsifik kontroli bo'lib gistamin bilan o'tkazilgan sinama musbat bo'lishi, kantrol suyuqlik testi manfiy bo'lishi xisoblanadi. Bolalarda teri reaksiyalari tez yuzaga kelib, yana tez yo'qolishi mumkin, lekin ayrim xolatlarda sekin 30-40 daqiqadan so'ng xam yuzaga kelishi mumkin, shuning uchun sinama o'tkazilgandan so'ng 40 daqiqa davomida kuzatish kerak. Ayrim bolalarda allergologik anamnezi

musbatligiga qaramasdan, nobakterial allergenlar bilan o'tkazilgan skarifikatsion testlar manfiy natija beradi. Bunday bolalarga skarifikatsion testlarga nisbatan 100 barobar sezgirroq bo'lgan teri oralig'iga qilingan sinamalar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Teri orasiga sinamalar bakterial allergenlar bilan o'tkaziladi. Bunda sekin yuzaga keladigan reaksiya javoblariga aloxida e'tibor beriladi, reaksiyani 12-24-48 soatlardan so'ng baxolaydilar. Agar teri testiga javoban, sekin yuzaga chiqadigan va tez yuzaga chiqadigan turda umumiy va maxalliy reaksiyalar (giperimiya, sinama joyi terisining infiltratsiyasi, yo'tal, o'pkada xushtaksimon xirillashlar, bug'ilish xurujlari) kuzatilsa: unda antigistamin va bronxospazmalitik dori-darmonlar tayinlaradi.

Noinfektion allergenlar bilan o‘tkazilgan skarifikatsion va teri orasi sinamalarini baxolash

Reaksiya	Reaksiyaning namoyon bo‘lishi	Skarifikatsion sinamalar.	Teri orasi sinamalari.
Manfiy	-	O‘lchamlari xuddi kontroldagidek.	O‘lchamlari xuddi kontroldagidek.
SHubxali	+ -	Skarifikatsiya o‘rnida pufaksiz giperimiya.	Pufak kontroldagiga nisbatan sekin so‘riladi.
Kuchsiz musbat	+	Faqat teri tortilganda ma’lum bo‘ladigan 2-3mm diametrli pufak.	Giperim bilan o‘ralgan 4-8mm diametrli pufak.
O‘rta darajali musbat	++	Giperimiya bilan o‘ralgan diametri 5mm dan oshmaydigan pufak.	Giperimiya bilan o‘ralgan 8-15 mm pufak.
Keskin musbat	+++	d- 10mm dan oshmaydigan giperimiyaligi va yolg‘on pufak.	d-15-20mm yolg‘on giperimiya bilan o‘ralgan pufak.
Juda keskin musbat	++++	YOlg‘on va giperimiyaligi pufak diametri 10mm ziyod.	Linfangit periferiyasida qo‘sishimcha pufakchalar va erkin giperimiyaligi pufak.

Infektion allergenlar bilan o‘tkazilgan teri orasi sinamalarini baxolash

Reaksiya.	Reaksiyaning namoyon bo‘lishi	Tez yuzaga chiqadigan turi.	Sekin yuzaga chiqadigan turi.
------------------	--------------------------------------	------------------------------------	--------------------------------------

Manfiy	-	O‘lchamlari xuddi kontroldagidek.	O‘lchamlari xuddi kontroldagidek.
SHubxali	+ -	Pufak kontroldagiga nisbatan sekin so‘riladi.	Infiltratsiz, kuchsiz giperemiya.
Kuchsiz musbat	+	Atrofi giperimiyalashgan 4-8 diametrli pufak.	Kuchsiz giperimiya va diametri 5mm gacha bo‘lgan infiltrat.
O‘rta darajali musbat.	++	Diametri 8-15mm li giperimiyalashgan pufak.	Giperimiya bilan o‘ralgan 8-15 mm pufak.
Keskin musbat	+++	d- 20mm dan oshmaydigan giperimiiali va yolg‘on pufak.	d – 10-20 mm infiltrat va eritema.
Juda keskin musbat	++++	YOlg‘on va giperimiiali pufak diametri 20mm ziyod.	Eritema va d-20mm li vezikula, markazi nekrozlashgan infiltrat.

Pikfulomutriya usuli (spirometriya)

Kunlik pikfulomutriya kasallik kechishini baxolash, qo‘zg‘alish rivojlanishini oldini olish, shoshilinch va bazis terapiya effektivligini baxolash uchun qo‘llaniladi.

Bunda bolaning trigerlari bilan spetsifik va nospetsifik kontaktini fiksatsiya qiladigan xolatlar, dori preparatlarini qabul qilish, ko‘rsatkichlar grafigini kundaligiga xar kun yozib boradi.

Ekspirator oqimning cho‘qqi normal ko‘rsatkichlari (pikfulometr ko‘rsatkichlari) bolaning yoshi va jismoniy rivojlanishiga bog‘liq. 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda pikfulometriya o‘tkazish mumukin emas, ularda og‘irlik darajasini aniqlash uchun anamnestik va klinik belgilardan foydalanamiz.

Pikfulometriya bo‘yicha sutkalik bronxlar labilligini aniqlash zarur. Bu ko‘rsatkichning 20% dan ziyod bo‘lishi bolaning dekampsatsiya xolatini ko‘rsatadi.

Bo‘y uzunligiga bog‘liq xolda, nafas chikarish maksimal tezligining ko‘rsatkichlari. (NMT)

Bo‘y	110	120	130	140	150	160	165
NMT	150	200	250	300	350	400	450

Formula bo‘yicha sutkalik bronx labilligini aniqlash. (SBL)


TNF ertalab – TNF kechqurun

SBL = ----- x 100

0.5 (TNF ertalab + TNF kechqurun)

TNF – tashqi nafas funksiyasi.

Bronxial astmada yana bir tekshirishlardan biri – **ko'krak qafasi obzor rengenografiyası** yordam beradi, o'pka emfizemasi belgilarini ko'rishimiz mumkin.



Длина тела	109	112	114	117	119	122	124	127	130	132	135	137
PEF	147	160	173	187	200	214	227	240	250	267	280	293
Длина тела	140	142	145	147	150	152	155	158	160	163	165	167
PEF	300	320	334	347	350	373	387	400	400	427	450	464

DIFFERENTIAL DIAGNOSTIKASI

Bolalarda bronxial astmani aniqlashda nafas olish organlarining o'tkir va surunkali kasalliklari bilan differensial diagnostika o'tkazish kerak.

Obstruktiv bronxit

1. Respirator viruslar chaqirib, 2-3 ga borib rivojlanadi.
2. Quruq yo'tal, 2-xaftadan boshlab xo'l yo'talga aylanadi va balg'am ajrala boshlaydi.
3. Obstruksiyaning oshishi bilan ekspirator xansirash, ko'krak qafasining shishishi, perkussiyada qutichisimon tovush, auskultatsiyada dag'al nafas fonida boshida quruq, keyinroq o'rta va mayda pufakli nam xirillashlar eshitiladi.
4. Virusga qarshi kompleks terapiya, mukolitik va bronxospazmalitiklar ingalyasiyalari obstruktiv bronxitni tuzalishiga olib keladi.

Bronxopnevmoniya

1. O'tkir respirator kasalliklar bilan og'igan erta yoshdagi bolalarda 3-5 kuni yoki 1—xaftaning oxirida rivojlanadi.
2. Tana xaroratining 38* va undan ortiq bo'lishi, toksikoz belgilarining va xansirashning oshib borishi.
3. O'pkadagi fizikal o'zgarishlar – turli kalibrli nam xirillashlar va krepitatsiya aniqlanadi.
4. Ko'krak qafasi obzor rentgenografiyasida infiltrat xisobiga o'pka maydonining oqarishi kuzatiladi.

5. Periferik qonda: leykotsitoz, leyko formula chapga siljigan, (neytrophil granulotsitlarga), ECHT oshgan.
6. Balg‘am tekshirganda pnevmoniya qo‘zg‘atuvchisi topiladi.
7. Bolalarda umumi intaksikatsiya va meningial belgilarning ustunligida kechadi.

Yolg‘on krup

1. Nafas olish qiyinlashgan va xansirash aralash tipda.
2. Bemorda akkilovchi yo‘tal kuzatiladi.
3. To‘g‘ri laringoskopiya diagnozni oydinlashtiridi, bunda ovoz boylamlari ostida shilliq qavatning shishishi va giperimiyasi xisobiga qizil bo‘rtmalar aniqlanadi.
4. Auskultatsiyada o‘pkalarda xushtaksimon nafas.

Bronxial astma xuruji va asfiksiya sindromi

Klinik va paraklinik belgilari	Bronxial astma xuruji	Asfiksik sindrom
Boshlanishi	To‘satdan yoki yuqori nrafas yo‘llarining katari fonida	Asta-sekinlik bilan astmatik xolat fonida
Umumiy axvoli	Og‘ir yoki o‘rta og‘ir	Juda og‘ir
Xushi	Odatda saqlangan	Ayrim xollarda yo‘qolgan
Teri rangi	Atsidoz o‘rtacha daraja	Keskin yuzaga chiqqan
Xansirash	Ekspirator tipda o‘rtacha rivojlangan	Inspirator tipda keskin rivojlangan, nafas olishi yuzaki tezlashgan
Yo‘tal	Quruq va azoblovchi	Yo‘q
O‘pkadagi fizikal o‘zgarishlar	Nafas chiqarishdagi quruq xushtaksimon xirillashlar	Keskin susaygan nafas, xirillashlar eshitilmaydi
Taxikardiya	YAqqol rivojlangan	Keskin rivojlangan
YUrak tonlari bo‘g‘iqligi	O‘rtacha rivojlangan	Keskin rivojlanagn
Jigarning kattalashuvi va bo‘yin venalarining shishishi	Ayrim xolatlarda kuzatiladi	Xamma vaqt kuzatiladi
Qonning gazlari va kislota-asos xolati	Aralash xarakterda-gi o‘rtacha rivojlan-gan atsidoz	Aralash xarakterda-gi keskin rivojlangan, dekompensatsiyalashgan atsidoz, giperkapniya.
Qon plazmasida OKS lar miqdori	Normada yoki oshgan	Keskin pasaygan

O‘paning rivojlanib boruvchi diffuz interstitsial (Xammen—Rich sindromi) va fibrozlanuvchi alveolit.

1. Autoimmun kasallik guruxiga kiradi

- Nafas olishning qiyinlashishi alveola-kapillyar membrananing qalinlashishi va bunga bog‘liq xolda qon oqimi va ventilyasiya nisbatining buzilishlari bilan bog‘liqdir.
- Rengenologik tekshirishlarda interstitsial rasm kuchayishi fonida tugunchali xosilalar aniqlanadi. Qorayishlar odatda ildizlar soxasida va pastki bo‘limlarda kuzatiladi.

Nafas yullaridagi yet jism

- To‘satdan nafas bug‘ilishi bilan boshlanadi, sog‘lom bolada.
- Infeksiya o‘chog‘i yo‘q.
- Anamnezida allergik va respirator kasalliklar bilan kasallanmagan, xamda oilaviy anamnez.
- Jismoniy rivojlanishdan orqada qolmaydi.
- To‘g‘ri laringoskopiya va ko‘krak qafasi obzor rengeno skopiyada yod jismni aniqlash mumkin.

BRONXIAL ASTMANI DAVOLASH

Davolash etapli va individual bo‘lib, bemorni xurujdan chiqarish va allergik reaksiyani pasaytirish, o‘pka funksiyasi gomeostazini tiklashga qaratilgan. Nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligini tiklash xurujning og‘irlilik darajasiga qarab o‘tkaziladi.

Gospitalizatsiyaga ko‘rsatma

- Og‘ir xuruj
- 1-2 soatdan so‘ng bronxolitik davoning effukti bo‘lmasa.
- Qo‘zish davri 1-2 xafadan uzayib kutsa.
- YOsh bolalar, uzoq rayonlarda yashovchilar va uy sharoitida birinchi yordam ko‘rsatishning iloji bo‘limganda.
- Astmatik status.

Xurujni bartaraf etish uchun qisqa muddatli ta’sir qiluvchi **V-adrenomimetiklar** qo‘llaniladi. Ular

- Barcha bronx silliq mushaklarini bo‘shashtiradi.
- Mukotsiliar klirensni aktivlaydi.
- semiz xujayralarning sikretor funksiyasini pasaytiradi.
- Bronx shilliq qavati shishishini bartaraf etadi.
- Ularning ta’siri 4-5 min dan so‘ng boshlanib, max 1-2 soat davom etadi.
- Nojo‘ya ta’siri: mushaklar tremori, bosh og‘rig‘i, yurak ritmining buzulishi, gipokaliemiya.

Qisqa muddatli ta’sir etuvchi adrenomimetiklar

Preparat	Retseptor	CHiqarilish va qilish dozasi
----------	-----------	------------------------------

Adrenalin	α, β	0.1%-1ml. 0.01ml/kg m/o; t/o.(0.5 ml dan ko‘p emas) Tab:2 va4 mg, sirop 2 mg—5ml 1 kurda x 3-4 marta; ingalyasiya uchun 0.125%--2.5ml.
Salbutamol (ventolin)	$\beta 2$	Aerozol 0.1mg/doza 1-2 doza x 3-4 kun Tab:2.5—5mg. Eritma 0.5% 0.1—0.3 ml m/o
Terbutalin (brikanil)	$\beta 2$	Ingalyasiya uchun 0.5-1ml izatonik eritma bilan 1kunda x 3-4 marta, nebulayzerda. Aerozol 0.25/doza. 2-3 dozadan 1 kunda 3-4 marta. Aerozol 100 yoki 200 mkg/doza
Fenoterol (Berotek)	$\beta 2$	Ingalyasiya uchun 1mg/ml feroterol: 6 yoshga-cha 50mkg/kg (10 tomchi =0.5ml); 6-14 yosh to 1ml gacha (20 tomchi) 1 kunda x 3-4 marta. Tab: K—0.002,0.003,0.01gr; B—0.025gr Amp: 2%.3%--1ml. t/o.m/o.v/i—tomchilab.
Efedrin	$\beta 2$	Tarkibida: (efedrin 0.05gr, atropin sul-fat 0.02gr, novokain 0.04gr, etil spirti 5-10 ml). Aerozol 0.1/doza. Ingalyasiya uchun xam qo‘llaniladi.
Efatin		

M-xolinoretseptorlarni bloklovchilar:

Ipratropium—bromid (atrovent) aerozol 20mkg/doza. Ingalyasiya uchun 0.25mg 0.9% NaCl da.

Kombinatsiyalashgan preparat: *Berodual* 1 dozasida (fenoterol 50mkg va atrovent 20mkg) – bu aerozol uchun.

Ingalyasiya uchun 1 ml da (fenoterol 500 mkg va atrovent 250 mkg)

Metilksantinlar.

Ularning bronxolitik effektivligining bog‘liqligi:

1. Fosfodiesteraza miqdorini kamaytiradi.
2. adenozin retseptorlarini bloklaydi.
3. Xujayra ichidagi kalsiy konsentratsiyasini pasaytiradi.
4. Diafragma qisqarishini yaxshilaydi.
5. Qon –tomirlar qarshiligini pasaytiradi.

Eufillin tab:0.15gr—30ta. 7—10 mg/kg. Amp 24%--1ml m/o; 2.4%--5,10ml v/i. 2-3mg/kg. v/i ga 0.9% NaCl bilan aralashtirib sekinlik bilan yuboriladi. Nojo‘ya ta’sirlarini inobatga olish kerak.

Teofil 100,200,300 mg kapsula bolalarga 100—200mg/sut. Kattalarga 200—300mg/sut. 1 kunda x 2 marta.

Glyukokortikosteroidlar.

Prednizalon tab: 1 va 5mg dan chiqariladi 2mg/kg beriladi.

Gidrokortizon atsetat 2.5 %--1, 2 va 5ml amp chiqariladi. v/i.

Deksametazon tab: 0.5mg amp 0.4%--1ml. 0.8—1mg/kg

Beklazon EKO 200mg/doza (tarkibida glyukokortikosteroid bor)

Triamsinalon

Antigistamin preparatlar.

Diazolin tab: 0.1gr

Suprastin tab: 25mg amp 2%--2ml

Loratadin tab:10 mg sirop 0.1%-100ml 1 choy qoshiqdan 1 marta kuniga.

Bronxial astmaning og‘ir xolatlarida va astmatik statusda 90-95% xolatlarda oksigenoterapiya o‘tkaziladi.

1. Dezintoksikatsion terapiya
2. Glyukokortikosteroидлар
3. Adrenomimetiklar

Bronxial astmaning og‘ir xolatlarida va astmatik statusda qo‘llash mumkin bo‘lmagan preparatlar:

1. Diuretiklar sab: degidratatsiyani og‘irlashtiradi.
2. Vitaminlar, CaCl, kokarbaksilaza, ATF sab:allergik reaksiya rivojlanadi.
3. Narkotiklar va Sedativ vositalar sab: nafas va yo‘tal markazi-ni so‘ndiradi. Zarur bo‘lganda neyroleptik (galoperidol) qilinadi
4. Antixolinergik preparatlar (atropin, metatsin)
5. Mukolitiklar
6. N1 gistamino blakatorlar 1-qatori

Bronxial astmada bazis terapiya

1. Allergenning organizmga tushishini yo‘qotish
2. Bronxial astmaning avj olishiga sabab bo‘luvchi fon kasallikni davolash
3. Allergospetsifik terapiya
4. Xalq orasida bronxial astmaning profilaktikasini olib borish
5. Uydagi xayvonlarni yo‘qotish
6. Jismoniy zo‘riqishning oldini olish
7. Sanator—kurortlarda va toza xavolarda dam olish

Medikamentoz

Kroglikat natriy (intal, kromalin) 20 mg kapsula. Spinxaler yordamida 1 kapsuladan x 4 marta ingalyasiya qilinadi.

Intal plus kombinirlangan preparat. 5mg/doza 2 dozadan 4 marta kuniga speyser yordamida ingalyasiya.

Ketotifen 0.02% 100ml sirop. 0.025 mg/kg

Beklometazon XFU 100—200mg/doza aerozol

Budesonid DPI 100—200mg/kg aerozol

Teofil 100,200,300 mg kapsula bolalarga 100—200mg/sut. Kattalarga 200—300mg/sut. 1 kunda x 2 marta.

DISPANSERIZATSIYA VA REABILITATSIYA

Bronxial astma bilan og‘rigan bemorlar pulmonolog va allergologning dispanser kuzatuvida bo‘lishlari shart. Bu bemorlar xurj oralig‘idagi davrda maxalla pediatri tomonidan, kasallikning og‘ir formasida oyiga 1-2 marta, o‘rtalig‘irligida kvartalda 1 marta, engil formada va uzoq muddatli xurujlar oralig‘idagi davrda yiliga 1—2 marta pulmorolog, allergolok, lor va kerak bo‘lganda boshqa mutaxasislar ko‘rikdan o‘tkazadilar.

Bulardan tashqari labarator, irstrumental va allergik sinamalarni yilida 1-2 marta o‘tkazib turishi kerak. Sanitar—Kurortlarda va tog‘ bag‘rilarida dam olishda bo‘lishi kerak.

Olingen ma’lumotlar asosida reabilitatsiyaning individual rujasi tuziladi. Etapli davolashda bolaning funksial imkoniyatlariga adekvat ravishda tuzilgan differensiallashgan tartibli maxsus sanatoriylar muxim o‘rin tutadi. Sanator-kurort davolashga bronxial astmaning engil va o‘rtalig‘ir formalari bilan og‘rigan bemorlar remissiya davrida yuborilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Jizzax viloyati Zomin tumanidagi «Urikli», Farg‘ona viloyatidagi «SHoximardon» tog‘ iqlimli kurortlarini tavsiya etish mumkin.

Agar umumiyligi axvoli qoniqarli, nafas sistemasi, boshqa organ va sistemalar tomonidan o‘zgarishlar bo‘lmasa, 3—yil davomida xurujlar kuzatilmasa, bemorlar dispanser xisobidan chiqariladi, lekin keyinchalik xavf guruxidagi bolalar sifatida kuzatiladi.

BRONXIAL ASTMANING PROFILAKTIKASI

Ayniqla irligi moilligi bor bolalarda antinatal va postnatal davrlarda organizm sensibilizatsiyasini to‘xtatish. Antinatal profilaktikaga xomilador ayolning ratsianal ovqatlanishi kiradi, posnatal davrda xam sut orqali bolaga o‘tishi mumkinligi sababli allergen oziq—moddalarini cheklash birinchi navbatda turadi. YUqori xavf guruxidagi bolalarda ovqat ratsionidagi sigir sutini soyali sutga almashtirish kerak. Respirator allergozlarning profilaktikasida, xavoni chang va ximyaviy, o‘simpliklar, xayvonlar allergenlari bilan ifloslanishiga qarshi kurashish, bolaga sintetik kiyimlarni cheklash muxim xisoblanali. Bronxial astmasi bor bolalarda emlashlar juda extiyotkorlik bilan, xurujdan keyingi davrda maxsus tayyorgarlik desensibilizatsiyasidan so‘ng o‘tkazilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. S.A. Sumin. Neotlojye sostoyaniya. Moskva 2004g 103 st
2. Bolshaya meditsinskaya ensiklopediya. Moskva 2006g 164 st.
3. Jurnal Medical express. 22 st.
4. Pediatriya N.P. Shabalov. Sankt-Peterburg 2007 g. 467 st.
5. RLS Doktor. Moskva 2007g 185 st

ATOPIK DERMATIT

ATOPIK DERMATIT (AD) yoki atopik ekzema –bu terining surunkali yallig’lanishi bo’lib, odatda erta yosh (1-3 yosh) bolalarda boshlanadi, davomli kechishi va etuk yoshda qaytalanishi mumkin. Aksariyat hollarda AD irligi moyilligi bor va boshqa allergik kasalligi (bronxial astma (BA), allergik rinit (AR), taomga allergiya (TA) bor bemorlarda rivojlanadi. Terining qaytalanuvchi infekciyalari bilan uchraydi.

AD terining turli allergen va ta’sirlarga sezgirlingi oqibatida kuchli qichishi bilan xarakterlanadi.

EPIDIMIOLOGIYASI

Rivojlangan davlatlarda AD 10-20% uchraydi. AD belgilaringin yaqqol manifestaciysi 60% hollarda 6 oylik bolalarda, 75% -1 yoshgacha bolalarda, 80-90%- 7 yoshgacha bolalarda aniqlanadi.

XX asrda AD bilan pollinoz va BA ning bog’liqligi aniqlandi va “atipik triada” deb nomlandi.

AD bolalarda eng ko’p uchraydigan kasallik hisoblanadi. Evropa davlatlarida AD bolalar orasida 30% va barcha allergic kasalliklarning 50% ni tashkil qiladi.

Dunyoda teri kasallikarining strukturasida AD 8-o'rinda turadi.

Atopiya va allergiya bu ikki turli holat. Insonda allergiya bir umrlik boladi va aniq bir yoki bir necha turli allergenlarga (hattoki juda kam dozada) kuzatiladi.

Atopiya juda ko'p allergenlarga kuzatiladi. Vaqt o'tishi bilan atopiya chaqirgan omillar o'zgarishi mumkin, allergenning dozasiga ko'ra immune reakciya ham o'zgaradi (allergenni kichik dozalarida atopiya umuman rivojlanmasligi mumkin). Odatda ota-onalar bolasida "hamma narsa"ga allergiyasi borligini aytadi.

Bolalarda AD rivojlanishining xavfli omillari va sabablari

AD rivojlanishida endogen omillarning ahamiyati bor (irsiy sezgirlik). *Atopiya*- grek so'zidan olingen bo'lib, -ἀ-τόπος – *notabiiy*, *nojo'ya-* ma'nosini boldiradi,- terining giperreaktivligi, terida funkcional va bioximik jarayonlarning buzilishi bilan kechadi. Bu jarayon allergen va noallergen ekzogen omillar (ruhiy emocional zo'riqish, tamaki tutuni) bilan uyg'unlikda kechib AD ni klinik ko'rinishi rivojlanishiga sabab bo'ladi. AD asosida multifaktorial poligen turdag'i nasilga berilishi, allergenlarga immun javobning genetik xususiyati xos.

Atopiklarning immun javobining xos belgilari: Th2-xelper limfocitlarning oshishi, umumiy Ig E ni giperprodukciyasi va specifik IgE antitanachalarning ko'payishi. Terining giperreaktivligiga moyillik- atopik kasallikning AD ko'rinishida shakllanishini aniqlaydigan asosiy omil.

1. Atopiya rivojlanishida ayrim genlarning o'rni bor. Ota-onalarning birida allergik kasallik bor bo'lsa bolada atopiya xavfi 50-55%, agar ota-onanig har ikkisi ham allergik bo'lsa -80-85%. Barcha atopiya bo'lgan bolalarni ota-onasi, yoki buvisi, bobosida aniqlangan. Bu nafaqat AD, balki BA, ekzema, eshak emi, AR va boshqalar bo'lishi mumkin.
2. Noqulay ekologik vaziyat. Allergik kasalliklarning ko'payishi ctivilizaciyaning jadal rivojlanishi bilan bog'liq: suv va havoning ifloslanishi, iste'mol mahsulotlarida sintetik, genetik modifikasiya qilingan va boshqa zararli qo'shimchalarni qo'llash, ksenibiotiklar, o'g'itlarni qo'shish.
3. Homiladorlik va emizish davrida onaning noto'g'ri ovqatlanishi, homiladorlik davri kasalliklari, bo'lajak onaning zararli odatlari
4. Bolalarni sun'iy (sun'iy sut mahsulotlari bilan) ovqatlanish.
5. Tez-tez virusli kasalliklar va surunkali infekcion kasalliklar allergenlar va infekciyalarga sezgirlik (sensibilizaciya)ni oshiradi. Kasallikni avj olish davrida immunitetga ta'sir etadigan dori vositalarini noadekvat qo'llash ham allergik jarayonni rivojlantiradi.

6. Tanqis holatlar- B guruhidagi vitaminlar, vitamin A, mikroelementlar (ayniqsa, ctink), to'yinmagan yog'lar va aminokislotalar etishmovchiligi ham AD rivojlanishiga sabab bo'ladi.
7. Bolalarda hazm tizimining etuk emasligi yoki hazm tizimi kasalliklari (disbakteioz, hazm tizimi anomaliyasi, fermentlar tanqisligi, jigar kasalliklari) tufayli taom tarkibidagi ayrim mahsulotlar (oqsillar) hazm bo'lmaydi va organizmdan chiqarilmaydi, natijada allergenlarga aylanadi.
8. AD rivojlanishida gjjalarni ham o'rni bor. Bola organizmida hazm tizimini jarohatlantirib toksinlari immun jarayonni qo'zg'alishiga sabab bo'ladi.
9. AD rivojlanishida bolani meyordan ortiqcha ovqatlantirishni ham o'rni bor. Bola iste'mol qiladigan ortiqcha oqsil (sutda oqsil ko'p)ni parchalash uchun fermentlar etishmaydi. "Ortiqcha ovqat" ning parchalangan mahsulotlari toksinga aylanadi va atopic jarayonni shakllantiradi. Aynan oqsilni ortiqchasi ko'pincha AD chaqiradi, oqsilni o'zi emas.
10. AD rivojlanishida tuz va shirinliklarning ko'p miqdorda iste'mol qilinishi ham sabab bo'lishi mumkin, chunki shirinliklar ichaklarda bijg'ish jarayonini kuchaytiradi va oqsillarni so'riliishi pasayadi. Tuz esa allergenlarni so'rilihini kuchaytiradi.
11. Vegetativ asab tizimining xususiyatlari ham bolalarda AD rivojlanishida ta'sir etadi. Emocional labilbemorlarda AD ko'p aniqlangan.
12. Stress holati ham atopiyani shakllanishida o'rni bor. Stressda nafaqat asab balki immun va boshqa tizimlarning ham faoliyatini buziladi.

Bolalarda AD sabablari:

- Sigir sutining oqsili
- tuxum
- baliq va dengiz mahsulotlari
- Bug'doy uni
- Dukaklilar: fasol, no'xat, soya, kaka ova boshq.
- Ayrim mevalar: shaftoli, abrikos, citruslar va boshq.
- Sabzavotlar: sabzi, lavlagi, pomidor va boshq.
- Qulupnay, malina, smorodina.
- Asal mahsulotlari: asal, propolis, asal ari changi
- Shirinliklar
- Go'sht: tovuq, o'rdak, mol

- tuz , shirinliklar va ziravorlarning ko’p miqdorda iste’mol qilinishi ham allergiyaga sabab bo’lishi mumkin
- Antibiotiklar penicillin qatori (amoksiklav, augmentin, bicillin) va tetraciklin qatori (tetraciklin, doksiciklin).
- Aspirin

AD rivojlanishida ijtimoiy , ximiyaviy, ishlab chiqarish, hayvonlar va dorilarni allergenlari sabab bo’lishi ham mumkin. Ammo aksariyat hollarda bolalar orasida taomga allergiya ko’proq uchraydi.

Terini sezgirligini oshishida infekciyalarni ahamiyati katta, ayniqsa zamburug’lar, stafilokokklar, streptokokklar. AD da pathogen floralar tushishi mumkin, bu esa teridagi alomatlarni kuchaytiradi.

KLASSIFIKACIYASI

I. Rivojlanish davriga ko’ra:

- Boshlang’ich davri
- Yaqqol o’zgarishlar davri:

O’tkir kechishi
Surunkali kechishi
O’tkir osti kechishi

- Remissiya davri:

To’liq remissiya
Qisman remissiya

- Klinik sog’ayish davri

II. Yoshga ko’ra klinik shakllari:

- Go’daklik (1 oylikdan 2 yoshgacha);
- Bolalik (2-12 yosh);
- O’smirlik (12 yoshdan katta);

III. Og’irlilik darajasiga ko’ra

- Engil
- O’rta og’ir
- Og’ir

IV. Klinik-etiologik shakllariga ko’ra:

- Allrgiya ustunligi bilan:
 - Taomga
 - Kanali
 - zamburuqli
 - changchali va boshq.

- Ikkilamchi inficirlanish bilan.

V. Asoratiga ko'ra:

- Piodermiya
- Virusli infekciya
- Zamburuqli shikastlanish

PATOGENEZI

AD ning asosida surunkali allergik yallig'lanish mavjud. AD ni patogenezi polifaktorli bo'lib immun buzilishlarni o'rni muhim. Asosiy immunopatologik mexanizm bu Th1/Th2 ning Th2 tomoniga siljishi oqibatida yallig'lanishga moyil citokinlarning sintezi oshadi, specifik IgE –antitanachalar sintezi oshadi. Dastavval jarayon semiz hujayralar yuzasida allergenlarning maxsus antitanachalar (reaginlar) bilan to'qnashuvidan boshlanadi. Noimmun trigger omillar allergik yallig'lanish mediatorlari (gistamin, neyropeptidlar, citokinlar)ni chiqarilishini kuchaytiradi.

AD da terini surunkali yallig'lanishini ta'minlanishida zamburuqli va kokkli teri infekciyasining, hamda bakterial va zamburuqli hujayralarning qismlariga allergik jarayonning ahamiyati bor.

AD KLINIK BELGILARI

AD ni klinik belgilari terida eritema, qichish, teri quruq, terida qashish izlari , polimorf toshmalar bemorning yuzida, oyoq qo'llarining tashqi tomonida, katta bo'g'implarning ustida, ba'zan, terini ikkilamchi bakterial yoki zamburug'li yallig'lanishi belgilari bilan namoyon bo'ladi. AD ning nospecifik simptomlari – bu oq dermografizm, “geografik til” va boshq.

AD DIAGNOSTIKASI UCHUN MEZONLAR

Katta (shartli) diagnostik mezonlar

- Prurigo (qichish) terida hattoki minimal namoyon bo'lishida ham
- Odatdag'i (tipik) morfologiya va joylashuvi (lokalizaciya) (yuzi, bo'yin, qo'ltiq osti, bilak chuqurchasi va tizzalar orti, chov sohasi, boshning soch qismi, qulqoq jumjiloqlarini ortida va boshq.)
- Atopik kasallikning oilaviy yoki individual tarixi
- Surunkali qaytalanib kechishi

Kichik (qo'shimcha) diagnostik mezonlar

- Umumiy va specific IG E-antitanachalarni miqdorining oshishi
- Kasallikning ilk bolalik davrida boshlanishi (2-yoshgacha)
- Qol va tovon kaftlarining chiziqlari ko'pligi (burmalari ko'p, giperliniyali)
- Pityriasis alba (bemorning yuzida tericining oqish dog'lari, elkasida oqish dog'larning borligi)
- Follikulyar giperkeratoz («shoxli» papulalar elkalar, bilaklarning yon yuzasida)
- Terining shilinishi (qipiqlanishi), kseroz,ixtioz
- Qo'l va oyoqlarda nospecifik dermatitlar
- Terining tez-tez yuqumli shikastlanishi (stafilokokkli, zamburug'li, gerpesli)
- Oq dermografizm
- Terlaganda qichishishni ko'payishi.
- Bo'yinning oldingi yuzasida qatlam (burmalar)lar
- Ko'zlarni atrifida to'q aylanma dog'lar (allergik jilo)
- Vannada cho'milganda teri qipiqlanishi, qizarishi va qichishi (2 yoshgacha bolalarda kuzatiladi).

Diagnoz qo'yishda ushbu mezonlardan 3 ta katta va 3 tadan kam bo'lмаган kichik mezonlari ni birgalikda aniqlangan tartibda tasdiqlash zarur.

ATOPIK DERMATITNI DAVOLASH USULLARI

AD ni davolashda kompleks yondashuv zarur. Eng avvalo taomnomadan va ijtimiy hayotdan allergenlarni chiqarish (eliminaciysi) zarur. Davo usullari quyidagicha: teini mahalliy davosi va umumiy (tizimli) davo navsiya qilinadi.

1. AD da parhez tavsiya qilinadi. Parhezning qoidalari:

- anamnez va allerosinama asosida ehtimoliy allergiya chaqirgan ovqat mahsulotini man etish;
- potencial allergen saqlagan ovqat mahsulotlari (qulupnay, citruslar, shokolad, dengiz mahsulotlari, asal, dukkaklilar) ni man etish;
- qovurilgan, yog'li, achchiq, sho'r, go'sht va baliq sho'rvalarini man etish;
- ovqat racionida tuz va shakarni kamaytirish;
- faqat tozalangan suvni ichish;
- ovqat racioniga ehtiyyotlik bilan asta sekin qo'shimcha ovqatni kiritish.

Go'dak bolalar uchun ko'krak suti asosiy ozuqa hisoblanadi. Kasallikni kechishi onaning ovqatlanishiga bog'liq. Emizikli onalar go'dakning ovqat mahsulotlariga individual bardoshini inobatga olgan holda gipoallergen parhezga rioya qilishi kerak. Buning uchun on ava bola qabul qiladigan ovqat va dori mahsulotlarini tarkibini va teridagi toshmalar hamda najasning o'zgarishi holatlarini yozib boorish zarur. Ushbu kuzatuv asosida ovqat mahsulotlari tanlanadi.

Aksariyat hollarda turli sabablarga ko'ra ko'krak suti bilan boqishni imkoniyati yo'q va bolalarni ovqatlantirishda sut aralashmalar qo'llaniladi. Allergiyaga moyilligi bo'lgan bolalar uchun gidrolizlangan oqsil asosida tayyorlangan gipoallergen aralashmalar qo'llaniladi. Aralashmani almastirish go'daklar hayotining eng og'ir davri hisoblanadi, chunki bola yangi ovqatga moslashishi kerak, ta'mi o'zzgaradi, aralashmani hazm qilishi tezligi o'zgaradi.

Og'ir hollarda shifokorlar oqsilning mayda qismlari- aminokislotalardan tarkib topgan aralashmalar tavsiya qilishadi.

Eng ko'p qo'llaniladigan laktozasiz aralashmalar yordam bermaydi, chunki laktoza-uglevod, allergiya oqsilga shakllanadi.

Eliminacion parhez- 3 oydan 1 yilgacha muddatda tavsiya qilinadi.

2. Teriga parvarish qilish.

Atopik dermatitga chalingan bolaning terisi quruqlikka moyil, shuning uchun terini har kuni va uzlusiz namlab turish kerak. Bu bemrlarga vannada uzoq turish mumkin emas va ishqorli sovunlarni ishlatish man etiladi. Buning uchun quruq va allergiyaga moyil teri uchun maxsus ishlangan vositalar qo'llaniladi.

Kasallik avj olish davrida teri uchun tashqi dori vositalari- kremlar, malhamlar, emulssiyalar tavsiya qilinadi. Ushbu dori vositalari tarkibida cink, gormonlar, nosteroid yallag'lanishga qarshi dorilar kiradi. Bu dorilarni shifokorning qattiq nazoratida qo'llaniladi.

3. Oshqozon ichak tizimi faoliyatini qoplash.

Ichakning faoliyatini turli buzilishi barcha organ va tizimlarni noto'g'ri ishlashiga sabab bo'ladi, shu jihatdan terini ham faoliyati buziladi. Shuning uchun atopik dermatitni davolashda hazm tizimini kasalliklarini ham davolash zarur. Odatda buning uchun biopreparatlar, adsorbentlar tavsiya qilinadi.

1. Allergiyaga qarshi dorilar.

Shifokorpediatr, allergolog- immunolog terini qichishiga qaarsgi qisqa kurslarda alleriyaga qarshi dorilar tavsiya qiladi.

ATOPIK DERMATITNI DAVOLASHGA YONDASHUV

Allergen ta'sirida atopiklarni organizmida yallig'lanish jarayoni kichadi. Buni natijasida yallig'lanish o'chog'ida allergic yallig'lanishga xos hujayrali infiltrat shakllanadi. Bu hujayralar mediatorlar, citokinlar, IgE chiqaradi. Hattoki bolani atrofidafllegenlarni bartaraf qilingandaa ham yallig'lanish jarayoni davom etadi. Yallig'lanish o'z o'zini qo'llab turadi. Shu vaziyat barcha atopik dermatitli bemorlarga faol yallig'lanishga qarshi terapiyani o'tkazish zarurligini tasdiqlaaydi. Hujayrali infiltrat faol yallig'lanishga qarshi terapiyani o'tkazishda ham bir necha kunlar davomida yo'qolmaydi, shuning uchun uzoq bazis yallig'lanishga qarshi

terapiyani 2-3 oydan kam bo'limgan davrda to'liq klinik remissiyaga erishguncha davom etish shart.

Tashqi terapiya:

- Tizimli farmakoterapiya
 - Antigistamin vositalar (Alerzin, Suprastin)
 - Membranastabilizatorlar
 - Kalcinevrin ingibitori¹
 - Oshqozon ichak tizimi kasalliklarini davolash uchun vositalar
 - Immunmodulyatorlar
 - Asab tizimini faoliyatini boshqaruvchi vositalar
 - To'yinmagan yog' kislotalari saqlovchi vositalar
 - Antibiotiklar
 - Tizimli kortikosteroidlar (maxsus ko'rsatmaga ro'ra)

- Reabilitaciya

Yallig'lanishga qarshi terapiya

O'tkir davrida:

-Antigistamin dorilar 2-avlodi (qo'shimcha antimediator va membranastabilizatorlar bilan): Masalan, Loratadin- 4-6 haftaga (ayrim hollarda ushbu dorilarni tarkibiga kasallikni qo'zg'alishi mumkin).

-kechqurungi soatda antigistamin dorilar 1-avlodi (zaruratda sedativ effekti uchun)-4-6 hafta davomida navsiya qilinadi(ayrim hollarda ushbu dorilarni tarkibiga kasallikni qo'zg'alishi mumkin).

-mahalliy davo uchun terida ekssudaciya bor bo'lsa nam qatlam (eman po'stlog'I damlamasi, 1%li tannin eritmasi, rivanol 1:1000 eritmasi va boshq.), bo'yoqlar (Fukorcin, Kastellan suyuqligi, 1-2% ko'k metilen eritmasi) qo'llaniladi.

-mahalliy glukokortikosteroidlar (Mometazon kreml, los'oni)-3-7 kunga va tashqi nogormonal vositalar (Reglisam gel).

-Tizimli glukokortikosteroidlar (olib borilgan davo samarasizligida tavsiya qilinadi).

Surunkali davrda:

Antigistamin dorilar 2-avlodi-3-4 oyga (ayrim hollarda ushbu dorilarni tarkibiga kasallikni qo'zg'alishi mumkin).

-mahalliy glukokortikosteroidlar (Mometazon malhami)

-kombinaciya qilingan topik glukokortikosteroidlar Betametazon asosida, antibakterial va zamburuqga qarshi komponentlari bor, masalan: triderm (Gentamycin+ Betamethasone+ Clotrimazole, diprogent (Gentamycin+ Betamethasone), diprosalik (Betamethasone+ Salicylic acid) va boshq.

-Immunosupressiv vositalar (Takrolimus), masalan: protopik –nojo'ya ta'siri bo'lmanan gormonal vositalar.

- to'yinmagan yog' kislotalar saqlovchi vositalar.

PROFILAKTIKASI

-bolalarda atopik dermatitni profilaktikasi maqsadida homiladorlik va emizikli davrida onaning sog'lom turmush va to'g'ri ovqatlanish qoidalariga rioya qilishi kerak;

-1 yoshgacha bolalarni ko'krak suti bilan boqish afzal;

-ovqatlanish sifatli, toza, tabiiy va balansda bo'lishikerak;

-bolani ortiqcha ovqatlantirmaslik;

-1 yoshgacha bolalarga qo'shimcha ovqat mahsulotlarini to'g'ri va asta sekin berishni tashkil etish;

-yuqumli kasallikkarni profilaktikasini o'tkazish (vakcinaciya, chiniqtirish, bemorlar bilan muloqotni cheklash, umumiyyog'lomlashtirish muolajalari);

-gijja tushishini profilaktikasini o'tkazish(qo'llarni yuvish, o'yinchoqlarni yuvish); Hazm tizimi kasalliklarini o'z vaqtida aniqlash va davolash;

-maishiy turmushda bolalar uchun gipoallergen vositalar-gigiena vositalari, kosmetiklar, kir yuvish kukunlaari, idishlarni yuvish, polni artish vositalarini qo'llash;

-kiyimlari uchun ipak va tabiiy matolarni qo'llash;

-bolaning xonasida optimal sharoitni saqlash (xona harorati 22 C gacha, havoni namlab turish);

-bolani xonasida tozalikni saqlash;

-quyoshli vannalarni kam qabul qilish;

-terini quruqlashuvini profilaktikasini o'tkazish (shamol, quyosh va sovuqdan himoya qiladigan kremlarni qo'llash, terini suvsizlantiradigan sovunlarni ishlatish mumkin emas);

-Atopik dermatitning birinchi simptomlarini aniqlanganda adekvat davolash va kelgusida allergenni man etish;

-bolani meyoriy ruhiy emocional holatini saqlash;

-dori vositalarini, ayniqsa immune tizimga ta'sir qiladigan vosialarni o'zboshimchalik bilan qo'llash mumkin emas.

Amaliy mashg'ulot № 5

Amaliy mashg'ulot o'qitish texnologiyasi

Mavzu	Norevmatik karditlar. Ortirlig'an va tug'ma karditlar. Etiopatogenezi, tasnifi, klinikasi, ekstrakardial va kardial
--------------	---

belgilar.

18.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashgulot vakti – 6 soat	Talabalar soni 8 -12 tagacha
Mashgulot shakli	Mavzu buyicha bilimlarni kengaytirish va mustaxkamlash yuzasidan seminar
Mavzu rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Bolalarda norevmatik karditlar. Ortirilgan va tug‘ma karditlar. 2. Bolalarda norevmatik kardit kechish xususiyatlari 3. Norevmatik kardit kasalligining diagnostiksi. 4. Bolalarda norevmatik karditda laborator – instrumental- grafik tekshiruvlari. 5. Kardiotorakal indeks to‘g’risida tushuncha. 6. Kardiomegaliya darajalari. 7. Kon aylanish etishmovchilik darajalarini aniklash. 8. Kon aylanish etishmovchilik klinikasi. 9. Davolash rejasi va oldini olish tadbirlari.

Ukuv mashgulotining maksadi: Talabalarga bolalarda norevmatik kardit kasalligini kechish xususiyatlari, diagnostikasi, laborator – instrumental- grafik tekshiruvlari tugrisida tushuncha berish. Kardiotorakal indeks va kardiomegaliya darajalari to‘?risida tushuncha. Kon aylanish etishmovchilik darajalarini aniklash. Davolash rejasi va oldini olish tadbirlari tugrisida tushuncha berish. Tekshirish usullari. Xastalik belgilari xakida tasavvurga ega bulish.

Pedagogik vazifalar	O‘quv faoliyati natijalari
<ul style="list-style-type: none"> -Talabalarga bolalarda norevmatik kardit kasalligi tugrisida tushuncha berish. - Talabalarga bolalarda norevmatik kardit kechish xususiyatlari; etiologiyasi, patogenezi, klinikasi va davolashni urgatish -Norevmatik kardit kasalligining diagnostiksini tushuntirish. -Bolalarda norevmatik karditda laborator – instrumental- grafik tekshiruvlarini interpitatsiyasini o‘rgatish. -Kardiotorakal indeks to‘?risida ma'lumot berish. -Kardiomegaliya darajalarini 	<ul style="list-style-type: none"> -Talabalar bolalarda norevmatik kardit kasalligi tugrisida tushuncha ega bo‘lishi kerak. - Talabalarga bolalarda norevmatik kardit kechish xususiyatlari; etiologiyasi, patogenezi, klinikasi va davolashni erkin bayon etaolishi kerak. -Norevmatik kardit kasalligining diagnostiksini tushuntira bilishi kerak. -Bolalarda norevmatik karditda laborator – instrumental- grafik tekshiruvlarini interpitatsiyasini tushuntira bilishi kerak -Kardiotorakal indeksni amalda bajaraolishi kerak.

tushuntirish	-Kon aylanish etishmovchilik darajalarini aniklay olishni urgatish -Davolash rejasi va oldini olish tadbirlarini o'rgatish. - Turli yoshdagi bolalarda yurak – kon tomir tizimining uzgarishlarini baxolay olishni o'rgatish.	-Kardiomegaliya darajalarini amaliyotda ?o'ya olishi kerak -Kon aylanish etishmovchilik darajalarini aniklay olishi kerak -Davolash rejasi va oldini olish tadbirlarini bajara bilishi kerak. - Turli yoshdagi bolalarda yurak – kon tomir tizimining uzgarishlarini baxolay bilishi kerak.
Ta'lism berish usullari	Munozara, suxbat, tezkor surov, savol - javob	
Ta'lism berish shakllari	Ommaviy, kichik guruxlarda ishlash	
Ta'lism berish vositalari	O'quv qo'llanma, multimedia, video, kompyuter, proektor, plakat, flip karta, markerlar, doska, bo'r, «simulyasion xona jixozlari» va h.k.	
Ta'lism berish sharoiti	UTV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya	
Monitoring va baxolash	Ogzaki nazorat: savol – javob, mustakil ish, ma'ruza, amaliy mashgulot daftari	

18.2. Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lism beruvchi	Ta'lism oluvchi
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash va kutilayotgan natijalarini shakllantiradi 2. Amaliy mashg'ulotining taqdimot slaydlarini tayyorlaydi 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish . 4. O'quv kursini o'rganishda foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish . 5. Mavzuga oid yo'riqnomalarni tuzadi. 6. O'quv topshiriqlarni tayyorlaydi	
1.Mavzuga	1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va	Tinglaydilar,

kirish (15 daqiqa)	<p>o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p> <p>2. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.</p> <p>3. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadi da savollar beradi</p>	<p>savollarga javob beradilar.</p> <p>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar</p>
2. Asosiy bosqich. (145 daqiqa)	<p>1. Mavzuga oid tayanch so'z va iboralarni izoxlab beradi.</p> <p>2. Talabalarni 2-4 tagacha kichik guruxga bo'ladi va guruxlarda xamkorlik asosida ishlash usuli qoidalari bilan tanishtiradi. har bir gurux mavzu rejasi asosda taqdimot tayyorlashini aytadi.</p> <p>3. O'quv kursi mavzulari asosida taylorlangan varakalarni tarkatadi.</p> <p>4. Guruxlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. taqdimot materiallari mazmunan va mantikan tulik yoritilishini kuzatadi.</p> <p>5. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Guruxlarda sardorlar taqdimotini tashkillashtiradi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa , gurux sardorini to'xtatadi, savollar beradi, muxokamasini jamoaga havola etadi.</p> <p>6. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirop etgan talabalarni ragbatlantiradi va umumiylaydi.</p> <p>7 Mavzuga oid bemorlarni ko'rsatadi.</p> <p>8. Bemor kuratsiyasini taxlil qiladi.</p> <p>9. Kasallik tarixini tekshiradi</p>	<p>Tinglaydilar, asosiy jixatlarini yozib oladilar</p> <p>Kichik guruxlarga bo'linadilar.</p> <p>Topshiriklar bo'yicha ishlaydilar</p> <p>Faol qatnashadilar, taqdimot uchun materiallar tayyorlaydilar.</p> <p>Guruxdan sardor tanlashadi, uning taqdimotida xamkorlik qiladilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>tinglaydilar</p> <p>Mavzuga oid bemorlarni ko'radilar.</p> <p>Bemor kuratsiyasini taxlil kilishda ishtirop etadilar</p>
3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)	<p>1. Mavzu bo'yicha talabalar bergen savollarga javob beradi.</p> <p>2. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi.</p> <p>3.Mavzular maqsadiga erishishdagি talabalar faoliyatini taxlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi</p> <p>Mashg'ulot mavzusiga oid mustaqil ish;</p>	<p>Savollar beradilar.</p> <p>tinglaydilar</p> <p>Uyga vazifani va mustaqil ish mavzusini yozib oladilar</p>

	<p>o'zlashtirish ishi « Mitral klapan prolapsi.» –5 s</p> <p>Referat, Krossvord, Internet ma'lumotlaridan tayyorlashni topshiradi</p>	
--	---	--

NOREVMATIK KARDITLAR.

YUrak qavatlaridagi o‘zgarishlar umumiy so‘z bilan miokardit deb ifodalanadi, lekin oxirgi yillar bu termin kardit deb almashtirildi. Kardit bolalar orasida ko‘proq uchraydi, asosan og‘ir formalari. Hozirgi paytlarda norevmatik karditlarning klinikasi va diagnostikasiga qizikish juda kuchaydi. Norevmatik karditlar revmatik karditlarga nisbatan ko‘proq uchray boshladи.

Etiologiyasi. Barcha infekzion kasalliklar chaqiruvchisi qanaqa bo‘lishidan qat’iy nazar kardit asoratini chaqirish mumkin. boshqa infekzion kasalliklarga nisbatan tekshirishlarga asosan odamlar virus infeksiyasi bilan ko‘proq kasallanishadi.

Bolalar o‘rtasida respiratorli virusli kasalliklar ham ko‘p uchraydi: (gripp, paragripp, adenovirus).

Koksa virusi bilan adenovirus kasallikni surunkaliga o'tishiga olib keladi. Miokardit boshqa virusli kasalliklardan keyin ham kelib chiqishi mumkin, masalan: suvchechak, qizamiq, virusli gepatit, epidemik tepki, sitomegaliyalardan so'ng, miokarditni rivojlanishiga keltirib chiqaruvchi omillarning ahamiyati katta, ya'ni organizmda viruslar uzoq vaqt davomida o'zini ta'sirini ko'rsata olmay turadi, lekin organizmni reaktivligining pasayishi bilanoq patologik xususiyatini ko'rsata boshlaydi.

Organizmni chidamligi quyidagi faktorlardan keyin pasayishi mumkin: gipoksiya, fizik zo‘riqishlarni oshib ketishi, bundan tashqari ba’zi bir dori moddalaridan keyin, masalan rezerpin istemol qilganidan so‘ng. Rezerpin yurak muskullarida Koksaki virusini toksik ta’sir ko‘rsatishini oshiradi.

Norevmatik miokarditni rivojlanishida bakterial faktorlarni roli juda kata hisoblanadi. Bularga kiradigan streptokokk infeksiyasi va stafilakokk barcha miokarditlar ichida aloxida ahamiyatga ega.

Norematik kardit quyidagi kasallikkardan keyin ham kelib chiqishi mumkin: pnevmoniya, sepsisdan keyin, plevrit, stafilakokkli destruksiyadan keyin, siydiq yo'llaridagi infeksiya, glomerulonefrit, gepatit, xolestik va boshqa kasalliklar.

Allergik karditlar rivojlanadi: posvaksinal reaksiyadan so'ng, bronxial astma, surunkali ekzema, resperator allergozlaridan keyin. Ba'zi bolalarda quyidagi dorilarni qabul qilganda: penitsillin, streptomitsin, tetratsiklin, siulfanilamid preperati, furadonin kabi dorilar qabul qilganidan so'ng allegik kardit rivojlanishi

mumkin. SHunday qilib norevmatik karditlar polietiologik kasallik hisoblanib, etiologisiyada ko‘pincha viruslar asosiy o‘rinni egallaydi.

Patogenezi. Hozirgi vaqtida olimlar o‘z tekshirishlari natijasida norevmatik karditlarni immunopatologik holat deb tushuntirishmoqda.

Virus yurak muskul xujayrasiga kirib, ularni zararlaydi va chuqur metabolik va morfologik o‘zgarishlarga olib keladi.

Limfatsitlar bilan bog‘langan holda virus va bakteriyalarni toksinlarga limfatsitlar bilan ustida yoki yuzasiga antitela hosil bo‘ladi.. Bu esa o‘z navbatida immun kompleksini hosil bo‘lishiga va ularni qonga o‘tib aylanib yurishiga olib keladi.

Antitelalar tuqimadagi bazofillarni, leykotsitlarni, trombotsitlarni zaralaydi, xujayrada modda almashinuvini o‘zgartiradi, mukolitik va proteolitik fermentlarni aktivlantiradi.

Biologik aktiv modda gistamin, seratonin, bradikinin va prostoglandinga o‘xshagan aktiv moddalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yurakni o‘tkazuvchi sistemasiga ta’sir qiladi, yurakni qisqartiruvchi aparatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ko‘p miqdorda gistamin ishlab chiqarilishi qon tomir devorini o‘tkazuvchanligini oshiradi globulinlarni, allergenlarni antitelalarni to‘qima bo‘shlig‘iga o‘tishini va yurak muskullarini ishini va oziqlanishini buzilishiga olib keladi.

Gistaminsimon moddalarni kuproq hosil bo‘lishi kichik arteriya va kapillyarlarni kengayishiga va o‘tkazuvchanligini oshishiga, kichik arteriya va venachalarda staz hosil bo‘lishiga olib keladi.

Qon oqishining sekinlashishi natijasida, eritrotsitlarni plazmadan ajralishi mikrotromblarni hosil bo‘lishida, yurak muskulida gipoksiya rivojlanishiga olib keladi.

Mikrotsirkulyasiyani buzilishi, xujayrolararo to‘qimalarda shish bo‘lishi. Xujayrada yallig‘lanish infiltratsiyasi, qonda gistaminni oshib ketishi yurak o‘tkazuvchanligini va ritmini buzilishiga olib keladi va og‘riq sindromini kelib chiqishiga olib keladi.

Norevmatik karditni kelib chiqishida bemorning yoshi irsiy omilini axamiyati katta.

Kichik yoshdagи bolalarda miokardit og‘ir o‘tadi, surnkali kechishga moyil. Norevmatik karditni oilaviy kechishi immunetetning irsiy to‘liqsizligidan dalolat beradi. Bir oilani barcha a’zolarida bir xil immunologik reaktivlik bo‘lishi mumkin bu esa timusni xolatiga uning kompleks reaksiyasiga bogliq.

Tasnifi:

N.A. Belokon o‘zining ko‘p yillik ilmiy tadqiqot tekshirishlari natijasiga asoslanib 1984 yilda NK ning tasnifini ishlab chiqdi va ushbu tasnif Kardiologlar anjumanida qabul qilindi.

1. Kasallikning kelib chiqish davriga qarab:

- Tug‘ma: erta, kechki
- Orttirilgan

2. Etiologik omillari bo‘yicha:

- Virusli
- Bakteriyali
- Virus-bakteriyali
- Parazitli
- Zambrug‘li
- Iersiniozli
- Allergik
- Idiopatik

3. SHakli bo‘yicha (jarayonning qaerda joylashishiga qarab):

- Kardit
- YUrak o‘tkazuvchi tizimining zararlanishi

4. Kechishiga ko‘ra

- O‘tkir – 3 oygacha
- CHo‘zilgan – 18 oygacha
- Surunkali – 18 oydan ko‘p (retsidivlanuvchi, birlamchi surunkali: dimlangan, gipertrofik, destriktiv variantlari.)

5. Og‘irligi bo‘yicha:

- Engel
- O‘ta og‘ir
- Og‘ir

6. YUrak etishmovchiligining shakli va darajasi:

- CHap qorincha etishmovchiligi I, II A, II B, III darajalar
- O‘ng qorincha etishmovchiligi I, II A, II B, III darajalar
- Total etishmovchilik

7. Oqibati va asorati:

- Kardioskleroz
- Miokard gipertrofiyasi
- YUrak ritmi va o‘tkazuvchanligining buzilishi
- O‘pka gipertenziyasi
- Klapan apparatining zararlanishi
- Konstriktiv mioperikardit
- Tromboembolik sindrom

Har qanday kasallikning tasnifida ko‘rsatilgandek NK ning tasnifida uning kechishi aniq ko‘rsatilgan.

NK ning o'tkir kechishi kasallikning avj olishi bilan boshlanishi, yurak-qon tomirlar etishmovchiligi va nisbatan o'tkazilgan muolajalarning tezda effekt-foyda berishi bilan ifodalanadi.

NK cho'ziluvchan kechishi ayrim holatda kasallikning tez boshlanishi, ammo sog'ayishning 18 oygacha cho'zilishi, boshqa holatda kasallik ancha yumshoq boshlanib va sekin-asta rivojlanish yoki birlamchi cho'ziluvchan kechishi bilan o'tadi.

NK ning surunkali kechishi o'tkir yoki cho'ziluvchan karditda o'tkazilgan davo muolajalarining foyda bermaganligidan, yurak mushaklarining refrakterligi kuchliligidan o'tkir yoki cho'ziluvchan karditning surunkali karditga o'tishi yoki o'tkir va cho'ziluvchan karditlar belgilari bo'lmay birlamchi surunkali karditning paydo bo'lishi ham kuzatiladi.

Klinika. CHaqaloqlarni, kichik yoshdagi bolalarni va katta yoshdagи bolalarni miokarditni klinik kechishini o'ziga xos belgilari bor.

Miokardit bola homila paytida rivojlanishi mumkin E.N. Amosova (2002) uni aniqlashda akusher anamnezini axamiyati katta. Homilador paytida onasini o'tkir infeksion kasallik bilan kasallanganligi (gripp pnevmoniya, va boshqalar).

Norevmatik karditni klinik belgisi tug'ilgan kunidan yoki sal kechroq paydo bo'ladi. YUrak - qon tomir sistemasidagi o'zgarishlar miokardni zararlanish darajasiga bogliq.

YUrak chegarasi perkutsida va rentgenda kengaygan. Bolaning aktivligi pasaygan, bezovta bo'lganda ko'karish paydo bo'ladi. Auskultatsiyada yurak tonlari susaygan ba'zilarda yurak ritmi buzilgan. EKG da yurak qorinchalar mushaklarining gipertrofiyasi, yurakni o'tkazuvchanligi buzilgan. Bolalarning ko'vida tug'ilgandan hepatomegaliya.

Bu bolalar fizik rivojlanishdan orqada qolishadi, kukrak qafasida yurak bukrisi hosil bo'ladi.

CHaqaloqlarda orttirilgan miokardit, ORVI, pnevmoniya yoki biron xil infeksiyadan keyin 1-2 xafadan so'ng paydo bo'ladi.

Karditni rivojlanishida bolani organizmi oldindan sensibilizatsiya bo'lgan bo'lishi kerak, ya'ni qaytadan infeksion kasalliklar bilan kasallangan, yoki allergik moyilligi eksudativ – kataral diatezi, giperergik reaksiyagi moyilligi bo'lishi kerak. SHuning uchun ORVI o'tkazgan bolalarda karditga o'xshash belgi paydo bo'lsa, emlashdan oldin EKG qilish kerak.

Bemor bola bezovta bo'lib qoladi, emishdan bosh tortadi emayotgan paytida bezovtalik paydo bo'ladi, quşish, terisini rangi oqargan, oyok-qo'l uchlari ko'kargan, nafas olishi tezlashgan, xansirash qorni damlaydi, ba'zan talvasa shish paydo bo'lishi mumkin.

Bu bolalarda bronxit yoki pnevmoniya tez-tez bo'lib, yoki birgalikda kechadi.

YUrakni chegarasi kengaygan, yurak tonlari susaygan, ba'zi bolalarda nozik sistolik shovqin eshitiladi, taxikardiya, ekstrasistoliya bo'lishi mumkin. Jigar kattalashishi mumkin. CHaqaloqlarda tezda o'tkir yurak etishmovchiligi klinik belgilari rivojlanadi.

Rentgenologik tekshirganda yurak pulsatsiyasini sustligi, chegarasini kengayganligi, qon tomirlar rasmining kuchayganligi kuzatiladi. SHunday qilib bolalarni chaqaloqlik davrida norevmatik karditni dekompensatsiya va aralash variantlari ko'proq uchrab turadi.

O'tkir karditning boshlang'ich davri o'zining xar xil klinik ko'rinishi bilan ajralib turadi.

Bolalar ORVI dan keyin xolsiz, sust injiq bo'lib qoladi. Tezda charchab qolishi uyquchan, ishtaxasi yuqoladi, terisining rangi oqarib qoladi.

Kasallikning asosiy belgisi birdan xansirash, ko'karish yo'tal xurujini paydo bo'lishi, bu kasallikni davom etayotganidan dalolat beradi. YUrak uchi turkisi susaygan. YUrak chegarasi kengaygan, ko'pincha chapga.

YUrak tonlari kuchli, kam hollarda bo'g'iq, II ton o'pka arteriyasida kuchaygan. O'tkir osti kechishda yurak soxasida sistolik shovqin eshitiladi, mitral klapanini etishmovchiligi bo'lishi mumkin. Hamma bemorlarda taxikardiya aniqlanadi.

EKG da sinus taxikardiyasi va qorinchalarda ekstrasistoliyasi aniqlanadi. Rentgenda yurak o'lchamlarini kengayganligi aniqlanadi.

Miokardni klinik belgilariga perikard shovqini qo'shiladi, yurak tonlari susaygan, jigar ancha kattalashgan bo'ladi. Oyoqlarda shish erta hosil bo'ladi, xansirash va o'pkada dimlanish belgilariga nisbatan yurak chegarasi kengaygan.

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda infektion – allergik miokarditni rivojlanishida virusli infeksiyalardan keyin miokardit birdan (erta) yoki bir necha xafadan keyin (kechki) erta belgilariga quyidagilar kiradi: xansirash, umumiyl holsizlik, yurak soxasida og'riq, qorin mushaklarida og'riq borligiga shikoyat qiladi, ishtaxani yo'qligi, yurak urishiga.

Katta yoshdagagi bolalarning shikoyati - yurak soxasida og'irlik, sanchib og'rish, yurak soxasida og'riq tinch xolatda paydo bo'lishi, fizik zuriqishdan keyin kuchayishi va butun yurak soxasida tarkaladi. Bu og'riq bir necha kundan bir necha xafta va bir necha oygacha davom etishi mumkin, bu kasallikni kechishiga bog'liq. Qon tomirning kengaytiradigan dorilardan so'ng kamayadi. Bemorning ahvoli yallig'lanishga qarshi, desensibilizatsiya qiladigan preparatlardan keyin, yurak glyukozidlari, kaliy tuzlari, vitaminlarni bergandan keyin ancha yaxshilanadi.

Ba'zi bir bolalar xech qanday shikoyat qilishmaydi. Klinik va instrumental tekshirishlardan keyin tashxis-norevmatik kardit deb qo'yiladi.

Katta yoshdagagi bolalarda uchraydigan miokarditning erta kuzatiladigan klinik belgisiga taxikardiya, ba'zan bradikardiya yoki nafas aritmiyasi kiradi.

Katta yoshdagi bolalarda yurakdagi o‘zgarishlar o‘tkir boshlanmaydi. Ekstrakardial belgilarga kiradi: rangini oqorganligi, holsizlik ba’zi bolalarda shish paydo bo‘ladi.

Miokarditning asosiy belgilaridan biri yurak chegarasini kengayishidir. YUrak chegarasi ko‘pincha chapga kengaygan, ba’zan chapga va unga ba’zilaridan yuqoriga ham kengaygan.

Rentgenografiya qilganda yurak konfiguriyasi o‘zgargan, konturlari sillqlashgan, amplitudasi pasaygan, pulsatsiyasi aritmik yurak chegarasi kengaygan.

Eng ko‘p erta paydo bo‘ladigan belgilaridan (92%), bu yurak avtomatizmini buzilishi, 60% hollarda quzgalish funksiyasini ya’ni har xil ekstrasistoliyalardir.

Diagnoz: qo‘yishda aritmiyani bo‘lishi katta ahamiyatga ega, chunki ba’zan miokardni zararlanishi asosiy belgilaridan biri bo‘lishi mumkin.

FKG da xamma bolalarda sistolik shovqinni yozishi, ko‘pincha yurak uchida yoki IY qovurg‘a oralig‘ida chap to‘sh suyagining qirrasida.

Norevmatik kardit bilan kasallangan bemorlarni laborator tekshirish o‘tkazganda quyidagilarni aniqlash mumkin.

Gemogrammada – anemiya, leykotsitoz, ba’zan leykopeniya kuchli bo‘lmagan SOE, bular hammasi kasallikning o‘tkir davrining 2-3 haftasida kuzatiladi. Qondagi o‘zgarishlar miokarditga xos patogenetik o‘zgarishlarga kirmaydi, faqat klinik instrumental o‘zgarishlar bilan birgalikdagini diagnostikaga yordam berishi mumkin.

Bioximik tekshirish o‘tkazilganda DFA – ozgina ko‘paygan (202 – 216 ED), sialovaya kislota (0,228-0,243 ED), seromukoid albuminlar kamayadi, alfa 2 va gamma globulinlar ko‘payadi, asparagin va alanin transaminaza ishqoriy fosfatazalar oshadi.

Qon zardobida immunoglobulinlarni tekshirganda norevmatik kardit bilan kasallangan bemorlarda kasallikning o‘tkir davrida immunoglobulin A ni miqdori kamaygan, M va J ni miqdori oshgan bo‘ladi. Protsess pasaygandan sung immunoglobulin M va J ni konsentratsiyasi pasayadi.

Ba’zan bolalarda miokardit belgilari tibbiy ko‘rikda, sport mакtabiga olishda tekshirish natijasida aniqlanadi. YUrak chegarasini kattalashishi, yurak tonlarini o‘zgarganligi, sistolik shovqin aniqlanadi, lekin bemorning shikoyati bo‘lmaydi.

Surunkali kechadigan miokarditni klinik ko‘rinishi tez charchab qolishi, xolsizlik, sustlik, ko‘p terlaydi, xansirash yurak soxasida og‘riq, yurak urishi tezlashgan, ba’zan yopishqoq yutal, ayniqsa bemor yotgan paytida yo‘tal boshlanadi.

YUrak tonlari susaygan, taxikardiya. O‘pkasida qattiq nafas, quruq va xo‘l har xil kalibirli xirillashlar eshitiladi.

Rentgenogrammada yurak soyasini kengayganligi, chap bo‘lagi hisobida, kardiomegaliya.

EKG da ritmni buzilganligini aniqlanadi. Surunkali miokarditda aritmiya doimiy belgilardan biri hisoblanadi.

Surunkali kardit bo‘lishi mumkin: chap qorincha bo‘shlig‘ining kengayishi bilan va chap qorincha bo‘shlig‘ini kengayishi yoki normada bo‘lishi bilan.

Surunkali kardit chap qorincha bo‘shlig‘ini kengayishi bilan-shikoyati ishtaxani yo‘qligi, massasining kamayishi. Tipik belgilari taxipnoe, yurak uchi turtkisining susayganligi, yurak bukrisi, ba’zan yurak chegarasini kengayishi, sistolik shovqin, mitral klapinini etishmovchiligi, yurak ritmini o‘zgarganligi, jigarni kattalashishi. EKG da T tishchasini siljigani, 5-6 chetlanishda t tishchasini yo‘qligi. Ba’zan tashxis operatsiya paytida qo‘yiladi.

Miokarditni ba’zan Ebshteyn anomaliyasining sianoz bo‘lmagan shaklida o‘xshatiladi.

Rentgenda kardiomegaliya, yurak sharsimon, auskultatsiyada – yurak tonlari bo‘g‘iq, yurakni ritmi va o‘tkazuvchanligi buzilgan. Qiyosiy tashxisda quyidagi belgilarga ahamiyat beriladi: ya’ni ORVI yoki boshqa infeksiyalar bilan bog‘liq bo‘lmaganligi, o‘ng qorincha etishmovchiligi kuzatiladi, o‘pka gipertenziyasi kuzatilmaydi. Ebshteyn anomaliyasida EKG da o‘ng bo‘lmacha gipertrofiyasi Gisa tutamining o‘ng oyoqchasi to‘liq bo‘lmagan blokada kuzatiladi.

Eyzenmenger sindromi – bu tug‘ma paroklarga kiradi DMJP, ochiq arterial tug‘ma nuqsonida kuzatiladi. Ko‘pincha surunkali kardit bilan bemorlar shu diagnoz bilan tushadi. Bu ikki kasallikni quyidagi belgilari bir biriga yaqinllashtiradi: yuz teri koplamalarini ko‘karishi, barmoq uchlarini ko‘karishi, qattiq yurak tonlari, o‘pka arteriyasi ustida II-ton aksenti, o‘ng qorincha etishmovchiligi belgilari va gipertrofiya yurakning o‘ng bo‘lagini EKG da.

Surunkali karditga xos belgilar-kasallik belgisi 4-6 yoshdan keyin paydo bulishi, rentgenogrammada yurakdagi o‘zgarish noxosdan aniqlanadi. Tug‘ma porokda esa tug‘ilgan kunidan, o‘ng qorincha etishmovchiligi II-III darajasi kuzatiladi.

Eyzenmenger sindromiga sistolik shovqin xos emas, uch tabaqali klapan etishmovchiligi xos.

Kardiopatiya yoki miokardit kasalligida ko‘pincha koarktatsiya aorta va fibroelastoz kasalligi degan tashxis bilan tushadi. Umumiy belgilari – kardiomegaliya, o‘ng qorincha etishmovchiligi, yurak tonlarini bo‘g‘iqligi, shovqinni yo‘qligi. Lekin oyoqlarida pulsni judayam sustligi, qo‘llariga nisbatan, qo‘llarida A /D oshganligi, oyoqlarida pasaygani qiska dag‘al sistolik shovqin kurak ostida chapdan shularga asoslanib to‘g‘ri diagnoz qo‘yish mumkin.

Bolalarda norevmatik kardit bilan qon aylanishni buzilishi darajasiga va kasallikni kechish protsessiga qarab har xil bo‘ladi.

Qon aylanishning etishmovchilagini aniqlash uchun Belokon taklif kilgan tasnif /1979/ ishlataladi.

Norevmatik karditda qon aylanishini etishmovchiligi belgisi.

Darajasi	chap qorincha etishmovchiligi I daraja	qon aylanishi etishmovchiligi belgilari tinch holatda yo‘q, nagruckadan so‘ng taxikardiya yoki xansirash paydo bo‘ladi.	o‘ng qorincha etishmovchiligi jigir me’yorda Jigar 2-3 sm qovurg‘a
II daraja	YUrankni qisqarishi va nafas A	olishi bir minutda 15-30 % va 30-50 % ga ko‘payadi normaga nisbatan.	
II daraja	B	Bir minutda 30-50 % va 50-70% ga ko‘payadi normaga nisbatan, yo‘tal xo‘l xirillashlar o‘pkada, akrotsinoz.	
III daraja	YUrankni qisqarishi va nafas olishi	Jigar kattalashgan, bir minutda 50-60 va 70-100 % ga ko‘payadi normaga nisbatan, shishadi.	assit gidrotoraks

Differensial diagnostikasi.

Norevmatik kardit uchun xarakterli:

- Virusli infeksiya bilan doimiy-xronologik kontaktda bo‘lish.
- Kasallik latent davrining qisqaligi (5-7 kun) yoki bo‘lmasligi.
- Kasallikning sekin-asta rivojlanishi.
- Artralgiya va artritning bo‘lmasligi.
- Kardial shikoyatlarning faolligi va xilma-xilligi.
- Miokarditning klinik va EKG belgilarining mos kelishi.
- Valvulit (klapan zararlanishi) yo‘qligi.
- Perikarditning juda kam kuzatilishi.
- Kasallik debyutida astenizatsiya belgilarining bo‘lishi va termoregulyasiyaning buzilishi.
- Klinik belgilar bilan labarator tahlillarning mos kelmasligi
- YAllig‘lanishga qarshi davo muolajalardan ijobiy dinamikaning sekin bo‘lishi.

Kichik yoshli bolalarda NK ni TYUNlari, ya’ni atrioventrikulyar kommunikatsiyalarning to‘liq bo‘lmagan turlari, Ebshteyn anomaliyasi va magistral tomirlar transpozitsiyasi, operativ davolangandan keyingi holati bilan qiyoslash ancha murakkab jarayondir.

Atrioventrikulyar kommunikatsiya uchun xarakterli:

- Tembri va lokalizatsiyasi har xil bo‘lgan sistolik shovqinning bo‘lishi.

- O'ng qorincha va o'ng bo'lmachanining gipertrofiyasi.
- EKG da Giss tutami o'ng oyoqchasining noto'liq blokada bo'lishi.
- Rentgenoskopiyada o'pka rasmining qalilashishi va chap qorincha pulsatsiyasining kuchayishi kuzatiladi.

Ebshteyn anomaliyasi uchun xarakterli

- Kasallik paydo bo'lishi bilan o'tkazilgan O'RFI ning aloqador emasligi.
- O'pka gipertenziyasi kuzatilmagan holda o'ng qorincha etishmovchiligi belgilarining ustunligi.
- O'ng bo'lmachanining kattalashuvi.
- EKG da chap qorinchaning gipertrofiyasi va uning gipoksiyasi bo'lmasligi kuzatiladi.

Magistral tomirlar transpozitsiyasini korreksiyasidan keyingi holati uchun xarakterli:

- EKG da YUEO' ning chapga og'ishi
- Q tishchaning chap ko'krak uzatgichlarida bo'lmasligi, ayni paytda o'ng ko'krak uzatgichlarida borligi ko'rildi.

Katta yoshdagi bolalarda surunkali NK ni revmokardit bilan dif diagnostika qilish zarur bo'ladi.

Revmokardit uchun xarakterli:

- Kasallikning A-streptokokkli infeksiya bilan doimiy-xronologik bog'liqligi.
- Kasallik latent davrining 2-4 hafta bo'lishi.
- Kasalning yosh bo'lishi
- Kasallikning o'tkir yoki o'tkir osti boshlanishi.
- Kasallik debyutida artralgiya va artritning bo'lishi.
- Kardial shikoyatlarning "passiv" ligi.
- Valvulit yoki perikarditning miokardit bilan qo'shilib kelishi.
- Kardit belgilarini tez avj olishi.
- Kasallikning faol davrida klinik belgilarning labarator o'zgarishlar bilan mos kelishi kuzatiladi.

Davosi.

Ikki etapda olib boriladi:

1. shifoxonada – kasallikni o'tkir davrida yoki qo'zg'algan davrida.
2. poliklenika yoki sanatoriyada – davolashni davom ettirish.

Bemor o'tkir kardit bilan shifoxonaga tushgandan, davolash uchun quyidagilarni o'ziga asos qilib olish kerak.

1. Etiologik davolash.
2. Bemorni immunologik reaktivligiga ta'sir qilish.

3. YUrak qon tomir etishmovchilagini oldini olish.

Kasallikni o‘tkir davrida birinchi navbatda to‘shak rejimini 2-4 xaftaga joriy qilish.

Parxezi to‘liq, etarli darajada oqsil va vitaminlar, etarli miqdorda kaly tuzlari parxezda bo‘lishi kerak. Kaliy tuzlari ko‘proq qora mayizada, turshakda, anjirda bo‘ladi, ayniqsa bemor gormon olayotganda berish kerak.

Sutkalik suvning mikdori, chiqariladigan siydik miqdori bilan aniqlanadi (200-300 ml ga kam), o‘rtacha suvning sutkalik miqdori 400-600 ml bo‘lishi kerak.

Antibakterial terapiya 2-3 xaftada davomida beriladi, chunki kasallikni sababi virus-bakterial infeksiya bo‘lishi mumkin va kichik yoshdagি bolalarda asoratni oldini olish uchun beriladi.

Virusli karditlarni interval bilan davolash kerak, ayniqsa ORVI va gerpetik infeksiyada juda effekt beradi. Karditga yallig‘lanishga Qarshi va immunodepressiv xususiyatga ega gormonlarini berish axamiyatga ega.

Bemorlarga miokarditni og‘ir shaklida va qon aylanishini buzilishida kichik qon aylanish doirasida dimlanish belgilari bo‘lsa kislarod terapiyasini berish axamiyatga ega.

Virusli karditda kasallikni boshida interferon berish kerak 2 tomchidan burun yo‘liga har 2 soatda do 3 ml/ sutkasida. Grippga qarshi gamma globulin 1-2 dozada /0,2-0,3 ml/ kg 3 kun davomida .

Bakterial karditlarda-penitsillin, ampitsillin, oksatsilin bolaning yoshiga qarab 10-14 kun davomida.

Surunkali karditda infeksion – allergik bo‘lsa bitssillin 2-3 oy va undan ko‘proq vaqtida qilish kerak.

YAllig‘lanishga qarshi preparatlar infeksion-allergik kelib chiqishiga qarab beriladi.

Nosteroid preparatlar beriladi: aspirin 0,2 g yoshiga qarab, voltaren 3 mg/ kg massasiga, brufen 8-10 mg/kg massasiga sutkasiga, indometatsin 3 mg/kg sutkasiga. Prepart ichishga kuniga 3-4 marta beriladi.

O‘tkir miokarditni davolash kursi 4-6 xafta, o‘tkir osti va surunkali retsidiyli miokarditda 6-8 xafta va undan ham ko‘proq, sekinlik bilan dozasi miqdorini kamaytirilib boriladi, tutib turuvchi dozagacha.

Allergik miokarditda steroid gormonlarini berish tavsiya qilinadi. Steroid gormonlaridan-prednizolon 1-1,5 mg/kg massasiga. Davolash kursi har bir bemorga individual hisoblanib ko‘pincha 4-6 xafta davomida beriladi. Miokarditni og‘ir shaklida qon aylanishning buzilishi 2-3 darajasida steroid garmoni berish tavsiya etiladi. 1-2 mg/kg massasiga. Kursi 3-4 xafta davomida beriladi.

Giperkoagulyasiya belgilari bo‘lsa – DVS da heparin beriladi 100-150 ED/kg massasiga.

Trombotsitlarni adgeziya va agregatsiyasini kamaytiradigan preparat kurantil 3-5mg/kg kuniga yoki koantinol nikotinat vena ichiga yuboriladi.

